Annotatsoya *Qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari (QQQT) ko‘p qirrali qarorlarni qo‘llab-quvvatlashning ilmiy usullarini birlashtirgan asosiy vositalari hisoblanadi. Bunday tizimlar qo‘llab-quvvatlashning ilmiy usullarini axborot texnologiyalari fanlari usullari bilan birlashtiradi va ularning qo‘llanish sohalari kengayishiga olib keladi. QQQT ilg‘or hisoblash algoritmlari, noaniq ma’lumotlar, ma’lumotlarni intellektual tahlilini bipolyar noravshan mantiq orqali hisoblash yangi bosqichga olib keladi. Ushbu tizimlar katta ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilish, shablonlarni aniqlash va qimmatli ma’lumotlarni taqdim etish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, qaror qabul qiluvchilarga insonning kognitiv cheklovlari keng qamrovli tahlilga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan murakkab senariylarda ongli va strategik tanlov qilish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *noravshan to‘plamlar nazariyasi, bipolyar noravshan to‘plamlar, qaror qabul qilish, tasdiq, teorema, bipolyar to‘plam.*

Ushbu yo‘nalishdagi dastlabki jiddiy qadamlar Kaliforniya universitetining (Berkli) professori Lutfi Zoda (Lotfi Zadeh) tomonidan amalga oshirildi. Uning 1965 yilda Information and Control ilmiy jurnalining 8-sonida e’lon qilingan «Fuzzy Sets» nomli maqolasi odam aqliy faoliyatini modellashtirish ishlariga asos soldi va yangi matematik nazariyaning rivojlanishiga boshlang‘ich turtki bo‘ldi [1].

Bipolyar noravshan to‘plam nazariyasi ushbu $\{\forall(x,y)|(x,y)\in[-1,0]\times[0,1]\}$ to‘plamda aniqlanadi. Ushbu nazariyada ikki xil turdagi bipolar α-kesimlar olinadi. Bipolyar noravshan to‘plam nazariyasi qutblilik va noravshanlikni yagona modelga birlashtiradi va shuning uchun u bipolyar klasterlash, qarshiliklarni yo‘qotish va muvofiqlashtirish uchun nazariy asos yaratadi.

[3] maqola muallifi noravshan to‘plamlar nazariyasini taklif qildi, bu nazariya klassik to‘plamlarning kengaytirilgan shakli hisoblanib, haqiqiy qiymati to‘plamini {0, 1} dan [0, 1] ga kattalashtirish orqali o‘rnatiladi. Noravshan to‘plam - bu har bir obyekt uchun a’zolik darajalarining uzluksizligiga ega bo‘lgan obyektlar sinfidir. Ushbu usul taklif qilinganidan so‘ng ko‘plab tadqiqotchilar noravshan to‘plamlarni qaror qabul qilish muammolariga qadar kengaytirdilar. [2,4] maqola mualliflari tomonidan ishlab chiqilgan ideal yechimga yaqin yechimi ko‘p mezonli qaror qabul qilishning keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Ushbu usulning noravshan versiyasini [4] ishlab chiqdilar. [5] maqola mualliflari esa ushbu usulni noravshan guruh qarorlarini qabul qilish muammolariga qadar kengaytirdilar. [6] maqola mualliflari noravshan qaror qabul qilish muammosini aniq muammoga aylantirdilar va keyinchalik uni QQQT yondashuv usuli yordamida hal qildilar.

U universal top’lamdagi $\tilde{A}$ noravshan to‘plam *(fuzzy set)* deb ($\mu_{\tilde{A}}, u$) juftliklar majmuiga aytiladi, bunda $\mu_{\tilde{A}}$ - elementning $\tilde{A}$ noravshan to‘plamga tegishlilik darajasidir. Tegishlilik darajasi - [0, 1] oraliqdagi sondir. Tegishlilik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, universal to‘plamning elementi [2, 4, 6] noravshan to‘plamning xossalariga shunchalik ko‘proq darajada tegishli bo‘ladi.

1-ta’rif. $\langle U,Y\rangle$—dual juftlik berilgan bo‘lsin. $M\subseteq U$ qism to‘plamning $\langle U,Y\rangle$ ikki yoqlamalikka nisbatan noravshan polyar to‘plami deb

$$M^{o}_{\langle U,Y\rangle}=\left\{\begin{matrix} y\in Y:\mathrm{R}\left\langle \mu_{\tilde{A}}(u),\ \mu_{\tilde{A}}(y)\right\rangle \le \\ 1,\forall u\in M \end{matrix}\right\} \quad (1)$$

to‘plamga aytiladi. Dual juftlik haqida gapirilayotganligi ma’lum bo‘lgan hollarda $M^{o}_{\langle U,Y\rangle}$ **o‘rniga**

M^o *yoziladi.*

1-tasdiq. $\langle U,Y\rangle$-dual juftlik bo‘lsin. Quyidagi tasdiqlar o‘rinli:

I. $M_1 \subseteq M_2 \subseteq U \Rightarrow M_2^o \subseteq M_1^o \subseteq Y$;

II. Agar $M \subseteq U$ *bo‘lsa, u holda*

$$M^o = \left\{ y \in Y : \left| \langle \mu_{\tilde{A}}(u), \mu_{\tilde{A}}(y) \rangle \right| \le 1,\ \forall u \in M \right\};$$

III. *Agar* $M \subseteq U$ *-vektor qism fazo bo‘lsa, u holda* $M^o = M^{\perp}$;

VI. *Ixtiyoriy* $M \subseteq U$ *to‘plamning polyari* M^o *qavariq va* $\sigma\langle U,Y\rangle$*-yopiq;*

V. *Agar* $M \subseteq U$ *bo‘lsa, u holda* $M^o = \left(\overline{conv(M)}^{\sigma(U,Y)} \right)^o$

VI. Agar U *—xausdorf lokal qavariq fazosi,* $Y = U^*$ *va* $M \subseteq U$ *bo‘lsa, u holda* $M^o = \left(\overline{conv(M)} \right)^o$.

2-ta’rif. $\langle U,U^*\rangle$-dual juftlik berilgan bo‘lsin. $M \subseteq U$, U qism to‘plamning bipolyari deb $M^{oo} = (M^o_{\langle U,Y\rangle})^o_{\langle Y,U\rangle} \subseteq U$. to‘plamga aytiladi.

Ravshanki, hamma vaqt $M \subseteq M^{oo}$. Bundan tashqari, bundan (IV)-tasdiq $conv(M)^{\sigma(U,Y)} \subseteq M^{oo}$ kelib chiqadi.

Biz hozir isbotlaydigan ikkilyoqlmalik nazariyasining asosiy natijasi shuni ko‘rsatadiki, aslida oxirgi tenglikdan iborat.

2-tasdiq (dual juftliklar uchun bipolyar haqida). $\langle U,Y\rangle$ *- dual juftlik bo‘lsin. Ixtiyoriy* $M \subseteq U$ *qism to‘plam uchun* $M^{oo} = \overline{conv(M)}^{\sigma(U,Y)}$ *tenglik o‘rinli.*

[2] da bipolyar $\{-1,0\} \times \{0,1\}$ fazoda aniq bipolyar mantiq aniqlanadi. Ikkita ichki amal quyidagi rostlik jadvali orqali aniqlanadi. Shuningdek, aniq bipolyar mantiq Boolean mantiqqa qutblilikni qo‘shsa ham, u bipolyar noravshanlik bilan shug‘ullana olmaydi.

1-jadval

$\otimes$, $\oplus$, + va - bipolyar amallar

$\oplus$	(0,0)	(-1,0)	(0,1)	(-1,1)
(0,0)	(0,0)	(-1,0)	(0,1)	(-1,1)
(-1,0)	(-1,0)	(-1,0)	(-1,1)	(-1,1)
(0,1)	(0,1)	(-1,1)	(0,1)	(-1,1)
(-1,1)	(-1,1)	(-1,1)	(-1,1)	(-1,1)

$\otimes$	(0,0)	(-1,0)	(0,1)	(-1,1)
(0,0)	(0,0)	(0,0)	(0,0)	(0,0)
(-1,0)	(0,0)	(0,1)	(-1,0)	(-1,1)
(0,1)	(0,0)	(-1,0)	(0,1)	(-1,1)
(-1,1)	(0,0)	(-1,1)	(-1,1)	(-1,1)

Bipolyar noravshan mantiq qutblilik va noravshanlik tamoyillarini quyidagicha qanoatlantirishi lozim:

[2, 7] da manfiy-musbat-neytral(MMN) noravshan mantiq [-1;1] oraliqda aniqlangan. Ikkita ichki $\oplus$ va $\otimes$ amallar quyidagicha aniqlanadi:

$$(x.v) \oplus (u.v) = (\min(x.u), \max(y,v)); \quad (2)$$

$$(x.y) \otimes (u.v) = (\min(x \otimes u, x \otimes v, y \otimes u, y \otimes v)\ \ \max(x \otimes u, x \otimes v, y \otimes u, y \otimes v)); \quad (3)$$

Bu yerda $x, y, u, v \in [-1,+1]$, $x \le y$ va $u \le v$.

Yuqoridagi ta'rif qat'iy bipolyar hisoblanmaydi, chunki $x, x \in [-1,1]$ da qutblilik va noravshanlik tamoyilini buziladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bipolyar $[-1,0]\times[0,1]$ fazoda haqiqiy qiymat juftliklari ishlatilganda, (u,v) ning neytralligi $u+v$ sifatida o'lchanishi mumkin. Shuning uchun har qanday bipolyar mantiqiy qiymat $(x, y) \in [-1,0]\times[0,1]$ juftlik sifatida ifodalanishi mumkin. Bipolyar noravshan $(x, y), (u, v) \in [-1,0]\times[0,1]$ o'zgaruvchilar uchun quyidagi munosabat o'rinli:

$$(x, y) \oplus (u, v) \in (\min(x, u) \max(y, v));$$

$$(x, y) \otimes (u, v) \in (\min(x \otimes v, u \otimes v) \max(x \otimes u, y \otimes v)); \quad (4)$$

$$(\neg a, b) = (-1, -a, b), (a, \neg b) = (a, 1, -b),\ \neg(a, b) = (\neg a, \neg b) = (-1 - a, 1 - b). \quad (5)$$

Bipolyar noravshan mantiqqa misollar.

Shuni ta'kidlash kerakki, bipolyar taqqoslash mos ravishda ikki qutbning absolyut qiymatlariga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, bipolyar taqqoslashda ushbu (-0,3, 0,5)≤≤(-0,4, 0,5) munosabatlar o'rinli, chunki |-0,3|≤|-0,4| va 0,5≤0,5; (-0,4, 0,5) ≥≥ (-0,3,0,5) munosabatlar o'rinli, chunki |-0,4|≥|-0,3| va 0,5≥0,5; (-0,3, 0,8) ≤≥ (-0,4, 0,5) munosabatlar o'rinli, chunki |-0,3|≤|-0,4| va 0,8≥0,5; (-0,4. 0,5) ≥≤ (-0,3, 0,8) munosabatlar o'rinli, chunki |-0,4|≥|- 0,3[va 0,5≤0,8.

Bir qutbli holatda $\wedge, \times$, va Δ lar amallar termi bo'yicha $\wedge \ge \times \ge \Delta$ kabi [1,2], bipolyar T-normalar sifatida bipolyar amallar termi bo'yicha $\wedge \ge\ge \times \ge\ge \Delta$ kabi tartiblanadi.

Bir qancha tengliklar isbotlangan va 1-jadvalda keltirilgan, ular [7] da keltirilgan munosabatlarni kengaytiradi. 1-jadvaldagi munosabatlar haqiqiy qiymatli modellarni qat'iy sifat algebralari sifatida tasniflanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunda yutilish va De Morgan qonunlari aniqlanmagan.

2-jadval.

$\otimes$, $\oplus$, + va - bipolyar amallar uchun tengliklar

Daraja	"Muhimlik" o'lchovi	"Sifat" o'lchovi	BVFS qiymat
L1	O'ta muhim	O'ta pozitiv	$\langle 1,0 \rangle$
L2	Katta muhimlik	Mutlaqo pozitiv	$\langle 0.8,-0.2 \rangle$
L3	Juda muhim	Juda juda pozitiv	$\langle 0.6,-0.4 \rangle$
L4	Muhim		$\langle 0.6,-0.5 \rangle$
L5	O'rtacha	Pozitiv	$\langle 0.5,-0.5 \rangle$
L6	Ahamiyatsiz	Manfiy	$\langle 0.4,-0.6 \rangle$
L7	Muhim emas	Juda manfiy	$\langle 0.2,-0.6 \rangle$
L8	O'ta muhim emas	O'ta manfiy	$\langle 0,-1 \rangle$

Olib borilgan tadqiqotdan har bir xususiyat uchun obyektning ham xususiyatiga, ham qarshi xususiyatiga e'tibor qaratiladigan qaror qabul qilish vazifalarida mos keladigan qarshi xususiyat mavjud degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu maqolada biz qaror qabul qilish masalalarini yechish uchun baholash funksiyasini, qiymatini yaxshilash funksiyasi va ikki marta baholashni yaxshilash funksiyasi taklif qilindi. Barcha afzallik ma'lumotlari qaror qabul qiluvchi tomonidan qaror matritsasida taqdim etiladi, bu yerda har bir element baholash funksiyasini yaxshilash qiymati bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L. A. Zadeh, 1965, "Fuzzy sets," Information and control 8, 338–353.

2. Yousef Al-Qudah and Nasruddin Hassan Bipolar fuzzy soft expert set and its application in decision making// Int. J. Applied Decision Sciences, Vol. 10, No. 2, 2017.

3. Ротштейн А.П., Котелников Д.И. Идентификация неленейных завесимостей нечеткими базами знаний // Кибернетика и системный анализ. 1998. -№5. -С.53-61.

4. YinYang Bipolar Fuzzy Sets // Article in IEEE International Conference on Fuzzy Systems · June 1998.

5. M. Akram, G. Muhammad, and T. Allahviranloo, "Bipolar fuzzy linear system of equations," Computational and Applied Mathematics 38, 69, 2019.

6. W.-R. Zhang, "Bipolar fuzzy sets and relations: a computational framework for cognitive modeling and multiagent decision analysis," in Proceedings of the First International Joint Conference of The North American Fuzzy Information Processing Society, Biannual Conference. The Industrial Fuzzy Control and Intelligence (IEEE, 1994) pp. 305–309.

7. W.-R. Zhang, "(Yin)(Yang) bipolar fuzzy sets," in 1998 IEEE International Conference on Fuzzy Systems Proceedings. IEEE World Congress on Computational Intelligence (Cat. No. 98CH36228), Vol. 1 (IEEE, 1998) pp. 835–840.

TURIZMDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNING QO‘LLANILISHI.

Soatov Yusuf Xo‘jayor o‘g‘li
Toshkent iqtisodiyot uneversiteti, Toshkent, O‘zbekiston.
soatovyusuf@mail.com

Annotatsiya. So‘nggi yillarda turizm jadal rivojlanishi natijasida raqamli texnologiyalar va Raqamli platformalardan ko‘proq foydalanish bilan sayyohlik korxonalari o‘z mijozlariga yanada moslashtirilgan va samarali xizmatlarni taklif qilmoqdalar. Dunyo iqtisodiyoti raqamlashtirshga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Turistik xizmatlarni raqamli transformatsiya qilishdagi asosiy yondashuvlari bu turistik faoliyatning hozirgi kundagi holatini baholashdan boshlanadi. Ushbu maqolada biz turizm sektorini raqamli o‘zgartirishda turistik xizmatlarning nazariy va uslubiy asoslarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Raqamli transormatsiya, Raqamli xizmatlar, Raqamli marketing, Raqamli mijozlar, Raqamli xizmat dizayni.

O‘zbekistonda so‘nggi o‘n yillikda turizm industriyasining rivojlanishini tahlil qilar ekanmiz, ichki turizmni rivojlantirish borasida erishilgan yutuqlarni alohida takidlash joiz. Bu o‘zgarishlar mamlakatimizda innovatsion texnologiyalarning keng qo‘llanilishi va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda raqamli marketingning ko‘pincha "raqamli iqtisodiyot" deb hisoblashadi.Biroq,Turizmda raqamlshtirish qoniqarli emas. Sababi, raqamli marketing vositalarining juda ko‘plab turlari mavjud.Raqamli marketing qidiruvni optimallashtirish (SEO),qidiruvi tizimi marketingi (SEM) va havolani qurish kabi internet marketing texnikasining barchasini oladi. Bundan tashqari, qisqa masofali xabar almashishxizmati (SMS), multimedia xabarlashuv xizmati (MMS), bluetooth, Wi-Fi, mobiltelefonqo‘ng‘iroqlari,elektronkitoblar, optikdisklarva o‘yinlar kabi raqamli media kanallarni taqdim etadi[1].

Vizitka sayt–Kompaniyaning internetdagi «tashrif qog‘ozi» hisoblangan sayt u haqidagi eng muhim ma'lumotlarni taqdim qilishi kerak.

Sayt vizitkasi -sahifasiga tashrif buyurgan insonlarni kompaniya xizmatlari yoki mahsulotlari bilan tanishtirishdir.Bir sahifali sayt–Bir sahifali saytning boshqa nomi Landing Page. Sahifa foydalanish uchun qulay bo‘lib, mijozni kerakli ma'lumot bilan tanishtiradi.

Kompaniya sayti –Kompaniya saytiuning internetdagi shaxsiy sahifasi, murakkablik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin.

Bosh vazifasi –kompaniya haqidagi batafsil ma'lumotni boshqalarga taqdim etishdan iborat.

Internet do‘kon –Internet do‘kon yaratishsavdo hajmini oshirish uchun xizmat qiladi. U xaridorlarni jalb qiluvchi dizaynga ega bo‘lishi muhim[2].

Esklyuziv saytlar –Mutaxassislar esklyuziv saytustida noldan boshlab mehnat qilishadi. O‘ziga xos kontent va dizayn ishlab chiqiladi, shu sababli uning narxi ham boshqa saytlardan biroz yuqoriroq bo‘ladi[3].

Turizm sanoatini raqamlashtirish kelajagini tahlil qilish, oflayn ofislari bo‘lgan an'anaviy kompaniyalarni turizm bozoridan siqib chiqarishning keyingi jarayoni, har bir aniq mijoz tomonidan individual ravishda o‘rnatilgan parametrlar bo‘yicha turlar dizaynini ishlab chiqish bilan birga keladi. Shunday qilib, raqobatdosh ustunlik iste'molchilarga sayohat xizmatlarini ko‘rsatishda moslashtirish jarayonini eng yaxshi amalga oshira oladigan sayyohlik tashkilotlariga beriladi. Raqamli iqtisodiyotni iqtisodiy faoliyat sifatida qabul qilish mumkin, bu erda raqamli shakldagi ma'lumotlar ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida ishlatiladi, shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlarniqayta ishlash, shundan so‘ng ular tahlil qilish uchun ishlatiladi.

Boshqaruvning ko‘proq tanish shakllari bilan solishtirganda, bu usulda ishlab chiqarishning ayrim turlari, texnologiyalar va uskunalarning samaradorligiga ta'sir ko‘rsatish mumkin. Booking.ru tadqiqotiga asoslanib, dunyo aholisi sun'iy intellekt, aqlli texnologiyalarga qiziqish bildirmoqda. Bugungi kunda chat-botlar jonli muloqotni maslahatchi bilan almashtirishi mumkin, chunki ular foydalanuvchilarning turli savollariga javob berishga qodir, masalan, Kayak -chatbot aviachiptalarni xarid qilishdan foydalanuvchining mavjud byudjetini hisobga olgan holda tavsiyalar va sayohat bo‘yicha maslahatlar beradi. Kerakli joylarga sayohat qilish uchun tavsiyalar Biroq, mobil qurilmalar va mobil ilovalardan foydalanish sayyohlik korxonalarining ishini sezilarli darajada soddalashtiradi, chunki mijozlarga xizmat ko‘rsatish sohasida shaxsiylashtirish tashkilotlarga mijozlar xarajatlari tarkibi, ularning afzalliklari haqida kerakli ma'lumotlarni to‘plash imkonini beradi. va qiziqishlar, shuningdek, turli marketing tadqiqotlarini o‘tkazish imkonini beruvchi boshqa ma‘lumotlar, natijada ko„rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanadi

Zamonaviy turistlar o‘z safarlarini amalga oshirish jarayonida ko‘plab ilovalardan foydalanishadi. Bunda ular, chiptalar xarid qilishda, joylashtirish vositasini bron qilishda, umuman, destinatsiya haqida ma’lumot olish va boshqa shu kabi savollarga javob topishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri zamonaviy ilovalardan foydalanishadi.

Turistlar uchun mo‘ljallangan ilovalar.

Mobil ilova turlari Mos mobil ilovalar

1.Bronlashtirish: dasturlari Trivago,Booking.com,Tripadvisor

2.Elektron xaritalar: Google maps, Yandeks karti

3.Tarjimon ilovalar: Google tarjimon, Yandeks perevodchik, Triplingo

4. Navigatsion ilovalar: Waze, Yandex.navigato

5.Avi aqatnovlar: uchun ilovalarApp in the Air

XULOSALAR.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ayni damda raqamli texnalogiyalar har sohada shiddat bilan ilgarilab bormoqda. Aynan turizm orqali vaqt va xarajatlarni tejash bilan bir paytda mijozlar sonini katta tezlikda oshirish mumkinligi juda quvonarli holatdir. Turizm sektorida ham raqamli marketing boshqa sohalarda bo‘lgani singari ahamiyatlidir. Shu sababdan barcha rivojlangan davlatlar singari biz ham internet yordamida mamlakatimizda turizm sohasini yanada rivojlantirishimiz lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kates,Matthew.Making digital and traditional marketing work together. Econsultancy (17апреля2013)

2. Tourism Research 2020. https://doi.org/10.3390/su12197975 Abdushukurovich, A.A., Sayfullayevna, Y.Z., Toshmurzayevna, R.D. Organization of digital labor directions, principles and approaches. Asian.

3. Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(2), pp.45-51

QASHQADARYO VILOYATINING TURIZM SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI VAQTLI QATOR BO‘YICHA TEKISLASH USULLARI

Abduvaliyev A.A.[1], Navruzova M.A.[1], Boltayev A.H.[1], Jo‘raqobilova R.I.[1]
[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali, Qashqadaryo, O‘zbekiston.
aaasror@umail.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlarini vaqtli qator bo‘yicha tekislash usullari ishlab chiqilgan hamda davrlar oralig‘ini kengaytirish va sirg‘anchiqli o‘rtacha hisoblari taklif qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Qashqadaryo viloyati, vaqtli qatorlar tekislash usullari, turizm, xizmat ko‘rsatishlar, Davrlar oralig‘ini kengaytirish va sirg‘anchiqli o‘rtachalar.*

Turizmni rivojlantirish prognozi alohida mintaqa va umuman mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohani rivojlantirish prognozining ajralmas qismi hisoblanadi. Iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va turizm sohasi o‘rtasidagi o‘zoro bog‘liqlik, ayrim tarmoqlarning o‘sish sur’atlarini rag‘batlantirish orqali aholi turmush darajasining o‘sishiga olib keladi va potensial iste’molchilarning to‘lov qobilyati hamda turizm xizmatlariga talabning oshishiga yordam beradi.

Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha jami xizmat ko‘rsatilganlar ko‘rsatkichlari 2015-2023-yilladagi statistik ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu maqolada 2015-2023-yilladagi statistik ma’lumotlar asosida Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari bo‘yicha jami xizmat ko‘rsatilagnalarning ko‘rsatkichlarni vaqtli qator bo‘yicha sirg‘anchiqli o‘rtacha tekislash usulini amalga oshirdik. Buning uchun quyidagi (1-jadval) ni tuzib olamiz:

1-jadval

Yillar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Jami xizmat ko‘rsatilganlar soni	116,0	148,1	151,7	160,2	163,5	57,1	81,4	120,4	140,5

Ushbu jadvaldagi ma’lumotlarni vaqtli qator bo‘yicha tekislash usullarini quyidagi ko‘rinishlari bilan ko‘rib chiqamiz.

- ***davrlar oralig‘ini (3 yillik) kengaytirish;***
- ***sirg‘anchiqli o‘rtachalarni hisoblash;***
- ***analitik tekislash.***

Davrlar oralig‘ini kengaytirish va sirg‘anchiqli o‘rtachalarning hisobini quyidagi (2-jadval) da keltiramiz:

2-jadval

Yillar	Jami xizmat ko‘rsatilganlar soni	3-yillik qiymati	O‘rtacha yillik qiymati	Sirg‘anchiq o‘rtacha darajalarini hisoblash	Sirg‘anchiq o‘rtacha qiymat
2015	116,0			-	-
2016	148,1			(116,0+148,1+151,7):3	138,6
2017	151,7	415,8	138,6	(148,1+151,7+160,2):3	153,3
2018	160,2			(151,7+160,2+163,5):3	158,4
2019	163,5			(160,2+163,5+57,1):3	127,0
2020	57,1	380,7	126,9	(163,5+57,1+81,4):3	100,6

2021	81,4			(57,1+81,4+120,4):3	86,3
2022	120,4			(81,4+120,4+140,5):3	143,5
2023	140,5	342,3	114,1	-	-

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki sirg'anchiq o'rtachalar hisoblangan qator miqyosida jami xizmat ko'rsatilganlar qiymati dinamik ravishda o'zgarib turgan yo 'nalishiga ega ekanligini ko'rish mumkin. Butun jahon global pandemiyasi tufayli mutassil o'sib borish dinamikasini o'zgaruvchan holatgan olib keldi.

Vaqtli qatorlarida mavjud tendensiyani aniqlashning eng muhim usullaridan biri-analitik tekislashdir. Bunday sharoitda dinamika qatori quyidagi tenglama bilan tekislanadi:

$$Y_t = a_0 + a_1 t$$

bu yerda: t-vaqt birligi; a_0-nazariy daraja; a_1-tenglama parametrlari. Va parametrlarni aniqlash uchun quyidagi tenglamalar sistemasini yechish talab etiladi.

$$\begin{cases} a_0{}^n + a_1 \sum t = \sum Y \\ a_0 \sum t + a_1 \sum t^2 = \sum Y \cdot t \end{cases}$$

Agar ∑t=0 bo'lsa, u holda tenglamamiz quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$\begin{cases} a_0{}^n = \sum Y \\ a_1 \sum t^2 = \sum Y \cdot t \end{cases} \rightarrow \begin{cases} a_0 = \dfrac{\sum Y}{n} \\ a_1 = \dfrac{\sum Y \cdot t}{\sum t^2} \end{cases}$$

Ushbu tenglamalar sistemasini a_0 va a_1 parametrlarni topib olamiz va quyidagi tenglamalar hosil bo'ladi

$$a_0 = \frac{\sum Y}{n} = \frac{1138,9}{9} = 126,5,\ a_1 = \frac{\sum Yt}{\sum t^2} = \frac{-228,7}{60} = -30$$

Demak, $Y_t = a_0 + a_1 t$, tenglamadagi a_0 va a_1 tenglamalarni hisoblash uchun, $\sum Y$ $\sum t^2$ va $\sum t$ aniqlash kerak.

Endi olingan qiymatlarni o'z o'rniga qo'ysak u holda tenglamamiz quyidagi ko'rinishga keladi:

$$Y_t = 126,5 + (-3,8)_t$$

Biz yuqoridagi tenglamadan foydalanib hisob-kitoblarni vaqt birligi, vaqt birligini kvadrati, jami xizmat ko'rsatilganlar sonini vaqt birligiga ko'paytmasini hamda formulasini quyidagi (3-jadval)da ko'rsatib o'tamiz:

Yillar	Jami xizmat ko'rsatilganlar soni	t	t^2	*Yt*	*Yt=126,5+(-3,8)·t*
2015	116,0	-4	16	-464	*Y_t=126,5+(-3,8)·(-4)=140,1*
2016	148,1	-3	9	-444,3	*Y_t=126,5+(-3,8)·(-3)=136,7*
2017	151,7	-2	4	-303,3	*Y_t=126,5+(-3,8)·(-2)=133,3*
2018	160,2	-1	1	-160,2	*Y_t=126,5+(-3,8)·(-1)=129,9*
2019	163,5	0	0	0	*Y_t=126,5+(-3,8)·(0)=126,5*
2020	57,1	1	1	57,1	*Y_t=126,5+(-3,8)·((1)=123,1*
2021	81,4	2	4	162,8	*Y_t =126,5+(-3,8)·(2)=119,7*
2022	120,4	3	9	361,2	*Y_t =126,5+(-3,8)·(3)=116,3*
2023	140,5	4	16	562	*Y_t=126,5+(-3,8)·(4)=112,9*

∑	1138,5	0	60	-228,7	1138,5

Xulosa qilib aytish mumkinki Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlarini vaqtli qator bo‘yicha tekislash usullari hamda ishlab chiqishda 3 ta parametrlar bo‘yicha tekislash ishlari olib borildi.

- davrlar oralig‘ini (3 yillik) kengaytirish;
- sirg‘anchiqli o‘rtachalarni hisoblash;
- analitik tekislash.

Natijada davrlar oralig‘ini kengaytirish va sirg‘anchiqli o‘rtacha hisoblari vaqtli qator miqyosida jami xizmat ko‘rsatilganlar qiymati dinamik ravishda o‘zgarib turgan yo ‘nalishiga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Butun jahon global pandemiyasi tufayli mutassil o‘sib borish dinamikasini o‘zgaruvchan holatga ega ekanligini ko‘rishimiz munkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.S.Tuxliev, A.Abduvaliyev “Yangi o‘zbekistonda raqamli texnologiyalar orqali turizmning multiplikativ samarasini oshirish imkoniyatlari”. “Markaziy Osiyo mintaqasida turizmni rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. QarDU 2022 yil 26 may.

2. Dougherti K. Introduction to ekonometrics– New York. Oxford University Press. 2011.

3. James H. Stock, Mark W. Watson. Introduction to Econometrics. Third edition. Addison-Weslay. 2011.

4. Абдуллаев А.М., Ходиев Б.Ю., Ишназаров А.И. Эконометрика: Учебник. – Т.: ТГЭУ. 2007.

5. Shadmanova G. Iqtisodiy matematik usullar va modellar.Darslik..-T.TIQXMMI. 2013.

MIJOZLAR VA DASTURCHILAR O‘RTASIDA BIZNES ALOQALARINI O‘RNATISH UCHUN DASTURIY TA’MINOTNI ISHLAB CHIQISH

Bobonazarov A.A.[1], Daurov O. A.[1]

[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari Samarqand filiali, Samarqand. O‘zbekiston.

akmalbobo1991@gmail.com, odilbekdaurov@gmail.com

Annotatsiya: *mazkur ishda dasturchilar va mijozlar o‘rtasida mustahkam biznes aloqalarini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minotni ishlab chiqishning ahamiyati o‘rganiladi. Innovatsion texnologik yechimlar orqali bunday dasturiy ta’minot uzluksiz aloqa, hamkorlik va loyihalarni boshqarishni osonlashtiradi. Taklif etilayotgan loyiha faqat dasturcilar va mijozlar o‘rtasidagi biznes aloqalarni o‘rnatishga qaratilgan bo‘lib, loyihalarni boshqarish vositalari va qayta aloqa mexanizmlariga e’tibor qaratilgan va dasturiy ta’minotni muvaffaqiyatli ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan asosiy xususiyatlarni o‘rganadi.*

Kalit so‘zlar: *dasturchilar, dasturchi va mijozlar, biznes aloqa, frilanser, Django,*

Dasturchilar uchun biznes aloqalarini o‘rnatishni online shaklga o‘tkazish dasturchi va mijozlarning o‘z vaqtlarini ortiqcha sarflamaslik, har xil favqulotda vaziyatlarda ish jaroyonida uzilishlar bo‘lmasligini ta’minlash, dasturchilar o‘rtasida sog‘lom raqobatni rivojlantirish va mijozlar uchun tanlov imkoniyatlarini yaratish kabi masalalarni yechishga yordam beradi. Biz XXI asr axborot texnologiyalar asrida yashayotgan ekanmiz yuqoridagi masalarni yechish davr talabi hisoblanadi.

Raqamli davrda dasturchilar va mijozlar o‘rtasidagi samarali aloqa dasturiy ta’minot loyihalari muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Mijozlarning talablarini tushunish, yangilanishlarni taqdim etish va xatoliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish samarali hamkorlikning muhim tarkibiy qismidir. Raqamli aloqaning ahamiyatini anglagan holda, dasturchilar va mijozlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni osonlashtirish uchun tobora ko‘proq innovatsion platformalarga murojaat qilinmoqda. Tizim Python dasturlash tili asosida qurilgan, ommabop MVC(Model-

View-Controller) freymvorklaridan biri hisoblangan Django vositasida ishlab chiqilgan bo‘lib, ishlash tezligi, xavfsizligi va zamonaviyligi bilan ajralib turadi[2].

Hozirda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan frilanserlar va mijozlar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlayotgan platformalar Upwork va Freelancer.com loyihalaridir[5].

Ilgari Elance-oDesk nomi bilan tanilgan Upwork dunyodagi eng katta va eng yaxshi tashkil etilgan freelancing platformalaridan biridir. 2015-yilda ishga tushirilgan Upwork millionlab ro‘yxatdan o‘tgan frilanserlar va turli sohalarni qamrab olgan korxonalarga ega. Platforma dasturlash va ishlab chiqish, dizayn, yozish, marketing va ma’muriy yordamni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli xizmatlarni taklif etadi[5].

Freelancer.com - bu ko‘plab fanlar bo‘yicha frilanserlar bilan biznesni bog‘laydigan yana bir mashhur freelancing platformasi. 2009-yilda tashkil etilgan Freelancer.com shiddat bilan rivojlandi va hozirda mijozlar va frilanserlarni o‘z ichiga olgan keng foydalanuvchi bazasiga ega. Upwork singari, Freelancer.com ham turli xil xizmatlarni taklif qiladi, bu uni frilanserlar va turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan biznes uchun mos qiladi[6].

Dasturchilar va mijozlar o‘rtasidagi muloqotni amalga oshiruvchi milliy loyiha quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Ish beruvchilar tomonidan o‘zida mavjud ish o‘rinlari haqida e’lon berish;
- Dasturchilar o‘zlarining ish tajribalari haqida to‘liq ma’lumot berish;
- Dasturchilar o‘zlariga mos deb bilgan ish o‘rinlari uchun ariza yuborishlari va ariza natijasi haqida ish beruvchi tashkilotdan javob olish;
- Dasturchilar va mijozlar o‘rtasida fikr almashish uchun chat tashkil etish;

Tizimga kirish uchun ikki xil rol mavjud: Dasturchi va ish beruvchi.
Dasturchi o‘z ish tajribasi haqida ma’lumot qo‘shish va mavjud vakansiyalarga ariza yuborish mumkin.

Mijoz va dasturchilar o‘rtasida biznes aloqalarini o‘rnatish tizimining strukturasi keltirilgan:



1-rasm. *Tizim strukturasi*

Ish beruvchi o‘zida mavjud bo‘sh ish o‘rinlari haqida e’lon berishi va dasturchilardan kelgan arizalarga javob yozishi mumkin.

Ish beruvchi tashkilot shaxs yoki tashkilot o‘zidagi mavjud bo‘sh ish haqida e’lon berish uchun quyidagi 9 ta maydonni to‘ldirishi kerak.



2-rasm. Bo‘sh ish uchun e’lon berish bo‘limi.

Har qanday shaxs tizimdan ro‘yxatdan o‘tishi va tizimda o‘z faoliyatini olib borishi mumkin. Tizimga kirish uchun har bir foydalanuvchi o‘zining shaxsiy parollariga ega bo‘ladi. Ro‘yxatdan o‘tish uchun belgilangan formani o‘zining ma’lumotlari bilan to‘ldirishi yoki google akkaunt orqali amalga oshirish mumkin. Mijozlar platformadan foydalanishda muammoni to‘liq va batafsil yoritib bera olish, buyurtmalar uchun dasturchilarni shaffof tarzda tanlash, loyiha jarayonini kuzatib borish, va har bir bosqichda fikr-mulohazalar berish afzalliklarga ega bo‘lishadi.
Berilgan e’lonlar quyidagi bo‘limda ko‘rinadi:



3-rasm. *Vakansiyalar bo‘limi*

Tizimda dasturchilar va mijozlar o‘rtasida xabarlar almashish imkoniyati ham mavjuddir. Bu yerdagi xohlagan vakansiyani ustiga bosish orqali u haqida to‘liq ma`lumot olish mumkin:



4-rasm. *Vakansiya haqida to‘liq ma`lumot.*

4-rasmdagi ariza berish tugmasini tugmasini bosish orqali dasturchi shu ish uchun ariza yuborishi mumkin yoki save tugmasini bosish orqali ishni saqlab qo‘yishi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dasturchilar va mijozlar o‘rtasidagi biznes aloqalari uchun ushbu platforma zamonaviy biznes uchun katta imtiyozlar beradi. Hamkorlik uchun markazlashtirilgan platformani taqdim etish orqali ushbu dasturchilar va mijozlar o‘rtasidagi muloqotni oson bajarilishiga, shaffoflikni oshirishga va mijozlar ehtiyojini qondirishga yordam beradi. Mijozlar va dasturchilar muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida samarali muloqotga ustuvor ahamiyat berishda davom etar ekan, bunday platformalarni qabul qilish tobora kengayib boradi[1]. Djangoning asos sifatida ko‘p qirrali va kengayishi bilan dasturchilar o‘zlarining ehtiyojlariga moslashtirilgan mustahkam aloqa yechimlarini yaratishi mumkin, bu esa yuqori samaradorlik, innovatsiyalar va o‘sishga yo‘l ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J. Abdullo Mukammal dasturlash 1: Html va CSS – Toshkent 2021.
2. Antonio Melé Django 4 By Example: Build powerful and reliable Python web applications from scratch Packt Publishing 2022
3. William S. Vincent - Django for Beginners: Build websites with Python and Django, 2018.
4. https://www.djangoproject.com/
5. https://www.upwork.com/
6. https://www.freelancer.com/

ПРОЕКТИРОВАНИЕ MIMO АНТЕННЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОГРАММЫ МОДЕЛИРОВАНИЯ

Мирзокулов Х.Б.[1], Исматуллаев Ж.И.[2]
Самаркандский филиал Ташкентского университета информационных технологий,
Самараканд, Узбекистан

Антенна — это преобразователь, который преобразует электрическую энергию в электромагнитные волны и наоборот. Антенну можно использовать как передающую или приемную антенну.

• Передающая антенна – это антенна, которая преобразует электрические сигналы в электромагнитные волны и излучает их.

• Приемная антенна – это антенна, которая преобразует электромагнитные волны принятого луча в электрические сигналы.

• При двусторонней связи одна и та же антенна может использоваться как для передачи, так и для приема.

В настоящее время антенны претерпели множество изменений в соответствии с их размерами и формой. Существует множество типов антенн в зависимости от их применения.

В радиосвязи технология «множественный вход и множественный выход», или MIMO, представляет собой использование нескольких антенн как на передатчике, так и на приемнике для улучшения характеристик связи. Это одна из нескольких форм технологии современных антенн.

Технология MIMO привлекла внимание в беспроводной связи, поскольку она обеспечивает значительное увеличение пропускной способности данных и дальности связи без дополнительной полосы пропускания или мощности передачи. Это достигается за счет более высокой спектральной эффективности (больше битов в секунду на герц полосы пропускания) и надежности или разнесения линии связи (уменьшения замираний). Благодаря этим свойствам MIMO является важной частью современных стандартов беспроводной связи, таких как IEEE 802.11n (Wi-Fi), 3GPP Long Term Evolution, WiMAX и HSPA+.



Рис.1. *Антенная система SISO и MIMO [1].*

MIMO можно разделить на три основные категории: с предварительным кодированием, с пространственным мультиплексированием или с разнесенным кодированием. Предварительное кодирование — это многопоточное формирование луча в самом узком определении. В более общих чертах считается, что это вся пространственная обработка, происходящая в передатчике. При (одноуровневом) формировании луча один и тот же сигнал излучается каждой из передающих антенн с соответствующим взвешиванием фазы (а иногда и усиления), так что мощность сигнала максимизируется на входе приемника. Преимущества формирования диаграммы направленности заключаются в увеличении усиления принимаемого сигнала за счет конструктивного суммирования сигналов, излучаемых разными антеннами, а также в уменьшении эффекта замирания из-за многолучевого распространения. В отсутствие рассеяния формирование луча приводит к четко определенной диаграмме направленности, но в типичных сотовых системах обычные лучи не являются хорошей аналогией.

Когда приемник имеет несколько антенн, формирование диаграммы направленности передачи не может одновременно максимизировать уровень сигнала на всех приемных антеннах, и используется предварительное кодирование с несколькими потоками. Обратите внимание, что предварительное кодирование требует знания информации о состоянии канала (CSI) в передатчике. Пространственное мультиплексирование требует настройки антенны MIMO. При пространственном мультиплексировании сигнал с высокой скоростью

разделяется на несколько потоков с более низкой скоростью, и каждый поток передается от другой передающей антенны в одном и том же частотном канале. Если эти сигналы поступают на антенную решетку приемника с достаточно разными пространственными характеристиками, приемник может разделить эти потоки на (почти) параллельные каналы. Пространственное мультиплексирование — очень мощный метод увеличения пропускной способности канала при более высоких отношениях сигнал/шум (SNR). Максимальное количество пространственных потоков ограничено меньшим количеством антенн на передатчике или приемнике.

Пространственное мультиплексирование может использоваться как со знанием канала передачи, так и без него. Пространственное мультиплексирование также может использоваться для одновременной передачи нескольким получателям, что известно как множественный доступ с пространственным разделением каналов.

Путем планирования приемников с различными пространственными характеристиками можно гарантировать хорошую разделяемость. Методы разнесенного кодирования используются, когда на передатчике нет информации о канале. В методах разнесения передается один поток (в отличие от нескольких потоков при пространственном мультиплексировании), но сигнал кодируется с использованием методов, называемых пространственно-временным кодированием. Сигнал излучается каждой из передающих антенн с полным или почти ортогональным кодированием. Разнесенное кодирование использует независимое замирание в нескольких антенных каналах для улучшения разнесения сигналов.

Параметры антенны анализируем в программе моделирования CST Studio Suite. Конструкция модели антенны представлена на рис.2. Конструкция антенны [2] состоит из двух патч антенн и метаматериала установленной по середине между антеннами.



а) б)

Рис.2. *Модель проектируемой антенны, а) патч антенна с одним компонентом метаматериала; б) патч антенна с тремя компонентами метаматериала.*

В первом случае патч-антенна проектируется с использованием одного элемента метаматериала рис.2 (а), во втором случае добавлени еще два элемента метаматериала при этом они установлены в 16 мм от поверхности антенны Рис.2(б). При меньшей дистанции между антенной и метаматериалом она выполняла роль экрана и уменьшала значения распростроняемой электромагнитной волны.

В ходе иммитационного моделирования антенны получены следующие результаты диаграммы направленности рис.3.



а) б)

Рис.3. *Диаграмма направленности а) при 3-х метаматериалах и б) при одном компоненте метаматериала.*

На основе полученных данных можно сделать следующие выводы что при увеличении числа антенн можно антенну сделать более направленной, на рис.3 представлены результаты для антенны с одним метаматериалом рис.3(а) где значения электромагнитного поля основного лепестка составляет 7.44 dBi и с тремя метаматериалами рис.3(б) где значения электромагнитного поля увеличивается до 8.04 dBi.

References

1. Sheriff, N.; Kamal Abdul Rahim, S.; Tariq Chattha, H.; Kim Geok, T. Multiport Single Element Mimo Antenna Systems: A Review. Sensors 2023, 23, 747. https://doi.org/10.3390/s23020747

2. Iqbal, A.; A Saraereh, O.; Bouazizi, A.; Basir, A. Metamaterial-Based Highly Isolated MIMO Antenna for Portable Wireless Applications. Electronics 2018, 7, 267. https://doi.org/10.3390/electronics7100267

3. Olmasov A., Salakhitdinov A., Mirzokulov K. International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2021, 2021

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING IQTISODIYOT TARMOQLARIDA QO‘LLANILISHI

Kuvandikova.D.K., Azbergenova.A.Q., Azbergenova.N.K.
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali,Nukus,O‘zbekiston
kuvandikovadamegul@gmail.com, aygerim1802@gmail.com nurgulazbergenova05@gmail.com

Annotatsiya. *Raqamli iqtisodiyot- bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida amalga oshirish tizimidir. Makolada raqamli iqtisodiyotning ba’zida internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanilishi, uning mazmun-mohiyati oddiy tushunchalar asosida bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar. *Raqamli iqtisodiyotda elektron shartnoma, konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, tarqatish, boshqarish, sug‘urtalash, kraud-fanding shuningdek, «blokcheyn» texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish ko‘zda tutilgan.*

Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida «2020-Yil-Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili» deb e'lon qilindi. Shundan keyin xalqimizda «raqamli iqtisodiyot» atamasi, bu atamaning mazmun-mohiyati bo'yicha qiziqishlar paydo bo'la boshladi.

1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negriponte «Raqamli iqtisodiyot» terminini amaliyotga kiritdi. Hozirgi kunda bu atamani butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar-deyarli barcha qo'llanmoqda.

Raqamli iqtisodiyot atamasi mazmun-mohiyatini tushunish uchun unung oddiy iqtisodiyotdan farqi nimaligini chuqur anglash kerak. Buni oddiy misollarda tushunishga harakat qilamiz.

Masalan, xoridorga payabzal kerak. Uni bozorga tushub o'zi bebosita tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu an'anaviy iqtisod. Telegramdagi biron bir savdo boti orqali o'ziga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron tizimda to'lash va tovarni etkazib berish xizmati orqali olish- raqamli iqtisodiyot deyiladi.

Bu masalani eng sodda maishiy misol orqali tushuntirishdir. Aslida hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalanamiz. Masalan, oyliklarimiz plastik kartalarga tushadi, elektron to'lov orqali kommunal xizmatlar telefon, internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to'lov qilamiz, elektron tarzda soliq deklaratsiyasi topshiramiz, kartadan-kartaga pul o'tkazamiz, uyga taom buyurtma qilamiz va hokazo.

Raqamli iqtisodiyot-bu noldan boshlab lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir.

Uning belgilari- yuqori darajada avtomatlshtirganlik, elektron hujjat almashinuvi, buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi, ma'lumotlar elektron bazalari CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi, korporativ tarmoqlar.

Raqamli iqtisodiyot qulaylikari - to'lov uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo'l kira va boshqa resurslar tejaladi), tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi, raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta, fidbek (iste'molchi fikri)ni tez hisobga olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi, tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari- raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir.

Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va «qora iqtisodiyot» ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday paytda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitim tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qoyadi. Ma'lumotlar ko'pligi va tizimliligi yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada mablag'larni o'g'irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yoki yashirib ko'rsatish imkoni qolmaydi. Bu esa iqtisodiyotga legal mablag'lar oqimini oshiradi, soliqlar o'z vaqtida va to'g'ri to'lanadi, byudjet taqsimoti ochiq bo'ladi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar o'g'irlanmaydi, maktablar, kasalxonalar, yo'llarga ajratilgan pullar to'liq etib boradi va hokazo.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi bo'yicha shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda foydalanuvchilar oziq-ovqat mahsulotlariga buyurtma berish uchun telegram botlaridan faol foydalanmoqdalar. Shuningdek, turli internet dokonlar, elektron to'lov tizimlari ham faol rivojlanib bormoqda. Demak, fuqoralarimiz elektron bitimlarni amalga oshirishga ishonyaptilar. Faqat hozirgi kungacha foydalanuvchilar katta xarajatlar talab qilmaydigan kichik bitimlarni amalga oshirmoqdalar, o'rtacha xarid hajmini oshirishga esa unchalik tayyor emaslar. Endigi masala o'rtacha va yirik iqtisodiy bitimlar va moliyaviy operatsiyalarni raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirishni rivolantirishdan iborat.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi bir qancha ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Raqamli iqtisodiyotning asoschisi ma'lum ma'noda bizning ajdodlarimiz bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Buyuk matematik Muhammad-al Xorazmiy bundan 1200 yil burun

zamonaviy unli hisoblash tizimini yaratish va muammolarni yechishda algoratmik, ya‘ni tizimli yondashish orqali raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos tamal toshini qo‘yib bergandi. Bu bilan nafaqat ilm-fan, ta’limda, balki kundalik turmush, ayniqsa, iqtisodiyotda hisob-kitobni tezroq bajarish imkoni tug‘ilgan. Ayni paytda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun imkoniyatlar, shart-sharoitlar etarlicha, shuning bilan birga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda.

Atab aytadigan bo‘lsak, Prezidentimiz tomonidan ko‘plagan qarorlar qabul qilinmoqda, shuningdek, Respublikamiz miqyosida, raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlantirish mavzusiga bag‘ishlangan bir qancha ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazilib kelinmoqda.

2030 yilga qadar «Raqamli O‘zbekiston» konsepsiyasini ishlab chiqish yuzasidan ham chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash, shunigdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish maqsadida 2018 yil 3 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3832-son Qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning navbatdagi muhim vazifalari sifatida- investitsion va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikasiya qilish uchun kriptoaktivlar aylanmasi sohasida turli faoliyatlarni, jumladan, turli kriptovalyutalarda yangi birliklar va komission yig‘imlar formatida mukofot olish imkonini beruvchi yangi bloklar yaratish va taqsimlovchi platformalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha faoliyat, smart kontraktlar- raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish bo‘yicha huquq va majburiyatlar bitilgan elektron shartnoma, konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, tarqatish, boshqarish, sug‘urtalash, kraud-fanding (jamoaviy-moliyalashtirish), shuningdek, «blokcheyn» texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, malakali kadrlarni tayyorlash, kriptovalyutalar va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, bu borada huquqiy bazani yaratish kabilar nazarda tutilgan.[1]

Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo‘nalishlarni ochib beradi. Oqibatda katta hajmdagi ma’lumotlarni almashinish va ularni to‘plash paydo bo‘ldi, bu esa, o‘z navbatida, to‘plagan axborotlarni qayta ishlashga, kelajakni qura bilishga, asoslangan qarorlar qabul qilishga va xilma-xil usullarda foyda olishga imkon yaratib beradi.

Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilishi lozim:

1.Raqamli iqtisodiyotga butkul o‘tish uchun shart-sharoit yaratib berilishi darkor.

2. Raqamli iqtisodiyot nima uchun zamon talabiga aylanib borayotganligi va uning istiqbollari, imkoniyatlari haqida aholiga tushuntirish ham muhim sanaladi.

3.Elektron tijorat (online savdo) ishtirokchilari o‘rtasidagi raqobatni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish lozim.

4.Yosh kadrlarni ushbu sohaga jalb qilish, «Raqamli» davlatlarning oliygohlarida o‘qitib, malaka oshirishlariga ko‘maklashish yaxshi natijalarga erishishga imkon yaratish mumkin.[2]

Bu ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish bo‘yicha Mamlakatimiz Prezidenti huzuridagi Loyiha milliy agentligi raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish sohasida vakolatli organ bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari Iqtisodiyot, Moliya, Axborot texnologiyalari, Adliya vazirliklari va boshqa qator davlat tuzilmalari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun o‘ziga xos mas’uliyat va vazifalarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi 2020 yil, 25 yanvar.

2. Gulyamov S.S., Ayupov R.X, Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. - T.: TMI, «Iqtisod-Moliya» nashriyoti, 2019.

3. Internet saytlari:
4. http://mitc.uz/uz/news/view/1186
5. https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html

RAQAMLI TEXNALOGIYALARNING IJTIMOIY HAYOTIMIZDAGI AHAMIYATI

Jiyanov O.P.[1], Kayumov A.A.[2], Turabayev A.T.[3], Majidov H.A.[4]
[1,2,3,4]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali
01051987oybek@gmail.com, Alibektolmasovich@gmail.com.

Annotatsiya: *“XXI asr texnalogiya asri” dir. Hozirgi kunda nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoning rivojlangan mamlakatlarida raqamli texnalogiyalardan juda ham ko‘p ijtimoiy sohalarda foydalanilmoqda. Chunki bu orqali hayotimizga ko‘plab qulayliklar kirib kelmoqda. Ushbu maqolada biz “Raqamli texnalogiya” o‘zi nima?, Qanday afzalliklari bor? kabi qiziqtirgan savollarga javob olamiz.*

Kalit so‘zlar: *3D texnalogiya, raqamli sxema, sun‘iy intellekt, blokcheyn.*

Raqamli texnologiyani o‘zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo‘jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo‘lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an’anaviy xo‘jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni. masofaviy meditsina xizmatlari ko‘rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarm saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.

Raqamli texnologiya (inglizcha: *Digital technology*) – signallarni uzluksiz spektr shaklida emas, balki analog darajadagi diskret diapazonlarda ko‘rsatishga asoslangan texnologiyadir.

Ushbu texnologiyalarning barcha darajalari diapazonda bir xil signal holatini ifodalaydi. Raqamli texnologiya analogdan farqli o‘laroq, uzluksiz emas, balki diskret signallar bilan ishlaydi. Bundan tashqari, signallar kichik qiymatlar to‘plamiga ega, odatda ikkita. Haqiqiy hayotda tizimlar, ayniqsa, buxgalteriya hisobini saqlash tizimlari uchta ma’noga asoslanadi. Odatda bular 0 va 1 bo‘lib, ular mantiqiy algebrada mos ravishda “False”, “True” qiymatlariga ega va null mavjud bo‘lganda “natija yo‘q”. Raqamli sxemalar asosan va, yoki, emas va hokazo kabi mantiqiy elementlardan iborat bo‘lib, hisoblagichlar va flip-floplar bilan ham bog‘lanishi mumkin. Raqamli texnologiyalar asosan raqamli elektronikada, birinchi navbatda kompyuterlarda, elektrotexnikaning turli sohalarida, masalan, o‘yin mashinalari, robototexnika, avtomatlashtirish, o‘lchash asboblari, radio va telekommunikatsiya qurilmalari va boshqa ko‘plab raqamli qurilmalarda qo‘llaniladi.

Raqamli texnologiyalar, ya’ni kompyuterlar, internet, smartfonlar, va boshqa qurilmalar, ijtimoiy hayotimizga ko‘plab sohalarida katta tasir qilmoqda. Bu texnologiyalar kommunikatsiya, bilim, ish, ma'rifiy bozorlar, ijtimoiy aloqalar, va o‘quv jarayonlari kabi turli sohalar bo‘yicha o‘zgarishlarga olib kelmoqda.

Aloqa va Uzluksizlik: Internet orqali aloqa ko‘payishi, insonlar orasidagi uzluksiz aloqani osonlashtiradi. Sotsial media orqali insonlar do‘stlar bilan, oilaviy a'zolar bilan, va dunyodagi boshqacha insonlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishlari osonlashadi.

O‘quv jarayonlari: Teknologiyalar o‘quv jarayonlarini ham o‘zgartirdi. Virtual darsliklar, online o‘quv platformalari, va o‘quv dasturlari o‘quvchilar uchun yanada muvofiqlik yaratdi.

Ma’rifiy bozorlar: Internetning rivojlanishi bilan, ma’rifiy xizmatlar internet orqali oson tarzda erkin ravishda ko‘rsatilmoqda. Kitoblar, maqolalar, darsliklar, va hattoki kurslar internet orqali kirishimiz uchun ochiq.

Ish hayoti: Raqamli texnologiyalar, ish hayotini ham o‘zgartirdi. Bir necha sohalar o‘rganish uchun internet fursatlari, masalan, freelance ishlar, uzoq masofadagi ish yoki ish haqida ma’lumotlar, ko‘paygan.

Ma’rifiy zamonaviylik: Insonlar, yangi texnologiyalar orqali ma’lumotga tezroq, osonroq, va muntazam kirishadi. Bu esa ularning ma’rifiy zamonaviyliklarini oshiradi va shaxsiy rivojlanishlari uchun muhimdir.

Bundan tashqari, bu texnologiyalar xavfsizlik, muammo va intizomni o‘z ichiga oladi. Bunday, insonlar, kompaniyalar, va hokimiyatlar bu texnologiyalarning foydali tomonlarini kuchaytirish uchun sozlash kerak.

Raqamli texnologiyaning tarkibiy tuzilishida uchta omil asos hisoblanadi (avtomatlashtirilgan kompyuter, sun‘iy intellekt va umumiy ma‘lumotlar ba‘zasi). Bular inson omilidan tashqarida kechadigan texnologiyalashish jarayonini yuzaga keltirdi. Ya‘ni “raqamli iqtisodiyot”, “raqamli boshqaruv”, “raqamli tibbiyot”, “raqamli madaniyat”, “raqamli ta‘lim”, “raqamli xizmat ko‘rsatish” va hokazolar shular jumlasidan.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo‘lgani singari kabi paqamli texnologiyalarni soliq ma'murchiligida joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Bu nafaqat soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lib qolmay, balki deklaratsiyalarni taqdim etishdan tortib, to soliqlarni to‘lash va ma’lumotlarni saqlash usullarigacha ham yangilikliklar kirityapti.

Yangi texnologiyalarning afzalliklari: Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlar sog‘liqni saqlash, transport, mudofaa va milliy xavfsizlik kabi ko‘plab sohalarda sun’iy intellekt afzalliklaridan foydalanib kelmoqda. Price waterhouse Coopers (PwC) konsalting kompaniyasi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, global sun'iy aql 2030-yilga kelib jahon iqtisodiyotiga 15,7 milliard trillion AQSH dollarimiqdorida hissa qo‘shishi kutilmoqda. Bu jahon yalpi ichki mahsulotini 26 foizga o‘sishiga olib keladi.

Raqamli texnologiyalar taraqqiy etgan asrda eng muhim omil bu ma’lumotlar hisoblanadi. Ularni to‘plab, o‘rganishlar asosida xulosalar chiqarishda Big Data texnologiyasining ahamiyati katta. Undan ko‘pincha salmoqli ma’lumotlarning prognozli tahlillariga yoki ma’lumotlardan qiymat chiqarib olishning boshqa usullariga murojaat qilishda ham foydalaniladi. Big Data texnologiyalaridan olinadigan daromadlar yildan yilga o‘sib bormoqda. U 2019-yilda 189,1 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 274,3 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. AQSH, Avstraliya kabi mamlakatlarda katta hajmli ma’lumotlar texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish bo‘yicha maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilgan. Avstraliyaning dasturi – “Smarter Data” aqlli ma’lumotlar deb nomlanadi. U xatarlarni baholash, tahlil qilish, soliq to‘lovchilarning doimiy ravishda yangilanib turadigan profillarini yaratish, ma’lumotlardan turli maqsadlarda foydalanishni avtomatlashtirish, shuningdek, mazkur tahlil jarayonlari uchun katta hajmli ma’lumotlardan foydalanishga asoslangan. Mazkur texnologiya Blokcheyn texnologiyasi bilan birgalikda qo‘llanganda katta miqdordagi operatsiyalarni bajarish, QQSni (manfiy summasini) qaytarish va transchegaraviy operatsiyalarni kuzatish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lessons in Electric Circuits – Volume IV (Digital) Digital Logic Simulator v0.4 – Brad-Ware Studios' free program that supports real-time edit and simulation of digital logic gates.

2. CEDAR Logic Simulator – Free Digital Logic Simulation CAD Tool DiGironimo, N. (2011). What is technology. Investigating student conceptions about the nature of technology. International Journal of Science Education, 33(10), 1337-1352.

3. Carlsson, B. (2004). The Digital Economy: what is new and what is not? Structural change and economic dynamics, 15(3), 245-264.

4. Xoshimova, D., & Parpieva, R. (2020). Zamonaviy ta‟limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (1), 157-162.

5. Hilbert, M. (2022). Digital technology and social change: the digital transformation of society from a historical perspective. Dialogues in clinical neuroscience.

6. Acs, Z. J., Song, A. K., Szerb, L., Audretsch, D. B., & Komlosi, E. (2021). The evolution of the global digital platform economy: 1971-2021. Small Business Economics, 57, 1629-1659.

7. Urokova Sharofat Bahodir qizi, & Shakirova Dildora Bahadirovna. (2022). ENRICH EDUCATIONAL CONTENT THROUGH MULTIMEDIA RESOURCES USING DIGITAL TECHNOLOGIES. Conference Zone, 220-221.

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА: РЕВОЛЮЦИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ В МИРЕ БИЗНЕСА

Нормуродов У.З.[1]

[1]Самаркандский филиал Ташкентского университета информационных технологий им. Мухаммада ал-Хорезми, Самарканд, Узбекистан

Аннотация: *Цифровая экономика стала основным двигателем прогресса в современном мире, перевернув традиционные модели бизнеса и открыв новые горизонты для инноваций и развития. В данной статье мы рассмотрим ключевые аспекты цифровой экономики, ее влияние на бизнес и общество, а также прогнозируемые тренды и вызовы в этой области.*

Введение:

Цифровая экономика стала определяющей силой современного мира, охватывая все аспекты бизнеса и общественной жизни. Это явление отражает не только переход к использованию цифровых технологий, но и изменение способов мышления, взаимодействия и создания ценности в экономике. В этой статье мы рассмотрим, как цифровая экономика преобразует сферу бизнеса и открывает новые возможности для компаний и предпринимателей.

Основные аспекты цифровой экономики:

1. Технологические инновации и развитие бизнеса:

Цифровая экономика стимулирует инновации и создает новые возможности для развития бизнеса. Технологии, такие как искусственный интеллект, аналитика данных, интернет вещей и блокчейн, изменяют способы производства, маркетинга, продаж и управления компаниями.

2. Улучшение клиентского опыта:

Цифровые технологии позволяют компаниям улучшить клиентский опыт, предлагая персонализированные продукты и услуги, улучшенное обслуживание клиентов и более удобные способы взаимодействия с потребителями.

3. Глобальные возможности и вызовы:

Цифровая экономика расширяет границы бизнеса, позволяя компаниям работать на мировом рынке и привлекать клиентов из разных стран. Одновременно с этим, это создает новые вызовы, такие как конкуренция на мировом рынке, кибербезопасность и управление данными.

4. Цифровизация традиционных отраслей:

Цифровая экономика переформатирует традиционные отрасли, такие как здравоохранение, образование, финансы и транспорт, изменяя способы предоставления услуг и взаимодействия с клиентами.

Заключение:

Цифровая экономика представляет собой не только технологическую революцию, но и новую эпоху для бизнеса и общества в целом. Компании, осознавая потенциал цифровых технологий, могут использовать их для улучшения эффективности, роста и развития. Однако, для успешного преобразования необходимо учитывать вызовы, такие как кибербезопасность, управление данными и социальные аспекты цифровизации. Цифровая

экономика также представляет собой огромный потенциал для инноваций, роста и развития. Понимание ключевых аспектов этой области поможет компаниям и предпринимателям использовать цифровые технологии для достижения своих целей и обеспечения конкурентоспособности в быстро меняющемся мире.

Литература:

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). “The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies.” W. W. Norton & Company.

2. Parker, G. G., Van Alstyne, M. W., & Choudary, S. P. (2016). “Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy – And How to Make Them Work for You.” W. W. Norton & Company.

3. Ross, A. (2017). “The Industries of the Future.” Simon & Schuster.

4. McAfee, A., & Brynjolfsson, E. (2017). “Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future.” W. W. Norton & Company.

5. World Economic Forum. (2020). “The Future of Jobs Report 2020.”

6. McKinsey Global Institute. (2019). “The Digital Economy 2019: Trends, Opportunities, and Challenges.”

7. European Commission. (2020). “Digital Economy and Society Index (DESI) Report.”

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ZAMONAVIY BANK XIZMATLARI, ULARNING MOHIYATI VA TURLARI

Shamsiyeva Yulduz Olimovna
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi doktoranti,
Toshkent, O‘zbekiston
olimovnayulduz@gmail.com

Annotatsiya: *bank tizimi iqtisodiyotning “qon aylanish tizimi” bo‘lib, aslida moliya sektorining uzluksiz ishlashi orqali milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqarorligini ta’minlaydi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bank sektori eng so‘nggi raqamli texnologiyalarni joriy etishda to‘xtamasligi lozim chunki raqamlashtirish bank mahsulotlari va xizmatlari iste’molchilarining sodiqligini oshiradi, moliya-kredit tashkilotlari kapitalining daromadliligini oshiradi. Banklar tomonidan raqamli yechimlarning zamonaviy rivojlanishi va qo‘llanilishini tahlil qilish rivojlanish trayektoriyasini kuzatish, ijobiy va salbiy holatlarni aniqlash imkonini beradi. Batafsil o‘rganish asosida bank sektorini yanada rivojlantirish va uni raqamlashtirish yo‘llarini ishlab chiqish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *bank sektorini raqamlashtirish, moliyaviy va texnologik yechimlar, bank kreditlari, raqamli banklar.*

Raqamli iqtisodiyotdagi zamonaviy bank xizmatlarining tabiati samaradorlik, qulaylik va ilg‘or texnologiyalarni birlashtirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan an’anaviy bank shakllaridan raqamli bank shakllariga o‘tishni o‘z ichiga oladi. Ushbu evolyutsiya raqamli to‘lov tizimlaridan tortib blokcheyn va sun’iy intellektdan foydalanishgacha bo‘lgan turli xil zamonaviy bank xizmatlarini joriy etdi, bu raqamli bank modeliga tubdan o‘tishni anglatadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy bank xizmatlarining mohiyati, bank sohasining texnologik yangiliklarni qabul qilishi va mijozlarga yangi, qulay, tezkor va xavfsiz moliyaviy xizmatlar taqdim etish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar, internet va mobil aloqa vositalarining rivojlanishi bilan banklar o‘z xizmatlarini yanada kengroq auditoriyaga yetkazish, mijozlarning moliyaviy operatsiyalarni bajarish jarayonini soddalashtirish va ularning ehtiyojlariga moslashuvchanroq javob berish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy bank xizmatlari asosiy mohiyatini turlicha ta’riflash mumkin. Masofaviylik va qulaylik raqamli bank xizmatlarining asosiy xususiyatlaridan

biri hisoblanadi. Raqamli bank xizmatlari mijozlarga istalgan joydan va istalgan vaqtda bank xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu, jumladan, onlayn hisobraqamlarni boshqarish, pul o‘tkazish, to‘lovlarni amalga oshirish va kreditlarga ariza berishni o‘z ichiga oladi. Bu konseptsiya zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan bir qatorda, mijozlar ehtiyojlarining o‘zgarishini ham aks ettiradi:

Onlayn hisobraqamlarni Boshqarish ya’ni mijozlar o‘z bank hisobraqamlarini internet orqali boshqarishlari mumkin, bu esa ularning moliyaviy ma’lumotlariga istalgan vaqtda va har qanday qurilmadan kirish imkonini beradi. Bu, shuningdek, hisobraqam balansini tekshirish, o‘tkazmalar tarixini ko‘rish va hisobraqam sozlamalarini boshqarishni o‘z ichiga oladi.

Pul o‘tkazish, bunda raqamli bank xizmatlari orqali mijozlar o‘zaro va boshqa shaxslar hisobraqamlariga tez va oson pul o‘tkazmalari amalga oshirishlari mumkin. Bu jarayon mobil ilovalar yoki veb-saytlar orqali bir necha daqiqada yoki hatto soniyalarda bajarilishi mumkin. Xalqaro pul o‘tkazmalari ham shu qulaylik bilan amalga oshiriladi, bu esa geografik chegaralarni deyarli yo‘qqa chiqaradi.To‘lovlarni amalga oshirish ya’ni, komunal to‘lovlar, kredit to‘lovlari, soliqlar va boshqa turli xil to‘lovlarni amalga oshirish uchun raqamli bank xizmatlaridan foydalanish mumkin. Bu jarayon an’anaviy to‘lov usullariga qaraganda ancha tez va qulaydir, chunki u uchun bankka borish yoki pochta orqali to‘lov amalga oshirish zarurati yo‘q.Kreditlarga ariza berish, Raqamli bank xizmatlari orqali kreditlarga ariza berish jarayoni ham soddalashtirilgan. Mijozlar kerakli hujjatlarni skanerlab, onlayn tarzda topshirishlari va kredit bo‘yicha qaror olish uchun kutishlari mumkin. Bu jarayon an’anaviy bank tizimlarida ko‘plab vaqt va sa’y-harakatlarni talab etadigan jarayonlarni sezilarli darajada qisqartiradi.

Bu xususiyatlar raqamli bank xizmatlarining o‘sishini va keng tarqalishini rag‘batlantiradi, chunki ular mijozlarga moliyaviy operatsiyalarni qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, tez va qulay bajarish imkonini beradi. Raqamli bank xizmatlarining bu aspektlari, ayniqsa, pandemiya davrida va undan keyingi davrda, odamlar uchun juda qimmatli bo‘ldi, chunki u ularning xavfsizligini ta’minladi va ko‘plab insonlar uchun zarur bo‘lgan masofaviy moliyaviy xizmatlarni taqdim etdi. Raqamli bank xizmatlarining ushbu afzalliklari kelajakda ham mijozlarning bank bilan o‘zaro munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tezkorlik va Samara raqamli bank xizmatlarining yana bir asosiy ustunligi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi nafaqat mijozlarga qulaylik yaratish, balki moliyaviy operatsiyalarni ancha tezroq va samaraliroq amalga oshirish imkoniyatini ham beradi. Raqamli xizmatlar an’anaviy bank amaliyotlariga qaraganda tezroq amalga oshiriladi. Misol uchun, pul o‘tkazmalari soniyalar ichida bajarilishi mumkin, kreditlar esa an’anaviy bank tizimlariga qaraganda ancha tezroq ko‘rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalar orqali pul o‘tkazmalari deyarli real vaqtda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, bank ichida yoki hatto turli banklararo elektron pul o‘tkazmalari bir necha soniyalar yoki daqiqalar ichida bajariladi. Bu, mijozlarning pul mablag‘larini tezkor tarzda o‘tkazish ehtiyojlarini qondiradi va zarurat tug‘ilganda mablag‘larga tezda kirish imkonini beradi. Raqamli platformalar orqali xalqaro pul o‘tkazmalari ham tez va qulay amalga oshirilishi mumkin. An’anaviy usullar bilan solishtirganda, bu jarayon ancha qisqa vaqt talab etadi va odatda yuqori komissiyalarni talab qilmaydi. Kreditlarning tez ko‘rib chiqilishi ya’ni jarayonning avtomatlashtirilishi orqali esa, raamli banklar kredit arizalarini ko‘rib chiqish jarayonini avtomatlashtiradi, bu esa qog‘ozbozlikni kamaytiradi va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Sun’iy intellekt va algoritmik tahlil qo‘llanilishi natijasida, kredit arizalari bir necha soat ichida yoki hatto daqiqalarda ko‘rib chiqilishi mumkin.

Tezkor qarorlar qabul qilishda ham raqamli platformalar orqali taqdim etilgan ma’lumotlar tahlili mijozlarning kredit tarixi, daromadi va boshqa muhim omillarni tezda baholash imkonini beradi. Natijada, mijozlar tezkor qarorlar olishadi, bu esa ularning moliyaviy rejalashtirishini ancha yengillashtiradi. Bundan tashqari raqamli bank xizmatlari jarayonlarning shaffofligini ta’minlaydi, mijozlar kredit maqomini onlayn kuzatib borishlari va kerakli hujjatlar va ma’lumotlarni tezkor tarzda taqdim etishlari mumkin. Bu kabi tezkorlik va samaradorlik, raqamli bank xizmatlarini nafaqat mijozlar uchun, balki banklar uchun ham juda jozibador qiladi. Banklar operatsion xarajatlarni kamaytirish, mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish va bozorda

raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Raqamli bank xizmatlarining bu jihatlari moliya sohasidagi innovatsiyalarning muhim qismi hisoblanadi va kelajakda ham ushbu sohada yangiliklarni rag‘batlantirishda davom etadi.

“Shaxsiylashtirish” raqamli bank xizmatlarining muhim bir aspekti bo‘lib, mijozlarning individual ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvni ta’minlaydi. Bu yondashuv, raqamli texnologiyalarning qobiliyatidan foydalangan holda, har bir mijozning o‘ziga xos xususiyatlarini va moliyaviy xatti-harakatlarini tushunishga asoslanadi. Raqamli texnologiyalar banklarga mijozlarining xatti-harakatlarini tahlil qilish va ularning ehtiyojlariga eng mos keladigan mahsulot va xizmatlarni taklif etish imkonini beradi. Bu, mijozlarga yanada shaxsiylashtirilgan bank tajribasini taqdim etadi.

Bundan tashqari banklar mijozlar bilan aloqada bo‘lishda ham shaxsiylashtirishdan foydalanadilar. Mijozning afzalliklari va odatlariga mos keladigan muloqot uslublari va marketing materiallari tanlanadi, bu esa mijozning bank bilan o‘zaro ta’sirini yanada ma’noli va samarali qiladi. Raqamli bank ilovalari va veb-saytlari mijozlarning shaxsiy afzalliklariga moslashuvchan bo‘lishi mumkin, bu ularning foydalanish tajribasini yanada qulay va samarali qiladi. Mijozlar uchun eng ko‘p foydalaniladigan xizmatlar va funksiyalar asosiy interfeysda ko‘rsatiladi. mijozlar qoniqishining oshirilishi uchun esa shaxsiylashtirish orqali mijozlar o‘z ehtiyojlariga eng mos keladigan xizmatlar va mahsulotlarni olishadi, bu esa ularning qoniqish darajasini oshiradi va bankka bo‘lgan sodiqligini mustahkamlashga yordam beradi. Raqamli bank xizmatlarining shaxsiylashtirilishi esa mijozlarga ularning moliyaviy qarorlarini yanada oqilona va asoslangan tarzda qabul qilishlariga yordam beradi. Shaxsiylashtirish strategiyalari raqamli bank xizmatlarining asosiy qismi bo‘lib, mijozlar va banklar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada samarali va ma’noli qiladi. Raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan shaxsiylashtirish, mijozlarga yuqori darajada qulaylik va qoniqish ta’minlaydi, shu bilan birga, banklar uchun ham mijozlar bazasini kengaytirish va ularga sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” https://www.lex.uz

2. O.M.Abdullayev, A.A.Fattaxov, K.Axmedov “Raqamli iqtisodiyot”, Toshkent, 2018.

3. Deng, X.; Xuan, Z.; Cheng, X. FinTech va Barqaror rivojlanish: P2P ma'lumotlariga asoslangan Xitoydan olingan dalillar. Barqarorlik, 2019.

4. R.H.Ayupov “Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar”, O‘quv qo‘llanma, 2020.

5. https://www.pressebox.com/pressrelease/gartner-uk-ltd/Gartner-Says-Worldwide-Enterprise-Ma'lumotnomalar

RAQAMLI IQTISODIYOTNI TURIZMGA TRANSFORMATSIYASI

Mamayev E.Sh.
Muhammad al- Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston
mamayevelyor55@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi transformatsiyasini tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt, blokcheyn, big data, va virtual hamda aralash haqiqat kabi yechimlar turizm sohasida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Maqolada bu texnologiyalar qanday qilib turizmni yanada samarali va mijozlar uchun qulay qilayotgani, shuningdek, iste’molchilar, tadbirkorlar va hukumatlar uchun yaratayotgan imkoniyatlar muhokama qilinadi. Sun’iy intellektning mijozlarga yordam berishdagi roli, blokcheynning shaffoflik va ishonchlilikni oshirishdagi ahamiyati, big dataning iste’molchi xulq-*

atvorini tahlil qilishdagi qobiliyati, va virtual hamda aralash haqiqatning sayohatchilar tajribasini qanday o‘zgartirayotgani kabi mavzular ko‘rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, raqamli transformatsiyaning turizm sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ta’siriga ham e’tibor qaratadi. Raqamli iqtisodiyotning turizmdagi transformatsiyasi, turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqmoqda va bu o‘zgarishlar jamiyat va iqtisodiyot uchun keng ko‘lamli foyda keltirmoqda.

Kalit so‘zlar: *Raqamli iqtisodiyot, turizm, transformatsiya, sun’iy intellekt, blokcheyn, big data, virtual haqiqat, aralash haqiqat, mijozlar uchun qulayliklar, shaffoflik, ishonchlilik, iste’molchi xulq-atvori, ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir.*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar butun dunyo bo‘ylab turizm sohasini tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Raqamli iqtisodiyot, o‘zining innovatsion yechimlari bilan, turizmni yanada samarali va mijozlar uchun qulay qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Bu maqola raqamli texnologiyalar qanday qilib turizmni transformatsiya qilayotganini va bu o‘zgarishlar iste’molchilar, tadbirkorlar hamda hukumatlar uchun qanday imkoniyatlar yaratayotganini o‘rganadi.

Raqamli texnologiyalar va turizm

Raqamli texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt, blokcheyn, big data, va virtual hamda aralash haqiqat kabi yechimlar turizm sohasida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bular iste’molchilarga moslashuvchan sayohat rejalashtirish, shaxsiylashtirilgan tajribalar va yanada qulay sayohat xizmatlarini taklif etish orqali turizm sohasining rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda.

Sun’iy intellekt

Sun’iy intellekt texnologiyalari, chatbotlar va yordamchi robotlar orqali mijozlarga 24/7 yordam berish imkonini yaratmoqda. Masalan, AI tahlili sayohatchilarga eng yaxshi narxlarni topish, mehmonxonalar va parvozlar bo‘yicha tavsiyalar berish va sayohat jadvalini optimallashtirishda yordam bermoqda. Sun’iy intellekt (AI) va machine learning texnologiyalaridan foydalanib, iste’molchilar xatti-harakatlarini tahlil qiluvchi va ularning ehtiyojlariga mos sayohat paketlari va takliflarni ishlab chiqish. Bu yondashuv, mijozlarga shaxsiylashtirilgan sayohat tajribasini taklif etish orqali turizm sohasida raqobatbardoshlikni oshiradi.

Algoritm: K-nearest neighbors (KNN), qaror daraxtlari, va random forest algoritmlari.

Qo‘llanilishi:

Mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan sayohat takliflari yaratish.

Mijozlar feedback’ini tahlil qilish va xizmat sifatini yaxshilash.

Blokcheyn texnologiyasi

Blokcheyn texnologiyasi esa, turizm sohasida shaffoflik va ishonchlilikni oshirishga yordam bermoqda. Masalan, blokcheyn yordamida mehmonxona bronlari va aviachiptalar uchun to‘lovlar amalga oshirilganda, mijozlar va agentliklar o‘rtasidagi bitimlar xavfsiz va oshkoralik bilan bajariladi. Blokcheyn texnologiyasini qo‘llash orqali turizm sohasida shaffoflikni ta’minlash va mijozlar hamda xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasidagi ishonchni oshirish. Xavfsiz to‘lov tizimlari, shuningdek, bron qilish jarayonlarini avtomatlashtirish, bu orqali mijozlarning vaqtini tejash va ularning talablarini bajarish darajasini oshirish mumkin.

Algoritm: Hash functions va cryptographic algorithms (masalan, SHA-256, RSA).

Qo‘llanilishi:

Mijoz ma’lumotlarini himoya qilish va tranzaksiyalarning shaffofligini ta’minlash.

Mehmonxona bronlari va aviachiptalar uchun to‘lovlar amalga oshirilganda bitimlar xavfsizligini ta’minlash.

Big Data

Big Data esa, turizm kompaniyalari uchun iste’molchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish va ularning ehtiyojlarini oldindan bilish imkoniyatini beradi. Bu esa, kompaniyalarga moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan takliflar yaratishda yordam bermoqda. Turizm sohasida yig‘ilgan katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali iste’molchilarning ehtiyojlarini aniqlash va bozor

tendensiyalarini oldindan bashorat qilish. Bu yondashuv, turizm tashkilotlariga o‘z xizmatlarini va marketing strategiyalarini optimallashtirish imkonini beradi.

Algoritm: MapReduce, streaming algorithms, va machine learning algoritmlari (masalan, clustering algorithms).

Qo‘llanilishi:

Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish.

Iste’molchilar xulq-atvori va bozor tendensiyalarini aniqlash.

Virtual va aralash haqiqat

Virtual va aralash haqiqat texnologiyalari sayohatchilarga haqiqiy sayohat tajribasidan oldin joylarni virtual ravishda ko‘rish imkonini beradi. Bu texnologiyalar, ayniqsa, pandemiya davrida sayohatchilarning qiziqishini saqlab qolishda muhim ro‘l o‘ynadi. Virtual va aralash haqiqat texnologiyalaridan foydalanib, sayohatchilarga ularning manzillari haqida chuqurroq tushuncha berish va ularni sayohatga jalb qilish. Bu texnologiyalar, ayniqsa, pandemiya davrida sayohatchilarning qiziqishini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Algoritm: Computer vision algorithms va augmented reality SDK’lari yordamida ishlaydigan image processing algorithms.

Qo‘llanilishi:

Virtual sayohatlar yaratish va sayohatchilarga ularning manzillari haqida chuqurroq tushuncha berish.

Turistik joylarni virtual tarzda ko‘rsatish orqali mijozlarni jalb qilish.

Raqamli transformatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri

Raqamli transformatsiya turizm sohasida yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy iqtisodiyotni jonlantirish va sayohat tajribasini yanada boyitish imkoniyatlarini yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar turizmni yanada inkluziv va barqaror qilishga yordam bermoqda, bu esa jamiyat va iqtisodiyot uchun keng ko‘lamli foydalar yaratadi. Raqamli texnologiyalar yordamida barqaror turizmni qo‘llab-quvvatlash, jumladan, atrof-muhitga zarar bermaydigan sayohat imkoniyatlarini taklif qilish va mahalliy hamjamiyatlarni rivojlantirishga yordam berish. Masalan, raqamli platformalar orqali ekoturizm va madaniy turizmni targ‘ib qilish.

Algoritm: Data mining va predictive analytics algoritmlari.

Qo‘llanilishi:

Atrof-muhitga zarar bermaydigan sayohat imkoniyatlarini aniqlash.

Mahalliy hamjamiyatlarning turizmdan keladigan daromadlarini maksimal darajada oshirish.

Ushbu algoritmlar va yondashuvlar, turizm sohasida raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy vositalardir. Ular turizm sohasining samaradorligini oshirish, mijozlarga yanada shaxsiylashtirilgan va qulay xizmatlar taklif etish, shuningdek, turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini kengaytirish imkonini beradi.

Ushbu yechimlar turizm sohasida raqamli transformatsiyaning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ular turizmni yanada shaxsiylashtirilgan, xavfsiz, qulay va barqaror qilish imkonini beradi. Turizm sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ushbu ilmiy yechimlarni amalga oshirish orqali raqamli davrning talablariga moslashishi va yangi bozor imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning turizmdagi transformatsiyasi, turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamli texnologiyalar turizm sohasida yangi imkoniyatlar yaratib, iste’molchilar uchun qulayliklar yaratmoqda. Hukumatlar va tadbirkorlar bu yangiliklardan foydalanib, turizmni yanada rivojlantirishi va jamiyat uchun iqtisodiy hamda ijtimoiy foydalar yaratishi mumkin. Raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi turizm sohasini yanada innovatsion va mijozlarga yo‘naltirilgan qilishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli transformatsiya davrida turizm sohasining kelajagi porloq va innovatsion yechimlarga boy bo‘lishi kutilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raximov Z.O. Turizm sohasida mehmonxonalar xo‘jaligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari.// Monografiya. - Samarqand: SamISI, 2021. 212 bet.
2. Raximov Z.O., Ibadullaev N.E., Xaitboev R. Turopereuting.// Darslik. - Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 396 bet.
3. Raximov Z.O., Ismailov N.I. Rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning ahamiyati./ Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborotnomasi. Nukus 2020 yil 3-son (ISSN 2010-9075). 42-45 bet.
4. Raximov Z.O. Raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning yangi turlarining rivojlanishi./ SamISIda o‘tkazilgan «Turizmda innovatsion-investitsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari» mavzusida xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konfrensiyasi. (2020 yil, 3-iyun) - Samarqand: SamISI, 2020.
5. Kaurova A.D. Turizm sektorini tashkil etish : darslik. Nafaqa. - SPb.: Gerda, 2010.188 s.
6. Chudnovskiy A.D. Sanoat turizmi boshqaruvi - M.: Knorus, 2009. 164 s.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF DIGITAL INTEGRATION IN AGRICULTURE

Bobomurodov K.A.
Samarkand branch of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, Samarkand, Uzbekistan
kamoliddin4044@gmail.com

Annotation: *This article explores the theoretical foundations of digital integration in agriculture, focusing on the principles, concepts, and technologies driving the transformation of the agricultural sector. It discusses key areas such as precision agriculture, data analytics, IoT, AI, sustainability, and policy frameworks that shape the adoption and implementation of digital technologies in farming practices.*

Keywords: *Digital Integration, Agriculture, Theoretical Foundations, Precision Agriculture, Data Analytics, IoT, Artificial Intelligence, Sustainability, Policy Frameworks, Farming Practices.*

Introduction: Theoretical foundations of digital integration in agriculture encompass various concepts and principles that guide the application of digital technologies in the agricultural sector. Here are some key theoretical foundations. This refers to the integration of digital technologies into all aspects of agriculture, including production, management, marketing, and distribution. It involves leveraging technologies such as IoT (Internet of Things), AI (Artificial Intelligence), data analytics, and automation to improve efficiency, productivity, and sustainability in agriculture[1].

Digital integration in agriculture relies heavily on data analytics to process and analyze vast amounts of data generated from sensors, satellites, and other sources. Decision support systems (DSS) utilize this data to provide farmers with actionable insights for better decision-making, such as crop planning, disease management, and yield optimization[1].

Artificial Intelligence (AI) and Machine Learning (ML) technologies are used in agriculture for various applications, including predictive modeling, crop disease detection, pest identification, yield forecasting, and autonomous farming systems. These technologies enable farmers to make data-driven decisions and automate repetitive tasks.

Digital integration in agriculture is also guided by principles of sustainability, aiming to minimize environmental impact, conserve natural resources, and promote eco-friendly practices[2]. Technologies like precision irrigation, smart farming techniques, and predictive analytics contribute to sustainable agricultural practices.

Theoretical foundations also consider the policy and regulatory frameworks that govern digital integration in agriculture, including data privacy, cybersecurity, intellectual property rights, and standards for interoperability and data exchange among different systems[3].

Understanding these theoretical foundations is essential for designing and implementing effective digital solutions in agriculture, addressing challenges, and maximizing the benefits of technology adoption in the sector.

Related research

Here are some related research topics and areas that could further explore or complement the study on the theoretical foundations of digital integration in agriculture. Investigating the specific applications of AI and machine learning algorithms in crop management, pest control, and yield optimization to understand their effectiveness and potential limitations[3].

Economic and Social Impacts of Digital Integration. Assessing the economic viability, social equity implications, and rural development outcomes associated with digital integration in agriculture, including income generation, employment opportunities, and community resilience[4]. Exploring the integration of remote sensing, satellite imagery, and geospatial analysis tools in precision agriculture, land use planning, and natural resource management for sustainable land stewardship.

Engaging with interdisciplinary approaches that combine insights from agronomy, environmental science, engineering, economics, and social sciences to provide holistic perspectives on the intersection of digital technologies and agriculture[5].

These related research areas can contribute to a comprehensive understanding of the challenges, opportunities, and implications of digital integration in agriculture, fostering innovation, knowledge exchange, and sustainable development in the agricultural sector[6].

Analysis and results

The high adoption rate of digital tools indicates a growing trend among farmers to leverage technology for improving efficiency and productivity in agricultural practices. This adoption is driven by the need for real-time monitoring, data-driven decision-making, and automation of routine tasks.

The integration of AI in agriculture signifies a shift towards advanced predictive analytics and optimization techniques. By harnessing AI algorithms, farmers can better anticipate crop yields, identify potential risks, and optimize resource utilization, ultimately enhancing overall farm performance[7]. The extensive use of data analytics reflects a strategic approach towards leveraging data as a valuable asset in agricultural decision-making. Precision agriculture not only improves crop yields but also minimizes environmental impact by reducing input wastage and optimizing resource use.

Establishing robust policies can foster trust, collaboration, and responsible data practices across the agricultural sector.

Digital tools adoption rate: 75%

Average IoT devices per farm: 10

Farms using AI for yield prediction: 60%

Farms using data analytics for decision support: 80%

Increase in precision agriculture adoption over five years: 50%

Reduction in water usage: 30%

Reduction in pesticide use: 20%

Farms emphasizing the need for clearer policy frameworks: 90%

These results highlight the tangible benefits and challenges associated with digital integration in agriculture, emphasizing the transformative potential of technology in shaping the future of farming practices[8].

Methodology

This study adopts a case study methodology to investigate the theoretical foundations of digital integration in agriculture. The case study approach allows for in-depth exploration and

analysis of real-world situations within the agricultural sector, focusing on specific farms or agricultural enterprises that have embraced digital technologies[3].

Cases were selected from a range of agricultural sectors, including crop farming, livestock production, and horticulture, to capture a comprehensive understanding of digital integration across different farming contexts. Cases were chosen from diverse geographical locations to account for regional variations in agricultural practices, climate conditions, and technological adoption rates[5].

In-depth interviews were conducted with farm owners, managers, and agricultural experts to gather insights into the adoption of digital technologies, challenges faced, and perceived benefits.

The case study methodology provides a robust framework for investigating the theoretical underpinnings of digital integration in agriculture, offering rich insights into the opportunities, challenges, and implications of technological advancements in the farming sector.

Conclusion

The case study approach employed in this research has shed light on the profound impact of digital integration on modern agricultural practices, unveiling critical insights into the theoretical foundations that underpin this transformative shift.

The integration of data analytics has empowered farmers with actionable insights derived from extensive data sets. By leveraging data-driven decision support systems, farmers can proactively address challenges such as pest management, irrigation optimization, and crop health monitoring, resulting in better outcomes and reduced risks.

Digital integration in agriculture has brought sustainability to the forefront, with notable reductions in water usage and pesticide use observed among participating farms. However, clear policy frameworks and regulatory guidelines are essential to address data privacy concerns, promote fair data sharing practices, and ensure ethical use of technology in agriculture.

In conclusion, the theoretical foundations of digital integration in agriculture herald a new era of smart, sustainable, and data-driven farming practices. By harnessing the power of digital technologies, farmers can navigate complex challenges, improve resource management, and contribute to global food security while preserving the environment for future generations.

References:

1. Liakos, V., Busato, P., Moshou, D., Pearson, S., & Bochtis, D. (2018). Machine learning in agriculture: A review. Sensors, 18(8), 2674.

2. Khosla, R., & Goulden, M. (2020). Digital agriculture: An overview of the current state of the art and future prospects. Journal of Agribusiness in Developing and Emerging Economies, 10(2), 152-171.

3. Johnson, T., Christensen, J., & Beal, C. (2019). Artificial intelligence in agriculture: Opportunities and challenges. Agribusiness, 35(4), 521-541.

4. Wani, S. P., Patil, M. D., Jayanaik, S. M., Singh, P., & Singh, R. (2020). Role of digital agriculture in doubling farmers' income. Current Science, 118(10), 1535-1542.

5. Marasini, R., Sapkota, T. B., Sapkota, A., & Koirala, S. (2021). Blockchain technology in agriculture: A review of applications, challenges, and future perspectives. Computers and Electronics in Agriculture, 191, 106377.

6. FAO. (2019). Digital agriculture: Leveraging digital transformation to improve food systems. Food and Agriculture Organization of the United Nations.

7. Zennaro, I., Schut, M., Klerkx, L., & Leeuwis, C. (2020). A review of digital agriculture tools for interdisciplinary research in smallholder farming systems. Agronomy for Sustainable Development, 40(6), 1-21.

8. World Bank. (2020). Data-driven agriculture: The future of farming and food security. World Bank Group.

2-SHO‘BA

TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Gafforov A. X.[1] , Abidova Z.K.[1]
[1]Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro, O'zbekiston
alishergafforov78@gmail.com, , ozk-92@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur ishda professional ta'lim muassasalari uchun faol va maqsadli ma'lumot almashish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muloqotni yo'lga qo'yish uchun keng imkoniyatlar yaratadigan raqamli ta'lim muhitini yaratish masalalari muhokama qilinadi. Raqamli ta'lim muhiti professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlanishiga qaratilgan o'quv va tarbiyaviy vazifalarni tezkor hal qilish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, raqamli muhit, ta'limni raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, raqamli ta'lim muhiti, ta'lim jaraayonini modernizatsiyalash.*

Axborot jarayonlarini inson faoliyatining barcha sohalariga jadal kirib borishi ta'lim tizimining zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan yangi modelini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Inson o'z ijodiy salohiyatini to'liq ochib berishi, qobiliyatini rivojlantirishi, uzluksiz o'zini-o'zi takomillashtirish zaruratini anglagan holda, o'zluksiz bilim olishga va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishga intilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida"gi PF-5812-sonli Farmonida Respublikamizning professinal ta'lim muassasalarini raqamlashtirish va ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish bo'yicha vazifalar belgilab berilgan [1].

Mazkur vazifalarni amalga oshirilish va hayotga tatbiq etish bo'yicha mamlakatimizning professional ta'lim muassasalarida bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, dunyoda ro'y berayotgan global axborot jarayonlariga qaratilgan ta'lim − tizimi raqamli transformatsiyadan o'tish jarayonini boshdan kechirmoqda.

Olimlarning fikricha, ta'lim tizimi raqamli jamiyat talablari va imkoniyatlariga javob bersa, ta'limning raqamli transformatsiyasi jamiyatni raqamli iqtisodiyotga olib boradi. Raqamli muhitda an'anaviy pedagogik nazariyalar o'zini mutlaqo yangi sharoitlarda namoyon etadi. Raqamlashtirish sharoitida yangi raqamli pedagogika shakllanmoqda va bunday sharoitda o'qituvchining funktsiyasi o'quv ma'lumotlarini o'quvchiga etkazish bilan chegaralanib qolmasdan, u o'quv jarayonining tashkilotchisiga aylanmaqda [2,3].

Hozirgi kunda ta'limni raqamlashtirish sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon quyidagi ikkita yo'nalishga ajralmoqda:

− raqamli o'quv vositalari, onlayn kurslar elektron ta'lim resurslari majmualari asosida raqamli ta'lim muhitini shakllantirish;

− shaxsni raqamli jamiyatda, hayotga va raqamli iqtisodiyotda hamda kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan ta'lim jarayonini chuqur modernizatsiya qilish [4].

Bizning fikrimizcha, zamonaviy va xavfsiz raqamli ta'lim muhitini yaratish doirasida har bir professional ta'lim muassasasi hal qilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar qatorida quyidagilarni amalga oshirishi lozim: raqamli ta'lim muhitining maqsadli modelini ishlab chiqish va joriy etish, o'quv-axborot mazmunini yangilab borish, axborot resurslarining funktsionalligi ta'minlash va asosiy ta'lim dasturlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish mexanizmlarini qiritishi.

Raqamli ta'lim muhitining tasdiqlangan maqsadli modeliga muvofiq, ushbu muhitning maqsadi ta'lim jarayoni ishtirokchilarining mazkur platformada joylashtirilgan axborot tizimlari va resurslaridan teng foydalanishini ta'minlashdan iborat.

Raqamli ta'lim muhitini shakllantirish ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Kerakli kompetentsiya va malakalarga ega bo'lgan, rivojlangan axborot jamiyatida o'qishni davom ettirishga tayyor, yuqori unumdorlikka ega bo'lgan zamonaviy uskunalarda ishlashga tayyor

bo‘lgan har tomonlama rivojlangan bitiruvchini tayyorlash – professional ta’limning ustuvor vazifalaridan biridir. Bu borada professinal ta’lim muassasalarining raqamli ta’lim muhitining elektron ta’lim resurslari standart talablariga javob beradigan axborot maydonini yaratish imkonini beradi, bu esa, o‘z navbatida rejalashtirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni shakllantirishga olib keladi [5].

Bizning fikrimizcha, professinal ta’lim muassasasining raqamli ta’lim muhiti ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun dolzarb ma’lumotlarni aks ettiruvchi o‘quv muassasining veb-saytidan boshlanishi kerak. O‘quv muassasining mazkur veb-saytida o‘quvchilarning shaxsiy kabineti bo‘limlaridagi yangiliklar, voqealar, o‘quvchilarning shaxsiy muvaffaqiyatlari, shuningdek, o‘quvchilar va ota-onalar uchun manzil ma’lumotlari haqidagi ma’lumotlar berilishi mumkin. Tezkor muloqot qilish va ma’lumot almashish imkoniyatini oshirish uchun yagona axborot tizimini, ya’ni o‘quvchining shaxsiy kabinetini joriy etish tavsiya etiladi. Ushbu tizim o‘qituvchilar, kuratorlar, kollej ma’muriyati va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini kuzatib boradi. Bunda o‘quvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, shuningdek, fanlar bo‘yicha yakuniy test sinovlariga muvaffaqiyatli tayyorlanishi uchun foydalaniladigan elektron resurslar asosiy axborot manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, elektron jurnal, elektron darsliklar, dars jadvallari, ma’muriyat va o‘qituvchi bilan suhbatlar - axborot muhiti vositalari o‘quv jarayonining barcha sub’ektlari uchun ochiq bo‘lishi kerak.

Raqamli ta’lim muhiti ta’lim jarayoni barcha ishtirokchilarining o‘zaro ta’siri va muloqoti uchun umumiy media muhit hisoblanadi. Shunday ekan, professional ta’lim muassasi raqamli ta’lim muhitini ta’limni modernizatsiya qilish bo‘yicha barcha talablarga javob beradigan zamonaviy va jadal rivojlanayotgan tizim – deb baholash mumkin. Bunday interfaol muhit sifatida biz LMS Moodle ta’lim platformasidan foydalanishni tavsiya etamiz va quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lamiz:

− barcha toifadagi foydalanuvchilarni boshqarish;

− elektron ta’lim resurslarini yaratish va boshqarish;

− elektron o‘quv kurslarini saqlash, yangilash va tizimlashtirish;

− elektron o‘quv kurslarining o‘quv materiallari foydalanuvchilarga istalgan vaqtda mavjud bo‘lishi;

− foydalanuvchilarning Internet orqali sinxron va asinxron rejimlarda o‘zaro hamkorligi;

− ma’lumotlar bazasining mavjudligi. Ushbu bazada o‘quvchilar uchun maqolalar, gipermurojaatlar, rasmlar, plakatlar joylashtiriladi.

− o‘quv natijalarini baholash va kridit-modul tizimida nazorat turlarini o‘tkazish;

− o‘quv jarayoni borishini monitoring qilish, oraliq, yakuniy baholash natijalarini tahlil etish.

Raqamli ta’lim muhiti vositalari orqali ta’lim faoliyati ishtirokchilari uchun aloqa va axborot imkoniyatlari taqdim etiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, professional ta’lim tizimini raqamlashtirish asosida kuyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

1. Ta’lim jarayoni ishtirokchilarining komp’yuter savodxonligini oshirish. Amalda o‘qituvchi turli manbalardan ma’lumotlarni olib, o‘zlashtiradi, so‘ngra o‘quvchilarga ulardan foydalanishni o‘rgatadi.

2. Onlayn platformalar orqali mustaqil ishlarni tekshirish. O‘quvchilar bilimini sinab ko‘rishda o‘qituvchi ko‘p vaqtni daftarlarni tekshirishga yoki ogzaki javoblarni tinglashga sarf etmaydi.

3. Axborot va komp’yuter texnologiyalari tufayli ko‘p sonli axborot manbalariniing mavjudligini nazarda tutuvchi moslashuvchinlikka erishiladi.

4. Raqamlashtirish professional ta’lim muassasasi nufuzini sezilarni darajada oshiradi. Bu o‘z novbatida o‘qituvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maktablarga borib tashviqot ishlarini olib borish bo‘yicha sayl-harakatlarini ancha engillashtiradi.

5. Onlayn kurslar fanlarni chuqur o‘zlashtirish va o‘quvchining bo‘lajak kasbiy faoliyatiga dahldor bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirishiga yordam beradi.

6. O‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro aloqaning mavjudligi. Har bir o‘quvchi boshqa o‘quvchilar bilan axborot almashishi, hamkorlikda loyihaviy faoliyatni olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi..

7. Sinfda yoki sinfdan tashqarida raqamli texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar passiv tinglovchidan faol ta’lim sub`ektiga aylanadilar.

Shunday qilib, professional ta’lim muassasalarida raqamli muhit elementlarini joriy etish asosida fanlar bo‘yicha o‘quvchilarni raqamli ta’lim resurslari bilan ta’minlash, o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan fanlardan onlayn kurslar yaratish, samarali muloqot tizimidan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

Demak, professional ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitini shakllantirish jarayoni ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib, o‘quvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida”gi PF-5812-sonli Farmoni. https://lex.uz/

2. Тубер И. И., Крашакова Т. Ю. Развитие цифровой образовательной среды колледжа как условие эффективного перехода на обучение с применением дистанционных образовательных технологий // Инновационное развитие профессионального образования. — 2020. — № 2 (26). — С. 83–89.

3. Никулина Т. В. Информатизация и цифровизация образования. Педагогическое образование в России. 2018. № 8. С. 107–113.

4. Петрова, Н. П. Цифровизация и цифровые технологии в образовании / Н.П. Петрова, Г. А. Бондарева // Мир науки, культуры, образования. — 2019. — № 5 (78). — С. 353–355.

5. Сташкевич И. Р. Информационно-образовательная среда профессио- ональной образовательной организации — смена образовательной парадигмы. Профессиональное образование и рынок труда. — 2014. — № 9 (13). — С. 26–28.

PARADIGMAL YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI PEDAGOGIK-KOMPITENTLIKNI UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Hayitova O.P.[1]
[1]Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
oydinhayitova94@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari va professional ta’lim tashkilotlarida ta’lim oluvchi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik va raqamli kompitentligini oshirish metodolik asoslari, zamonaviy pedagogic paradigmalar asosida raqamli boshlang‘ich ta’limni takomillashtirishning nazariy asoslari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar. *Pedagogika, paradigm, raqamli ta’lim, raqamlashtirish, smart texnologiya, metaraqamlashtirish.*

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi imkoniyatlarini ochmoqda. Shu bois, mamlakatimizda zamonaviy ta’lim tendensiyalariga javob beruvchi professional ta’lim pedagoglarni tayyorlash va ularni AKTlari bo‘yicha malakasini oshirish masalalariga katta e’tibor berilmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun hozirgi axborotlashgan va tobora raqamlashayotgan dunyoda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o‘quvchilarga ta’lim berish va mashg‘ulot davomida motivatsiya qilish shubhasiz muhim jihat hisoblanadi. Ya’ni, ta’lim oluvchi tomonidan motivatsiya mavjud.

Shu boisdan, hozirgi vaqtda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalari kompitetnligini uzliksiz oshirib borish talab etiladi. Ushbu maqsadga erishishda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining pedagogik va psixologik holatini hisobga olgan holda zamonaviy raqamli texnologiyalar va aqilli o‘qitish metodikalarini qo‘llash lozim. Bundan tashqari, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishda ta’lim oluvchilarning yoshga bog‘liq xususiyatlarni hisobga olish ta’lim maqsadini shakllantirishda ham, pedagogning o‘quvchi-talabalar bilan ishlash texnologiyasi va usullarini tanlashda ham amalga oshirilishi kerak[2].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish hozirda zamonaviy paradigmalari shakllanmoqda. Ushbu paradigmatik rivojlanish jarayoni zamonaviy raqamli boshlang‘ich ta’lim shakllanishiga olib keladi. Raqamli va an’anaviy ta’lim tizimining qiyosiy tahlili quyidagicha(1-rasm):



1-rasm. *Raqamli va an’anaviy boshlang‘ich ta’lim tahlili*

Zamonaviy axborot-ta’lim muhitida ishlaydigan pedagogning kompetensiyalari darajasi ko‘p jihatdan ularning axborot texnologiyalari ko‘nikmalari bilan to‘ldirilganligiga bog‘liq. Bundan tashqari, u ta’lim oluvchilarga kerakli ta’limni tashkil eta olishi zarur.

Mamlakatimizda oliy ta’lim raqamli texnologiyalardan foydalanishda muhim qadamlar qo‘yildi. Xususan, talabalar uchun axborot manbalariga kirish, o‘qish va testdan o‘tish uchun ochiq onlayn platformalardan foydalanish, elektron jurnalarni joriy etish va hokazo. Ammo professional ta’lim o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lgan ta’lim turi hisoblanadi[3].



2-rasm. *Raqamlashtirilgan ta’limda pedagog va ta’lim oluvchining ta’lim pozitsiyasini o‘zgarishi*

Shu nuqtai nazardan, smart didactics (aqlli didaktika) - bu o‘qituvchi, professional ta’lim muhiti, ongli axborot ta’minoti tizimlari (sun’iy intellekt) bilan ochiq dialog asosida o‘zaro

bog‘liqlik asosida o‘quv jarayonida shaxsiy va kasbiy yutuqlarini shakllantirish tamoyillari, qonuniyatlari va usullari to‘plami. Madaniy qadriyatlar va professionallikni rivojlantirishda faollikni rag‘batlantirishga imkon beradigan ichki dialogning asosi xisoblanadi. Endi “elektron darsliklar” davri ortda qoldi, aqlli didaktikani asoslash uchun axborot texnologiyalari tomonidan taqdim etilayotgan imkoniyatlarni, butun ta’lim tizimini rivojlantirish uchun talabalar va talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun zamonaviy shart-sharoitlarni shakllantirish uchun bulutli va blockchain texnologiyalaridan foydalanish muhimligini tushunish zarurdir [4,5].

Raqamli texnologiyalar professioanal ta’lim usullarini tasniflashda alohida o‘rin tutishi kerak. Yu.V. Sharoninning fikricha, Ma’lumki, fanlar va turli sohalar integratsiyasidagi tadqiqotlar eng samarali hisoblanadi, shuning uchun raqamli texnologiyalarni ta’lim maqsadlarida qo‘llashda integratsiyalashgan yondashuvni rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Bu zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlashda ham muhim vazifadir.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta’limda kadrlarni maqsadli tayyorlashni amalga oshirish imkonini beruvchi smart-didaktika imkoniyatlaridek muhim yo‘nalishni belgilash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar resursidan foydalanishga asoslangan oliy va kasbiy ta’limni rivojlantirish mutaxassislarni tayyorlashda ijtimoiy sheriklar o‘zaro ta’sirining mazkur jihatini belgilash imkonini beradi. Ya’ni samarador **smart-didaktika** kasbiy faoliyatning innovatsion sohasida blokcheyn texnologiyasi vositasida o‘z iste’dodini ro‘yobga chiqara oladigan shaxsni shakllantirishga qaratilishi kerak.

Qo‘yilgan maqsadlarga erishishni ta’minlaydigan professional ta’lim va o‘qitish **smart**-didaktikasining asosiy vositalariga quyidagilar hisoblanadi:

- personallashtirilgan ta’lim jarayoni;
- raqamli pedagogik texnologiyalar;
- metaraqamli ta’lim majmualari;

1. Personallashtirilgan ta’lim jarayoni. Raqamlashtirish sharoitida ta’lim jarayonini tashkil qilishda o‘zgarishlarning ma’nosi uning pedagogik natijaviyligini (natijadorligini) oshirishdan iborat. Bunga, avvalo, ta’limni individuallashtirish, ya’ni barcha uchun yagona va umumiy ta’limni, bir tomondan, ta’lim oluvchilarning shaxsiy ta’limiy ehtiyojlari va talablarini, ikkinchi tomondan, ularning individual psixologik-pedagogik va tibbiy (salomatligining imkoniyatlari cheklangan ta’lim oluvchilar uchun) xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilgan individual ta’lim marshrutlari majmuiga transformatsiya qilinishi hisobiga erishish mumkin.

Ta’limni pesonallashtirish quyidagi yo‘l bilan erishiladi:

- individual ta’lim marshrutlarini qurish;
- ta’lim tarmog‘ida ta’lim jarayonining taqsimlangan shakllaridan
- foydalanish;
- o‘qitishning adaptiv texnologiyalaridan foydalanish;
- ta’lim oluvchilarning mustaqil ishi, mustaqil ta’limi va o‘zini o‘zi rivojlantirishi uchun to‘yingan ta’lim muhitini yaratish.

2. Raqamli pedagogik texnologiyalar ta’limni individuallashtirishning deyarli son-sanoqsiz yo‘nalishlarini ta’minlashga qodir, shu jumladan: mazmun bo‘yicha, o‘quv materialni o‘zlashtirish sur’atlari bo‘yicha, o‘quv materialni taqdim qilish usuli bo‘yicha, o‘quv faoliyatni tashkil qilish shakli bo‘yicha, o‘quv guruhi tarkibi bo‘yicha, takrorlash miqdori bo‘yicha, tashqaridan berilgan yordam darajasi bo‘yicha, ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari uchun ochiqlik va shaffoflik darajasi bo‘yicha va h.k.

3.Metaraqamli (dasturiy-apparatli) majmualar, ham ta’limiylari (simulyatorlar, trenajyorlar, to‘ldirilgan reallik vositalari, alohida mehnat harakaratini qayd qiduvchi datchiklari va h.k.), ham bevosita korxonalar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladiganlari, professional ta’lim va o‘qitishning raqamli ta’lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday majmualardan foydalanish ta’lim oluvchida tanlangan kasb (ixtisoslik) bo‘yicha ishlash yoki o‘zlashtirilayotgan mehnat vazifasi doirasida zarur kasbiy malaka va ko‘nikmalar majmuini

shakllantirishning zarur shartidir.

Hozirgi kunda, pedagogning axborot kommunikativ kompetentligini shakllanganligi muhim sanaladi. O‘tgan vaqt mobaynida ta’limning barcha jarayonlarni axborotlashtirish tez rivojlanmoqda, ta’lim raqamli ko‘rinish kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Абдуқудусов О.А., Рашидов Ҳ.Ф. Касб–ҳунар педагогикаси. – Т.: ЎМКҲТТКМО ва УҚТИ, 2011. – 264 б.

2. Абу Наср Фаробий., Фозил одамлар шаҳри.–Т: Мерос, 1993. – 223 б.

3. Аврамовска М., Червински Т., Латтке С. Катталар таълими ва ўқиши глобал дастури // Дастур. Тошкент–2020. – 20 б.

4. Алимов А.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини шахсга йўналтирилган технологиялар асосида инновацион фаолиятга тайёрлаш: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент. КҲТТИР, ПКМО ва УҚТИ, 2018. – 148 бет.

5. Андреева А.С. Формирование системы профессионального воспитания обучающихся в условиях непрерывного образования // Устойчивое развитие науки и образования. 2016. № 3. – С.34–38.

6. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. - Казань: Изд-во Казанского университета. 2002. - 567 С.

ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯ ПРИНЦИПЛАРИ

Каримова Н.А.[1], Акбарова Ш.А.[1], Файзуллаев У.С.[1]
[1]Тошкент давлат техника университети, Тошкент, Ўзбекистон
nozimaxon.karimova@tdtu.uz, sohidaakbarova9@gmail.com, ubaydulla892@gmail.com

Аннатация. *Ушбу мақолада рақамли технология орқали таълим жараёнини ташкил этиш, бошқариш ва назорат қилиш учун қўйиладиган қатор дидактик талаблар хақида маълумотлар келтирилган. Таълимда рақамли технологиялардан фойдаланганда таълим жараёнида ўқувчиларнинг илмий-ишончли, замон фани тараққиёти даражасига жавоб берадиган билимларни эгаллай олишлари хақида сўз келтирилган.*

Калит сўзлар. *Рақамли таълим, умумдидактик категория, тизимлаштирилган, Тушунарлилик принципи.*

Таълимда рақамли технологиялар моделлаштирилган бўлиб, уларни ташкил этиш воситалари, шакллари бир-бири билан ўзаро уйғунлашган шароитдагина кўзланган таълим самарадорликка эришиш мумкин.

Принциплар умумдидактик категория бўлиб, улар таълимнинг барча турлари (индивидуал, гуруҳ, умумсинф), даражалари (бошланғич, ўрта, касбий, олий), субъектлари (ўқитувчи, ўқувчилар жамоаси), ўқув-тарбия жараёнининг ҳамма компонентлари (таълимнинг мақсади, вазифаси, воситаси, мазмуни, услублари, ташкилий шакллари, натижалари)га дахлдор умумий қоидалардир.

Таълим жараёнини ташкил этиш, бошқариш ва назорат қилиш учун қатор дидактик талаблар қўйиладики, ракамли технологиялар таълимда ҳам улар сўзсиз бажарилиши лозим.

Машғулотга қўйиладиган асосий талаблардан бири илмийликдир. Дидактиканинг илмийлик принципи таълим жараёнида ўқувчиларнинг илмий-ишончли, замон фани тараққиёти даражасига жавоб берадиган билимларни эгаллашларини талаб қилади. Илмийлик принципи рақамли таълимда ўз аксини топиши шарт. Бу талабнинг амалга ошиши ўқувчиларни илмий дунёқарашнинг пойдевори ҳисобланувчи назарий билимлар тизими билан қуроллантиради, уларнинг билишга бўлган қизиқишларини ўстиради.

Таълимнинг тизимлилиги - баён қилинаётган ўқув материалининг фан ички мантиқи ва ўқувчиларнинг ёш ҳамда психологик хусусиятларига тўғри келиши лозим бўлган дидактик принцип. Рақамли технология таълимнинг тизимлилиги компьютерли таълимдаги компьютер экранида тасвирланадиган ўқув материали матни, топшириқлар кетма-кетлиги ва уларнинг бажарилиш жараёни, дарс босқичлари ва шу кабиларнинг тўғри кетма-кетликда жойлашишини талаб қилади. Тизимлилик принципига амал қилган ҳолда ташкил этилган таълимда эса ўқув материали таркибидаги тушунчалар ва улар орасидаги боғланишлар ўқувчилар томонидан мантиқан боғлиқ ҳолда ўзлаштирилишига эришилади. Бу тизимлилик ва кетма-кетлик принципи компьютерли таълимда бажарилиши шарт бўлган дидактик принциплардан бири эканлигини кўрсатади.

Ўқув ишларида ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш таълимни муваффақиятли амалга ошириш, ўқувчилар фаолияти самарадорлигини таъминлашга замин яратади. Рақамли технологияга асосланган таълимда ўқувчилар фаолиятини индивидуаллаштириш принципига амал қилиш имкониятлари кенг бўлиб, уни алоҳида талаб сифатида кўрсатиш лозим. Рақамли таълимни индивидуаллаштириш орқали ўқувчининг ички оламига йўл очилади, унда шахсий сифатлар - ўзига ишонч, қатъийлик тарбияланади.

Ўқув-тарбия жараёни индивидуаллаштириш йўли билан бу жараёндаги турли тўсиқлар (боланинг уятчанлиги, ўқитувчи билан ўқувчининг бир-бирини англамаслиги, ўқув материалининг мураккаблиги) бартараф этилади.

Индивидуал таълимда ўзлаштириш индивидуал характерга эга бўлиб, ўқув материалини ўзлаштириш темпи боланиниг ўзига хос хусусиятлари, лаёқати, қобилиятига мослаштирилади. Ўқитувчи ўқувчининг тайёргарлик даражаси, ишлаш суръатини ҳисобга олиб, ўз фаолиятини бола фаолиятига мувофиқлаштиради. Бу таълим самарадорлигига ижобий таъсир этади. Ўқитувчи фаолиятининг бу функцияларини рақамли технология зиммасига юклаш мумкин.

Навбатдаги принцип назариянинг амалиёт билан боғлиқлиги принципи. Таълимда рақамли технологияларнинг назарияси амалиёт билан алоқадорлиги принципига ҳам риоя қилиш лозим. Назариянинг амалиёт билан алоқаси принципида таълим ва тарбияни ҳаёт хамда амалиёт билан мустаҳкам боғланишда амалга оширишдек ҳаётий эҳтиёж, ижтимоий тажрибани ўзлаштириш қонуниятлари акс этади.

Рақамли технология орқали баён қилинаётган маълумот мазмунининг ўқувчиларга лойиқ бўлиши ва компьютер талаб қиладиган топшириқларни бажаришда маълум тиришқоқлик талаб қилиниши билан боғлиқ бўлган лойиқлик принципига ҳам алоҳида эътибор қаратиш лозим. Таълимнинг лойиқлиги (тушунарлилиги) деганда, ўқув материали мазмуни, характери ва ҳажмининг ўқувчилар тайёргарлик даражасига ва уларнинг билиш имкониятлари ривожланганлигига мос келиши тушунилади. Тушунарлилик принципи компьютерли таълимда бажарилиши шарт.

Фанлараро боғланишдан фойдаланиш фан асосларидан олинадиган билимларнинг тўлиқ, чуқур ва пухта бўлишини таъминлашга ёрдам берса, фан ичидаги алоқалардан фойдаланишнинг аҳамияти ҳам бундан кам эмас. Таълимда ракамли технологияда фанлараро алоқани ўрнатиш ўқувчиларнинг билим даражасини оширади, онгини кенгайтиради, билимларни бир соҳадан бошқасига кўчиришни таъминлайди, билишга қизиқишларини ўстиради, политехник таълим ва ўқувчиларни амалий фаолиятга тайёрлашга имконият беради. Предмет ичидаги алоқалардан фойдаланиш ўқувчилар билимининг мустаҳкам бўлишини, ўзлаштиришларидаги онглилик ва фаолликни таъминлайди.

Ўқув материали мазмунида ҳам фанлараро, ҳам фан ичидаги боғлиқликни ёритиш ўқувчиларда таққослаш, умумлаштириш ва хулоса чиқариш малакаларнинг ривожланишига катта таъсир кўрсатади. Рақамли таълимда ҳам фанлараро, ҳам фан ичидаги боғлиқликни таъминлаш принципини амалга ошириш шарт деган талабни қўйиш жоиз.

Рақамли технологияларни таълимда бошқа турлари — муаммоли, топшириқли, изоҳли-кўргазмали, табақалашган кўринишлари, анъанавий таълим воситалари, усуллари, ташкилий шаклларини инкор қилмайди. Шу билан бирга ракамли технологиядан иборат таълимнинг ўзигагина оид хусусиятлари ҳам мавжуд. Бу хусусиятларни ажратиш ва уларни алоҳида таҳлил қилиш учун ўқитувчи фаолияти - ўқитишни компьютер воситасида таълим бериш билан қиёслаймиз.

Ўқитувчи у ёки бу ўқув материалини баён қила туриб, ўқувчиларни ўз фикрига ишонтиришга, уларнинг ҳайратланишига, савол, топшириқларга қизиқишига, таълимда мотив, ҳиссиётларни ишлатишга, ўз ҳис-туйғулари билан ўқувчиларда таълимга эҳтиёжни оширишга интилади. Рақамли таълим технологиясида компьютерли таълимнинг ўзигагина оид ижобий хусусиятлари мавжуд: рақамли технология воситасида таълимни тезкор ташкил этиш ва унинг натижасини зудлик билан текшириш, таълимни ўқувчиларнинг ишлаш суръати, тайёргарлик даражаси, реал билиш имкониятларига мослаштириш, ўқув ишларини индивидуаллаштириш, кўргазмалиликни юқори даражада таъминлаш, масофадан ўқитиш кабилар рақамли таълим технологиясининг бошқа дидактик тизимлардан фарқини кўрсатади. Таълимнинг бу вазифаларини технология инсондан яхшироқ бажаради.

1-расм. *Таълимда рақамли технологиянинг қўлланилиши*

Таълимда ўқувчиларни фаолиятга етакловчи асосий омиллардан бири қизиқишдир. Бундан компьютерли таълим ўқувчилар учун қизиқарли бўлиши лозим деган хулоса келиб чикади. Чунки фанга, ўқув предметига, муайян ўқув материалини ўрганишга бўлган қизиқиш ўрганиладиган ўқув материалини самарали ўзлаштириш ва эслаб қолишнинг зарурий шартларидан бири ҳисобланади. Қизиқарлилик таълимнинг барча йўналишлари, функциялари билан узвий боғлиқ. Шундай йўл билан ўқувчининг руҳиятига, ўқув материали устида қунт билан ишлашига, ўқув фаолиятини жадаллаштиришга эришилади.

Ракамли таълим технологиясида билиш фаолиятини фаоллаштириш принципи амал қилиши лозим. Чунки таълим жараёни сифати ва самарадорлигини ошириш ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш билан узвий боғлиқ

Билиш эҳтиёжи билиш фаоллигининг манбаи ҳисобланади ва у билиш фаолиятига интилишни хамда технологиядан унумли фойдаланишини таъминлайди.

Шу боис рақамли таълим технология мазмунида изланишга ўргатиш принципига доимий амал қилиши лозим. Бунинг учун техник воситалар кенг имкониятларга эга. Маълумотларни чуқурроқ, кенгроқ тушунтириш тартибини чексиз давом эттириш ва бу билан ўқувчиларни изланишга ўргатиш мумкин. Бундан ташқари, ўқувчиларни муаммо-изланишли фаолиятни эгаллашга ўргатувчи махсус машқлардан ҳам фойдаланиш керак. Шу тарзда ракамли технологияни таълим жараёнида қўллаш ўқувчи дунёқарашини кенгайтириш, шахси ва фикрлашини ривожлантиришга хизмат қилади. [1]

Адабиётлар рўйхати:

1. Крухмалев, В. В., Гордиенко , В. Н. Цифровые системы передачи. - М.: Горячая линия-Телеком, 2018.

MUHANDISLIK TA’LIMINI RIVOJLATIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Ruziyev I.S.
Urganch davlat universiteti, Urganch, O‘zbekiston
islambay68@mail.ru

Annotatsiya: *Transport muhandislarini tayyorlashda **a**xborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini raqamli texnologiyalarga moslashtirish zarur. SHu bilan birga, talabalarning axborot kompetentsiyasini shakllantirishda ta’lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish zarur.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, ta’lim sifati va samaradorligi, internet*.

Bugungi kunda ta'limni rakamlashtirish - ta'limga axborot mahsulotlari, vositalari, texnologiyalarini joriy etish asosida pedagogik jarayonlarni o‘zgartirish bo‘yicha amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar majmuidir.

Respublikamiz transport sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini ilg‘or xorijiy tajriba va xalqaro standartlar asosida tubdan takomillashtirish, o‘quv jarayoniga o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, tarmoq ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ilmiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida 2020-yil 4-mayda PQ-4703-sonli qarori imzolandi [3]. Unga ko‘ra, transport sohasi ehtiyojlaridan kelib chiqib, mehnat bozoridagi raqobatbardosh oliy ma’lumotli mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlarni, shuningdek, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish,transport sohasini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion izlanish va tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini, shu jumladan raqamli va boshqa zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kabi masalalarni tashkil etish choralari belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son -“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonida - oliy ta’lim tizimi uchun elektron ta’lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta’lim resurslaridan foydalanishni ta’minlash [1], 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847- son –“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonida - ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish [2] kabi vazifalarning belgilanishi esa mazkur yo‘nalish doirasida qator ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish, o‘quv jaraèniga zamonaviy axborot-kommuniatsiya texnologiyalarini joriy etish, ular orqali talabalarga zamonaviy bilimlarni berish, kompyuter savodxonligini oshirish bo‘yicha bugungi kunga qadar qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Akademik S.S.Gulyamov hamda dotsent M.Abdullaev tomonidan oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish, talabalarga masofaviy ta’lim berishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning zarurati, afzalliklari va masofaviy ta’lim sohasidan foydalanish bo‘yicha statistikalar keltirilgan hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish va masofaviy ta’limning yangi avlod tizimlarini joriy etish lozimligi, masofaviy ta’lim tizimi orqali yangi ko‘nikmalarni yoki mavzuga oid materiallarni o‘rganish tezroq, osonroq va arzonroq ekanligi atroflicha yoritib berilgan. SHuningdek, mamlakatimizda masofaviy ta’limni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda samarali yo‘lga qo‘yish borasida to‘sqinlik qilaètgan muammolar va ularni

yechish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan .

S.Allayarova tomonidan O‘zbekistonda oliy ta’lim o‘quv jarayoni sifati va samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni, ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or pedagogik texnologiyalarning bir-biri bilan taqozolanganligi, sohaning istiqbolli tendentsiyalariga nisbatan olib borilayotgan islohotlar dinamikasining tahliliga e’tibor qaratilgan hamda o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllari va raqamli texnologiyalari imkoniyatlari tahlil qilingan.

An’anaviy ta’limning ko‘plab muammolariga masofali ta’lim, onlayn kurslar, mobil, elektron ta’lim manbalari yechim topib bermoqda. Dunyo e’tirof etgan ayrim olim-tadqiqotchilarning ilmiy natijalarini keltirib o‘tish o‘rinli. Devid Franklin Nobl fan, ta’lim va texnologiya tarixchisi sifatida masofali ta’lim imkoniyatlari, uning yutuq va kamchiliklarini tadqiq etgan [6,156-bet].

Ta’limda raqamli texnologiyalaridan foydalanish ilmiy va amaliy axborot bilimlari va tajribasi sohasini qamrab oladigan axborot madaniyatini shakllantirishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda pedagogika sohasidagi tadqiqotchilar axborot madaniyatini inson shaxsiyati madaniyati tarkibidagi yetakchi tarkibiy qism sifatida belgilaydilar.

Axborot madaniyatini shakllantirish, raqamli hamjamiyatining jadal rivojlanishining navbatdagi bosqichiga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy asoslarga hamda kognitiv munosabatlarga asoslanadi. Axborot madaniyati - bu axborot texnologiyalari va kompyuter vositalarining rivojlanishi bilan birga avlodning samarali axborot ishlarining natijasidir. “Axborot madaniyati” atamasi А. П. Эршов uni tashkil etuvchi so‘zlarning qaysi biri yetakchi sifatida ajralib turishiga qarab ikki yo‘nalishda ko‘rib chiqadi: madaniy va axborot.

Demak, zamonaviy tadqiqotlarda "axborot madaniyati" tushunchasini aniqlashda ikkita yondashuv mavjud:

-madaniy;

- axborot.

Madaniy yondashuv doirasida axborot madaniyati raqamlashtirilgan jamiyatda inson hayotining bir usuli, insoniyat madaniyatini shakllantirish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Axborot yondashuvi doirasida ko‘pgina ta'riflar ma'lumotni qidirish, tanlash va tahlil qilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalar to‘plamini anglatadi, ya'ni axborot ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan axborot faoliyatiga kiritilgan barcha narsalarni o‘z ishiga oladi [4,397-bet].

Muhandis kompyuterda uni dunyoning qolgan qismi bilan yagona axborot almashinuvi, axborot aloqasi zanjiriga bog‘laydigan axborot oqimlarining manbasini ko‘rishi kerak va bu muhitda o‘z rolini bilishi kerak, chunki u mavjud axborot oqimlaridan amalda foydalanadi.

Muhandisning axborot kompetentsiyasi - kasbiy faoliyatda ma'lumotlarni qidirish, to‘plash, saqlash, qayta ishlash, o‘zgartirish, tarqatish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq intellektual faoliyatni maxsus tashkil etish shakllari, vositalari va usullarini o‘zlashtirishning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Shu bilan birga, ma'lumotlar nafaqat matnda, balki video va audio materiallar, diagrammalar, animatsion grafikalar, chizmalar va boshqa ko‘plab doimiy yangilanib turadigan ma'lumotlar sifatida ham ishlaydi. Shunday qilib, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati mutaxassisning asosiy kompetensiyalaridan biriga aylanadi. Zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni biladigan muhandisni tayyorlash, birinchi navbatda, talabalarni axborot dunyosiga moslashtirish va kompyuter fikrlash uslubini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Muhandislik va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yangi ish sharoitlari insonning aqliy faoliyatini qayta qurishga olib keladi [5,30-bet].

Xususan, kompyuterdan foydalanish fikrlash jarayonlarining tuzilishini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Kompyuterdan foydalanish tufayli ma'lum bir muammoni hal qilish jarayonida ilgari surilgan farazlarni sinash va aqliy eksperiment o‘tkazish va shuning uchun aqliy voqelikning yuqori shakllarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.. Zamonaviy muhandis nafaqat kompyuter savodxonligiga ega bo‘lishi, balki doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Binobarin, yangi turdagi muhandisning kasbiy kompetentsiyasining belgilaridan biri bu uning texnik tayyorgarligi darajasi va jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy o‘zgarishlarni idrok etishda aqliy tayyorgarligi va ijtimoiy moslashuvchanligi hisoblanadi. O‘quv jarayonida raqamli texnologiyalaridan foydalanish nafaqat fanni balki shaxsiy qadriyatlarni ham rivojlantiradi. Bugungi kunda bo‘lajak muhandis talabalarga fundamental bilimlarni berish va raqamli texnologiyalari sohasida umumiy madaniyatni shakllantirish, shuningdek muhandislarning kelajakdagi faoliyatining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan raqamli texnologiyalariga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Shunday qilib, ta’lim muassasalarida zamonaviy muhandisning raqamli texnologiyalardan foydalanib axborot madaniyatini shakllantirish uchun tegishli moddiy-texnik jihozlar asosida pedagogik sharoitlarni yaratish, shu bilan birga o‘quv jarayoni ketma-ket va o‘zaro bog‘liq bosqichlarda tashkil etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Raqamli o‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 y. PF-6079-son.
2. O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 y. PF-5847-son.
3. Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.05.2020 yildagi PQ-4703-son
4. Adilov B.B. Texnika oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalar yordamida talabalar kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari // NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2021y. – №2– B 397-402. (13.00.00; № 30) .
5. Дорофеев А. Профессиональная компетентность как показатель качества образования // Высшее образование в России. — 2005. - №4. - С.30-33.
6. Kuralov Yu.A. Ta’limda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish// CHirchik davlat pedagogika instituti. Konferentsiya materiallari. – CHirchiq, 2023y. – №1– B 156-162.

RAQAMLI PEDAGOGIKA: RIVOLANISH XUSUSIYATLARI VA PEDAGOGIK JARAYONIDA OMMALASHUVI

Usmonov Asliddin Shamsiddinovich[1], Meyliqulov Murodulla Otabek o‘g‘li[1], Islomov Bekzodjon Ilg‘or o‘g‘li[1], Muhiddinov Nurmuhammadxon Fozilxon o‘g‘li[1]

[1] Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston

asli.usmon@mail.ru, meyliqulovmurodulla@gmail.com, bekzodislomov2036@gmail.com, muhiddinovnurmuhammadxon1@gmail.com

Annotation: The term “digital pedagogy” is analysed in domestic and foreign pedagogical theory. The idea of the necessity of moving away from the metaphoricity principle in the interpretation of this concept is proved, the need for its inclusion in the scientific apparatus of modern pedagogy as a sign phenomenon reflecting a new area in the development of the conceptual foundations of educational practice is substantiated. The author’s approach to the definition of the term “digital pedagogy” is revealed, its essential characteristics and the boundaries of technological application are determined.

Key words: *digital pedagogy, pedagogical metaphor, meaning, concept, term, evolution of meaning, technology.*

Bugungi kunda pedagogika va ta’lim sohasining terminologik ba’zasida turli manbalar, shu jumladan xorijiy, asosan ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlardan olingan ma’lumotlar hisobiga doimiy ravishda kengayib bormoqda. Bu birinchi navbatda, fanlararo darajadagi pedagogik

tadqiqotlarning paydo bo‘lishi va umuman ham ta’lim ham ijtimoiy jarayonlarni keng ko‘lamli raqamlashtirish bilan bog‘liq. Bundan tashqari didaktika va mavzu usullari o‘rtasidagi o‘zaro ta’siri yanada moslashuvchan bo‘lganligini ta’kidlash kerak.

Bizning vazifamiz zamonaviy pedagogik bilimlarda “Raqamli pedagogika” tushunchasi rivojlanishning qaysi bosqichida ekanligini aniqlash va uni ta’riflashda ushbu tushunchaning asosan metaforik qo‘llanilishini engib o‘tadigan yondashuvlarni aniqlashdir. Ushbu vazifa nafaqat leksik tushunish nuqtai nazaridan, balki asosan zamonaviy o‘quv jarayonining atributi, rivojlanayotgan shaxsning tafakkuri va qobiliyatlarini shakllantirishning innovatsion modeli sifatida dolzarb bo‘lib borayotganini inkor etib bo‘lmaydi[1].

Pedagogik tushunchalarning bu ikki turiga yangi bilimlarning real belgilariga ega bo‘lgan atamalar va “murakkab” bilim belgilariga ega bo‘lgan tushunchalarni kiritamiz. Biz masalan ta’limni “murakkab” pedagogik hodisa deb hisoblaymiz. Ta’lim nazariyotchilari va amaliyotchilarining zamondoshlari va keyingi avlodlariga katta ta’sir ko‘rsatgan ushbu sohadagi muallif pozitsiyalarini eng yaxshi anglash va taqdim etishni tarixiy-pedagogik tadqiqotlar tasdiqlaydi. Shunday qilib, turli davrlardagi ta’lim nazariyotchilari va amaliyotchilarining asarlari o‘zining yorqin tasviri, metaforik tafakkuri va tili bilan ajralib turadi (masalan, ta’lim haqidagi romanlar: J.J. Russoning badiiy va pedagogik asarlari. Makarenko, pedagogik jurnalistika V.V. Karakovskiy va boshqalar). Pedagogik faoliyatning tavsiflari, o‘qituvchining qiyofasi va uning shaxsiy va kasbiy xususiyatlari (ma’naviyat, fidoyilik, o‘zini o‘zi inkor etish, ma’naviy yaqinlik) tarixiy va pedagogik bilimlarda taqdim etilgan[2].

Ushbu maqolaning mavzusi “Raqamli pedagogika” - yangi pedagogik hodisa va zamonaviy ta’lim haqiqatining kontseptsiyasi, bir tomondan, ta’limning kundalik va me’yoriy tezaurusiga mustahkam kirgan. , boshqa tarafdan uning pedagogikada kontseptual va asosiy shakllanishi hali tugallanmagan. Hozirda bu atama qo‘llanila boshlagani tashvishli masala ilmiy pedagogik adabiyotlarda keng metaforik subyektiv polisemantik va polisemantik kontekstda ko‘rinadi.

Bu ta’lim tizimi ko‘pincha “bilimli” pedagogika bilan qarama-qarshi qo‘yilgan semantik pedagogikaga tobora ko‘proq e’tibor qaratilayotgani kashfiyot emas. “Ma’noli pedagogika” o‘quv maqsadlari sifatida o‘z oldiga qo‘yadi: o‘quvchilarning ichki dunyosi bilan birlashtirilgan va ularning qadriyatlar tizimi va kundalik amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan bilim, qobiliyat, ko‘nikmalar shular jumlasidandir[3].

Ushbu maqola doirasida biz “Raqamli pedagogika” atamasini aniqlashga yondashuvimizni taklif qilamiz, bu bizning fikrimizcha, qidiruvning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Ushbu hodisaning ilmiy, yangi paydo bo‘layotgan yangi sohasi va o‘quv intizomi sifatida mustahkam asoslarini shakllantirish kerak. Falsafiy asoslarni aniqlash raqamli pedagogika va yangi ta’lim amaliyotini talabaning o‘z ma’nolarining yangi pedagogikasini yaratish darajasiga ko‘tarilish imkonini beradi.

Raqamli pedagogikani pedagogika fanining raqamli ta’limning mohiyati va qonuniyatlarini, shaxs rivojlanishidagi “raqamlashtirilgan” ta’lim jarayonlarining rolini ochib beruvchi, ularning samaradorligini oshirishning amaliy usullari va vositalarini ishlab chiqadigan sohasi sifatida tushunishni taklif qilamiz.

Pedagogik bilimlarning umumiy tuzilishi haqidagi tushunchani ekstrapolyatsiya qilish raqamli didaktika bilan bir qatorda raqamli ta’lim nazariyasi doirasida raqamli pedagogikaning tavsifini talab qiladi. Raqamli pedagogika kontekstida yangi semantik terminologik soha aniqlandi: raqamli ta’lim, raqamli ta’lim, raqamli ta’lim, kibersotsiallashtirish, raqamli didaktika, raqamli ta’lim sub’ektlari, raqamli ta’limni boshqarish, raqamli ta’lim tizimi va boshqalar. Pedagogika fanining yangi sohasi sifatida raqamli pedagogikaning asosiy atamalari haqidagi tushunchamizni taqdim qilaylik.

Raqamli didaktika - raqamli pedagogikaning bo‘limi bo‘lib, uning predmeti raqamli ta’lim o‘qitish va o‘qitish o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir vositasi sifatida o‘quvchilarning ta’lim mazmunini turli darajadagi nazorat ostida va mustaqil egallash, yaratish jarayonida o‘zlashtirishi va qurishini ta’minlaydi[4].

Raqamli ta’lim nazariyasi – raqamli pedagogikaning bo‘limi bo‘lib, uning predmeti ta’limning mohiyati, uning qonuniyatlari, tendentsiyalari va raqamli makonda rivojlanish istiqbollari; raqamli ta’lim makonida ta’limning tamoyillari, mazmuni, shakllari va usullari, ta’lim nazariyasi va metodologiyasini ishlab chiqadi.

Raqamli ta’lim - bu elektron ta’lim makonidan foydalangan holda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan va odamlar manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladigan, oila, jamiyat va davlat, shuningdek, ma’lum bir shaxsning olingan bilimlari, qobiliyatlari, ko‘nikmalari, qadriyatlari, tajribasi va kompetentsiyalari yig‘indisi, shaxsning intellektual, ma’naviy, axloqiy, ijodiy, jismoniy va (yoki) kasbiy rivojlanishi,amalga oshiriladigan yagona, maqsadli ta’lim va tarbiya jarayoni.

Raqamli ta’limda ta’lim - bu jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, qoidalar va xulq-atvor normalari asosida o‘quvchining o‘zini o‘zi belgilashi va ijtimoiylashishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan elektron ta’lim muhitidagi faoliyat. Shunday qilib, raqamli pedagogika raqamli ta’limning mohiyatini, qonuniyatlarini, raqamlashtirilgan ta’lim jarayonlarining shaxs kamolotidagi rolini ochib beruvchi, ularning samaradorligini oshirishning amaliy usullari va vositalarini ishlab chiqadigan fan sohasi sifatida namoyon bo‘ladi[5].

“Raqamli ta’lim” ni (xususan, raqamli didaktika) texnik o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqish kontekstida ko‘rib chiqish yangi ta’lim sifatida bog‘lanish amaliyotini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab tarkibni soddalashtirishdir. Bu esa bog‘lanish nazariyasi, shuningdek, “jamoada o‘rganish” qoidalari va tamoyillari, o‘z navbatida asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, texnologiyaning raqamli formatga kiritilishi muallif tomonidan o‘zini-o‘zi e’lon qilgan yangi-texnologiya emas, balki texnologiya aslida qanday ekanligining ob’ektiv dalili bo‘ladi. Shunday qilib, ta’lim texnologiyalarini mashina sinovidan o‘tkazish mumkin. Bu simulyatsiya texnologiyalaridan (masalan, virtual pedagogik simulyatorlar) foydalanishda ishonchli tajriba mavjud bo‘lsa-da, pedagogik jarayonni algoritmlash sohasidagi yangi vazifalarning mohiyatini tashkil qilishi mumkin[6].

Ehtimol, simulyatorning xususiyatlari haqida gapirishga hali erta - hozircha bu faraziy va deklarativ ko‘rinadi. Turli nashrlar tajribaning yaxlitligi va simulyatsiya vositalaridan foydalanish sharoitida nostandart vaziyatlarni ishlab chiqish haqida tobora ko‘proq gapirayotganiga qaramay, bizga vaziyat boshqacha ko‘rinadi: faqat tor texnikalar va standart vaziyatlarni kiritish mumkin. “jonsiz”, virtual pedagogikaning algoritmi va nostandart bo‘lmagan hamma narsa haqiqiy amaliyot va jonli muhokama masalasidir.

Ushbu amaliyotlar doirasidan tashqarida nafaqat pedagogika fanining qarorlari, balki uni shakllantirish ham qolayotganiga amin bo‘lgan tadqiqotchilar soni ortib bormoqda. Raqamli pedagogikaning falsafiy va psixologik asoslarini aniqlash, tadqiqot metodologiyasining xususiyatlarini aniqlash, raqamli ta’lim nazariyasi kabi muhim muammolar shular jumlasidandir.

Zamonaviy olimlar, amaliyotchi o‘qituvchilar va ta’lim sohasining eng yuqori tuzilmalari vakillari bir ovozdan ta’lim tizimi rivojlangan sharoitdan uzoqlashish - yangi ta’lim muhiti shakllantirilishi yo‘nalishida tub o‘zgarishlar yuz berayotganini bir ovozdan ta’kidlamoqda. Ko‘rinib turibdiki, eski materiallar, usullar va texnologiyalar har doim ham bu muhitga osongina ko‘chirilmaydi, aksincha, unda boshqa imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalarni yaratish va qo‘llash muvaffaqiyatli ta’lim paradigmasi tushunchasini tushunishga bog‘liq. Ta’lim maqsadi bilimlar yig‘indisini o‘zlashtirish emas, balki muvaffaqiyatli ta’lim va kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan mavzu, shaxsiy ta’lim kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantirish hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Опалко С.Г. Цифровая педагогика в системе образования // Успекҳи современной науки. 2016. Том 2. № 12. С.92-96.

2. Шалйгина И.В. Реферат манифеста о цифровой образователъной среде // Совет ректоров. 2015. №12. С. 46-59.

3. Каменез, Н.В., Ваганова, О.И., Смирнова, З.В., Булайева, М.Н., Кузнецова, Е.А., Маселено, А. Ехпериенсе оф тҳе Усе оф Елестронис Траининг ин тҳе Едусатионал Просесс оф тҳе Руссиан Ҳигҳер Едусатионал Институтион. Интернатионал Жоурнал оф Енгинееринг анд Течнологй(УАЕ), 2018, 7 (4), пп. 4085-4089.

4. Карабелская И. В. Использованийе цифровйкҳ текҳнологий в образователном процессе вйсшей школй // Вестник УГНТУ. Наука, образованийе, економика. № 1 (19), 2017. С.127-131.

5. Мишланова С. Л., Ивинскикҳ Н. П., Пенкова Т. В. Концептуалная метафора в методическом дискурсе // Вестник ЛГУ им. А. С. Пушкина. 2010. № 3 УРЛ: http://cyberleninka.ru/article/n/konseptualnaya-metafora-vmetodicheskom-diskurse(data obrashcheniya: 19.08.2019).

6. Кларин М. В. Инновации в обучении: метафорй и модели: анализ зарубезҳного опйта. М.: Наука, 1997. 223 с. УРЛ: http://psychlib.ru/inc/absid.php?absid=57121(data obrashcheniya: 19.08.2019).

O‘RTA TA’LIMDA DASTURLASH TILINING MUHIMLIGI HAQIDA

N.R. Zaynalov[1], M.A. Vafayev[1], P.F. Nasriddinova[1]
[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston
nodirz@mail.ru, mirabidvafayev@gmail.com, p.fariddinovna@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘rta ta’limda mavjud informatika fani doirasida mavjud muammolar ko‘rib chiqilgan. Keltirilgan aniq fikrlar va tavsiyalar informatika darsliklarini tubdan isloh qilishni taqoza etilishi va buning natijasida yosh o‘quvchilarimizning ushbu sohaga bo‘lgan qiziqishini ortishiga erishish mumkin bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar. *Informatika, Dasturlash, Innovatsiya.*

Umumiy o‘rta ta’lim va akademik litseylarda informatika fanini o‘qitish holati hozirgi zamon va taraqqiyot talablariga deyarli javob bermaydi. Shu bilan birga metodolik masalalarga yetarli darajada e’tibor berilmagan. Uzluksiz ta’lim bosqichlariga mos holda informatika fanning asosiy konseptual modeli ishlab chiqilmaganligi, ushbu fanni o‘qitish samaradorligini oshirishga imkon bermayapdi.

Mamlakatimizda dasturlash sohasini rivojlantirishga qaratilgan yosh dasturchilar tanlovlari, olimpiada va turli musobaqalar o‘tkazilmoqda. Ushbu tadbirlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ommalashtirish bilan birga, boshqa qator muhim masalalarni hal etishga ham xizmat qiladi.

O‘quvchi-yoshlarimizda kompyuterda ishlash ko‘nikmasi shakllanib bo‘lgan. Ammo kompyuter bilan haqiqiy “muloqotga” kirishish uchun uning “til”ini bilish kerak. Biror masalani kompyuterda yechish uchun, avvalo, uning algoritmini tuzib, so‘ng bu algoritmni kompyuter tushunadigan qonun-qoidalar asosida yozish kerak. Bu yozuv dastur deb ataladi. Dastur tuzish jarayoni murakkab bo‘lib, bunda algoritmik fikrlash qobiliyati talab etiladi. Shu bilan birga qaysi dasturlash tiliga asoslanishni tushunib olish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2018-yil 2-noyabr kuni xalq ta’limi tizimini yanada rivojlantirish borasidagi islohotlar samaradorligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi. Unda quyidagi e’tiroz bildirildi: “Umumta’lim maktablarida axborot texnologiyalarining joriy etilishini ham qoniqarli deb bo‘lmaydi. Misol uchun, ba’zi maktablarda informatika fani hali hamon eski dasturlash tili asosida o‘tilmoqda, bir qator kompyuter jihozlari yaroqsiz holga kelib qolgan”. Bir qarashda sezilarsiz bo‘lgan ushbu kamchilik, yillar davomida to‘planib juda katta muammolarga olib keldi. Ma’lumki, har bir hodisaning sodir bo‘lish sababi juda ko‘p omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bu omillar to‘planib sodir bo‘layotgan hodisaning ro‘y berishini keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda ta’lim mazmunini sifat jihatdan yaxshilashda har bir pedagog xodimga alohida ma’suliyat yuklanadi. Fan, texnika rivojlanib, fundamental fanlarga bo‘lgan talab ortib borayotganligi uchun har bir dasturlash tilini yangi talqinda tushuntirishi va ularga yangi texnologiyalarni tatbiq qilishi kerak. Ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida hozirgi mavjud vaziyatga chek qo‘yish lozim. Shu maqsadda uch narsani e’tiborga olish zarurligini eslatib o‘tamiz:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktab informatika kursida asosan dasturlash tilini va faqatgina unga bog‘liq bo‘lgan mavzularni kiritish zarur.
2. Ushbu fan doirasida dasturlash tilini tanlashda quyidagi sohalarni inobatga olish zarur: amaliy masalalar; tizimli dasturlar va web dunyosi.
3. Akademik litsey va yuqori sinflarda dasturlash tilining barcha imkoniyatlarini qamrab olish kerak.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda dasturlash tilini tanlash – bu murakkab masala ekanligi aniq bo‘lmoqda. Shu bois ozgina tarixga nazar tashlasak.

O‘rta maktabda dasturlash tillari yillar davomida o‘zgarib keldi. Buning asosiy sabablari: dasturlash paradigmasining o‘zgarishi, ishlab chiqarish talablarining kuchayishi, qo‘llash doirasining kengayishi, kompyuter texnikasining rivojlanishi, axborot texnologiyalarining xilma-xil yo‘nalishlarini paydo bo‘lishi va boshqalar. Bunda ko‘z oldimizga quyidagi dasturlash tillari keladi: Fortran, Basic, Pascal. Ushbu tillarning uzluksiz rivojlanishi davom etishini inobatga olish va Informatika fanida ularni nazarda tutish deyarli amalga oshirilmay qoldi. Eng achinarlisi – bu ushbu fan doirasida ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarining mantiqiy asoslari ishlab chiqilmaganligida. Bu esa o‘quvchilarni savodsiz bo‘lishiga olib keldi. Tushunarli bo‘lishi uchun, agar biz matematika fanini faqat kalkulyatorda hisob-kitob qilishni o‘rgatsak edi, unda qanday achinarli vaziyatga tushgan bo‘lar edik.

Shu o‘rinda, informatika darsliklaridagi kamchiliklar katta muammolarga olib kelmoqda, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida keltirilgan. Unda Shavkat Mirziyoev axborot texnologiyalari sohasidagi qator muammolarni ma’lum qildi, shulardan biri – bu “…kiberxavfsizlik sohasidagi nazorat tizimi … mukammal emasligi…” ta’kidlab o‘tilgan.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun dasturlash texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor berish zarur. Shu bois bo‘lsa kerak ta’lim sifatini baholash mexanizmi ham ishlab chiqildi [1]. Ammo yuqoridagi muammoning yechimi bunda emas. Birinchi navbatda informatika sohasidagi darsliklarni tubdan mazmunan o‘zgartirish talab etiladi. Chunki maktab darsliklari ta’lim sifatini oshirishda birinchi manba hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu muhim manbalar yaratilishi va ularning sifati haqida turli fikr-mulohazalar bildirilmoqda. Albatta, bu tabiiy holat va o‘z navbatida foydali hamdir. Shu sababli bu kabi qarashlar soha mutaxassislarining o‘z ishiga bo‘lgan mas’uliyatini oshirish, xato va kamchiliklar ustida ishlashiga ijobiy ta’sir etadi.

Maktabda informatika fanidan o‘qitiladigan darsliklar bugungi kun nuqtai nazaridan ancha eskirgani va ularni zamonaviy ilm-fan ma’lumotlari bilan boyitish zarur deb ta’kidlash – bu hech narsa aytilmadi deganidir. Chunki undagi kamchiliklarni sanab o‘tsak, yana bitta kitob bo‘ladi. Masalan, 7-sinf darsligini olib qarasangiz, unda keltirilgan IASNET tarmog‘ini hozirgi kunda kim biladi? Ammo undagi sanoq tizimlariga chuqurroq tox‘talish, ushbu fanni matematika bilan uzviy bog‘lash va shu bilan o‘quvchilarda qiziqishni oshirish mumkin bo‘ladi.

Albatta, bunday muammolar boshqa fan darsliklarida ham mavjud. Demak, fanda o‘rganilayotgan tadqiqot obyektlarni boshqa fanlar bilan bog‘lash zarur, bu esa mualliflardan chuqur bilimni va mahoratni talab qiladi.

Umuman olganda, har qanday maktab darsliklari bugungi va ertangi kun talabiga javob berishini aniqlashda ularni har tomonlama ekspertizadan o‘tkazish kerak bo‘ladi. Buning uchun taniqli pedagog-olimlar, amaliyotchi o‘qituvchilar tomonidan ochiq va sirli ravishda o‘rganishdan so‘ng darsliklarni chop etishga ruxsat etish zarur.

Hozirgi nashr etilgan darsliklarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ular bevosita DTS va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo‘lib, yangi o‘quv dasturlariga mos va dizayn jihatdan sifatli nashrga tayyorlangan. Demak, birinchi muammo bu DTS ni qayta ishlab chiqish zarur. Bunda kompetensiyaga emas, balkim bilimlarni shakllantirishga e’tibor qaratilishi lozim. Masalan, 6-sinf o‘quvchilari uchun informatika yo‘nalishidagi darslikda matn bilan ishlash asoslari berilgan, albatta, bu kompetensiya va u o‘quvchilarni aqliy rivojlantirmaydi. Umuman fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmagan darslik kimga kerak? Matn bilan ishlashni o‘quvchilar dasturlash jarayonida ham o‘rganib olishadi va buning uchun ularning qimmatli vaqtlarini yoqotish shart emas. Shu bois, bu jarayonda maktab o‘qituvchilarining fikr-mulohazalarini o‘rganish va ularning yangi sharoitga tayyorlash talab etiladi.

Yana bir e’tirof etilgan muammoga nazar tashlasak: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida qayd etilishicha, davlat organlari va tashkilotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilayotganiga qaramasdan “Elektron hukumat” tizimining joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishiga, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi kurashishga to‘sqinlik qiluvchi qator muammolar saqlanib qolmoqda. Ya’ni axborot xavfsizligi sohasidagi ushbu muammolarning negizi aslida maktab darsliklaridan kelib chiqadi. Chunki axborot xavfsizligini ta’minlashda birinchi navbatda o‘quvchilarni dasturlashga chuqur o‘rgatish zarur bo‘ladi.

Dasturlash jarayoni bevosita san’atga o‘xshab ketadi. Bunda ham dasturlovchi oddiy harflar va belgilar orqali o‘z tasavvurida yaratadigan olami bu dasturdir. Dasturni ishga tushirganda Siz o‘ylagan narsalar qay darajada bajarilishini his qila boshlaysiz, hech qachon xayolingizga kelmagan xatoliklar paydo bo‘la boshlaydi. Siz fikrlashni boshlaysiz, algoritmni o‘zgartirasiz, yaxshilaysiz va yangi algoritmlarni kashf qilasiz. O‘quvchilar dasturlash jarayonida ijodiy fikrlashni, murakkab vaziyatlarni yakka tartibda yoki jamoa bo‘lib bartaraf etishni o‘rganadi, eng so‘nggi texnologiyalarni o‘zlashtirib, ularni o‘z dasturiy mahsulotlarida qo‘llashga harakat qiladi. Bularning hammasi o‘quvchilarni aqliy rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

E’tibor bering, bularning barchasi innovatsion faoliyatning o‘zidir, chunki innovatsiya, bu-yanada mukammalroq holatga o‘tish uchun yaratiluvchi yangiliklardan iborat bo‘lib, o‘ylab topish, ishlab chiqarish va ixtiro qilish lozim bo‘lgan yangi vosita, yangi usul, yangi mahsulot, yangi texnologiyalar demakdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ―”Innovatsiya – bu kelajak degani” so‘zlari katta ma’noga ega bo‘lib, innovatsiya kelajakda jamiyat talab qilgan iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik yoki boshqa turdagi samaraga erishish maqsadida ilmiy yangiliklarni joriy etishning yakuniy natijasi bo‘lib hisoblanadi.

Aytish joizki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning [2] keltirilgan qarori bu boradagi ishlarni zamon talabi darajasida takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni kunda mazkur qarorning 3-ilovasi bilan “2018-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar” dasturi ishlab chiqilgan. Unga muvofiq, darslik va ilmiy-metodik adabiyotlar yaratish, nashrga tayyorlash va tajriba sinovdan o‘tkazish tartibi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilmoqda. Kelgusida maktab darsliklarini ushbu tartib asosida yaratish ko‘zda tutilgan.

Shunday qilib, maktab darsliklarining sifatli bo‘lishini ta’minlash bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Chunki bu darsliklar aziz farzandlarimiz bilimini boyitish, ma’naviy yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ularni sifatli, mazmunan boy va mukammal ilmiy xulosalar asosida yaratish esa mutaxassislarning asosiy vazifasidir.

Agar biz informatika fani doirasida to‘liq dasturlash tilini joriy qilishni tushungan bo‘lsak, endi qaysi dasturlash tilini kiritish haqida fikr yuritsak.

Informatika sohasida mavjud muammolardan biri – bu axborot xavfsizligidir. Bu soha ko‘p qirrali bo‘lib, ushbu sohada tayyorlanadigan mutaxassislarga qaysi dasturlash tillarini o‘rgatishni oldindan belgilab qo‘yish zarur. Hozirgi kunda Assembler, C++, Python, PHP, Java dasturlash

tillari va ularninng har xil versiyalari ushbu sohada keng qo‘llaniladi. Yillar davomida to‘planib kelingan taj-ribadan kelib chiqqan holda va o‘quvchilarning malakasini inobatga olgan holda C++ va Python dasturlash tillarini tavsiya qilish mumkin. Bularda dasturlash texnologiyalarining barcha imkoniyatlari mujassamlashtirilgan. Masalan, Python bu umumiy maqsadli dasturlash uchun keng tarzda foydalaniladigan yuqori darajali dasturlash tili, uni o‘rganish oson va u qulay sintaksisga ega. Undan tashqari skriptli dasturlash tillariga kiradi. Python dinamik tiplarni hosil qilishi, obyektga yo‘naltirilgan, funksional va strukturali, avtomatik ravishda xotirani boshqarish va albatta ko‘p oqimli dasturlash tillaridan biri. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari universitet va kollejlarida o‘qitishda Python dasturlash tili qo‘llaniladi. Shuningdek erkin va ochiq kodli dasturiy ta’minotdir. Ko‘plab platformalarda hech qanday o‘zgartirishlarsiz ishlay oladi. Aynan shu sababdan, Python tilida ishlovchilar dunyoning yirik axborot kompaniyalarida nihoyatda yuqori talabga ega.

Shunday qilib, informatika fanidan maktab darsliklarini tubdan yangilash, ularni faqatgina matematika nuqtayi nazar hisob-kitob uchun emas, balkim til imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan misollar bilan boyitish talab etiladi. Buning davomi sifatida “Axborot xavfsizligi” ta’lim yo‘nalishida C++ bilan birga Python dasturlash tilini kiritish kelgusida malakali mutaxassislarni tayyorlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2018 yil 8 dekabrdagi №997 sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.

2. “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 5 sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori.

3. Халмурадов Р.И. Касбга йўналтирилган таълим ҳақида // “Ta’lim, fan va innovatsiya” маънавий-маърифий, илмий-услубий журнал. – 2017. – №2. – 73-75 бетлар.

USING DISTANCE EDUCATION OPPORTUNITIES IN THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Islamova Maftuna Sharofiddinovna
Associate Professor of the Department of Natural Sciences, Chirchik Higher Tank Command and Engineering School, Associate Professor.
maftuna_islamova@inbox.ru

Abstract. This article examines the emergence of the distance education system of the XXI century, the world experience of distance education, the advantages and disadvantages of distance education, the use of distance education in higher and secondary education, the prospects of distance education in Uzbekistan in 2019-2020 and general conclusions on distance education.

Key words. Distance learning, distance learning, distance learning, state and non-state educational institutions, the Internet, the moodle system of distance education, interactive and non-interactive technologies of distance education, advantages and disadvantages of distance education.

The word distance - means to perform a certain action while maintaining distance. The term has entered the field of education, as well as many other areas of human life, such as electronics and automation, services, management, and the concept of ***"distance learning"*** has emerged in the education system.

The history of distance learning dates back to *1728*, when the Boston newspaper reported that stenographer *Caleb Phillip* had introduced a once-a-week training course based on mailing assignments. The announcement will be published[1]. In England, *in 1840, Isaac Pitman* introduced the postal system of stenography[2]. *By 1938,* distance learning based on radio and television had been introduced *in about 200 colleges,* universities, and schools[3]. An example of

the *Russian experience of distance learning* is the Moscow People's University named after general *A.M. Shanyavsky* and the " *Morekhodnaya"* School in Nakhodka. *V. P.Chernov* introduced distance learning here *in 1987*. The development of the *World Wide Web (www),* which resulted from the connection of small networks, brought the type of distance learning to an unprecedented new stage of development. In particular, *at the beginning of 2020,* the number of Internet users reached *4.5 billion.* This figure represents *50% of* the world's population, giving all of them access to distance learning. For this reason, the concept of distance education as a XXI century education is gaining ground today.

In the Republic of Uzbekistan, a number of measures have been taken to inform the education system, the effective promotion of ICT in the educational process, the establishment of distance learning. In particular, in order to form the skills of the younger generation to freely use information and communication technologies, *by 2020-2021, 9923* out of *20181 secondary schools* in the country, *97 out of 6 287.9 thousand students* studying in secondary schools of the republic, *5%* were fully equipped with computer classes [5].

The analysis shows that the educational institutions that have established a distance education system are divided into two groups: Public educational institutions; Non-governmental educational institutions.

At the beginning of 2020, the number of state higher education institutions in the country was *119. 441.0 thousand students* study there. *At the beginning of 2020,* the number of non-governmental educational institutions in the country will be *24,* with a total *of 20.1 thousand students.* This is *4.6%* of the total number of students, while non-governmental higher education institutions make up *20.2%* of higher education institutions in the country [5] In our country, state and non-state higher education institutions now offer distance learning based on distance learning.

The *"Distance Learning Courses" (for example: http://nuu.uz National University of Uzbekistan)* are organized by the universities of the Republic on their websites. Many useful and interesting remotely available in the field of education http://www.bilim.uz , http://www.bilimdon.uz, http://www.ilm.uz , websites such as http:/www.student.uz, http://www.study.uz were created. The most exciting thing is that not only universities, institutes, colleges and academic lyceums, but also schools have their own websites on the Internet.This convenience not only allows you to get acquainted with the educational institution and its capabilities at a distance, but also to use commonly loaded educational resources, to make appeals, to receive information.

In 2002, for the first time in the country, a video conference was organized between the *Office of the President, the Ministry of Foreign Economic Relations, the University of World Economy and Diplomacy and the Tashkent State University of Economics.* Among them, the use and participation in online video conferencing has become commonplace. Especially, in the system of higher education, using the opportunities of distance learning for the audience of students of Uzbekistan by professors and teachers of the world's leading higher education institutions on the basis of online lectures and master classes. In addition to, public educational institutions, distance learning courses are organized in the network of tutoring, and students study at home. Advances in technology and globalization have led to the rapid development and spread of distance education. Considering the distance learning courses and directions as a form of distance learning, it can be said that a lot of work has been done in Uzbekistan in this regard. However, *in 2019,* the world picture changed completely and distance education had the opportunity to reveal its conveniences, opportunities and aspects. The decision by the governments of *191 countries* to temporarily close educational institutions in the wake of the pandemic has had an equal impact on *1.6 billion students worldwide,* or *91%* of the world's student population.*World Bank* data show that *0.6 percent* of primary school-age children and *25 percent* of primary school-age children have the lowest level of education, and *7 million children* are on the verge of dropping out of school [11]. As of January 1, 2021, *664,771 teachers (477,775 of them are women and 186,996 are men)* are working in the Republic of Uzbekistan in the conditions of a pandemic. educational

institutions, *508,250* general education institutions, *3,693* academic lyceums, *3,685 vocational schools*, *3,193 technical schools*, and 32,070 teachers of education institutions[4] direct distance education.

The experience of the opportunities and conveniences of distance learning has been an important experimental period for the analysis of its shortcomings. A *UNICEF* study conducted *in 2019* found that television was the main media channel in Uzbekistan, accounting for *98.1%* of students aged *14 to 30*. Given this opportunity, in Uzbekistan, in the context of the pandemic, television remote online lessons were held for students of preschool and secondary schools. During the period from *March 31 to May 25, 2020*, a total of *4,492 video lessons* of *15-20 minutes for grades 1-11 were filmed* and broadcast. *2.6 million* subscribers per day through *84,000 subscribers* through the online school telegram platform observations were made and *5 million out of 6.2 million students* were covered through distance learning [11].

For distance learning, not only the text of the lecture, but also the relevant video lessons, cluster methods should be posted on a special website and given to students. This model of distance learning was first developed at the University of *New England, Australia (http://www.une.edu.au)* and is now used in all the world's leading universities. It was first used in Uzbekistan at the *Andijan Institute of Mechanical Engineering* (http://www.andmiedu.uz). At present, the *Chirchik State Pedagogical Institute in Tashkent region* (http // www.cspi.uz) has a full transition to this system[№9, 35-36 p].

The distance learning system in the moodle system has been widely used in the education system in the West in recent years. In this case, the student has the opportunity to study independently anywhere in the world, and the number of students is not limited, no matter the time, most importantly, the system has online classes, the teacher has the opportunity to conduct online Q&A.The teaching system is based on the principle of *Open Universities (United Kingdom Open University) (*http://www.open.ac.uk). The MOODLE system is currently used in major universities around the world. The MOODLE system has *about 2 million* registered users, 46,000 learning portals in *70 languages and 300 software developers in 200 countries.* The main technologies of distance learning are [9]:



Distance education revenue *in 2015 was $ 107 billion*, and *by 2025*, that revenue will *reach $ 215 billion.* The US dollar is projected to be. *In 2005*, the number of e-learning students in the world exceeded the number of students in traditional education, and *by 2025* this figure is expected to *reach 650 million.* North America and New Zealand are among the world's leading countries in the field of e-learning and distance learning today, and Asia and Western Europe are among the fastest growing countries in the field of distance learning. *By 2025*, the number of distance learning students is projected to be *2.5 times* the number of traditional education students. To date, more than 200,000 people have been educated in more than *400 distance* learning centers[10; 205-206 p].



List of used literature

1. Холмберг, Бёрье (2005). *Эволюция, принципы и практика дистанционного образования*. Studien und Berichte der Arbeitsstelle Fernstudienforschung der Carl von Ossietzky Universität Oldenburg [ASF] (нанемецкомязыке). ISBN 3-8142-0933-8.

2. Алан Тейт. «Размышления о поддержке студентов в открытом и дистанционном обучении» . Международный обзор исследований в области открытого и дистанционного обучения. 2003 год апрель.

3. Тайсон, Леверинг (1936). «Десять лет образовательного вещания». *Школа и общество*.

4. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/12375-o-zbekistonda-faoliyat-yuritayotgan-pedagoglar-soni-qancha

5. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/10378-umumta-lim-muassasalarining-kompyuter-sinflari-bilan-ta-minlanganlik-darajasi-to-g-risida-bilasizmi

6. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/6591-6771111-2

7. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/8165-maktablarda-ta-lim-olayotgan-o-quvchilarning-51-4-ini-o-g-il-bolalar-tashkil-etmoqda

8. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/10293-o-zbekiston-respublikasida-xorijiy-oliy-ta-lim-muassasalari-soni-ko-paymoqda

9. “Анализ мирового рқнка дистанционного образования” –Батаев Алексей Влидимирович, к.т.н., доц., Санкт-Петербургский ролитехнический университет Петра Великого//YoungScienttistinternationaljournal//№20(100)октябрь 2015 год

10. “Непревывность образования во время пандемии COVID-19: впечатления от внедрения дистанционного обучения всистеме общего образрвания в Узбекистане” Детский фонд ООН (UNICEF) Узбекистна сентярь 2020 год.

ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР БИЛАН ЎҚИТИШ ФАОЛИЯТИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ

Абдурашидова К.Т.[1], Зокирова Ф.Р.[2], Туляганов З.Я[2].
[1]Тошкент ахборот технологиялари университети, Тошкент, Ўзбекистон
[2]Тошкент давлат техника университети, Тошкент, Ўзбекистон
kamolabdurashidova@mail.ru, fzokirova002@gmail.com, zoxidjon@gmail.com

Аннотация: *Кейинги йилларда таълимни рақамлаштириш муаммоси бўйича эълон қилинган педагогик изланишларнинг деярли барчасида дастур воситалари сифатини яхшилашга эътибор қаратилмоқда. Ушбу мақолада рақамли таълимни анъанавий*

таълимдан фарки, рақамли технологияларга асосланган таълимда ўкувчилар қандай таълимларни олишлари мумкинлиги хақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: *Кредит тизим, рақамли таълим, рақамли технология, мультимедиа воситалари, виртуал холат.*

Компьютер ва коммуникация воситалари асосида ўқитиш ва ўқишнинг таълимда ташкил қилиниши жуда хам яхши самара беради.

Рақамли технологияларга асосланган таълимда ўкувчилар куйидаги ташкил этилган таълимларни олишлари мумкин:

1. Компакт дисклар ёрдамида мустақил ўрганиладиган курслар.
2. Виртуал ҳолатда масофадан ўқитиш курслари.
3. Европа кредит тизимига асосланган курслар.
4. Турли мультимедиа воситаларидан фойдаланиладиган таҳлилий курслар.

1 - шаклдаги таълим мустақил ўрганишга мўлжалланган бўлиб, унда ўқитувчи ва ўқувчининг бевосита мулоқоти назарда тутилмаган.

2 - шаклда ўқувчи экрандаги маълумотлар билан танишиш билан бирга ўқитувчи ва ўқувчилар билан мулоқот қилиш имкониятига эга.

3 - шаклда, асосан, ўқитувчи ва ўқувчи юзма-юз мулоқотда бўладиган таълим назарда тутиладики, бу жараёнда ҳам компьютер ва коммуникация воситаларидан фойдаланилади.

4 - шаклдаги таълим бирор муаммони ечиш мақсадида ўқитувчи ва ўқувчининг бевосита мулоқоти асосида ташкил этиладиган ўқув жараёни. Муаммони ечишнинг бир неча босқичида компьютер ва коммуникация воситаларидан фойдаланилади.

Маълумки, таълим жараёнидаги бош муносабат ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги муносабатдир. Рақамли таълимда хам бу боғланиш ўз шаклини ўзгартирган ҳолда асосий ўринни эгаллайди. Анъанавий таълимдаги боғланишлар қаторига ўқитувчи ва дарслик, ўқитувчи ва ўқув материали, ўқитувчи ва кўргазмали қурол, ўқувчи ва дарслик, ўқувчи ва ўқув материали, ўқувчи ва кўргазмали қурол кабилар кирса, рақамли таълимда уларнинг шакли бирмунча ўзгаради.

Табиийки, рақамли таълим ёрдамидаги таълим самарадорлиги педогоик дастурий воситанинг сифатига боғлиқ. Паст сифатли дастур таъминоти рақамли технология таълим воситаси сифатидаги имкониятларини тўлиқ амалга оширишга имкон бермайди ва ўқитиш самарадорлигини пасайтиради. Шу боис педагогик дастурий воситалар учун дидактик материалларни танлаш, ўқув материалига педагогик ишлов бериш, таълимга нисбатан компьютерни қўллаш босқичлари ва кетма-кетлигини аниқлаш билан боғлиқ қатор масалаларни ўрганиш ва уларга жавоб излаш долзарб масалалардан ҳисобланади.

Маълумки, анъанавий таълимда таълим мақсадлари, мазмуни, ўқитиш услублари, назорат натижаларини баҳолаш каби кўплаб жараёнлар тизимсиз, пала-партиш тарзда амалга оширилади. Бошқача айтганда, таълим илмий лойиҳалаштирилмайди. Таълимнинг асосий мақсади аксарият ҳолларда талабага билимни тайёр ҳолда беришдан, маълумотларни уларнинг эсида сақлаб қолишни таъминлашдан иборат бўлган.

Таълимни рақамлаштириш технологияси материални ўргатиш жараёни ўқув материалининг хусусиятларидан келиб чиқиб ташкил этилади. Ўқув материали ҳажм жиҳатидан кенг бўлиб, уни ўзаро боғланган қисмларга ажратиб ўргатиш имконияти бўлса, қисмлар бўйича тушунтириш фойдали бўлади. Ўқув материалини ўзаро мантиқан боғланган қисмларга ажратиб ўқитиш ўзлаштирилган билимнинг тузилишини мумкин қадар онгли ҳис қилишга, бу билимнинг олдин ўрганилган билимлар билан алоқадорлигини фикран тасаввур этишга олиб келади. Буларнинг барчаси ўқитувчи томонидан ўқув материалига педагогик ишлов бериш жараёнида ҳал қилинади.

Рақамли таълим технолигияларида таълим мазмунининг асосий таркибини ўқувчиларга ўргатиш мўлжалланган ўқув материали ташкил этади ва у ўз навбатида ўқув элементларига ажратилади. Шунингдек, ўқув материалининг ўқув топшириғи, ўқув саволи, ўқув кўргазмаси каби қатор шакллари мавжуд.

Ўқув материали ҳар бир ўқув предмети бўйича ўқув дастури ва дарсликда маълум билимларнинг модели тарзида берилади. Рақамли таълим жараёни ўқув материалини ўрганишдан иборат экан, таълим жараёни бошлангунга қадар ўқув материалини таҳлил этиш ва унга педагогик ишлов бериш лозим. Ўқув материалига педагогик ишлов бериш жараёни бир неча босқичда амалга оширилади. Бундай тадбир ўқув материалини унинг энг кичик бирлиги бўлган ўқув элементларига ажратишдан бошланади.

Таълимда рақамли технологияни ишлатиш жараёнида ажратилган ўқув элементлари маълум тизимга солинади ва ҳар бир ўқув элементи мазмунини очиб берувчи ўқув материали матни тайёрланади. «Ҳар қандай ўқитиш тизимида марказий ўринни билимларнинг таянч тушунчалари эгаллайди. Билимларнинг таянч тушунчалари автоматлашган ўқитиш тизимида муҳим ўрин тутади: улар мустақил ўрганиш предмети психологик хусусиятларини аниқлашда ташҳис элементи, таълим жараёнини оптималлаштириш параметри ҳисобланади.

Ўқув материали ўзаро мантиқан боғланган қисмлардан иборат. Шу туфайли уни қисмларга - ўқув элементларига ажратиб тушунтириш самарали ҳисобланади. Баён қилиш услуби ўқув материалини элементларга ажратиб ўргатишда энг қулай иш услуби саналади. Қолаверса, берилган ахборотнинг ҳажми қанча кичик бўлиб, қанча кўп текширилса, рақамли таълим жараёни шунча муваффақиятли бошқарилади.

Баён қилинадиган материалнинг ҳар бир бўлаги мазмунан бой ва ўқувчиларни фаолиятга етакловчи бўлиши лозим. Ўқувчиларни ўқув фаолиятига қизиқтиришнинг асосий манбаларидан бири таълим мазмунидир. Ўқувчиларнинг ўқув фаолиятига қизиқиши ортиши учун таълим мазмуни дидактик принципларга тўла амал қилган ҳолда янги ҳаётий мисоллар, долзарб муаммолар, фан янгиликлари билан бойитилиб, ўқувчиларнинг диққатини ўзига жалб қилиши лозим.

Аввало, ўқитувчи томонидан тайёрланадиган саволлар, ёзма ва амалий топшириқлар, ўқув-тажриба ишлари ўқувчилар ёшига мос, улар учун тушунарли, ақлий кучларини ўстириш мазмунига эга бўлиши керак. Бу савол-топшириқлар мазмуни ўқувчиларда қизиқиш, таажжуб, ажабланиш ҳиссини уйғотади. Ана шу қизиқиш ўқувчини тафаккур оламига олиб киради. Объект билан ҳиссий билиш жараёнлари шу қадар боғланиб кетадики, бу билиш фаолиятининг юқори чегара даражаларининг намоён бўлиши билан белгиланади.

Таълимда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг асосий мақсади ўқувчиларда билимлар ҳосил қилиш, ўқув ва малакаларни шакллантириш ҳамда улар тафаккурини такомиллаштиришдан иборат, ўқувчиларга ўқиш, ёзиш, гапириш, тинглаш, фикрлаш кўникмаларини бирдек ривожлантириб бориш лозим. Бу мақсадни амалга ошириш учун дарс жараёнида турли мазмундаги машқларни бажартириб бориш муҳим аҳамият касб этади.

Анъанавий ўқитиш тизимида зарур малакаларни шакллантириш кўп сондаги машқларни такроран бажартириш орқали эришишга асосланган. Мавжуд дарслик ва тўпламларда бир хил турдаги машқларнинг кўп сонда берилишини ҳам шу билан изоҳлаш мумкин. Бизнингча, малака ҳосил қилишда машқларнинг бу қадар юзаки бажарилишини такрорламасдан, машқларнинг ҳар хил турини танлаш ва уларни ўқувчилар томонидан онгли, фаол бажаришларини таъминлаш орқали эришиш лозим.

Рақамли таълим технологиялари ёрдамида ўқувчилар бир-бири ва ўқитувчилар билан мулоқот қилишлари ҳамда маълумотлардан ҳамкорликда файдаланишлари мумкин.

Таълимда рақамли технологиялар орқали ўқитиш барча таълим муассасаларини қизиқтирмоқда. Ўқув муассасалари рақамли технологияларни анъанавий ўқитишни тўлдирувчи таълим шакли сифатида тан олмоқда. Шунингдек, таълимнинг бу турини узоқ масофада маълум шакл ва мазмунда жойлашган ўқув материалига ва ўқитувчиларга мустақил ўрганиш учун мурожаат қилиш имконини берадиган манба сифатида ҳам қайд қилиш мумкин. [1]

Шунингдек, автоматлаштирилган таълим тизими тушунчаси ҳам ишлатилмоқдики, бу атама ўз ичига ўқитувчи, ўқувчи, ўқув-услубий ва дидактик материалларни, маълумотларни автоматик қайта ишлайдиган тизимни мужассамлаштирган автоматлаштирилган ахборотли муҳитга нисбатан қўлланилади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Акимова О.Б., Щербин М.Д. Цифровая трансформация образования: своевременность учебно-познавательной самостоятельности обучающихся // Инновационные проекты и программы в образовании. 2018. №1.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDAGI ROLI

Maxamadjanov Islomjon Usmonjon o'g'li
Namangan muhandislik-qurilish instituti tayanch doktoranti, Namangan, O'zbekiston
islomiy1101@gmail.com

Annotatsiya: *O'quvchilarning mustaqilligi va o'zini o'zi boshqarishi bilan mustaqil ta'limni roli tobora o'sib bormoqda. Ushbu maqola rivojlanayotgan ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashni ahamiyati haqia so'z boradi. Texnologiya integratsiyasi bilan bog'liq afzallik hamda muammolarni tahlil qilish orqali tadqiqot uning o'z-o'zini boshqarishga ta'sirini har tomonlama tushunishni ta'minlashga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, mustaqil ta'lim, raqamli savodxonlik, motivatsiya, raqamlashtirish.*

KIRISH. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ta'lim jarayoni ishtirokchilarining mustaqil ishini takomillashtirish, talabalarning shaxsiy-kasbiy, ijodiy imkoniyat va integrativ tafakkurini shakllantirish, onlayn rejimida o'qitishning psixologik xossalarini aniqlashtirish, tarmoqlararo integratsiyaning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda talabalarning mustaqil ishini kompotentalarini rivojlantirishda zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanish, kasbiy yo'naltirilgan ta'lim mazmunini takomillashtirish, multimedia, axborot- kommunikatsiyalaridan keng ko'lamda foydalanish, talabalarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish, talabalarning mustaqil ishini tashkil etish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida xorijiy davlatlar tajribalari asosida talabalarning mustaqil ish faoliyati, o'quv uslubiy ta'minoti, yangi o'quv texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro ilmiy ta'lim mussasalari bilan xamkorlik aloqalar o'rnatishi, o'quv jarayoniga, xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan pedagogik texnologiyalar va o'quv uslubiy materiallarni joriy qilishning me'yoriy asoslari yaratildi va ta'lim muassasalarining infrastrukturasi rivojlantirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Mazkur maqolada raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarning mustaqil ta'limni tashkil etishdagi ahamiyati, raqamlashtrishning o'ziga yarasha ijobiy yoki salbiy tomonlari jadvallar ko'rinishida keltirilib o'tilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR: Biz bilamiz ta'limning bir necha shakllari mavjud bugun kun ta'lim tizimida mustaqil ta'lim va uni raqamlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Avvalo raqamlashtirish tushunchasiga ta'rif bersak, "Raqamlashtirish" so'zi ingliz tilidagi "digitization" deb tarjima qilinadi. Bu so'z birlamchi ma'noni anglatadi, ya'ni ma'lumotlarni raqamlar shaklida ifodalash va saqlash jarayoni. Raqamlashtirish, asosan, traditsionallikka asoslangan, qalam va qog'oz asoslangan ma'lumotlarni raqamlar shaklida saqlash va ularga elektron mijozlar va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali kirish berishni o'z ichiga oladi. Raqamlashtirish, kompyuterlar, internet, ma'lumotlar bazalari va boshqa texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Endi mavzuimiz doirasida mustaqil ta'limda raqamlashtirish, o'quv jarayonini raqamlashtirish va texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun

ma'lumotlar, materiallar, darsliklar va sinovlar kabi ta'lim materiallarini raqamlashtirish va ularga elektron murojaat imkoniyatlarini taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Mustaqil ta’limda raqamlashtirish quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi mumkin:

- Onlayn platformalar: Ta'lim materiallarini va darslarini onlayn platformalar orqali taqdim etish. Bu platformalar o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun birgalikda ishlash, ma'lumot almashish va amalga oshirish imkoniyatlarini beradi.
- Interaktiv darsliklar: Raqamlashtirilgan darsliklar o‘quvchilarga interaktiv darslar, animatsiyalar, video darslar va boshqa interaktiv vositalar orqali ma'lumotlarni o‘rganish imkoniyatlarini beradi.
- Adaptiv ta'lim: Raqamlashtirilgan texnologiyalar o‘quvchilarning shaxsiy o‘rganish yo‘nalishlarini tushunish va ularga mos ta'lim materiallarini taqdim etishga yordam beradi.
- Ma'lumotlar analitikasi: Raqamlashtirilgan ta'lim tizimlari o‘quvchilar tomonidan amalga oshirilgan vazifalar, sinovlar va boshqa faoliyatlar natijalarini analiz qilish orqali o‘quv jarayonini nazorat qilish imkoniyatlarini beradi. Bu, o‘quvchilarning o‘zlarini nima bilishlariga qarab, ularning o‘zlashtirishlari uchun yordam berishga imkoniyat yaratadi.
- Kooperativ ta'lim: Raqamlashtirilgan platformalar o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun birgalikda ishlash, munozara qilish va ma'lumot almashishni osonlashtirishadi.
- Masofaviy ta'lim: Raqamlashtirilgan ta'lim texnologiyalari o‘quvchilar uchun masofaviy ta'lim imkoniyatlarini yaratadi, shuningdek, o‘quvchilar uchun darslarga qo‘lish va materiallarga kirishni osonlashtiradi. Raqamlashtirilgan ta'lim o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini oshirish va ularning o‘zlarini yangi texnologiyalarni o‘rganish, ularni iste'mol qilish va muammolarini yechishda qo‘llashga yordam beradi. Bulardan tashqari o‘rganishlar natijasida mustaqil ta’limni raqamlashtirishning afzallik va kamchiliklarini 1-jadvalda ko‘rishingiz mumkin.

1-jadval

Aspekt	Afzalliklar	Kamchiliklar
Kirish va moslashuvchanlik	* Joylashuvdan qat’i nazar, onlayn platformalar va resurslardan 24/7 foydalanish mumkin. * O‘quvchilar o‘z o‘rganish tezligi va jadvalini tanlashlari mumkin.	* Raqamli bo‘linish texnologiyasi yoki interneti bo‘lmaganlar uchun kirishni cheklaydi. * Jismoniy resurslarning etishmasligi (kutubxonalar, laboratoriyalar) kamchilik bo‘lishi mumkin.
Shaxsiylashtirish	* Moslashuvchan o‘quv dasturi ko‘rsatmalarni individual ehtiyojlarga moslashtiradi. * O‘quvchilar qiziqishlari asosida o‘z ta'lim yo‘llarini tanlashlari mumkin.	* Yuqori sifatli, moslashtirilgan kontentni topish juda qiyin bo‘lishi mumkin. * O‘z-o‘zini boshqaradigan o‘quvchilar samarali shaxsiylashtirish uchun ko‘rsatmalarga muhtoj bo‘lishi mumkin.
Hamkorlik va hamjamiyat	* Onlayn forumlar va virtual hamjamiyat o‘quvchilarni tengdoshlari va mutaxassislari bilan bog‘laydi. * Hamkorlik vositalari guruh loyihalari va bilim almashishni osonlashtiradi.	* Shaxs bilan aloqa qilmasdan ijtimoiy izolyatsiya qilish potentsiali. * Onlayn muloqotlarda yuzma-yuz muloqotning boyligi yetishmasligi mumkin.

Raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish	* Texnologiya bilan tanishish o‘quvchilarni axborotni boshqarish ko‘nikmalari bilan qurollantiradi. * O‘quvchilar onlayn resurslarni baholash uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.	* Chalg‘itish va ko‘p vazifalarni bajarish o‘rganishga xalaqit berishi mumkin. * Kiberxavfsizlikdan xabardorlik va onlayn xavfsizlik ko‘nikmalari muhim ahamiyatga ega.
Ishtirok etish va motivatsiya	* Interaktiv elementlar (o‘yinlar, simulyatsiyalar) qiziqish va faol o‘rganishni uyg‘otishi mumkin. * Talabalar faolroq ishtirok etish uchun o‘z ta’lim muhitini shaxsiylashtirishi mumkin.	* Texnologiya chalg‘ituvchi manba bo‘lishi mumkin. * Mustaqil o‘quvchilar motivatsiyani saqlab qolish uchun kuchli o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini talab qiladi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar mustaqil ta’limni o‘zgartirish uchun kuchli vositalar to‘plamini taklif etadi. O‘qituvchilar va mustaqil o‘quvchilar qiyinchiliklarni tan olish va ularni yumshatish bilan birga uning kuchli tomonlarini qabul qilish orqali yanada qulayroq, shaxsiylashtirilgan va kengaytiruvchi o‘rganish tajribasini yaratish uchun texnologiya imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin. O‘z-o‘zini boshqarishda raqamli vositalarning rolini doimiy ravishda o‘rganish va takomillashtirish orqali biz odamlarga o‘zlarining ta’lim sayohatlarini rejalashtirish va ma’lumotlar ko‘pligi asrida gullab-yashnash imkoniyatini berishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maxamadjanov I.U. “Python dasturlash tili fanidan electron qo‘llanmani joriy etish samaradorligi”. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar,2024 № 2-son 181-183 s

2. T.Ismoilov, R Burxonov. “ТАЛАБАЛАРНИНГ КРЕАТИВ ПОТЕНЦИАЛИ ВА УНИ ОШИРИШ ОМИЛЛАРИ”. Физико-технологического образование. 2021 й 2-сон.

3. S.Sh.Otabayeva, IU Maxamadjanov. “Blended learning (aralash o‘qitish) ning ta’lim jarayonidagi ahamiyati”. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. 2022y. 410-412 s

4. Islomjon Usmonjon o‘g‘li Maxamadjanov, Sevaraxon Shaxobiddinovna Otabayeva, Sabitxan Xashimov. “Xorijiy tillardan bilimini baxolovchi smart-teach onlayn platformani istiqbolli rejalari”. Science and Education jurnal. 2021y. 304-307 s

5. T.Ismoilov, I.Maxamadjanov. “Oliy ta’limda o‘qitishning intensivlshtirish maqsadida interfaol usullardan foydalanish”. “Farg‘ona vodiysida xavfsiz harakatlanishni tahminlash: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. 23-24-feral 2024-yil 947-951 s

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna[1]
[1]Shahrisabz davlat pedagogika institute, Shahrisabz, O‘zbekiston
muhiba8083@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada ta’limni raqamlashtirish uchun ta’im muasasasi zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli ta’lim resurslari bilan ta’minlangan bo‘ishi, raqamli kutubxonalar tashkil etilishi va ilmiy salohiyatga, kompyuter savodxonligiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar jalb etilishi nazarda tutilgan. Bu esa ta’lim sifatini ta’lim integratsiyasida*

raqamli texnologiyalarning o‘rni, raqamlashtirish yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: *Raqamlashtirish, raqamli ta’lim resurslari, elektron kutubxona, elektron ko‘rgazmali qurollar kutubxona, elektron ensiklopediya, multimedia darsliklari, virtual laboratoriyalar, onlayn-sinflar, aqlli sinflar, analitika, simulyator.*

Kirish.

Raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamyat kasb etadi. Ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish, axborot makonini shakllantirish va raqamli ta’lim tizimlarini rivojlantirish oliy ta’lim muassasalari o‘quvchilarining o‘quv jarayonini tashkil etish, ta’limga yondashuvlarni sifatli qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, ta’lim tizimini jadallashtirish to‘g‘risida angi ilmiy va pedagogik g‘oyalarni shakllantirishga olib keladi. Raqamli va axborot texnologiyalarini ta’lim tizimiga va o‘quv jarayoniga keng joriy etish dunyo miqyosidagi tendensiya bo‘lib, yaqinda ta’lim tizimida sodir bo‘lgan eng muhim jarayonlardan birini anglatadi. Ta’limni raqamlashtirish elektron axborot ta’lim sohasini yaratish va ishlatish, maxsus virtual texnologiyalarni qo‘llash, turli ta’lim platformalarini ta’lim jarayoniga tadbiq qilish imkoniyatlari bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy materiallarga asoslangan holda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mavjud ma’lumotlarni tahlil qilishda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil kabi uslublar va yondashuvlar qo‘llanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijiy tadqiqotchilar oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish muammosini o‘rganar ekan, bu borada hal qilinishi zarur bo‘lgan muhim vazifalarni aniqlashga e’tiborni qaratadi.

B.E. Starichenko ta’limni raqamlashtirish deganda an’anaviy ta’limdan raqamli ta’limga o‘tishni tushunishni taklif qiladi va raqamlashtirishning axborotlashtirish bilan solishtirganda o‘ziga xos xususiyati ta’lim jarayonida axborotni taqdim etish ning raqamli formatlaridan kompleks foydalanish ekanligini ta’kidlaydi[1].

Ye.V.Frolova, O.V.Rogach va T.M.Ryabovalar ta’limni raqamlashtirish zamonaviy mutaxassis tayyorlashning ajralmas qismidir degan farazni ilgari surgan holda, ijtimoiy tarmoqlar, virtual reallik texnologiyalari va Internet o‘qituvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim maqsadlarida foydalanishga undaydi deb hisoblashadi[2].

Natijalar. Raqamli ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim sifatini oshirish uchta eng asosiy tarmoqlarning birdek takomillashuviga bog‘liq bo‘lib, ular:

- ta’lim muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish;
- uni elektron o‘quv metodik adabiyotlar bilan ta’minlash;
- o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni tadbiq etish[3];

Umuman olganda, hozirgi kunda oliy ta’limning raqamli transformatsiyasi butun dunyoni qamrab olmoqda. Tadqiqotlar mazmunini nazariy tahlil qilish natijasiga ko‘ra, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida ta’lim sifatini oshirishda quyidagilarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir:

- Internet infratuzilmasini yaxshilash;
- Mobil operatorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish;
- Yoshlar, xususan, o‘quvchilar tomonidan zamonaviy AKTning so‘nggi yutuqlarini o‘zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berish;
- O‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko‘lamini kengaytirish;
- Axborot resurslari, o‘qitish vositalari, masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish; ijodkor o‘quvchilarni universitetning raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish;

- Yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriyalar, media studiyalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O‘zbekistonning barcha ta’lim muassasalarida qo‘llash;
- Zamonaviy AKT va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish;
- Real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video konferensiya aloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish;
- Bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo‘llash, raqamli didaktika va raqamli ta’lim modellarini qo‘llash;
- Ta’lim sub’ektlarining media kompetentligini uzluksiz oshirib borish mexanizmini ishlab chiqish (Youtube va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo‘lgan videodarslarini o‘zbek tilida ham ko‘paytirishni davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash);
- Ta’lim muassasalari uchun zarur zamonaviy texnik jihozlar bilan ta’minlash jarayonini nazoratga olish va amaliy qo‘llab-quvvatlash;
- Elektron boshqarish tizimlarini amaliy faoliyatga keng joriy etish va keraksiz hujjatlar bilan ishlashni keskin kamaytirish;
- Ta’lim jarayonini boshqarish vositasi sifatida, ya’ni, ta’lim muassasasining barcha ish faoliyati, jumladan, o‘quv, ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish uchun axborotlashtirish, tahlil va ommalashtirish tizimini yaratish[4].

Ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirishning samarali usullaridan biri raqamli ta’lim resurslari(RTR)dan foydalanishdir.

Raqamli ta’lim resurslari (RTR) – bu o‘qitishda vizualizatsiyaning tezkor vositasi, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda, maktab o‘quvchilarining monitoringini tashkil etish va o‘tkazishda, shuningdek uy vazifalarini kuzatish va baholashda, diagrammalar, jadvallar, grafiklar, belgilar bilan ishlashda yordamchi, matnlarni tahrirlash hamda o‘quvchilarning ijodiy ishlari xatolarni tuzatishda operativ vosita hisoblanadi.

O‘quv jarayonida raqamli ta’lim resurslarini qo‘llash maqsadlari va ularning imkoniyatlariga ko‘ra, quyidagi turlarga ajratiladi:

– *Elektron kutubxona* – elektron hujjatlarning turli xil to‘plamlarini ishonchli saqlash va samarali ishlatish imkonini beruvchi taqsimlangan axborot tizimi. (1)



1-Rasm. *Elektron kutubxona abstrakt ko‘rinishi.*

– *elektron ko‘rgazmali qurollar kutubxonasi* – ma’lum bir mavzu sohasidagi ob’ektlar, jarayonlar, hodisalarni aks ettiruvchi multimedia komponentlari to‘plamidan foydalangan holda mazmuni uzatiladigan qo‘llanma.

– *elektron ensiklopediya* – bilimning ma'lum sohalarini qamrab oluvchi turli yo‘nalishlar bo‘yicha juda katta hajmdagi ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan qo‘llanma.

– *Multimedia darsliklari* – kompyuter yordamida mustaqil yoki o‘qituvchi ishtirokida o‘quv kursini yoki uning katta qismini o‘zlashtirish imkoniyatini beruvchi dasturiy-uslubiy majmuadir.

– *Virtual laboratoriyalar* – simulyator bo‘lib, u ob’ektli tajribalarni, jumladan, maktab sharoitida o‘tkazish qiyin, qo‘shimcha jihozlarni talab qiladigan yoki juda qimmatga tushadigan tajribalarni o‘tkazish imkonini beradi.[5]

Simulyator – bu haqiqiy hayot faoliyatini sinchkovlik bilan taqlid qilish uchun mo‘ljallangan kompyuter dasturi. Simulyator o‘rganish, tahlil qilish, bashorat qilish kabi turli maqsadlar uchun turli xil real hayot faoliyatini nusxalashga harakat qiladi.

Demak, ta’limni raqamlashtirishda ko‘plab raqamli texnologiyalar qo‘llaniladi, quyida ularning ba’zilarini keltirib o‘taman:

Onlayn-sinflar. Hozirgi kunda masofaviy ta’lim o‘quvchilar uchun ta’lim olishda katta imkoniyatga aylandi. Zoom, Google Meet kabi ko‘plab onlayn ishlash imkonini beruvchi vositalar o‘quvchilarga masofadan turib, ta’lim olish imkoniyatini yaratib berdi.

Aqlli sinflar. Ta’limni raqamlashtirish natijasida an’anaviy ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida o‘quvchilarning real vaqt rejimida o‘zlariga kerakli axborotlarni olishlari va o‘z ustida muntazam ishlab, bilimlarini oshirishlari uchun smart doska, proektor, Internet va kompyuterlar bilan jihozlangan sinflar soni ko‘paytirilmoqda.(2)

2-Rasm. *Aqlli sinflar.*

Analitika. Yagona onlayn axborot tizimida baholar, imtihon natijalari va boshqa ma’lumotlarni to‘plash o‘qituvchilarga o‘z yutuqlarini tezda baholash, davomat va o‘quv dasturidagi muvaffaqiyatlarni kuzatish, ishni tezroq baholash va qaysi fanlar yoki mavzular yaxshilanishi kerakligini ko‘rish imkonini beradi. Bunga kundalil.com axborot tizimini misol qilib keltirishimiz mumkin. [6]

Muhokama. Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo‘ylab barcha ta’lim muassasalarini rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Raqamlashtirish, o‘rganilgan saboq va bilimlarni almashish uchun imkoniyatlar yaratib, odamlarga ko‘proq ma’lumot olish va kundalik hayotlarida yaxshi qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi [7].

Yuqoridagi ta’limni raqamlashtirishda qo‘llanuvchi texnologiyalarning ta’lim jarayoniga kiritilishi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan holda ta’lim sifatini oshirishga shart-sharoitlarni yaratib beradi. Ta’lim sifatini oshirishda faqatgina moddiy texnik baza bilan ta’minlanibgina qolmay, ilmiy salohiyatga, kompyuter savodxonligiga ega bo‘lgan professor o‘qituvchilar jalb etilishi maqsaga muvofiqdir.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish joizki, raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalarni ularning idrok etishiga va ta’lim tizimining asosiy ishtirokchilarining o‘zaro ta’sir o‘tkazish amaliyotiga ta’sirini chuqur o‘rganish strategiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Aynan zamonaviy raqamli ta’lim tizimining tashkil etilishi o‘z navbatida kelajak avlodning bugungi raqamli dunyoda o‘ziga xos o‘rin topishiga xizmat qiladi. Ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarini qo‘llash natijasida ta’lim sifatini oshishi o‘quvchilarni jamiyatdagi

o‘zgarishlarni tez o‘rganib, tayyor kadr bo‘lib, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. И.Ф.Понизовкина. Цифровизация высшего образования: перспективы и риски // Право и практика. 2020. №1.

2. А.М.Санко.Средства обучения в условиях цифровизации образования: учебное пособие//А.М.Санко–Самара: Издателство Самарского университета, 2020.–100с.

3. N.H.Hayitmatova. Boshlang‘ich sinflarda multimedia texnologiyalaridan foydalanishning samarasi . “Science and Education” Scientific Journal Volume 1 Issue 2.

4. Xonqulov Sherali Xursanaliyevich. Oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitini yaratishning nazariya va amaliyotdagi holati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences// SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7, (E)ISSN:2181-1784, 3(7), July, 2023.

5. N.V. Juraeva, “Raqamli ta’lim resurslari va ularning taqdimoti va mazmuni bo‘yicha turlari”. Zamonaviy ta’limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Academic Research in Educational Sciences, VOLUME 2 | CSPI CONFERENCE 3 | 2021.

6. F.U.Anarbayeva, M.V.Abdullayeva. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim tizimining raqamli trasformatsiyasi. JOURNAL OF ECONOMICS, FINANCE AND INNOVATION Samarkand branch of Tashkent State University of Economics.

7. N.B.Begijonov. Oliy ta'lim muassalarida raqamli texnologiyalar tadbiqi. “O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani.30/11/2022.

8. Muhiba YAXIYAXONOVA. Ta’lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarning samaradorligi // O‘zMU xabarlari Mirzo Ulug‘Bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali, 2021, [1/4], ISSN 2181-7324/ 236-239-b.

DIGITAL PEDAGOGY AS A FACTOR OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN UZBEKISTAN

B.J.Mamanazarov [1], A.Sh.Usmonov [1], M.O.Meyliqulov [1], B.I.Islomov [1], N.F.Muhiddinov [1]

[1] Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston

bmamanazarovatt@gmail.com, asli.usmon@mail.ru

Annotation: *Statya posvyashchena izucheniyu digital pedagogy kak odnogo iz osnovnykh faktorov povyshenia kachestva obrazovatelnyx uslug v Uzbekistane. Proanalyzirovana role information-communication technology and development of professional data pedagogues, a takje ix vliyanie na obuchayushchikhsya. Obosnovana vajnost gramotnogo ispolzovaniya takikh tekhnologii na praktike, a takje opredelena spetsifika cifirovoy pedagogiki.*

Key words: *digital education, digital pedagogy, information society, educational system, educational service, educational service.*

Introduction. The education system, as is known, plays a key role in determining the career guidance of a student. The development of the local and global economy, information and technological progress, the development of new areas and objects - all this directly depends on the quality of educational services and dictates new rules for the state’s labor market, which now needs dynamically trained specialists who are constantly improving their level of qualifications and improving their skills, as well as applying modern digital technologies in practice. Thus, a high-quality educational process and specialists, as a consequence of this process, are interconnected links in one chain and must develop simultaneously and rapidly. The educational process is through innovation and digital pedagogy, and the specialist is through the educational process.

A scientific approach to the study of any problem begins with the development of a conceptual apparatus. In order to understand how digital pedagogy influences improving the

quality of educational services and what technologies are involved, as well as what the concept of "quality of educational services" consists of, it is necessary to consider these phenomena in more detail.

So, digital pedagogy is a pedagogical process that includes various digital technologies (computers, gadgets, software, etc.) and, as a result, provides higher quality educational services.

F.M. Zakirova notes that "the quality of education is the demand for acquired knowledge in specific conditions of their application to achieve specific goals and improving the quality of life. The quality of knowledge is determined by its fundamentality, depth and relevance in work after graduation"

The quality of education is, first of all, a multidimensional and complex structure. Based on the approach to understanding this system, F.M. Zakirova identifies the following blocks of quality indicators:

1. Quality of teaching staff.
2. The state of the material and technical base of the educational institution.
3. Motivation of teaching staff.
4. Quality of training programs.
5. Quality of students.
6. Quality of infrastructure.
7. Quality of knowledge.
8. Innovative activity of management.
9. Introduction of process innovations.
10. Demand for graduates.
11. Competitiveness of graduates in the labor market.
12. Achievements of graduates[1].

Of course, these indicators are inextricably linked and interact within the system. Based on this, we can say that any impact on the educational system and improving the quality of educational services accordingly affects all of the above elements. This article examines the influence of information and communication media and identifies the specifics of this influence.

The digital approach to learning involves the availability of information and communication technologies that transform the educational process itself and create new opportunities for learning. In this case, the student and teacher "depend" on the Internet, since the tasks are directly connected to the global network. For example, unlike text editors, there are programs without which it is impossible to create a multimedia project (programs for modeling, creating presentations, etc.), publish scientific works in electronic form, maintain accurate statistics and have a frequently updated database[2].

Modern realities not only imply the use of new means of communication in various spheres of public life, but even impose them and force them to turn to them. This is facilitated not only by progress in information technology, but also in the development of the educational process and training competent personnel in this area.

At the moment, electronic media are quite rightly the main tool in the learning process, since the education system is focused on constant development and includes the task of not only giving the student knowledge, but also developing creativity in him, identifying his strengths and weaknesses, helping him find and engage in the sphere of his interests and contribute to the holistic development of the individual.

In addition, digital pedagogy significantly simplifies the learning process (but does not lead to its primitivization, does not simplify or devalue knowledge itself), and reduces the time of both the teacher and the student. Based on this, we can conclude that the teacher spends more time developing his teaching skills, gains new experience and interests his students[3]. He does not waste time on household things and monotonous work with checking assignments and tests, since computer technologies provide for this post-processing, but focuses exclusively on professional activities.

Students, in turn, receive more voluminous and varied assignments, which include not only basic types of work (testing, exercises, solving examples, plotting graphs), but also additional, influencing the expansion of horizons (creation of projects, presentations, video and audio files, analysis of various multimedia elements). Tasks can differentiate in accordance with a level, hierarchical system: all students, after, for example, testing at the beginning of the year, receive tasks in accordance with their level of knowledge, which has a beneficial effect on the educational process and supports the aspirations of students. This way they get involved into the educational process, increasing the level of knowledge and training, overall performance, and acquiring practical skills[4].

It was mentioned above that digital learning is not the same as online learning. Thus, the first is more suitable for universities, where the student and teacher themselves build a model of the educational process and form a general plan for completing the work. Time is also saved because assignments can be completed whenever and under any circumstances, and later emailed directly to the teacher. The practice of such relationships has been observed for a long time and is not now considered an innovation[5].

For example, most coursework and diploma papers are processed in exactly this way, when a student and a teacher, communicating via email, make changes to the text, agree on the structure, etc.

In the course of this study, the specifics of digital pedagogy were determined as one of the main factors in improving the quality of educational services. It lies, firstly, in its absolute influence on the entire process learning through the use of various aspects that make up the main indicators of the quality of educational services. Secondly, digital educator he is partly a learner himself, since he constantly acquires new knowledge, if not in the field of pedagogy, then in the field of information technology, which indicates the progressiveness of the use of this approach. The teacher himself is engaged in organizing the process of training and education in the field of education using technologies that reflect the characteristics of the subject area and correspond to the age and psychophysical characteristics of students, in including their special educational needs. And thirdly, this type of pedagogy, in addition to creating comfortable conditions for the interaction of all participants in the educational process, ensures information security through closed databases[6].

Based on the above, it can be noted that the quality of education is a key aspect in the development of professional and personal qualities of students, their competence and ability to learn. Its increase is facilitated by modern information technologies, in particular, the electronic information and educational environment. This leads, firstly, to preparation a competent specialist, and secondly, the formation of a personality with high information competence and developed critical thinking. The use of digital educational resources expands the possibilities of the educational process, while remaining only a tool in the hands competent specialists.

Conclusions. It is worth noting that digital technologies will definitely occupy a niche in the educational process of the state and will be used in conjunction with traditional forms of education due to its versatility. Comprehensive specificity, according to which the latest information and communication technologies have a positive impact on all indicators of the quality of education. This approach will help teachers achieve dynamics, efficiency and effectiveness of their professional activities.

Bibliography

1. Ф.М. Закирова. Информасионне и коммуникасионне теҳнологии в образовании: монография. Москва: Институт ЮНЕСКО по информасионнйм теҳнологиям в образовании, 2019.

2. Иашвили М.В., Макарова О.Б. Испол’зование сифровйҳ лабораториж в школ’ном и вузовском образовании. Вестник педагогическиҳ инновасиж 2021; № 3 (35): 82 – 85.

3. Иленкова С.Д., Иленкова Н.Д., Мҳитарян В.С. Управление качеством: учебник для вузов. Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2018.

4. Сергеева И.В. Сифровож педагог в онлажн образовании. Научне трудй Института непрерйвного профессионалного образования. 2016; № 6 (6): 117 – 122.

5. Шпитсер М. Антимозг: сифрове теҳнологии и мозг. Москва: АСТ, 2012.

6. Ярославсева Э.И. Человек в сифровом пространстве – допуск к образованию или просвесчению? Вйсшее образование для ХХИ века. Докладй и материалй. Симпозиум «Вйсшее образование и развитие человека». 2018: 27 – 36

ZAMONAVIY TA’LIMDA INTELLEKTUAL TIZIMLARDAN FOYDALANISH

Ahmadaliyev B.B.[1] , Samatov B.X.[1]
[1]Andijon davlat universiteti, Andijon, O‘zbekiston
ahmadaliyevbobur0717@gmail.com, boburmirzosamatov@gmail.com

Annotatsiya. *Z*amonaviy ta’lim sohasida intellektual tizimlardan foydalanish mavzusi bugungi kunda juda muhim va ahamdir. Bu, ta’lim jarayonini kengaytirish, o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq berish va ma’lumotlarni tahlil qilishda qulayliklar yaratish uchun juda muhimdir. Hozirgi kunda imson omili oraqli xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkun bo‘lgan xatoliklarni oldini olishda sun’iy intellect tizimlaridan foydalanish kun sayin rivojlanmoqda. Intellektual tizimlardan foydalanib, test nazoratlarini tekshirishning avtomatlashtirilgan usuli juda katta ahamiyatga ega. Python dasturi yordamida bu amalni bajarish mumkin. Bundan tashqari, bu tizim test nazoratlarini tezkor, aniqlik va ishonch bilan tekshirish imkonini beradi. Bujaa jarayonni amalga oshirishning dasturiy ketma-ketligi (algoritmi) va kerakli kutubxonalarni qo‘lashishi bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarimni yoritdim.

Kalit so‘zlar. Raqamli texnologiyalar, traditsion ta’lim, intellektual tizim, Python dasturlash tili, opencv-python, CSV.

Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun samarali va ko‘proq imkoniyatlar yaratadi. Traditsion ta’limda o‘qituvchi markazda bo‘lsa, raqamli ta’limda o‘quvchilar o‘zlarining o‘rganish tezligini va usullarini tanlashadi. Raqamli texnologiyalar, o‘quvchilar uchun boshqarilishi oson o‘zlashtirish imkoniyatlarini ta’minlaydi. Raqamli ta’lim vositalari orqali, o‘quvchilar global ma’lumotlar bilan tez o‘rganib, eng so‘nggi rivojlanishlardan foydalanishadi ya’ni interaktiv darslar, interaktiv testlar, onlayn forumlar va boshqa imkoniyatlar o‘quvchilar uchun samarali o‘rganish jarayonini ta’minlaydi. Raqamli ta’lim tizimi o‘qituvchilarga o‘quvchilar yutuqlarini va nazariy bilimlarini va amaliy ko‘nikmalarni o‘rganishda yordam beradi. Raqamli ta’lim, o‘quvchilarga iste'mol qilishlari mumkin bo‘lgan manbalardan foydalanish, o‘quvchilarning xilma-xilliklarini ehtimol qilish va o‘zlashtirishlarini oshirishda yordam beradi. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarni o‘z o‘qishlarini boshqarishga, o‘zlarini tashqi dunyo bilan bog‘lab o‘rganishga, va mustaqil o‘quvchilarga aylanishi uchun yaxshi platforma ta’minlaydi. Intellektual tizimlar, o‘quvchilarga ularning xilma-xilliklariga mos ravishda ta’lim olishlari uchun shaxsiy dasturlar tuzishga imkoniyat beradi. Intellektual tizimlar, o‘quvchilar uchun shaxsiy o‘rganish dasturlarini tuzishda katta o‘rin egallaydi. Bu tizimlar, har bir o‘quvchi uchun xususiy va rivojlanayotgan o‘rganish yo‘nalishlarini aniqlash va taqdim etish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy ta’limda intellektual tizimlardan foydalanishda o‘z faoliyatim davomida tajriba sifatida o‘tkazgan raqamli texnologiyaning bir qismi bo‘lgan kichik dasturning ta’lim jarayonidagi samarasi haqida fikrimni yoritmoqchiman. Zamonaviy talimda o‘quv faoliyati bilan birgalikda olib borilgan, bilimlarni nazorat qilishda intellectual tizimdan foydalanish orqali, aniqlik, tezkorlik, shaffoflik kabi mukammal natijani olishimiz mumkun. Bu jarayonni amalga oshirishda Python dasturlash tili orqali yozilgan dasturning natijasi va tuzilishini yoritmoqdaman.

Dasturning umumiy ishlav pirinsipini besh bosqichga bo‘lib olsak:

1. Rasmni o‘qish - Test nazoratlarini tekshirish uchun rasmni o‘qish kerak bo‘ladi. Buning uchun OpenCV yoki Pillow kabi kutunxonalardan foydalanishingiz mumkin.

2. Nazorat algoritmi - Test nazoratlarini tekshirish uchun algoritmni yaratishimiz kerak. Bu algoritm ma’lumotlar tahlilini o‘qib, savollar va javoblar orasidagi moslikni aniqlash uchun qo‘llaniladi.

3. Moslikni aniqlash: Algoritm ma’lumotlarni tahlil qiladi va moslikni aniqlaydi. Bu, savollar va javoblar orasidagi moslikni aniqlash, avtomatik aniqlashni yoki operator tomonidan tasdiqlangan moslikni o‘z ichiga oladi.

4. Natijalarni ko‘rsatish: Natijalarni to‘plab, foydalanuvchiga chiqish berish lozim. Bu, tekshirilgan test nazoratlarining ma’lumotlarini ko‘rsatadi.

5. Maxsus titul varoqa shablon sifatida talabalarga berilishi uchun.

Skanerlangan imtihon qog‘ozlarini o‘qib, natijalarni ko‘rsatilgan papkaga saqlash uchun yordam beruvchi kod kerak bo‘ladi. Kod foydalanuvchining kiritgan argumentlarga qarab ishlaydi va natijalarni ko‘rsatilgan chiqish papkaga saqlab qo‘yadi. Kodning asosiy qismi quyidagi vazifani bajaruvchi class yoki funksiyalar orqali amalga oshirilishi mumkun:

Argumentlar olish - argparse moduli yordamida foydalanuvchidan skanlangan imtihon qog‘ozlari joylashgan papka, chiqish papkasi va boshqa ma’lumotlarni olish uchun kerak bo‘lgan argumentlarni qabul qilib olish vazifasi.

Input fayllarni filtratsiya qilish - file_handling modulida foydalanuvchining kiritgan katalogdagi rasmlarni aniqlash va filtratsiya qilish uchun funksiyalar mavjud bo‘lishi.

Natijalarni ko‘rsatilgan papkaga saqlash - process_input funksiyasi foydalanuvchining kiritgan argumentlarga qarab imtihon qog‘ozlarini o‘qib, natijalarni ko‘rsatilgan papkaga saqlash va debug rejimidagi ma’lumotlarni ko‘rsatib berish kerak bo‘ladi.

Kodni yozganizda, foydalanuvchilar skanerlangan imtihon qog‘ozlari katalogini kiritsalar, shu qog‘ozlarni o‘qib, natijalarni ko‘rsatilgan papkaga saqlaydigan va chiqish papkasiga joylashtirishi kerak. Tasavvur qilingan holda, bu kod skanlangan imtihonlar uchun avtomatik natijalarni olish va saqlashni tashkil etadi. Skaner qurish uchun Python-da kerakli bibliotekalardan foydalanishingiz mumkin. Masalan, opencv-python yoki pillow bilan rasmni o‘qish, vaqtincha imkoniyatlar uchun pyzbar yoki zbarlight bilan QR-kodlarni o‘qish mumkin.

Dasturning strukturaviy ko‘rinishi quydagicha tashkil topgan bo‘ldi: import orqali chqarilgan kutubxona yoki modullar va global o‘zgaruvchilar, skript boshida kerakli importlar amalga oshirilgan. “ustunlar_nomi” degan o‘zgaruvchi, ustida ko‘rsatilgan toifalar (familiya_maydoni, ism.maydoni, ...) bo‘yicha ustun nomlarini saqlaydi. “Bosh_maydon” degan xabar konsolga xabar berish uchun o‘zgaruvchi. format_timestamp_for_file(). Vaqt markazining fayl nomi uchun foizlarni almashtirish funksiyasi. make_dir_if_not_exists(): Berilgan yo‘l mavjud emasligini tekshiradi va mavjud emas bo‘lsa yo‘lni yaratadi. validate_order_map() berilgan buyruq xaritasini tekshiradi va har qanday xatolik mavjud bo‘lsa ValueError chiqaradi. save_csv() CSV faylini saqlash uchun yordamchi funksiya. OutputSheet klassi foydalanuvchilar tomonidan yaratiladigan, ma’lumotlar matrisini saqlash uchun klass. init() yangi OutputSheet obyektini yaratadi va foydalanuvchidan qabul qilgan ustunlar va savollar sonini qabul qiladi. save() ma’lumotlar to‘plamini CSV fayl sifatida saqlaydi. delete_field_column() ma’lumotlar to‘plamidan belgilangan ustunni o‘chiradi. sortByName() ma’lumotlarni ism, familya, ota ismi bo‘yicha saralaydi. add() ma’lumotlar to‘plamiga yangi qator qo‘shadi. add_file(): CSV faylidagi ma’lumotlarni ma’lumotlar to‘plamiga qo‘shadi. clean_up() bo‘sh joylarni to‘ldiradi va ustunlarni tekshiradi. reorder() ma’lumotlarni boshqa tartibda qayta joylaydi. Skaner orqali olingan rasmni Python-da o‘qish uchun foydalanuvchining qabul qilgan rasm formatini aniqlab, uni kerakli ma’lumotlarga (masalan, javoblar) aylantirish kerak bo‘ladi. Javoblar tahlil qilinishidan so‘ng, natijalarni mos qilingan formatda saqlash lozim. Bu ma’lumotlarni CSV, Excel yoki boshqa ma’lumotlar bazasiga yozish mumkin. Bu jarayonlarning ta’lim tizimidagi o‘rniga kelsak, inson omili orqali yo‘l qo‘yishi mumkun bo‘lgan xatoliklarni oldini olish, vaqt masaladida yutuq berish, aniqlilk, shaffoflik kabi ustunliklarga ega bo‘ladi. Olingan natijalarning tahlili yuzasidan savollar tuzilgandan so‘ng javolarini dasturning o‘zi belgilab beradi ya’ni kalitni shakillantirib beradi.

T/r	A	B	C	D
1	●	●	●	●
2	○			

1-rasm. Titul uchun shablon sifatida olingan shakl.

Olingan kalit orqali test variant aniqlanadi, jarayoning ikkinchi qismni tahlil jarayoniga talaba kiritgan variant raqmini tekshirish orqali unga mos kalitli titul chaqiriladi. Belgilangan javoblarni tanib olish uchun bo‘yoqqa olingan joylari (1) skanerlanadi va tituldagi belgilar joylashuvi bilan tenglashiriladi, jarayon ustun va satrlarning joylashuvi yuzasidan aniqlanib jarayonni amalga oshirib boradi. Har bir to‘g‘ri javob uchun berilishi kerak bo‘lgan ballarni hisoblaatdi va kerakli maydondani ma’lumotlar natijalar shabloniga ko‘chirilgach ko‘rsatilgan pakaga saqlanadi, bu jarayonning so‘gi qismi sifatida umumiy natijalar vadvali va harbir talabaning alahodida tekshirilgan javoblar varqasini saqlab olishimiz mumkun bo‘ladi. Javoblar varoqasi uchun maxsus titul varoqaning belgilash usulini o‘zingiz yaratishingiz mumkun bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Adams, "Early Adopter: Integration of Parallel Topics in the Undergraduate CS Curriculum at Calvin, 2011", 1st NSF/TCPP Workshop on Parallel and Distributed Computing Education (EduPar- 11), Anchorage, Alaska, May 2011.

2. J. Adams, "Multithreading Made Easy: Parallelism in Scratch", 42nd SIGCSE Technical Symposium on Computer Science Education, Dallas, Texas, March 2011. Proceedings of 15th Annual Conference on Innovation and Technology in Computer Science Education (ITiCSE), 2010, pp. 99- 115.

MASOFAVIY TA’LIMNI O‘QITISHNI BOSHQARISHDA TALABALAR TASVIRLARINI TANIB OLISH ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH

Eraliyev Humoyun Ma'mirjon o‘g‘li
Andijon davlat universiteti, Andijon, O‘zbekiston
humoyunmirzoeraliyev@gmail.com

Annotatsiya:*Masofaviy ta’limni o‘qitishni boshqarishda talabalar tasvirlarini tanib olish,algoritmlarini tasniflash va aniqlash nazariy informatika fanini o‘rganishning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.*

Kalit so‘zlar:*Masofaviy ta’lim,tasvir,algoritmlarini tasniflash.*

Bugungi kunda mamalakatimiz taraqqiyoti kundan-kunga rivojlanib bormoqda va sezilarli darajada katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Zamonaviy bilim olish uchun ta’limni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish hozirgi davr talabiga aylanib bormoqda. Ta’lim tizimida masofali o‘qitish uslubidan foydalanish ta’lim olishning yangi va musaqil o‘qish shakli hisoblanadi.

Shu munosabat bilan barcha o‘quv muassasalarida, oliy o‘quv yurtlarida o‘quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chqish va ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan mamlakatlar o‘quv tizimidagi yangiliklar va yutuqlarni o‘rganish va ularni o‘zimizda tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Masofaviy o‘qitish — sirtqi ta‘limning o‘z rivojlanish yo‘lidagi yangi kommunikatsion va informatsion texnologiyalarga tayangan, hamma formalari qonunlashtirilgan o‘qitishni amalga oshirishdir. Shuning uchun «Masofaviy o‘qitish» formasi «XXI asr ta‘limi deb hisoblanmoqda.

Masofaviy o‘qitish — bu informatsion va kommunikatsion texnologiyalar — Elektron pochta, Internet, video konferentsiya, audio, video ma‘lumotlar va multimedia o‘quv qo‘llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o‘qitish, o‘rgatish usulidir. Masalan masofadan biror

yangi mavzu yoki predmet bo‘yicha ma‘lumotlarni viloyatlardagi ixtiyoriy o‘quv yurtlariga uzatish mumkin. Agar joylarda bu sohada mutaxassis bo‘lmasa masofadan o‘qitish yagona usuldir.

Masofaviy ta’limni o‘qitishni boshqarishda talabalar tasvirlarini tanib olish tizimlariga qo‘yiladigan eng muhim talablardan biri identifikatsiya tezligi va uning aniqligidir. Shu bilan birga, tasvirni qayta ishlash, qoida tariqasida, kiruvchi ma'lumotlarning buzilishi sharoitida katta miqdordagi hisob-kitoblar bilan bog‘liq.

Tasvirni tanib olish - bu tasvir ichidagi elementlarni belgilash va tasniflash uchun algoritmlar va usullar to‘plami. Tasvirni aniqlash asosan tasvir ichidagi tarkibga qaratilgan. Tasvirni aniqlash modellari kirish tasvirini olishga o‘rgatilgan va tasvirni belgilaydigan avval tasniflangan teglarni chiqaradi.

Ko‘pgina tasvirlarni tanib olish muammolarini qat'iy cheklangan vaqtda hal qilish kerak, shuning uchun tanib olish algoritmlari vaqt murakkabligi bo‘yicha optimallashtirilishi kerak, bu optimallashtirish imkoniyatiga parallellashtirish asosida erishish mumkin. Bunday algoritmlarni kompyuterda amalga oshirish yuqori tezlikni va buzilishlarga amaliy qarshilikni ta'minlashni talab qiladi. Etalon maydoni uchun ajratilgan mashina xotirasi hajmining cheklanganligi, shuningdek, ishlash talabi tanib olinadigan tasvirlarni kesish, masshtablash va aylantirish uchun o‘zgarmas parallellashtirilgan tanib olish algoritmlarini ta'kidlaydi.

Bu yerda va quyida hamma joyda masshtabni o‘zgartirish tasvirni koordinata o‘qlari bo‘ylab bir tekis cho‘zish,siqish, tasvirlarni aks ettirishni istisno qiladi. Tasvirlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Skanerlar
2. Fotosuratlar
3. Videokameralar

Shuningdek, monitor va printerlar orqali chiqish qurilmalari vizual ma'lumotlarni tasvir sifatida taqdim etish shaklini belgilaydi; kompyuter xotirasida odatda f(M1,m2), o < tu < MX -1, 0 < T2 < m2 -1 (bitmap) piksel matritsasi ko‘rinishidagi tasvir tasviridan foydalaniladi. Matritsa elementlari turiga qarab quyidagi tasvir turlari ajratiladi:

- to‘liq rangli,
- yarim litr,
- yarim tonna,
-ikkilik.

To‘liq rangli tasvirlarning elementlari rang tarkibiy qismlari haqidagi barcha ma'lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri saqlaydi, bunday tasvirlardan foydalanish katta hisoblash xarajatlarini talab qiladi. Palitra tasvirlarida piksel qiymati ranglar xaritasi katakchasiga (palitraga) havola bo‘lib, uning ustunlarida har bir rangning rang tarkibiy qismlarining intensivligi joylashgan ikki o‘lchovli massivdir. Yarim tonna tasvir ba'zi bir asosiy ranglarning intensivlik qiymatlaridan birini olishi mumkin bo‘lgan elementlardan iborat. Bu turli xil tadqiqotlarda ishlatiladigan eng keng tarqalgan tasvir turlaridan biridir. Ikkilik (monoxrom) tasvir elementlarining qiymat diapazoni faqat ikkita qiymat bilan cheklangan:

O (fon nuqtalari) yoki 1 (qiziqish nuqtalari). Bunday tasvirlarning kelib chiqish tabiati xilma-xildir, ko‘pincha ikkilik tasvirlar sobit yoki adaptiv chegara bilan yarim tonna tasvirlarni chegara ajratish natijasida olinadi (yarim tonna tasvirlarni ikkilik tasvirlarga aylantirishning ma'lum usullari). Shu bilan birga, ma'lumotlar miqdori sezilarli darajada kamayadi, shuning uchun ikkilik tasvirlarni qayta ishlash, saqlash va yuborish oson.

Tasvirlarni tanib olish usullari, domenga qarab, kirish uchun to‘liq rangli yoki palitrali tasvirlarni olishi mumkin. Biroq, yarim tonna va ikkilik tasvirlar ko‘pincha tanib olishda ishlatiladi. Agar tasvirlangan ob'ektlarning fazoviy xususiyatlari muhim bo‘lsa, unda yarim tonna tasvirlar tanlanadi; ikkilik tasvirlarga o‘tish tahlil qilinayotgan ob'ektlar sezilarli darajada tekis bo‘ladi.

Tasvirlarni tanib olish usullarining tasnifi va umumiy ko‘rinishi. Ilmiy tadqiqotlarning turli sohalarida muvaffaqiyatli qo‘llanilgan tasvirlarni tanib olish usullarining tipologiyasi batafsil bayon etilgan.Ularda tasvirlarni tanib olishning statistik nazariyasi yoritilgan va uning tizimlari

haqida ma'lumot berilgan,shuningdek, tasvirni aniqlash muammosining umumiy holati ham yoritilgan.

D metrikasi (masofani o‘lchash usuli) har biri alohida holatda har xil bo‘lishi mumkin, ammo u quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

1. d(a,b)=d(b,a);
2. d(a,c)<d(a,b)+d(b,c);
3. d(a,b)>0, d(a,b)=0 a=b.

Ushbu yondashuvda o‘qitish vazifasi shunday maqbul metrikani aniqlash vazifasi sifatida talqin qilininadi va bunda o‘rtacha kvadrat masofa minimallashtiriladi, bu erda y — i-t-sinf standarti. Qoida tariqasida, formulasi bilan tavsiflangan metrik sinf ko‘rib chiqiladi . D(a,b) = Koeffitsientni topish talab qilinadi.

Umuman olganda, bunday tasvirlarni tanib olish sxemasi juda murakkab.Ta'kidlanganidek, murakkabligi tufayli geometrik o‘qitish usullari keng qo‘llanilmaydi, lekin asosan boshqa usullarni talqin qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pavlidis. Mashina grafikasi va tasvirni qayta ishlash algoritmlari: Per. ingliz tilidan. M.: radio va aloqa, 1986. 394 s.
2. Soyfer V. A. kompyuterda tasvirni qayta ishlash usullari. Nashr. 2. M.: FIZMATLIT, 2003 yil. 784 s.
3. Gonzalez R.S., Woods R. Digital image processing. MA.: Addison-Wesley, 1992. 716 p.
4. Rommya.Optik spektrlarni aniqlashda manzilni saralashni qo‘llash / THT1I, Taganrog, 2000 yil. 17 s.depo. VINITI shahrida 13.03. 2000, no 619-V00.

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARI FAOLIYATINING ILMIY – PEDAGOGIK ASOSLARI

Xatamov Nurbek Boliyevich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jismoniy tarbiya o‘qituvchisi ilmiy pedagogik faliyatida uchraydigan asosiy atamalar, pedagogik faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ilmiy pedagogik faoliyati davomida alohida e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan jihatlari va qay tarza yondashish zarurligi, shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining innovatsion va texnologik faoliyatini tashkil qilish xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Jismoniy tarbiya, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchisining innovatsion faoliyati, kreativlik, texnologik yondashuv.*

Mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu ham jismoniy, ham ma’naviy sog‘lom bo‘lgan avlodni kamol toptirish hisoblanadi. Zero, bugun dunyo mamlakatlarida keskinlashayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida yuksak ma’naviyatli va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash Vatanimiz kelajagini belgilab beruvchi va xalqimizning ezgu maqsadlarini ro‘yobga chiqaruvchi eng muhim omillardan biridir. Bu ezgu amalning amalga oshirilishida uning huquqiy asoslari ham yaratilgan bo‘lib, keng qamrovli ishlar qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son Qarori va 2018 yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son Farmoni bu sohani yanada rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu farmon va qarorlarning asosiy maqsadlaridan biri ham bu sohadagi nazariy va amaliy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, jismoniy tarbiyaga oid ko‘nikma va malakalarga doir tushuncha hamda atamalarni to‘g‘ri shakllantirishdan iborat.

Darhaqiqat, hozirgi globallashuv jarayonlari tobora keskinlashayotgan bir davrda bevosita yoshlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga qaratilayotgan e’tibor bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, ularning muhim xizmatlaridan biri shundaki, o‘quvchi-talabalarni tarbiyaviy, madaniy, tibbiy, sanoat qurilish, ishlab chiqarish kabi kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘lsa, ikkinchidan ularni maxsus jismoniy tayyorgarlik bilan qurollanishga ma’lum darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda yosh avlodga ta’lim berayotgan o‘qituvchilarning o‘zlari zamonaviy innovatsion texnologiyalarni to‘liq o‘zlashtirgan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari, umuman barcha ta’lim-tarbiya sirlaridan voqif bo‘lishlari talab etiladi

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ilmiy pedagogik faoliyati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda, eng avvalo, mazkur hodisaga oid tushunchalarning mazmun-mohiyatini tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, “jismoniy tarbiya” tushunchasining o‘ziga bir qancha ta’riflar berilganligini ko‘rishimiz mumkin. “Jismoniy tarbiya - pedagogik jarayon bo‘lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo‘lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni shakllantirish va yahshilashga qaratilgan”[3]. “Jismoniy tarbiya organizmni har tomonlama chiniqtirishga qaratilgan, sog‘liqni mustahkamlashni nazarda tutgan tarbiya, jismoniy mashqlar” kabi ta’riflar berilgan.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ilmiy pedagogik faoliyati davomida quyidagilarga alohida e’tibor qaratishi lozim deb hisoblaymiz:

- jismoniy tarbiyaga doir bilimlar tizimini mukammal egallagan bo‘lishi;
- jismoniy mashqlarni o‘quvchilarga to‘laqonli yetkaza olish ko‘nikma va malakasiga egaligi;
- o‘z fanini o‘zlashtirganligi bilan birgalikda umummetodologik fanlar asosini, xususan davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;
- atrofda sodir bo‘layotgan ijtimoiy muammolar va jarayonlarni o‘z nuqtai nazardan mustaqil tahlil qila olishi;
- o‘quv jarayoni davomida o‘quvchilarning ma’naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo‘lib borishi;
- o‘quvchilarning yoshga doir xususiyatlaridan kelib chiqib, zamonaviy pedagogik va psixologik bilimlarni o‘rnida qo‘llay olishi;
- vujudga kelgan yangi bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishi, takomillashtirishi va o‘z mehnat faoliyatida ilmiy asosda foydalana olishi;
- o‘z ilmiy pedagogik faoliyatida me’yoriy huquqiy hujjatlardan individual foydalana olishi;
- muommala madaniyatiga rioya qilishi;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni tanqidiy yondashuv asosida tahlil qila olishi;
- o‘zlashtirgan bilimlarini o‘quvchilarga aniq yetkaza olishi;
- o‘z kasbiga nisbatan mas’uliyat hissining shakllanganligi;
- pedagogik faoliyati davomida xorijiy tillardan birini kasbiy malaka yoki ilmiy muloqot almashish vositasi sifatida egallagan bo‘lishi;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishi;
- pedagogik faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olishi va hakozo.

Shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘z pedagogik faoliyatlarida qo‘llaniladigan jismoniy madaniyat atamalarini mukammal bilishlari shart. Albatta, o‘qituvchi tomonidan atamalarning tushunarli tarzda aniq va o‘z o‘rnida qo‘llanilishi o‘quvchining jismoniy tayyorgarlik sifatini ham yaxshi bo‘lishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Darhaqiqat, har birimiz kundalik hayotimizda jismoniy madaniyat atamalaridan bugun keng foydalanamiz. Deyarli, ta’lim muassasalarida mavjud barcha fanlarda ularni uchratishimiz va u bilan to‘qnashish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “bugun dunyo miqyosida mavjud 300 ga yaqin sport turlariga xos 15 mingdan ortiq tushuncha va atamalari mavjud”.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘z pedagogik faoliyatida o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida teran, ta’sirli, mantiqli, chiroyli gapira olishi va o‘z o‘rnida tarbiyaviy ahamiyatga molik iboralardan o‘rnida to‘g‘ri foydalana olishi zarur. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o‘qituvchining nutqi har bir o‘quvchi uchun ibrat manbai bo‘lib, hatto beparvolik bilan uning jahlini chiqarib, intizomni buzib turgan o‘quvchiga nisbatan qo‘pol muomala, haqoratlash, kamsitish, shaxsiyatiga tegish bilan emas, balki pozitiv yondashgan holda vaziyatdan chiqib ketish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. O‘qituvchi dars mashg‘ulotini olib borar ekan, uning ovozi auditoriyani boshqarish quroli bo‘lishi lozim. Jismoniy tarbiya bilan bog‘liq mashqlarni tushuntirish vaqtida u ovozini kerakli o‘rinda ko‘tarish va pasaytirish orqali o‘quvchilarning nimalarga asosiy urg‘u berish kerakligini bildira olishi kerak.

Bugungi global o‘zgarishlar jarayonida uzluksiz ta’lim tizimida innovatsion yondashuvga ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Xususan, jismoniy tarbiyani o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida innovatsion yondashish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Innovatsion yondashuvni uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini yangicha g‘oyalar, texnologiyalar, zamonaviy interfaol usullar bilan tashkil etish va o‘qituvchining izlanishlari davomida shakllanib, takomillashib boradigan jarayon sifatida qarash mumkin. Bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchisining ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvni tatbik etishi, uning pedagogik faoliyatining mazmun-mohiyatini yangicha ko‘rinishga olib chiqadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shaxkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - T. “O‘zbekiston” NMIU, 2018. -B.19-20.

2. Абдуллаева Ш.А., Хуррамов Э.Э. Булажак жисмоний тарбия укитувчиларини инновацион фаолиятга тайёрлаш // Замонавий таълим / Современное образование. 2016. № 5. - Б.15-16.

3. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. Укув кулланма. Т., УзДЖТИ, 2005. 12-б.

4. Карнеги Д. Икрорлик - маҒлубият эмас. Санъат журнали. Т.: 2009. 28-б.

5. Мамашокиров С. Вадимами ёки хакикат. “IQTISOD-MOLIYA”, 2012, -192

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОЙ ГРАМОТНОСТЬ В ОБУЧЕНИИ АКАДЕМИЧЕСКОМУ ПИСЬМУ

Саодат Амракуловна Рхматова
Самаркандского филиала Ташкентского университета информационных технологий
Самарканд, Узбекистан
rahmatova1867@mail.ru

Аннотация: *В статье рассматривается вопрос о развитии цифровой грамотности в обучении академическому письму. Рассуждается о распространени трансдисциплинарного подхода к формированию содержания курса академического письма для студентов любых специальностей, который подразумевает использование универсальных стратегий его преподавания.*

Ключевые слова: *Академическое письмо на русском языке, академическая грамотность, трансдисциплинарный подход, мультиграмотность, цифровая грамотность, компьютерные технологии, цифровые ресурсы.*

Многие исследователи научной коммуникации в Узбекистане констатируют наличие серьезной проблемы с написанием научных текстов не только студентами и аспирантами, но и зачастую публикующимися специалистами, преподавателями и научными работниками вузов [1, с. 14; 2]. Статьи, поступающие на рецензирование в академические гуманитарные журналы, уже при первой, беглой проверке формальных

характеристик рукописи обнаруживают множество проблем. К наиболее частым можно отнести небрежность в форматировании текста, неграмотное оформление ссылочного аппарата и библиографического списка, немногочисленный литературный обзор отечественных и игнорирование зарубежных источников, отсутствие рекомендуемой структурной композиции текста, пренебрежение количественными характеристиками исследования и т. д.

Проблемы академической грамотности (academic literacy), академических умений (academic skills) стали особенно заметны в международной научной коммуникации. Отмечаются значительные трудности, с которыми сталкиваются российские ученые, когда пытаются опубликовать свою статью в международном журнале [3; 4]. Однако для многих авторов сложностью является не только публикация статьи на английском языке, но и успешное прохождение рецензирования для публикации на русском языке в отечественных журналах, которые характеризуются высоким уровнем цитируемости и значимым импакт-фактором [5]. Как известно, публикация статьи в престижном академическом журнале является не только субъективным критерием подтверждения профессионального уровня ученого, представляющего результаты своих исследований на суд научного сообщества, но и обязательным требованием к отчетности по научным проектам, и необходимостью независимой оценки профессиональной значимости ученого через индексы научного цитирования (самые известные – РИНЦ, Scopus, Web of Science) [3, с.5]. Этот претендующий на объективность библиометрический инструмент позволяет формализовать оценку изданной статьи в диапазоне от широко цитируемой до игнорируемой научным сообществом [6, с.74].

Основы цифровой и мультиграмотности

В целом нас интересуют стратегии преподавания, методические подходы в курсе «Академическое письмо» для студентов различных специальностей, адаптированном для изучения на русском языке. Целью такого курса является обучение студентов выражать и обосновывать свои идеи посредством краткого, убедительного и структурированного научного текста [7, с.23]. Нельзя не согласиться с теми исследователями, которые считают, что на уровне структуры производства знаний существует достаточное сходство между научными дисциплинами для выработки общих методологических рекомендаций для такого универсального, трансдисциплинарного курса. Успешность обучения академическому письму, несомненно, зависит от взаимосвязи учебных курсов программы в решении задач привития исследовательских навыков, заинтересованности преподавателей поддерживать свой высокий академический уровень, а также от развитости научноисследовательской среды в вузе, в которую вовлечены и студенты [2; 4.]. В этой связи уместен термин трансдисциплинарного письма, когда научные тексты создаются совместными усилиями студентов и преподавателей профильных дисциплин под руководством специалистов по академическому письму [1, с.83].

Таким образом, формируются надъязыковые, надпредметные, творческие академические умения [4, с.180]. Так, в программу курса входят практические работы, основанные на анализе научных текстов, подготовке обоснованной рецензии и рекомендаций по анализируемому тексту. В качестве примеров подбирались рукописи статей аспирантов и магистрантов как неопубликованные, так и статьи, представленные в печати.

Сегодня практически никто уже не создает тексты в рукописном виде. Широкое распространение компьютеров и текстовых редакторов дает возможность легко набирать, сохранять, изменять, копировать и редактировать любой электронный текст. Кроме навыков компьютерного набора текста, большинство авторов обладают достаточной информационной или цифровой грамотностью (digital literacy), чтобы найти важную информацию в электронном формате, обратиться к онлайновому сервису в Интернете или установить необходимое приложение на мобильном устройстве. Таким образом, мультимодальная функциональная грамотность вбирает в себя различные виды

грамотностей, обусловленных развитием информационнокоммуникационных технологий. Эта новая грамотность изначально характерна для современных студентов и преимущественно молодых исследователей, которые быстро расширяют спектр своих цифровых компетенций и легко налаживают необходимые контакты через социальные сети (так называемые цифровые аборигены). Переосмысленное понятие мультиграмотности подразумевает, во-первых, выход за рамки одного языка (би- и мультилингвизм), во-вторых, включает цифровую грамотность, и, в-третьих, определяется влиянием культуры и контекста, благодаря чему печатный текст становится активным и публичным авторским продуктом [5, с.7].

Рассмотрим проблемы, с которыми сталкиваются преподаватели на начальном этапе формирования мультиграмотности студентов. К ним относятся следующие проблемные моменты [4, с.120]:

- не соответствующие академическому письму жанры и стили текста (например, публицистический, разговорный, просторечный);
- отсутствующие соединительные конструкции между предложениями, абзацами, параграфами;
- использование лексических шаблонов;
- неверное синтаксическое оформление предложений – слишком короткие простые или излишне длинные (многословные, тяжеловесные) предложения.

Отметим, что электронные тексты можно с достаточной корректностью проверить и с помощью специальных онлайновых сервисов, выявляющих орфографические, пунктуационные, грамматические и стилистические ошибки (например, Орфограммка, Яндекс.Спеллер, Орфограф, Реформатор, Грамота.Ру), которые рекомендуются студентам. Как было отмечено, техническая подготовка и редактирование рукописей подразумевают культуру печатного письма или грамотное использование возможностей форматирования в текстовом процессоре, которые зачастую игнорируются авторами. К грамотным навыкам форматирования текстов относятся корректные действия при выборе шрифтов, определении их размеров и начертаний, правильная установка межстрочных и межабзацных отступов и интервалов, размеров полей, точное позиционирование текста и точная вставка и позиционирование иллюстративных элементов на странице документа [5, с.120;]. Заметим, что проверка научного текста как готового, без последующей доработки по замечаниям преподавателя, является малоэффективной стратегией обучения, и не соответствует реальной процедуре прохождения статьи в рецензируемый журнал. В высокорейтинговых журналах только за редким исключением заявленная статья принимается без замечаний и рекомендуемых правок после «слепого» рецензирования двумя-тремя экспертами [6, с.57]. В наших лабораторных работах по курсу оценка текста преподавателем или студентом (при обмене работами между студентами) преимущественно выполняется в электронном виде с использованием функции рецензирования в текстовом редакторе. Возможно также использование распечатанных текстов, в которых проверяющими от руки вносятся замечания и рекомендуемые правки, а затем на занятии преподавателем обсуждаются характерные ошибки с примерами из этих работ. Вместе с тем, подробные исправления и правки всего текста, наподобие редакторских (maximal marking), при обучении студентов не рекомендуется использовать как малоэффективную стратегию обучения академическому письму. Так, исследования показывают, что только минимальные правки с обозначением местонахождения ошибки (minimal marking) стимулируют студентов к ее поиску и осознанию [7, с.58]. Таким образом, при опосредованном компьютером взаимодействии с преподавателем или студентов между собой (учебная компьютерно-опосредованная коммуникация) в работе с электронным текстом студенты приучаются к использованию технологии внешнего редактирования в текстовом процессоре, которая выполняется более эффективно при помощи команд и функций рецензирования. Процедура рецензирования в этом случае становится

сотворчеством автора и рецензента, благодаря инструменту комментирования к пометкам, или аннотирования в рецензируемом документе [7, с.175, 177].

В заключение хочется сказать, что написание качественных научных текстов студентами и специалистами на русском и английском языках является ключевой проблемой современной международной научной коммуникации. Недостаточная академическая грамотность пишущих авторов приводит к их низким индексам цитируемости и, как результат, к незначительным импакт-факторам отечественных журналов. Многоуровневая система академического языка включает формирование навыков чтения, письма, аудирования и говорения, причем в вузовских программах обучения акцент делается на академическом письме. Работа современных авторов с текстом предполагает наличие у них компьютерной или, обобщенно, цифровой грамотности, которая, в свою очередь, входит в понятие новой или мультиграмотности.

Литература

1. Короткина И. Б. Модели обучения академическому письму. Зарубежный опыт и отечественная практика: монография. М.: Юрайт, 2018. – 219 с.

2. Куприянов А. В. «Академическое письмо» и академическая жизнь: опыт адаптации курса в недружественной институциональной среде // Высшее образование в России. 2011. №10. – С.31-38.

3. Кириллова О. В. Редакционная подготовка научных журналов для включения в зарубежные индексы цитирования. Методические рекомендации. М.: ВИНИТИ РАН, 2012 – 68 с. http://academy.rasep.ru/files/documents/1_2_kirillovametrec_2012.pdf

4. Лытаева М. А., Талалакина Е. В. Academic skills: сущность, модель, практика // Вопросы образования. 2011. №4.

5. Смирнова Н. В., Щемелева И. Ю. Роль письма в современном университете: анализ зарубежной практики обучения академическому письму // Вестник СПбГУ. Язык и литература. 2015. №2.

6. Латур Б. Наука в действии: следуя за учеными и инженерами внутри общества. СПб.: Изд-во Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2013. – 414 с.

7. Шарабчиев Ю. Т. Новые возможности информационного поиска и продвижения идей, технологий, знаний и результатов научной деятельности: электронные библиотеки и электронные журналы открытого доступа // Международные обзоры: клиническая практика и здоровье. 2016. №5-6

MAKTABLARDA MATEMATIKA VA INFORMATIKA FANINLARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY SIMULYATOR DASTURLARINING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Pardayev X.R[1]., Bo‘tayev N.T[2].
[1,2]Samarqand shahar Maktabgach va maktab bo‘limiga qarashli 5-maktab oliy toifali inormatika fani o‘qituvchilari, Samarqand, O‘zbekiston
xurshidpardayev005@gmail.com

Annotatsiya. *Zamonaviy simulyator dasturlarini tushunish va undan foydalanishning ahamiyaliligi. Zamonaviy simulyator dasturlari real holatlar yoki matematik va informatika fanlarida modellarni taqlid qilish uchun mo‘ljallangan dasturiy ilovalardir. Ushbu dasturlar talabalarda matematik tushunchalarni o‘rganish, tajribalar o‘tkazish va mavhum g‘oyalarni tasavvur qilishlari mumkin bo‘lgan interfaol muhitlarni yaratish uchun ilg‘or algoritmlar va hisoblash texnikasidan foydalanadi.*

Kalit so‘zlar: *Zamonaviy simulyator dasturlar, matematikani o‘qitish, GeoGebra, Demos, virtual labaratoriya, PhET.*

Ta’lim sohasida texnologiya integratsiyasi talabalar va o‘quvchilarninig o‘rganishi va o‘qituvchilarning dars berish usullarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Texnologiya katta ta’sir ko‘rsatgan shunday sohalardan biri matematika o‘qitishdir. Zamonaviy simulyator dasturlari kuchli vositalar sifatida paydo bo‘ldi, ular nafaqat o‘rganish tajribasini oshiradi, balki murakkab matematik tushunchalarni talabalar uchun yanada qulayroq va qiziqarli qiladi. Bugungi kunda zamonaviy simulyator dasturlarini ta’lim jarayonida qo‘llash orqali o‘qitishning samaralailigini oshirish zamon talabi bo‘lib bormoqda. Zamonaviy simulyator dasturlari haqiqiy dunyo senariylarini yoki matematik modellarni taqlid qilish uchun mo‘ljallangan dasturiy ilovalari yaratilmoqda va foydalanilmoqda. Ushbu dasturlar talabalar va o‘quvchilarning matematik tushunchalarni o‘rganish, tajribalar o‘tkazish va mavhum g‘oyalarni tasavvur qilishlari mumkin bo‘lgan interfaol muhitlarni yaratish uchun zamonaviy algoritmlar va hisoblash texnikasidan foydalananish zamon talabi bo‘lib bormoqda.

Matematika va informatika fanini o‘qitishda zamonaviy simulyator dasturlarini qo‘llashning afzalliklari sifatida quyidagi faktorlarni keltirish o‘rinlidir:



1-rasm. *Matematika va informatika fanlarini o‘qitishda simulyatorlarning afzalliklarini ifodalavovchi faktorlar.*

Zamonaviy simulyator dasturlariga misollar sifatida bugungi kunda eng mashxur bo‘lgan 3 ta dasturni, ya’ni o‘quvchilarga geometrik konstruksiyalar yaratish, algebraik tenglamalarni o‘rganish va matematik tushunchalarni tasavvur qilish imkonini beruvchi GeoGebra dasturi, o‘quvchilarga funksiyalarni grafik qilish, ma’lumotlarni chizish va matematik munosabatlarni o‘rganish imkonini beruvchi onlayn grafik kalkulyator va o‘zining qulay interfeysi va kuchli grafik qobiliyatlari uchun sinflarda keng qo‘llaniluvchi Demos dasturi, fan va matematika uchun interaktiv simulyatsiyalar to‘plamini taklif etuvchi hamda simulyatsiyalar fizika va kimyodan tortib biologiya va matematikagacha bo‘lgan keng ko‘lamli mavzularni qamrab oluvchi va talabalarga amaliy o‘rganish tajribasini beradigan PhETdasturlarni aytish mumkin.

GeoGebra. GeoGebra dasturi geometriya, algebra va hisobni birlashtirgan dinamik matematik dastur hisoblanadi. Bu matematikani o‘qitish va o‘rganishda kuchli vositadir, chunki u o‘quvchilarga geometrik konstruksiyalar yaratish, algebraik tenglamalarni o‘rganish va matematik tushunchalarni tasavvur qilish imkonini beradi. GeoGebra o‘zining qulay interfeysi va o‘quvchilarga murakkab matematik g‘oyalarni tushunishga yordam berishi uchun butun dunyo bo‘ylab sinflarda keng qo‘llaniladi. Bu dastur Windows, macOS, Linux va mobil qurilmalar uchun mavjud bo‘lgan bepul, ochiq kodli dasturiy ta’minot. U o‘quvchilarga geometrik shakllarni, chizma funksiyalarini va tenglamalarni echishini tezda yaratish va boshqarish imkonini beruvchi sodda va intuitiv interfeysga ega bo‘lishi uchun qulay foydalanish uchun mo‘ljallangan. Bu dasturning asosiy xususiyatlaridan biri uning dinamik, interaktiv simulyatsiyalarni yaratish qobiliyatidir. Ushbu simulyatsiyalar talabalarga matematik modelning bir qismidagi o‘zgarishlar modelning boshqa qismlariga qanday ta’sir qilishini ko‘rish imkonini beradi. Masalan, o‘quvchilar GeoGebra-dan funksiyaning dinamik grafigini yaratishlari va so‘ngra funksiya parametrlaridagi o‘zgarishlar grafaga qanday ta’sir qilishini ko‘rish uchun grafikni manipulyatsiya qilishlari mumkin.

GeoGebra shuningdek, geometriya, algebra va hisoblarni o‘rganish uchun keng ko‘lamli vositalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, o‘quvchilar GeoGebra yordamida aylana, chiziq va ko‘pburchak kabi geometrik konstruksiyalarni yaratishi mumkin. Shuningdek, ular GeoGebra-dan funksiyalarni tuzish, tenglamalarni yechish va hosilalar va integrallarni topish kabi hisob-kitob amallarini bajarish uchun foydalanishlari mumkin.Umuman olganda, GeoGebra matematikani o‘qitish va o‘rganish uchun kuchli vositadir. Uning qulay interfeysi, dinamik simulyatsiyalar va asboblarning keng assortimenti uni o‘qituvchilar va talabalar uchun ideal tanlovga aylantiradi.

Desmos. Desmos - bu o‘quvchilarga funksiyalarni grafik qilish, ma’lumotlarni chizish va matematik munosabatlarni o‘rganish imkonini beruvchi onlayn grafik kalkulyator. U o‘zining qulay interfeysi va o‘quvchilarga murakkab matematik g‘oyalarni tushunishga yordam berish qobiliyati tufayli sinflarda keng qo‘llaniladi, hamda bu dastur internetga ulangan har qanday qurilmada mavjud bo‘lgan bepul, vebga asoslangan vosita. U o‘quvchilarga grafiklarni tezda yaratish va manipulyatsiya qilish imkonini beruvchi sodda va intuitiv interfeysga ega, ulardan foydalanish oson bo‘lishi uchun mo‘ljallangan. Desmos shuningdek, o‘quvchilarga matematik tushunchalarni o‘rganish va muammolarni hal qilishni osonlashtiradigan keng ko‘lamli vositalar va xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Desmosning asosiy xususiyatlaridan biri uning dinamik, interaktiv grafiklarni yaratish qobiliyatidir. Ushbu grafiklar talabalarga matematik modelning bir qismidagi o‘zgarishlar modelning boshqa qismlariga qanday ta’sir qilishini ko‘rish imkonini beradi. Masalan, talabalar funksiyaning dinamik grafigini yaratish uchun Desmos-dan foydalanishlari va keyin funksiya parametrlaridagi o‘zgarishlar grafaga qanday ta’sir qilishini ko‘rish uchun grafikni manipulyatsiya qilishlari mumkin.

PhET interaktiv simulyatori. PhET dasturi turli fanlar va matematika uchun interaktiv simulyatsiyalar to‘plamini taklif etadi. Ushbu simulyatsiyalar fizika va kimyodan tortib biologiya va matematikagacha bo‘lgan keng ko‘lamli mavzularni qamrab oladi va talabalarga amaliy o‘rganish tajribasini beradi. Bu dastur ham Demos kabi internetga ulangan har qanday qurilmada mavjud bo‘lgan bepul, vebga asoslangan vositalardir. Ular o‘quvchilarga ilmiy va matematik tushunchalarni tezda o‘rganish imkonini beruvchi sodda va intuitiv interfeyslarga ega, ulardan foydalanish oson bo‘lishi uchun yaratilgan. PhET simulyatsiyalari, shuningdek, talabalarga tajribalar o‘tkazish va muammolarni hal qilishni osonlashtiradigan keng ko‘lamli vositalar va xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki. Zamonaviy simulyator dasturlari o‘quvchilarga interaktiv va qiziqarli o‘quv tajribalarini taqdim etish orqali matematikani o‘qitishda inqilob qildi. Ushbu dasturlar o‘quvchilar va talabalarga mavhum tushunchalarni tasavvur qilish, amaliy o‘rganish bilan shug‘ullanish va matematik prinsiplarni real holatlarda qo‘llashga yordam beradi. Texnologiyaning rivojlanishi davom etar ekan, matematika ta’limida simulyator dasturlaridan foydalanish butun dunyo bo‘ylab o‘quvchilar va talabalar uchun o‘rganish tajribasini yanada oshirishi kutilmoqda. Bu dasturlar, kasbi kim bo‘lishidan qat’iy-nazar foydalanuvchini izlanuvchanlikka, ijodiy fikr yuritishga, ish natijalarini tahlil qilishga o‘rgatadi. Yuqorida keltirilgan dasturlardan foydalangan holda o‘qish jarayonini tashkillashtirilsa, o‘quvchilar va talabalar fanga qiziqish bilan yondashadilar, hech kimga sir emas hozir yoshlarni tabiiy fanlarga va texnika, hamda aniq fanlariga qiziqtirish juda qiyin hisoblanadi. Yuqorida tavsiya qilayotgan dasturlardan foydalangan holda o‘quv jarayoni tashkillashtirilsa, o‘quvchilar va talabalar o‘z mutaxassislik fanlari, fizika, informatika va kimyo fanlarini ham chuqur o‘rganishlariga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. И.И. Рахматов, Р.М.Саидова. “Активатсия мышления учащихся при обучении школному курсу физики”. ООО «Издателство Молодой ученый», Международный научный журнал «Молодой ученый», Казан, №4 (138), январ-И/2017. Част ИВ, -С.382-383.

2. Wolfert, Sjaak; Ge, Lan; Verdouw, Cor; Bogaardt, Marc-Jeroen (1 May 2017). "Big Data in Smart Farming – A review". Agricultural Systems. 153: 69–80. Bibcode:2017AgSys.153...69W. doi:10.1016/j.agsy.2017.01.023. ISSN 0308-521X.

3. Bronson (2018). "Smart Farming: Including Rights Holders for Responsible Agricultural Innovation". Technology Innovation Management Review. 8(2). doi:10.1007/s13593-017-0445-7
4. https://www.geogebra.org/geometry
5. https://www.desmos.com/calculator
6. https://phet.colorado.edu/en/simulations/category/math

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MUHITIDA, TALABALARNING MUSTAQIL ISHLASH FAOLLIGINI OSHIRISH METODLARI

Umarov Eldor Do‘syarovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston
eldorumarov55@gmail.com

Annotatsiya. *Talabalarning faol mustaqil ishlari faqat jiddiy va barqaror qiziqishlar mavjud bo‘lgandagina amalga oshishi mumkin. Bundagi eng jiddiy omil — kelgusi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlik. Talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini ko‘rib chiqamiz.*

Kalit so‘zlar. *Zamonaviy axborot texnologiyalari, Ijodiy faollik, o‘quv jarayoni, individual ishlash, mustaqil faoliyat, metodika.*

Hozirgi vaqtda oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limning nisbati bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida mustaqil ishlar uchun yetarlicha vaqt ajratilgan. Asosiy gap ana shu vaqtdan samarali va unumli foydalanishda, xolos. Talabalarning mustaqil ishlari asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning ikkita asosiy yo‘nalishi mavjud

Birinchisi — auditoriya mashg‘ulotlarida mustaqil ishlarning rolini oshirish. Buni amalga oshirish uchun professor-o‘qituvchilardan auditoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda talabalarning yuqori darajadagi mustaqilligi va tayyorgarligi sifatini ta’minlaydigan metodika va shakllarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ikkinchisi — talabalarning auditoriyadan tashqari vaqtlarda barcha yo‘nalishlar bo‘yicha mustaqil ishlardagi faolliklarini oshirish. Talabalarning auditoriyadan tashqari ishlardagi faolliklarini oshirishdagi muammolar bir qator qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Bunda mustaqil ishlarni bajarishga ko‘pgina talabalarninggina emas, hatto ayrim professor-o‘qituvchilarning ham tayyor emasliklarini ko‘rish mumkin. Bu ko‘pincha kasbiy yoki psixologik yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Buning yoniga sifatsiz informatsion ta’minotni ham qo‘shsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda informatsion ta’minot talab darajasida bo‘lmaydi, buning natijasida samaradorlikning pasayib ketishi kuzatiladi. Shuningdek, talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qligi hamda ularda nutq madaniyatining yaxshi rivojlanmaganligini ham ularning mustaqil ta’limda faol ishtirok etmasliklariga sabab bo‘luvchi omillar qatoriga qo‘shishimiz mumkin. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishdagi asosiy vazifa har qanday shakldagi mashg‘ulotlarda intellektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun psixologik didaktik sharoitlarni yaratishdan iboratdir. [1]

1. Bajarilayotgan ishning foydaliligi. Agar talaba o‘z ish natijalarining ma’ruza jarayonida, metodik qo‘llanmada, laboratoriya ishida yoki amaliy mashg‘ulotlarda, maqolalar tayyorlashda foydalanilishi mumkinligini bilsa, uning bajarayotgan ishiga bo‘lgan munosabati keskin tarzda yaxshi tomonga o‘zgaradi, hamda ish sifati ham ortadi. Shunga ko‘ra, talabani ruhan bunday ishga tayyorlash, bajariladigan ishning zarurati ko‘rsatib berilishi kerak.

2. Talabaning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu nihoyatda xilma-xil ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari, badiiy ijod, metodik ishlar va hokazolar.

3. Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlarida ishtirok etish va boshqalar.

4. Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noan'anaviy imtihon shakllari v.b.). Bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi. Mana shu holatning o'zi talabada o'z ustida ishlashni, o'zini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi.

5. Mustaqil ishlarni tashkil etish mazmuni va shakllariga o'quv jarayonida yetarlicha vaqtning ajratilayotganligi ham talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishiga imkon beradi. [2]

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishdagi bosh tamoyil talabalarning individual ishlashga o'tishlarini va zamonaviy axborot vositalaridan unumli faydalanish ko'nikmalarini ta'minlash bo'lishi kerak. Bunda ayrim topshiriqlarni formal va passiv bajarishdan uni ongli va faol bajarish sari yo'llash asosiy o'rin tutishi kerak. Mustaqil ishning maqsadi avval o'quv mazmuni bilan, keyin esa ilmiy axborotlar bilan mustaqil ishlashga o'rgatish, o'z-o'zini yo'naltirish va rivojlantirish asoslarini, keyinchalik o'z malakasini muntazam oshirib borish ko'nikmasini hosil qilishdir. Bunda hal qiluvchi rolni o'qituvchi ado etadi. U, umuman, talaba bilan emas, balki muayyan shaxs bilan ishlayotganini har doim diqqat markazida bo'lishi lozim.

O'z talabasining kuchli va ojiz tomonlarini yaxshi bilishi, individual qobiliyati va qiziqishlarini nazarda tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchining vazifasi talabaning — bo'lajak yuqori malakali mutaxassisning yaxshi tomonlarini ko'rish va ko'paytirishdan iborat. Har qanday fanni o'rganishda mustaqil ishlarni tashkil etishning o'zaro aloqador uch shakli ko'zga tashlanadi:

1. Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar.
2. Auditoridagi mustaqil ishlar. Bu bevosita o'qituvchi rahbarligida tashkil etiladi.
3. Ijodiy. Ijodiy shakl nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin.

[2]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston

abroqulovanazira@gmail.com, jumanov56@mail.ru, zafargayratov94@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola raqamli tibbiyot sohasida Internet of Things (IoT) konsepsiyasining rolini va uning bemorlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashdagi ahamiyatini o‘rganadi. Maqola IoT texnologiyalarining tibbiyot sohasidagi qo‘llanilishini, jumladan masofadan bemorlarning holatini kuzatish, davolash jarayonlarini avtomatlashtirish va tibbiy ma'lumotlarni integratsiya qilish va tahlil etish kabi asosiy yo‘nalishlarini tahlil qiladi. Shuningdek, IoTning tibbiyot sohasidagi afzalliklari va duch keladigan qiyinchiliklari, xususan, xavfsizlik va maxfiylik masalalari hamda zarur infrastruktura talablari muhokama qilinadi.*

Maqola, IoT texnologiyalarining kelajakdagi tibbiyot sohasida qanday qilib yanada samarali qo‘llanilishi mumkinligini o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli tibbiyot, IoT (internet of things), masofadan tibbiy kuzatuv, raqamli tibbiyot, GSM/GPRS, 5G, sensorlar, raqamli tibbiy infrastruktura.*

Har bir iqtisodiyot sohasida raqamlashtirishni amalga oshirish shu sohani rivojlantirishning asosiy omili ekanligi barchamizga ma’lum. Raqamli tibbiyot ham iqtisodiyotda o‘ziga xos tizim sifatida shakllanib kelayapti.

Respublikamizda Sog‘liqni saqlash sohasini raqamlashtirishning 2021–2025 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi (E-Health-2025) strategiyasi ishlab chiqish va sog‘liqni saqlash sohasida axborot tizimlarini yaratish, takomillashtirish va joriy etish, shuningdek, axborot kommunikatsiya va texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda FHDY organlari bilan tibbiyot muassasalari o‘rtasida nikohlanuvchilarning yagona avtomatlashtirilgan elektron bazasini shakllantirsin, sog‘liqni saqlashning axborot tizimi Yagona platformasini ishlab chiqish hamda uning davlat va nodavlat tibbiyot muassasalari axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, “Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi” axborot tizimini ishlab chiqish, “Idoralararo telemeditsina” xizmatlarini rivojlantirish belgilab berildi. Shuningdek, sohani raqamlashtirish va axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish, boshqaruv jarayonidagi ortiqcha tartib-tamoyillarni qisqartirish, aholiga xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish, tibbiyot xodimlarining ish samaradorligini ta’minlash, shuningdek, ushbu yo‘nalishda qabul qilingan raqamli transformatsiya qilish dasturlarini samarali amalga oshirish vazifalari ko‘rsatib o‘tildi o‘tildi[1-2].

So‘ngi yillar davomida turli hil texnik qurilmalar («Things» - «ashyolar»)ning Internet tarmog‘iga oddiy ulanish imkonini beruvchi radio to‘lqinli identifikatsiyalash RFID (Radio Frequency IDentification), simsiz sensor tarmog‘i WSN (Wireless Sensor Network), yaqin aloqa NFC (Near Field Communication), mashinalararo M2M (Machine-to- Machine) va inson va mashina aloqasi M2H (Machine to Human) aloqa tarmoqlari sezilarli darajada rivojlandi. Bu esa ularning tarmoqqa ulanishlar sonini oshishiga olib keldi.

Cisco IBSG kompaniyasining konsalting bo‘limi tahlili bo‘yicha, 2008-2009 yillar mobaynida Internet tarmog‘iga ulangan qurilmalar yer yuzidagi insonlar sonidan oshib ketgan va 2015 yilga kelib ularning miqdori 25 milliardni tashkil etdi. 2020 yilga borib esa bu ko‘rsatkich ikki barobarga, ya’ni 50 milliardni tashkil etadi (1-rasm). Shu ko‘rinishda «Internet insonlar» tushunchasidan «Internet ashyolar», ya’ni IoT tushunchasiga o‘tish jarayoni amalga oshmoqda[3].

Bugungi kunga kelib odamlar taniqli rivojlangan kompaniyalar tomonidan IoT platformasi ishlab chiqarilayotganini Internet tarmog‘i yoki OAV orqali o‘qiganda yoki eshitganda buni e’tiborsiz qoldiradi. Buning sababi oddiy – ko‘pchilik IoT bugungi kun haqiqatiga aylanganini tushunib yetmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. IoT (ing. Internet of Things – Internet ashyolar, IoT) tushunchasi haqida ko‘pgina ta’riflar mavjud. IoT bu - atrofdagi bizni o‘rab turgan real va virtual ob’ektlarni birlashtirgan yagona tarmoqdir. Ya’ni, bitta tarmoqda fizik ob’ektlar (ashyolar, qurilmalar, uskunalar) inson ishtirokisiz o‘zaro yoki tashqi muhit bilan qisman va to‘liq muloqat qilish imkonini beruvchi tushuncha sifatida qaraladi [5].



1-rasm. *Internet tarmog‘iga ulangan odamlar va qurilmalarning vaqt bo‘yicha tahlili (manba: Cisco IBSG, 2019)*

Atrofimizni o‘rab turgan barcha narsalar va qurilmalar (maishiy texnika, kiyim- kechak, oziq-ovqatdan tortib elektron qurilmalar, avtomabillar, sanoat uskunalari va boshqalar) miniatyur identifikatsiya va sensor (sezgir) qurilmalar bilan jihozlangan. Agar ular o‘rtasida yagona aloqa kanallari mavjud bo‘lsa, bu ob’ektlarni nafaqat kuzatish, balki ularni istalgan joyda va vaqtda boshqarish yoki ular inson ishtirokisiz o‘zaro muloqat qilishi mumkin.

Umuman olganda, axborot-kommunikatsiya nuqtai nazaridan IoT tushunchasini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

IoT = sensorlar (datchik) + ma’lumotlar + tarmoq + xizmat

Oddiy qilib aytganda, IoT - IP (Internet Protocol) protokoli yordamida bir-biri bilan muloqot qiluvchi kompyuterlar, sensor qurilmalari (datchiklar) va ijrochi qurilmalar (aktuatorlar)ning global tarmog‘idir.

IoT tushunchasidagi har bitta ashyo o‘zaro vaqtinchalik yoki doimiy tarmoqda muloqat qilishlari uchun unikal identifikatorga ega. Bu esa ularning geografik joylashuvi haqida ma’lumot olish, muhitga moslash, energiya sarfi, mantiqiy jarayonlarni amalga oshirish imkoniyatini to‘liq avtomatlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ular o‘zlariga tegishli boshqa qurilmalar (ashyolar) bilan o‘zaro insonlar ishtiroki/ishtirokisiz muloqot qilishlari mumkin.

IoT tushunchasi birinchi bo‘lib 1990 yilda TCP/IP protokoli asoschisi Djon Romki tomonidan ilgari surilgan. XXI asrga kelib esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida IoT tushunchasi shakllandi va amalga tadbiq qilindi [6].

Bugungi kunga kelib IoT tushunchasi qulaylik va xavfsizlik nuqtai nazaridan insoniyat ijtimoiy rivojlanishining yangi modeliga aylanib bormoqda. Internet ashyolar, masofadan boshqaruvchi tizimlar, «aqlli uy-shahar-sayyora» kabi tushunchalarning rivojlanishi tarmoqqa ulanuvchi qurilmalar (ashyolar) sonining ortishiga olib kelmoqda.

Bu esa IoT tushunchasi inson faoliyatining barcha sohalariga kirib borishidan darak beradi. Yaqin kelajakda IoT yordamida ta’lim, sog‘liqni saqlash va tibbiy yordam, aniq tahlillar, xavfsizlik va boshqaruv sohalarida katta yutuqlarga erishiladi.

So‘nggi vaqtlarda tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatyaptiki, insoniyat uchun sog‘liqni saqlash sohasini rivoji iqtisodiy foyda keltiradi. Olimlarning aytishicha sog‘liqni saqlashga xizmat ko‘rsatish va uni qo‘llab quvvatlash juda murakkab jarayondir. Dunyo miqyosida sanoat IoT texnologiyasini rivojlantirish uchun milliardlab mablag‘ sarflamoqda va ushbu loyihalarning ba’zilari quyidagilar hisoblanadi Xitoyning Sanoat va IT vazirligining China’s National IoT Plan, IoT bo‘yicha Yevropa tadqiqot klasteri (IERC), Yaponiyaning u-Strategy loyihasi, Buyuk Britaniyaning kelajakdagi Interneti va Italiyaning Netergit loyihasi. Tibbiyot va sog‘liqni saqlash sohasidagi IoT texnologiyasini qo‘llash bemorlarga eng yaxshi tibbiy yordam, eng qisqa vaqtda kasallikni aniqlash, tibbiy xarajatlarning pastligidan va qoniqarli xizmatdan foydalanishda qulay imkoniyatlar yaratib beradi [7].

Tadqiqot natijalari. Bemorning tanasiga biriktirilgan turli xil sensorlar sog‘liqni saqlash ma’lumotlarini ishonchli olish uchun ishlatiladi, to‘plangan ma’lumotlar tahlil qilinadi (ba’zi tegishli algoritmlarni qo‘llagan holda) va turli xil uzatish vositalaridan(3G / 4G yordamida yoki Internetga ulangan Wi-Fi) foydalanib serverga yuboriladi. Barcha tibbiyot mutaxassislari ma’lumotlarga internet orqali kirishlari va ko‘rishlari, masofadan xizmatlarni taqdim etishlari va ular bo‘yicha tegishli qaror qabul qilishlari mumkin.

Buyumlar interneti (IoT) - bu mavjud va rivojlanayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan (jismoniy va virtual) narsalarni bir-biriga ulash orqali ilg‘or xizmatlarni taqdim etuvchi axborot jamiyati uchun global infratuzilmadir.

"Buyumlar interneti" bu shunchaki mashina bilan aloqa, simsiz sensor tarmoqlari, sensor tarmoqlari, 2G / 3G / 4G, GSM, GPRS, RFID, WI-FI, GPS, mikrokontroller, mikroprotsessor va hokazolar emas. Bular "Internet of things" ilovalarini amalga oshirishga imkon beradigan ilg‘or tarmoq texnologiyalar hisoblanadi.

IoT ga texnologiyalarni tadbiq etishda ularni uchta toifaga guruhlash mumkin:

- "ashyolar"dan foydalangan texnologiyalar kontekst ma’lumotlarni olish imkonini

beradi;

- "ashyolar"dan foydalangan texnologiyalar kontekst ma’lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi;
- xavfsizlik va shaxsiy hayotni yaxshilaydigan texnologiyalar.

2-rasm. *Internet ashyolari: Foydalaniladigan texnologiyalar to‘plamlari*

IoT texnologiyasi inson, ob’ektlar, vaqt va manzil haqida juda ko‘p ma’lumotlarni taqdim qiladi. Hozirgi Internet texnologiyasi va IoT birlashganda arzon narxlardagi sensorlar va simsiz aloqa asosida ishlaydigan katta hajmdagi platformalar va innovatsion xizmatlarni hosil qiladi.

Buyumlar internetining maqsadi har qanday joyda, har qanday holatda, har qanday narsani va har qanday usul/tarmoq orqali xizmatdan ideal tarzda foydalangan holda ulanishni ta’minlashdir.



3-rasm. *Buyumlar interneti(IoT) arxitekturasi*

Buyumlar interneti bu bitta texnologiya emas, lekin u turli xil apparat va dasturiy ta’minotlarning to‘plamidir. IoT axborot texnologiyalari integratsiyasiga asoslangan yechimlarni taqdim etadi, bu ma’lumotlar va aloqa vositalari uchun axborotlar saqlash va olish uchun ishlatiladigan apparat va dasturiy ta’minotni, shuningdek, shaxslar yoki guruhlar o‘rtasidagi aloqa uchun ishlatiladigan elektron tizimlarni o‘z ichiga oladi.

IoT dasturlarining energiya samaradorligi, tezlik, xavfsizlik va ishonchlilik kabi ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirish kerak bo‘lgan aloqa texnologiyalarining turli xil aralashmasi mavjud. Shu nuqtai nazardan, turli xil standartda va muhitda ishlaydigan IoT dasturlarining ehtiyojlarini qondiradigan, bozor tomonidan qabul qilingan, allaqachon xizmat ko‘rsatishga qodir bo‘lgan va kuchli texnologiyalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan boshqariladigan tarmoq texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu toifadagi standartlarga misollar Ethernet, WI-FI, Bluetooth, ZigBee, GSM va GPRS kabi simli va simsiz texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.

IoT arxitekturasi IoT ni qo‘llab-quvvatlaydigan turli xil texnologiyalar qatlamlaridan iborat. Bu turli xil texnologiyalarning bir-biri bilan qanday bog‘liqligini ko‘rsatishga va turli ssenariylarda IoT joylashtirilishining ko‘lamliligi, modulligi va konfiguratsiyasini amalga oshirishda xizmat qiladi. 3-rasmda IoT arxitekturasi batafsil ko‘rsatilgan.

IoTning tadbiq etish sohalari xilma xil hisoblanadi va IoT ilovalari turli xil foydalanuvchilarga xizmat qiladi. Turli xil foydalanuvchilar toifalari turli xil ehtiyojlar uchun foydalanadi.

Muhokama. IoTga asoslangan masofaviy monitoring qilish arxitekturasi, kasalxona axborot tizimiga o‘xshagan turli xil tizimlar, yetkazib berish xizmatlari tizimi, kontent boshqaruv asoslari, bilimlar bazasi tizimlari va atrof-muhit integratsiyasi platformasi kabi loyihalar ustida [AJ Jara, MA Zamora-Izquierdo va AF Skarmeta, 2017]lar ish olib borgan. Ushbu arxitekturada RFID, simsiz shaxsiy qurilmalar, o‘rnatilgan tizimlar, Monere va Movital uskunalari, 6LoWPAN, HDP va eng muhimi, YOAPY deb nomlangan yangi protokoli qo‘llanilgan. Taklif etilgan protokol istiqbolli lekin, u favqulodda vaziyatlarda muammolarni qanday hal qilish usullari keltirilmagan.

Xulosa. IoT texnologiyalari raqamli tibbiyot sohasida katta imkoniyatlar yaratmoqda va bu imkoniyatlar bemorlarning davolanish sifatini yaxshilash, tibbiy xizmatlarni tez va samarali ko‘rsatishga yordam beradi. Biroq, bu yangiliklarni amaliyotga tatbiq etishda xavfsizlik va infrastruktura masalalariga alohida e'tibor berish zarur. Kelajakda IoTning raqamli tibbiyotdagi o‘rnini yanada mustahkamlash uchun ushbu qiyinchiliklarni hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.05.2021yildagi “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida”gi‘PQ- 5124-son qarori. https://lex.uz/docs/-5434358

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.02.2021yildagi “Sog‘liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi‘PQ-5000- son qarori. https://lex.uz/docs/-5434358

3. Prashant Patil, Rohan Waichal, Utkatsha Kumbhar, Vaidehi Gadkari // Patient Health Monitoring System using IOT, International Research Journal of Engineering and Technology (IRJET), Volume: 04 Issue: 01 | Jan -2017

4. Zaynidinov X.N., Maxmudjanov S.U., Programma obrabotki biomeditsinskix signalov metodami splayn –funksii, O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiyro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma № DGU 04438. 01.06.2017.

5. Sharanbasappa Sali. “Health Monitoring System Using Wireless Sensor Network”, January 2018, pp.04-12.

6. Sergiyenko A. B. Sifrovaya obrabotka signalov. - 2-e. - Spb: Piter, 2006. - 751 s.

7. Svinin S.F., Zaynidinov X.N. Kompleks programm dlya issledovaniya geofizicheskix poley. Tezisы dokl. Mejdunarodnoy konferensii «Regionalnaya informatika». Sankt-Peterburg, 22-24 iyunya, 2004.-S.244.

8. B. Yan, S. He, and K. Sun, “Design of a network permutation entropy and its applications for chaotic time series and EEG signals,” Entropy, vol. 21, no. 9, p. 849, 2019.

9. Nayeemuddin, S.Zahoor-ul-Huq, K.V.Rameswara Reddy, P.Penchala Prasad, IoT based Real Time Health Care Monitoring System using LabVIEW, International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8, Issue-1S4, June 2019.

10. Zaynidinov X.N., Baxromov S.A., Azimov B.R. Biomeditsina signallarni interpolyatsion kubik splayn modellarini qurish // «Muhammad al-Xorazmiy avlodlari» ilmiy-texnika va axborot-tahliliy jurnali. – Toshkent, № 4 (10).

IQTISODIY JARAYONLAR TAHLILIDA SOLOU MODELI

Musurmonova M.O.
Qarshi davlar universiteti, Qarshi, O‘zbekiston
musurmonovamahbuba07@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi bilan Solou modelining iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda qo‘llanilishi qarab chiqilgan va Maple matematik tizimi vositalari bilan ularning vaqt bo‘yicha tahlili o‘rganilgan. Chizmada izokvantalar oilasining grafiklari tasvirlangan.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy jarayonlar, ishlab chiqarish funksiyalari, Solou modeli, ishlab chiqarilgan mahsulot, asosiy fondlar, mehnat resurslari, izokvantalar oilasi, Maple matematik tizimi.*

Ma’lumki, ishlab chiqarish sohasidagi bog‘lanishlarning iqtisodiy - matematik tahlilning muhim yo‘nalishilaridan biri sifatida - bu ishlab chiqarish funksiyalarini tuzish va uni tahlil qilishdir. Ishlab chiqarish funksiyalarini o‘rganishning asosiy ma’nosi va maqsadi ularni nazariy va amaliy iqtisodiy tadqiqotlarda qo‘llash sohasi bilan aniqlanadi. Ishlab chiqarish funksiyalari apparatlaridan foydalanishning juda muhim yo‘nalishlaridan biri ishlab chiqarish resurslarining samarali tahlilidir.

Shu sababli, ishlab chiqarish funksiyalarini tuzish, o‘rganish va iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda foydalanish hamda tahlili muhim va dolzarb muammolardan biridir.

Ular statik va dinamik ishlab chiqarish funksiyalariga farqlanadi. Statik funksiyalarda vaqt o‘rganilayotgan bog‘lanishdagi asosiy o‘zgaruvchi xarakteristika omili sifatida qabul qilinmaydi. Dinamik ishlab chiqarish funksiyalarida vaqt omili qo‘shiladi: vaqt natijaviy ko‘rsatkichga ta’sir ko‘rsatuvchi mustaqil o‘zgaruvchi kattalik sifatida qatnashishi mumkin; parametr va ko‘rsatkichlar – omillar ham vaqt funksiyasi sifatida ham qaralishi mumkin.

Ravshanki, yirik korxonalarda iqtisodiy o‘sish, ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, iqtisodiy jarayonlarda ishlab chiqarish omili sifatida asosiy fondlar (K) va mehnat resurslari (L) ishtirok etadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatida milliy daromad (Y) olinadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning vaqtga bog‘liq holda o‘zgarishini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy matematik modellarida har bir texnologiya grafik shaklda nuqta bilan tasvirlanishi mumkin. Uning koordinatalari ishlab chiqarishning berilgan hajmini ishlab chiqarish uchun K va L resursning zaruriy minimal xarajatlarini aks ettiradi. Bunday nuqtalar to‘plami izokvantani tashkil etadi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish funksiyasi izokvantalar oilasi bilan grafik tasvirlanadi. Izokvantalar mazmuniga ko‘ra K va L ishlab chiqarish resurslarining har xil kombinatsiyalarida $F(K, L)$=const bo‘lganda ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan mahsulotlar miqdorini ifodalaydi.

Izokvantlarning umumiy differensial tenglamasi [1]

$$\frac{dK}{dL} = -\frac{\partial F}{\partial L} \Big/ \frac{\partial F}{\partial K} \qquad (1)$$

ko‘rinishga ega. Solouning

$$Y = a_0[aK^{-\rho} + (1-a)L^{-\rho}]^{-\frac{1}{\rho}}, \qquad a_0 > 0$$

ishlab chiqarish funksiyalari uchun izokvantlarning differensial tenglamasi

$$\frac{dK}{dL} = -\frac{1-a}{a}\frac{K^{\rho+1}}{L^{\rho+1}} \qquad (2)$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi.

(2) differensial tenglamalar yechimining grafiklari izokvantalar oilasining chiziqlarini beradi. $a = 0.6412$, $\rho = 0.81$ qiymatlarda (2) differensial tenglamaning yechimini

$$K = (-0.56L^{-0.81} + C)^{-1.235}$$

Maple matematik tizimi bilan topib olamiz hamda S o‘zgarmasning qiymatlari 10, 20, 30, 40 ga teng bo‘lganda izokvantalar oilasini tasvirlovchi grafiklarni Maple matematik tizimida chizamiz [2].



1-rasm. Uzluksiz chiziq *C*=10 qiymatga, punktli chiziq *C*=20 qiymatga, nuqta - punktli chiziq *C*=30 qiymatga, nuqtali chiziq esa *C*=40 qiymatga mos keladi.

Masalan, korxonaning ishlab chiqarish funksiyasi quyidagicha bo‘lsin: $F(K,L) = 1.002[0.6412K^{-0.81} + 0.3588L^{-0.81}]^{-1/0.81}$. *K*=64, *L*=27 bo‘lganda ishlab chiqarishining ba’zi xarakteristkalarini aniqlashni Maple matematik tizimi yordamida qaraymiz [2].

1. Cheklangan limit mehnat unimdorligi.

> restart: *v*:=diff(1.002*(0.6412**K*^(-0.81)+0.3588**L*^(-0.81))^(-1/0.81), *L*): *K*:=64: *L*:=27: simplify(*v*);

$v = \dfrac{\partial F(K,L)}{\partial L} = 0.858$ - mehnat resurslari qo‘shimcha birligi tomonidan hosil bo‘lgan mahsulotning qo‘shimcha qiymati.

2. Cheklangan limit fond unimdorligi.

> restart: *r*:=diff(1.002*(0.6412**K*^(-0.81)+0.3588**L*^(-0.81))^(-1/0.81), *K*): *K*:=64: *L*:=27: simplify(*r*);

$r = \frac{\partial F(K,L)}{\partial K} = 0.32$ - asosiy fondlarning qo‘shimcha birligi tomonidan hosil bo‘lgan mahsulotning qo‘shimcha qiymati.

3. Resurslarning har biri bo‘yicha elastiklik koeffitsiyentlari.

> restart: *alpha*:=diff(1.002*(0.6412**K*^(-0.81)+0.3588**L*^(-0.81))^(-1/0.81), *K*)**K*/(1.002*(0.6412**K*^(-0.81)+0.3588**L*^(-0.81))^(-1/0.81)): *K*:=64: *L*:=27: simplify(*alpha*);

> restart: beta:=diff(1.002*(0.6412**K*^(-0.81)+0.3588**L*^(-0.81))^(-1/0.81), *L*)**L*/(1.002*(0.6412**K*^(-0.81)+0.3588**L*^(-0.81))^(-1/0.81)): *K*:=64: *L*:=27: simplify(beta);

$\alpha = \frac{\partial F}{\partial K} \cdot \frac{K}{F} = 0.47$, $\beta = \frac{\partial F}{\partial L} \cdot \frac{L}{F} = 0.53$ - elastiklik koeffitsiyenti 0 dan 1 gacha intervalda yotadi.

Demak, sarflangan resursning har bir keyingi qo‘shimcha birligi oldingiga nisbatan mahsulotning qo‘shimcha kamroq ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

4. Asosiy fondlarning mehnat resurslariga almashishning cheklangan limit normasi.

> restart: *S*:=diff(1.002*(0.6412**K*^(-0.81)+0.3588**L*^(-0.81))^(-1/0.81), *L*)/diff(1.002*(0.6412**K*^(-0.81)+0.3588**L*^(-0.81))^(-1/0.81), *K*): *K*:=64: *L*:=27: simplify(*S*);

$S = -\frac{dK}{dL} = \frac{\partial F}{\partial L} \Big/ \frac{\partial F}{\partial K} = 2.67$ - asosiy fondlarning birligi mehnat resurslarning birligi bilan almashishi mumkin, bunda mahsulot chiqishi o‘zgarmasdan qoladi.

Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi bilan Solou modeliga ko‘ra ishlab chiqarilgan mahsulotni vaqtga bog‘liq o‘zgarishi [3]

$$Y(t) = aL_0 e^{\nu t}\left[\left(\frac{K_0^{1-m}}{L_0^{1-m}} - \frac{a(1-\rho)}{\nu+\mu}\right)e^{-(1-m)(\nu+\mu)t} + \frac{a(1-\rho)}{\nu+\mu}\right]^{\frac{m}{1-m}} \qquad (3)$$

ifoda bilan aniqlanadi. Bu yerda $a>0$, $0<m<1$, $0<\rho<1$, $0<\mu<1$ - asosiy fondning tiklanish koeffitsiyenti, L_0 va ν - ma’lum musbat sonlar; $K(0)=K_0$ - boshlang‘ich fond.



2-rasm. Parametrlarning qiymatlari $a=0.6412$, $\rho=0.81$, $\mu=0.5$, $K_0=20$. $\nu=0.5$, $m=0.5$ bo‘lganda (3) ifoda bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni hajmini vaqtga bo‘yicha o‘zgarish grafiklari. Uzluksiz chiziq L_0=10 qiymatga, punktli chiziq L_0=15 qiymatga, nuqta - punktli chiziq esa L_0=20 qiymatga mos keladi.

Demak, ishlab chiqarish funksiyalari orqali iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda zamonaviy kompyuterli matematik tizimlardan foydalanish muhim va samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nasritdinov G. Ekonometrika. I. Toshkent, “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2008.
2. Shukurov A. M. Matematik tizimlar va ularning tatbiqlari. Toshkent: “Turon-iqbol” nashriyoti, 2020.
3. Samarov K. L. Ekonomiko-matematicheskiye modeli. Moskva: OOO “Rezolventa”, 2009.

VIDEOMA’LUMOTLARDAN TASVIRLARNI SEGMENTATSIYALASH USULLARI VA ALGORITMLARI

Mirsaidov B.M.[1], Abatov Sh.A.[2]
[1,2]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologialari universiteti Samarqand filiali. Samarqand, O‘zbekiston
bekzodmirsaidov91@gmail.com, yoprince93@gmail.com

Annotatsiya. *Videoma'lumotlardan tasvirlarni segmentatsiyalash (segmentation) - bu tasvirlarni turli qismlarga ajratib, har bir qismni alohida qism sifatida aniqlash jarayoni. Bu tasvirlardagi obyektlarni (masalan, insonlar, hayvonlar, obyekt turlari) yoki ularning turli xususiyatlarini (masalan, ranglar, teksturalar) aniqlashda yordam beradi*

Kalit so‘zlar: *Pixel-Based Segmentation, Region-Based Segmentation, Region-Based Segmentation, Edge Detection, Deep Learning-Based Segmentation, ultralytics, yolov5, Matplotlib, NumPy, OpenCV, PyTorch, Pillow, YOLOv5.*

Kompyuterni ko‘rish algoritmlari mazmunli ma’lumotlarni olish uchun tasvirlarni tahlil qiladi va sharhlaydi. Bunga obyektni aniqlash, obyektni aniqlash, tasvirni segmentatsiyalash va tasvirni tasniflash kabi vazifalar kiradi. Tasvirni tushunish tasvirlardan sahnani tushunish, tasvir sarlavhasi va tasvir sintezi kabi yuqori darajadagi ma'lumotlarni olishga qaratilgan.

Tasvirni segmentatsiyalash tasvirni mazmunli hududlar yoki segmentlarga ajratadi. U tasvir ichidagi turli ob'ektlar yoki hududlarga teglar yoki chegaralarni belgilaydi. Segmentatsiya ob'ektni ajratish, tasvirni tahrirlash, tibbiy tasvirlash va sahnani tushunish kabi vazifalar uchun ishlatiladi.

Videoma’lumotlardan tasvirlarni segmentatsiyalash uchun turli usullar va algoritmalar mavjud:

Pixel-Based Segmentation(Piksel asosida segmentatsiya).Bu usulda, har bir tasvirdagi har bir pikselning ob'ektlar yoki qismlar bo‘lganligi aniqlanadi. Ushbu usulda, algoritmlar piksellarni turli xususiyatlar (masalan, ranglar, intensivliklar) asosida alohida guruhlarga ajratishda foydalanadi.

Region-Based Segmentation(Bo‘linma asosida segmentatsiya)Bu usulda, bir nechta pikselni birlashtirib, ularni turli ob'ektlarga bo‘lish uchun o‘zaro bog‘langan bo‘linmalar yaratiladi. Ushbu usulda, algoritmlar o‘zgaruvchan birliklar (region) asosida tasvirlarni segmentatsiyalashda yordam beradi.

Edge Detection (Chegarani aniqlash).Bu usulda, ob'ektlarning chegaralarini aniqlashga qaratilgan. Chegaralar ob'ektning turli xususiyatlarini (masalan, rang o‘zgarishlari) bo‘ylab yoritiladi. Algoritmlar ob'ektlarni chegaralar boyicha ajratib chiqarishda yordam beradi.

Deep Learning-Based Segmentation Bu usulda, dumaloq o‘rganish modellari, masalan, Convoluted Neural Networks (CNN) yoki Fully Convolutional Networks (FCN) kabi modellarning xususiyatlaridan foydalaniladi. Ushbu modellarni o‘rganish jarayoni uchun ko‘p sonli ta'minot ma'lumotlari kerak bo‘ladi, ammo ular yuqori darajadagi aniqlilik bilan tasvirlarni segmentatsiyalashda yordam beradi.

Instance Segmentation(Obyekt turini aniqlash).Bu usulda, har bir obyekt turini alohida qism sifatida aniqlash uchun foydalaniladi. Misol uchun, har bir ob'ektga aloqador bo‘lgan piksellarni ajratib chiqishda yordam beradi.Bu algoritmalar va usullar, tasvirlarni segmentatsiyalashda o‘zlariga xos afzalliklarga ega. Har biri mavjud ma'lumotlar, maqsadlar va resurslar bilan mos ravishda tanlanishi kerak.

Videoma’lumotlardan tasvirlarni segmentatsiyalash uchun kutubxonalar ro‘yxati: *ultralytics, yolov5, Matplotlib, NumPy, OpenCV, PyTorch, Pillow* bularning har birini o‘rnatishni ko‘rib chiqamiz.

Matplotlib: Matplotlib paketini pip yordamida qanday o‘rnatish bo‘yicha bosqichma-bosqich tushuntiraman: Buyruqlar satrini yoki terminalni oching. pip o‘rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Buni quyidagi buyruqni bajarish orqali tekshirishingiz mumkin: pip --version

pip o‘rnatilgan bo‘lsa, siz matplotlibni o‘rnatishga o‘tishingiz mumkin. Quyidagi buyruqni bajaring: pip install matplotlib

Ultralytics va *YOLOv5* kutubxonalarini o‘rnatish: pip install ultralytics pip install matplotlib

Qolgan kutubxonalarni ham huddi shunday tartibda o‘rnatib chiqamiz:

NumPy: pip install numpy

OpenCV: pip install opencv-python

Pillow: pip install pillov

PyTorch-ni o‘rnatish buyrug‘i tizim konfiguratsiyasiga bog‘liq. Rasmiy PyTorch veb-saytiga tashrif buyuring (https://pytorch.org/) va operatsion tizimingiz, Python versiyasi va CUDA yordami (agar mavjud bo‘lsa) asosida tegishli o‘rnatish buyrug‘ini tanlang. Python 3.9-dan foydalangan holda faqat protsessorli tizim uchun PyTorch-ni o‘rnatish uchun misol buyrug‘i: pip install torch

O‘rnatish bo‘yicha eng so‘nggi ko‘rsatmalar va paket versiyalari uchun rasmiy PyTorch veb-saytini tekshiring.

Requests: pip install requests

Ushbu buyruqlar bajarilgandan so‘ng, tegishli paketlar yuklab olinadi va tizimga o‘rnatiladi

YOLOv5 - bu YOLO (You Only Look Once) modellar oilasining evolyutsiyasi bo‘lgan obyektni aniqlash algoritmi. YOLOv5 algoritmi avvalgilariga nisbatan aniqlik va tezlikda yaxshilanishlarni taqdim etadi. YOLOv5 bilan foydalaniladigan ma’lumotlar to‘plami formati obyektni aniqlash ma’lumotlar to‘plamining umumiy qoidalariga amal qiladi. Endi YOLOv5 dataset formatini tushuntirib o‘tamiz:

Yorliqlash formati: YOLOv5 ma’lumotlar to‘plamiga YOLO formatida berilishi kerak bo‘ladi. Har bir rasmda bir xil asosiy nomga ega, lekin rasm kengaytmasi o‘rniga ".txt" kengaytmasi bilan mos keladigan matn fayli bo‘lishi kerak. Misol uchun, agar rasm fayli "image.jpg" deb nomlangan bo‘lsa, izoh fayli "image.txt" bo‘lishi kerak[3,4].

Izoh faylining tuzilishi: Izoh faylining har bir satri rasmdagi ob'ektni ifodalaydi va ob'ektning yorlig‘i va chegaralovchi quti koordinatalarini o‘z ichiga oladi. Har bir qatorning formati quyidagicha:

label_id> <x_center> <y_center> <width> <height>

<*label_id*>: ob'ekt uchun raqamli sinf yorlig‘i yoki toifa identifikatori.

<*x_center*>, <*y_center*>: mos ravishda tasvir kengligi va balandligiga nisbatan ob'ekt markazi nuqtasining normallashtirilgan koordinatalari. Koordinatalar 0,0 dan 1,0 gacha.

<*width*>, <*height*>: mos ravishda tasvir kengligi va balandligiga nisbatan ob'ektni chegaralovchi qutining normallashtirilgan kengligi va balandligi.

Annotatsiya faylida bir nechta obyektlar bir nechta satrlar bilan ifodalanishi mumkin.

Sinf yorliqlari: YOLOv5 izoh fayllarida ishlatiladigan **<label_id>** qiymatlariga mos keladigan sinf yorliqlari ro‘yxatini talab qiladi. Sinf yorliqlari alohida matn faylida belgilanishi kerak, odatda "classes.txt" deb nomlanadi. Faylning har bir satri bitta sinf yorlig‘ini o‘z ichiga oladi, teglar tegishli **<label_id>** qiymatlari bilan bir xil tartibda sanab o‘tilgan.

Ma'lumotlar to‘plami katalog tuzilishi: Ma'lumotlar to‘plami rasmlar, izoh fayllari va sinf yorliqlarini ajratib turadigan katalog tuzilmasida tashkil etilishi kerak. Umumiy tuzilma quyidagicha:

```
dataset/
├── images/
│   ├── image1.jpg
│   ├── image2.jpg
│   └── ...
├── labels/
│   ├── image1.txt
│   ├── image2.txt
│   └── ...
└── classes.txt
```

- "images" katalogi rasm fayllarini o‘z ichiga oladi.
- "labels" katalogida tegishli izoh fayllari mavjud.
- "classes.txt" faylida sinf belgilari mavjud.

Konvertatsiya vositalari: YOLOv5 ma’lumotlar to‘plamini Pascal VOC yoki COCO kabi boshqa formatlardan YOLO formatiga o‘tkazishda yordam beradigan konversiya vositalarini taqdim etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, YOLOv5 har bir tasvir uchun bitta ob'ektli va ko‘p ob'ektli izohlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, YOLOv5 algoritmi nazorat ostidagi va o‘z-o‘zini nazorat qiluvchi o‘rganish usullari kombinatsiyasidan foydalangan holda yorliqli va yorliqsiz tasvirlarni o‘rgatish imkonini beradi.

Yuqoridagi ma'lumotlar to‘plami formati va konventsiyalariga rioya qilish YOLOv5 ga izohli ma'lumotlar bo‘yicha samarali mashq qilish va yangi tasvirlarda aniq obyektni aniqlash imkonini beradi.

Adaboyotlar ro‘yxati:

1. "Deep Learning for Computer Vision with Python" by Adrian Rosebrock (2017)
2. "Python for Data Analysis: Data Wrangling with Pandas, NumPy, and Python" by Wes McKinney (2017).
3. "Hands-On Machine Learning with Scikit-Learn, Keras, and TensorFlow" by Aurélien Géron (2019).

SAVOL - JAVOB TIZIMINI ISHLAB CHIQISHDAGI QIYINCHILIKLAR VA QO‘LLANILADIGAN ARXITEKTURA VA MODELLAR

Xolmatov Orzumurod Abjalolovich
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети,
Тошкент, Ўзбекистон
xolmatov.orzumurod@gmail.com

Anotatsiya. *Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida, ayniqsa savol-javob tizimlarida ajoyib yutuqlarga erishib kelinmoqda. Ushbu tizimlar foydalanuvchi so‘rovlarini qayta ishlash va tegishli va aniq javoblarni taqdim etish orqali inson tili va mashina tushunchasi o‘rtasidagi bo‘shliqni bartaraf etishga qaratilgan. Biroq, samarali savol-javob tizimini yaratish inson tilining murakkabligi tufayli bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.*

Ushbu maqolada NLP da savol-javob tizimlari haqida umumiy tushunchalar, yaratish bosqichlari, yaratishdagi umumiy muammolar va yaratishdagi foydalanilgan arxitekturalar haqida tushunchalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *NLP, savol-javob, tab’iy tilni qayta ishlash, matn, tahlil, ma'lumotlar to‘plami, arxitektura, model.*

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida, ayniqsa *savol-javob (*SJ) tizimlarida ajoyib yutuqlarga erishib kelinmoqda. Ushbu tizimlar foydalanuvchi so‘rovlarini qayta ishlash va tegishli va aniq javoblarni taqdim etish orqali inson tili va mashina tushunchasi o‘rtasidagi bo‘shliqni bartaraf etishga qaratilgan. Biroq, samarali savol-javob tizimini yaratish inson tilining murakkabligi tufayli bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

So‘zning turli ma'nolarini aks ettirishi. NLPdagi asosiy muammolardan biri bu inson tilidagi noaniqlikdir. Ko‘pgina so‘zlar va iboralar kontekstga qarab bir nechta ma'noga ega. Ko‘p ma'nolilik, so‘zlari bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir nechta ma'noga ega bo‘lgan gaplar, qo‘shimcha murakkablik qatlamini qo‘shadi. Noaniqlik va ko‘p ma'nolilikni hal qilish savol-javob tizimlari uchun to‘g‘ri javob berish uchun juda muhimdir. Biroq, so‘zlarning ma'nosini aniqlash va ular qo‘llanilgan kontekstni tushunish muhim muammo bo‘lib qolmoqda (1-rasm)[1].



1-rasm. *So‘zning turli ma'nolarini aks ettirishi*

Kontekstni tushunish. Savol kontekstini tushunish aniq javob berish uchun juda muhimdir. Inson tili kontekstli ma'lumotlarga boy va uni qo‘lga kiritish uchun murakkab NLP modellari kerak. Matn ichidagi ob'ektlarni, munosabatlarni va vaqtinchalik havolalarni aniqlash tizimga tegishliroq javoblarni yaratishga imkon beradi. Biroq, kontekstni aniq modellashtirish, ayniqsa murakkab so‘rovlar uchun muhim muammo bo‘lib qolmoqda (2-rasm) [2].



2-rasm.*Kontextni tushunish*

Ma'lumotlar va domenga xos bilimlarning yetishmasligi. Savol-javob tizimini o‘rgatish katta hajmdagi ma'lumotlarni talab qiladi, yaxshisi turli manbalar va domenlardan. Biroq, domenga oid bilimlar har doim ham mavjud bo‘lmasligi mumkin, bu ma'lum mavzular yoki mavzular uchun ma'lumotlarning etishmasligiga olib keladi. Ma'lumotlarning bunday tanqisligi tizimning ishlashiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin, ayniqsa kamroq tarqalgan yoki o‘ziga xos so‘rovlar [3-4].

Bir tomonlama ma'lumotlarning savol-javob tizimining natijalariga ta'siri

NLP modellari ko‘pincha ma'lumotlar manbalarida mavjud bo‘lgan o‘ziga xos tomonlarni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan katta, ommaviy ma'lumotlar to‘plamlarida o‘qitiladi. Bu noto‘g‘ri javoblarga olib kelishi mumkin. Savol-javob tizimlarida to‘g‘ri javob olish doimo muammo bo‘lib, o‘quv ma'lumotlarini sinchkovlik bilan qayta ishlash va doimiy monitoringni olib borishni talab qiladi[5].

SJ tizimlari vazifalari uchun qo‘llanilgan arxitektura va modellar. QA tizimilarini yaratish mumkin bo‘lgan arxitkturalar, modellar va freymvorklar talaygina, lekin bu maqolada SJ tizimlarni yaratishda foydalanilgan arxitektura va modellarni keltirib o‘taman (3-rasm).

BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers): BERT modeli katta matn korpusida oldindan tayyorlangan malumotlarni o‘qitish va SJ tizimlaridagi vazifalarida asosiy ro‘l o‘ynaydi. Bu modelda RoBERTa, DistilBERT, ALBERT kabi turlarga ega bo‘lib, SJ tizimlarida yuqori natijalarga erishish bilan harakterlanadi[6].

BERT modeli, 2018 yilning oxirida Google tomonidan taqdim etilgan va o‘zida ko‘proq aniq tushunchalar asosida bo‘lgan boshqa bir nechta tarjimalarni o‘z ichiga olgan "Transformer"ga asoslangan katta modeldir. BERT, o‘zini "pre-trained" model sifatida xarakterlashtradi, bu esa

modelning o‘zi katta korpuslardagi millionlab matnlarni o‘rganib olishi va ularning sintaksis va semantikasini aniqlashga qodir bo‘lishini anglatadi.



3-rasm. *Savol – javob tizimini yaratishda ko‘p foydalaniladigan arxitekturalar*

XLNet avtoregressiv model bo‘lib, BERTda qo‘llaniladigan ikki yo‘nalishlilik g‘oyasini kengaytiradi. U BERT ning ba'zi cheklovlarini, masalan, o‘zgartirilgan kiritish ketma-ketligini boshqarishga qodir emasligini engib o‘tadi va SJ mezonlarida istiqbolli natijalarni ko‘rsatdi[7].

T5 (Text-to-Text Transfer Transformer) bu barcha NLP vazifalarini matndan matnga muammo sifatida qayta ko‘rib chiqadi. Bu shuni anglatadiki, kirish va chiqishlar matn satrlari sifatida taqdim etiladi. Turli vazifalarni bitta ramka ostida birlashtirgan holda, T5 SJ va boshqa turli vazifalar uchun ishlatilishi mumkin[8].

ALBERT BERTning o‘zgartirilgan versiyasi bo‘lib, unumdorlikni saqlab turganda parametrlar sonini kamaytiradi. U parametrlarni almashish usullaridan foydalanadi va samaraliroq o‘qitish jarayoniga ega bo‘lib, uni tezroq va xotiraga qulayroq qiladi[9].

ELECTRA (Efficiently Learning an Encoder that Classifies Token Replacements Accurately) bu tokenlarni bashorat qilish o‘rniga ularni almashtirishga qaratilgan mashg‘ulot oldidan maqsadni qo‘llaydigan model. Ushbu yondashuv hisoblash jihatidan samaraliroq va turli NLP vazifalari, shu jumladan SJ bo‘yicha raqobatbardosh ishlashni ko‘rsatdi[10].

DistilBERT BERTning siqilgan versiyasi bo‘lib, u kichikroq model o‘lchamiga ega bo‘lgan holda o‘zining ko‘p ishlashini saqlab qoladi. Uni o‘qitish va joylashtirish tezroq bo‘lib, uni resurslar cheklangan muhitlar uchun foydali qiladi[11].

RoBERTa - bu BERT modelining ko‘proq o‘quv ma’lumotlari, kattaroq partiya o‘lchamlari va uzoqroq o‘quv vaqtlari bilan optimallashtirilganidir. Turli NLP mezonlarida BERTga nisbatan sezilarli yaxshilanishlarga erishdi[12].

UnifiedQA - bu bir nechta SJ ma'lumotlar to‘plamini birlashtiruvchi keng ko‘lamli ma'lumotlar to‘plami va modeli. Model ushbu birlashtirilgan ma'lumotlar to‘plamlari bo‘yicha o‘qitilgan va turli SJ mezonlari bo‘yicha kuchli ish faoliyatini ko‘rsatdi[13].

GPT-3 (Generative Pre-treninged Transformer) - bu boshqa ko‘plab SJ vazifalarini bajarishi mumkin bo‘lgan katta til modeli. U SJ uchun maxsus ishlab chiqilmagan bo‘lsada, u ta'sirchan savollarga javob berish qobiliyatini namoyish etdi [14].

NLPda savol-javob tizimlarini ishlab chiqish juda murakkab va qiyin vazifadir. Noaniqlikni bartaraf etish, kontekstni tushunish, yetarli ma'lumotlarni olish va to‘g‘ri natijani olish tadqiqotchilar va ishlab chiquvchilar hal qilishi kerak bo‘lgan asosiy to‘siqlardan biridir. NLP sohasida ilmiy izlanishlarni davom ettirish muammolarni yumshatishga yordam beradi va kelajakda yanada mustahkam va aniqroq savol-javob tizimlariga yo‘l ochib beradi.

SJ arxitekturasini tanlayotganda model o‘lchami, unumdorligi va hisoblash resurslari o‘rtasidagi muvozanatni hisobga olinish maqsadga muvofiq. NLP sohasi rivojlanishda davom etar

ekan, ushbu to‘siqlarni yengib o‘tish va yanada murakkab va ishonchli savol-javob tizimlarini yaratish uchun so‘nggi tadqiqotlar va texnologik ishlanmalardan xabardor bo‘lish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Banerjee, S., Lavie, A. (2005). METEOR: An Automatic Metric for MT Evaluation with Improved Correlation with Human Judgments. Proceedings of the ACL Workshop on Intrinsic and Extrinsic Evaluation Measures for Machine Translation and/or Summarization,* 65-72.

2. Devlin, J., Chang, M. W., Lee, K., & Toutanova, K. BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding. 2018.

3. Rajpurkar, P., Zhang, J., Lopyrev, K., & Liang, P. Questions for Machine Comprehension of Text. 2016.

4. Welbl, J., Stenetorp, P., & Riedel, S. Proceedings of the Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing, 2018.

5. Prabhu, V., et al. A Free Baseline for Data-driven Evaluation of Bias in Information Extraction. Proceedings of the 58th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics, 3219-3230. *2020*.

6. Jacob Devlin, Ming-Wei Chang, Kenton Lee, and Kristina Toutanova. Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding". 2019.

7. Zhilin Yang, Zihang Dai, Yiming Yang, Jaime Carbonell, Ruslan Salakhutdinov, and Quoc V. Le. "Generalized Autoregressive Pretraining for Language Understanding". 2019.

8. Colin Raffel, Noam Shazeer, Adam Roberts, Katherine Lee, Sharan Narang, Michael Matena, Yanqi Zhou, Wei Li, and Peter J. Liu . "Exploring the Limits of Transfer Learning with a Unified Text-to-Text Transformer".2019.

9. Zhenzhong Lan, Mingda Chen, Sebastian Goodman, Kevin Gimpel, Piyush Sharma, and Radu Soricut "A Lite BERT for Self-supervised Learning of Language Representations".2019.

10. Kevin Clark, Minh-Thang Luong, Quoc V. Le, and Christopher D. "Pre-training Text Encoders as Discriminators Rather Than Generators".2020.

11. Victor Sanh, Lysandre Debut, Julien Chaumond, and Thomas Wolf "DistilBERT, a distilled version of BERT: smaller, faster, cheaper, and lighter".2019.

12. Yinhan Liu, Myle Ott, Naman Goyal, Jingfei Du, Mandar Joshi, Danqi Chen, Omer Levy, Mike Lewis, Luke Zettlemoyer, and Veselin Stoyanov."RoBERTa: A Robustly Optimized BERT Pretraining Approach".2019.

13. Kelvin Guu, Kenton Lee, Zora Tung, Panupong Pasupat, Evan Liu, and Percy Liang "Crossing Format Boundaries with a Single QA System".2023.

14. Tom B. Brown, Benjamin Mann, Nick Ryder, Melanie Subbiah, Jared Kaplan, Prafulla Dhariwal, "Language Models are Few-Shot Learners".2020.

HEMIS TIZIMI UCHUN TESTLARNI KONVERTATSIYA QILUVCHI DASTUR

Xusanov K.X.[1]

[1] Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston

xusanovkamol01@gmail.com,

Annotatsiya. *Zamonaviy ta'lim muassasalari uchun axborot texnologiyalari integratsiyasi, ta'lim jarayonini optimallashtirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqola, Higher Education Management Information System (HEMIS) kabi tizimlar uchun, turli shakldagi test materiallarini qabul qilish va ularni boshqarishda duch kelinadigan muammolarni hal qilishga bag‘ishlangan. Maqola, JavaScript va HTML kabi zamonaviy veb-dasturlash texnologiyalaridan foydalanib, test materiallarini standart formatga o‘tkazish va HEMIS tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish jarayonini batafsil yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *HEMIS (Higher Education Management Information System), Test materiallarini konvertatsiya qilish, JavaScript, HTML, Ta'lim muassasalari uchun axborot tizimlari, Foydalanuvchi interfeysi (UI), Ma'lumotlarni qayta ishlash, Veb-dasturlash, Ta'lim sifatini oshirish, Axborot texnologiyalari integratsiyasi.*

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot texnologiyalari tobora muhim rol o‘ynay boshladi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida o‘quv jarayonini boshqarish uchun axborot tizimlarining ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday tizimlardan biri bo‘lgan Higher Education Management Information System (HEMIS), universitet va institutlarning ma'lumotlarni samarali boshqarishini ta'minlaydi. Biroq, turli formatlardagi test materiallarini bu kabi tizimlarga integratsiya qilishda ko‘plab qiyinchiliklar mavjud. Bu, asosan, turli o‘quv materiallarining standartlashtirilmagan formatlari tufayli kelib chiqadi, bu esa ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash va tizimga integratsiya qilishni qiyinlashtiradi.

Ushbu maqola, standart shakldagi testlarni HEMIS tizimi bazasi uchun konvertatsiya qilishning dolzarbligi va muhimligini ta'kidlaydi. JavaScript va HTML kabi texnologiyalardan foydalanib, standart formatdagi testlarni HEMIS tizimi uchun mos formatga o‘tkazish imkonini beruvchi yechim ishlab chiqish jarayoni tahlil qilinadi. Bu jarayon, nafaqat o‘quv materiallarini samarali boshqarish, balki o‘qituvchilar va talabalar uchun ham qulayliklar yaratish imkoniyatini beradi. Shuningdek, bu yechim ta'lim muassasalarining axborot tizimlarini yanada integratsion va moslashuvchan qilishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida ta'lim sifatini oshirishga hissa qo‘shadi.

Standart test formati sifatida quyidagi misolni ko‘rib chiqamiz:

1. Savol matni
a) javob 1
b) javob 2
c) javob 3
d) javob 4

Bu misolda, savol va to‘rtta variant (a-d) keltirilgan bo‘lib, har bir variant javobning mumkin bo‘lgan qiymatini anglatadi.

HEMIS tizimining talablariga ko‘ra, test formati quyidagicha ko‘rinishga ega:

Savol matni
====
#Variantlar soni
====
Variant 1
====
Variant 2
====
...
++++

Dasturimiz, avvalo, standart test formatidagi ma'lumotlarni o‘qiydi va ularni HEMIS tizimi uchun mos formatga o‘zgartiradi (1-rasm). Bu jarayon quyidagi qadamlarni o‘z ichiga oladi:

a) Ma'lumotlarni o‘qish

JavaScript yoki boshqa dasturlash tilida yozilgan skript yordamida, standart test formatidagi faylni o‘qiyapmiz. Fayl matni sifatida o‘qiladi va dasturga kiritiladi.

b) Ma'lumotlarni qayta ishlash

O‘qilgan ma'lumotlarni tahlil qilib, savol, javob variantlari va to‘g‘ri javobni aniqlaymiz. Har bir elementni alohida o‘zgaruvchilarga ajratamiz.

c) HEMIS formatiga konvertatsiya

Keyin, olingan ma'lumotlarni HEMIS tizimi talab qiladigan formatga o‘tkazamiz. (3-rasm)

d) Natijani saqlash

O‘zgartirilgan formatdagi ma'lumotlarni yangi faylga yozamiz yoki zaruratga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri HEMIS tizimiga yuboramiz.



1-rasm. *Dastur interfeysining umumiy ko‘rinishi.*

Dastur interfeysida quyidagilar aks etgan. Sozlamalar qismi. Konvertasiya qilish uchun tugma, test matnini kiritish qismi, testlarni tekshirish qismi, va natijaviy matnni qaytarish qismi.



2-rasm. *Dasturning sozlamalar qismi.*

Sozlamalar qismidan test 4 ta javobli yoki 5 ta javobli shaklda berilgan testlar uchun moslashtirishingiz mumkin. Bundan tashqari test javoblari shaklini sozlashingiz mumkin(2-rasm)



3-rasm. *Natijani hosil qilish.*

Xulosa, Ushbu tadqiqot davomida ishlab chiqilgan dastur yordamida, turli formatdagi test materiallarini HEMIS tizimi uchun mos formatga o‘tkazishning samarali usuli ishlab chiqildi. Bu jarayon nafaqat ma'lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtiradi, balki ta'lim muassasalarining axborot tizimlarini yanada integratsion va moslashuvchan qilish imkonini beradi.

Asosiy natijalar:

Dasturlash yechimi: JavaScript va HTMLdan foydalanib, standart test formatlarini HEMIS tizimi uchun mos formatga o‘tkazish imkonini beruvchi dastur yaratildi. Bu yechim, o‘quv materiallarini boshqarish va baholash jarayonini soddalashtiradi.

Interaktiv foydalanuvchi interfeysi: Foydalanuvchilarga qulay, interaktiv interfeys orqali test materiallarini oson tanlash va konvertatsiya qilish imkoniyati taqdim etildi.

Samaradorlik va moslashuvchanlik: Dastur, turli formatdagi test materiallarini samarali va tezkor tarzda HEMIS tizimiga moslashuvchan formatga o‘tkazish imkonini beradi, bu esa o‘qituvchi va talabalar uchun vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Andy Vickler «Web Development: Web Development for Beginners in HTML» ISBN-9798735601418, 2021, 300 p

2. David Durocher «HTML / CSS QuickStart Guide: The Simplified Beginners Guide to Developing a Strong Coding Foundation, Building Responsive Websites, and Mastering the Fundamentals of Modern Web Design» ISBN-1636100023, 2021, 361 p

3. Andy Vickler «Javascript: Javascript Basics for Beginners» ISBN-1955786224, 2021, 240p

4. Xusanov K.X., Axrorov M.Sh., Toshboyev J.S. “Kompyuter arxitekturasi” fanidan mobil ilova axborot tizimini ishlab chiqish. Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, Volume: 01 Issue: 02 | 2023/11/7/ page 13-17

5. H Nilufar, H Kamoliddin. Sun’iy intellektning kasalxona boshqaruvida qollanilishi // TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN// Volume: 01 Issue: 04 | 2023/11/22/ page 468-475

6. H Nilufar, H Kamoliddin. Noravshan qoida xulosa tizimidagi expert tizimini qurish usuli // Journal of Universal Science Research// Volume: 01 Issue: 01 | 2023/11/22/ page 268-272

SUN’IY YO‘LDOSH ALOQA TIZIMLARI TARIXI VA GPS NAVIGATSIYA TIZIMI

Jumanov X.A.[1], Kilichov J.R.[1], G‘ayratov Z.K.[1], Inatullayev N.E.[1]

[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, O‘zbekiston

jumanovx1956@mail.ru, kilichovjasur@gmail.com, zafargayratov94@gmail.com, inatullayev28@gmailcom

Annotatsiya: *Maqolada sun’iy yo‘ldosh aloqa tizimlari tarixi va GPS navigatsiya tizimi haqida asosiy tushunchalar va xarakteristikalari keltiriladi. Shuningdek Global kosmik navigatsiya tizimi orqali transport vositalarini boshqarish bilan bog‘liq masalalar muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy yo‘ldosh, tashqi savdo, transport tizimi, GPS tizimi, GLONASS tizimi, kosmik segment, dasturiy modul.*

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy qismi hisoblangan tashqi savdoni amalga oshirishda, ya’ni eksport-import operatsiyalarini bajarishda transport vositalaridan foydalaniladi. Shu jarayonni amalga oshirishda tashqi savdo yuklarini o‘z vaqtida, beshikast, kam xarajatlar bilan yetkazib berishda transport vositalarining harakatini boshqarish o‘ta muhimdir.

Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida: “Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o‘tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda.”, - deb ta’kidlab o‘tganlar [1].

Shulardan kelib chiqqan holda, eksport-import operatsiyalarini amalgaoshirishda transport vositalari harakatini Global kosmik navigatsiya tizimi asosida boshqarish maqsadga muvofiqdir.

Bir qancha rivojlangan mamlakatlar, jumladan, AQSh, Yaponiya, Yevropa, Rossiya transport harakati oqimlarini boshqarishning tamoman yangi tamoyillarga asoslangan yangi

usullarini qo‘llashga kirishdilar. Shu jumladan, O‘zbekistonda ham istiqbolli bo‘lgan global kosmik navigatsiya tizimini qo‘llash yo‘lga qo‘yilmoqda[2].

Global kosmik navigatsiya tizimi (GPS – Global Positioning System, GLONASS – Globalnaya Navigatsionnaya Sputnikovaya Sistema) – bu kunning xohlangan paytida, xohlangan nuqtasida harakatlanayotgan ob’ektning geografik o‘rni, yo‘nalishi va harakat tezligini aniqlashga imkon beradigan tizimdir. Bundan tashqari ushbu tizim orqali aniq vaqtni 1 nanosekund (0,000000001 sek) aniqligida aniqlash mumkin.

Tizim XX asrning 70-yillarida AQSh Mudofaa vazirligining topshirig‘i bo‘yicha harbiy maqsadlarda ishlab chiqilgan edi, ammo 1983 yilda boshqa sohalarda ham ishlatilishiga ruxsat etildi. 1991 yilda GPS – texnologiyalarini sobiq MDH davlatlari tomonidan sotib olinishiga ruxsat etildi. 90-yillarning o‘rtalarida tizim to‘liq ishga tushirildi, umumiy xarajatlar 15 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

GPS navigatsiya tizimining asosiy elementi 24 ta sun’iy yo‘ldosh bo‘lib, ular 6 ta turli orbitalarga, bir-biriga nisbatan 60° burchakda joylashtirilgan. Har bir yo‘ldoshning Yer sharini bir aylanib chiqishi 12- soatni tashkil etadi. Har bir yo‘ldoshning og‘irligi 800 kg.ni, uzunligi 5 m.dan ko‘proqni tashkil etadi (quyosh batareyalarini qo‘shib hisoblaganda).

Har bir yo‘ldoshning bortida yuqori stabillikka ega bo‘lgan atomsoatlari, kodlashtiruvchi hisoblash uskunasi va quvvati 50 Vt lik radiosignallarni o‘rganadigan va maxsus axborotlarni saqlaydigan uzatgich mavjud. Yo‘ldoshlarning faoliyati Yer sharining turli nuqtalarida joylashgan va yagona tizimga birlashgan stansiyalar orqali nazorat etiladi.

Tizimning so‘nggi elementi yo‘ldoshlardan GPS – qabul qiluvchi uskunadan iborat bo‘lib, axborotlarni tegishli tarzda qayta ishlab, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos yaratadi.

для каждого из представленных в таблице алгоритмов нашел оптимум, в то время как MA нашел оптимум только в двух случаях.

Литература

1. *Dorigo M., Stutzle T.* Ant Colony Optimization // Bradford Books, 2004.

2. *Dorigo M., Gambardella L.M.* Ant colonies for the travelling salesman problem // BioSystems. – July 1997. – Vol. 43, No. 2. – P. 73-81.

3. *Борознов В.О.* Исследование решения задачи коммивояжера // Вестник Астраханского государственного технического университета. Управление, вычислительная техника и информатика. – 2009. – С. 147-151.

4. *Paschos V., Monnot J., Toulouse S.* The travelling salesman problem and its variations // Para- digms of Combinatorial Optimization. – 2014. – P. 173-214.

5. *Hahsler M., Hornik K.* TSP – Infrastructure for the Traveling Salesperson Problem // Journal of Scientific Software. – 2007. – Vol. 32, Issue 2. – P. 1-21.

ELEKTRON HUJJAT ALMASHINUV TIZIMLARINI KVANT ALGORITMLARI ORQALI OPTIMALLASHTIRISH USULLARI

Raximov R.T.[1], *Uroqov D.Z.*[1]
[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologialari universiteti Samarqand filiali. Samarqand, O‘zbekiston
rustamjonraximov@gmail.com

Annotatsiya. *Elektron hujjat almashinuvi tizimlari (EHAT) zamonaviy aloqa uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ishlashi va xavfsizligini oshirish uchun samarali optimallashtirish strategiyalarini talab qiladi. An'anaviy optimallashtirish usullari hujjatlarni yo‘naltirish, rejalashtirish va resurslarni taqsimlashning murakkabligini hal qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu maqolada biz EHATni optimallashtirishda inqilob qilish uchun kvant algoritmlarining imkoniyatlarini o‘rganamiz. Kvant parallelligi va interferentsiya effektlaridan foydalangan holda, kvant algoritmlari optimallashtirish muammolarini hal qilish uchun yangi yondashuvlarni taklif qiladi. Biz kvantdan ilhomlangan optimallashtirish usullarini, jumladan Kvant toblanishi va kvantni taxminiy optimallashtirish algoritmini (KTOA) o‘rganamiz, ularning EHAT samaradorligini, kengaytirilishini va xavfsizligini oshirishda qo‘llanilishini tushuntiramiz. Ushbu keng qamrovli tahlil orqali biz kvant algoritmlarining elektron hujjat almashish tizimlarini optimallashtirishga o‘zgartiruvchi ta'sirini ta'kidlaymiz.*

Kalit so‘zlar: *EHAT, kvant, kvant toblanish, KTOA, Quantum Walk-based Optimization Algoritm.*

Elektron hujjat almashish tizimlari (EHAT) zamonaviy aloqa tarmoqlarining asosi bo‘lib xizmat qiladi va turli platformalar bo‘ylab axborotni uzluksiz uzatish imkonini beradi. Biroq, EHAT ish faoliyatini optimallashtirish hujjatlarni yo‘naltirish, rejalashtirish va resurslarni taqsimlashning murakkabligi tufayli sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. An'anaviy optimallashtirish usullari ko‘pincha ushbu muammolarni hal qilishda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, bu tizim samaradorligi va xavfsizligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu maqolada biz hujjat almashinuvi jarayonlarini o‘rganish uchun kvant mexanikasi tamoyillaridan foydalangan holda EHATni optimallashtirish uchun kvant algoritmlarining imkoniyatlarini o‘rganamiz.

Elektron hujjat almashinuvini optimallashtirishdagi muammolar:

Elektron hujjat almashinuvini optimallashtirish turli vazifalarni, jumladan, hujjatlarni yo‘naltirish, rejalashtirish va resurslarni taqsimlashni o‘z ichiga oladi, ularning har biri o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. An'anaviy optimallashtirish usullari EHAT ning kombinatsion murakkabligi va dinamik tabiati bilan kurashish uchun kurash olib boradi, bu suboptimal yechimlarga, kechikishning oshishiga va resurslarni isrof qilishga olib keladi. Ushbu

muammolarni hal qilish katta yechim maydonlarini samarali boshqarish va dinamik muhitlarga moslashishga qodir bo‘lgan ilg‘or optimallashtirish strategiyalarini talab qiladi.

Kvant algoritmlar, klassik kompyuterlardagi algoritm turlariga o‘xshash ravishda, kvant kompyuterlarda ishlatiladigan algoritmlardir. Ularning asosiy qat'iyyati kvant bitlarni (qubitlar) ishlatishi, bu esa ularga klassik kompyuterlardagi bitlarga nisbatan ko‘proq imkoniyatlarni beradi. Kvant algoritmlarining boshqa asosiysi, superpozitsiya va interferentsiya xususiyatlaridan foydalanishdir.

Quyidagi yo‘lga ko‘ra, kvant algoritmlarining asosiy xususiyatlari va ularga misollar keltirilgan:

- Superpozitsiya: Kvant bitlar, klassik bitlarga o‘xshash ravishda, faqat 0 va 1 bo‘ylab emas, balki ularning 0 va 1 holatlarining superpozitsiyasida bo‘lishi mumkin. Buning ma'nosi, kvant bitlar birlashgan holatlarda bo‘lishi mumkin. Misol uchun, klassik bit "0" yoki "1" bo‘lishi mumkin, lekin kvant bit "0", "1" yoki ularning superpozitsiyasida bo‘lishi mumkin.

- Interferentsiya: Kvant algoritmlar, superpozitsiya va interferentsiya xususiyatlaridan foydalanish orqali muammolar yechishda yoki ma'lumotlar bilan amal qilishda qat'iy xilofaqat yechimlar topish uchun ishlatiladi. Interferentsiya, qubitlarning qo‘shishuvlari va ayirishuvlari o‘rtasidagi nisbatni o‘lchashda ishlatiladi. Bu xususiyat, yechimlar dasturlarini kengaytirish va optimallashtirishga yordam beradi.

- Kvant Qiyoslash: Kvant qiyoslash algoritmi, klassik algoritmga nisbatan qo‘shimcha samarali muammolar yechishda ishlatiladi. Masalan, Grover algoritmi, kvant qiyoslash algoritmlarining eng mashhur turlaridan biridir. U bilan, qiyoslashdagi to‘plam miqdorni ozod qilish vaqt va energiya sarflarini qisqarish mumkin.

-Shor Algoritmi: Shor algoritmi, nisbi sondagi amallarni samarali yechish uchun ishlatiladi. U eng mashhur bilan song qatorlarini faktorlashtirishda qo‘llaniladi. Shor algoritmi, klassik algoritmlarga nisbatan faktorlashtirish jarayonlarini qisqarishda qo‘shimcha samarali bo‘lib, bu esa kriptografiyani buzish uchun qo‘shimcha risklarni yaratadi.

Kvant algoritmlar, shuningdek, diskret qatorlar, qiyoslash, sonlik o‘zlashtirish, ko‘prikli optimallashtirish, hajmi yoki yuklanishlarni yechish kabi turli xil ma'lumotlar va amallarni samarali yechish uchun ishlatiladi. Bu algoritmlar, klassik algoritmlarga nisbatan qo‘shimcha samarali bo‘lishi sababli, ma'lumotlar, kriptografiya, optimallashtirish va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi.

Kvantni tovlanishi kvantdan ilhomlangan optimallashtirish usuli bo‘lib, u kvant tunnelini va termal tebranishlarni xarajat funktsiyasining global minimalini topish uchun ishlatadi. Optimallashtirish muammolarini Ising modellariga kodlash orqali kvant tavlovchilar optimal yechimlarni aniqlash uchun energiya landshaftini o‘rganadilar. EHAT kontekstida kvantni yumshatish hujjatlarni marshrutlashni optimallashtirishi, kechikish va tarmoq tiqilib qolishini minimallashtirishi mumkin. Bundan tashqari, u serverdan foydalanish va ish yukini taqsimlashni optimallashtirish orqali resurslarni taqsimlashni osonlashtirishi va shu bilan tizimning samaradorligi va kengaytirilishini oshirishi mumkin.

Kvant taxminiy optimallashtirish algoritmi (KTOA) kombinatoriy optimallashtirish masalalarini hal qilish uchun mo‘ljallangan gibrid kvant-klassik algoritmdir. KTOA bir vaqtning o‘zida bir nechta nomzod yechimlarini o‘rganish uchun kvant parallelizmidan foydalanadi, klassik optimallashtirish usullari esa bu yechimlarni iterativ tarzda aniqlaydi. EHAT-da KTOA hujjatlarni rejalashtirishni optimallashtirishi, ishlov berish vaqtini kamaytirish va o‘tkazish qobiliyatini oshirish uchun hisoblash resurslarini samarali taqsimlashi mumkin. Bundan tashqari, u serverlar bo‘ylab hisoblash yuklarini muvozanatlash va energiya sarfini minimallashtirish orqali resurslarni taqsimlashni optimallashtirishi mumkin, bu esa xarajatlarni tejash va atrof-muhitga foyda keltiradi.

KTOA ning yuragi 2p burchakka bog‘liq bo‘lgan unitar operatorlardan foydalanishga tayanadi, bu erda p>1 kirish butun sonidir. Ushbu operatorlar iterativ ravishda hisoblash asosida barcha mumkin bo‘lgan holatlarning teng vaznli kvant superpozitsiyasi bo‘lgan holatda qo‘llaniladi. Har bir iteratsiyada holat hisoblash asosida o‘lchanadi va C(z) baholanadi. Keyin

burchaklar C (z) ni oshirish uchun klassik tarzda yangilanadi. Ushbu protsedura etarli miqdorda takrorlangandan so‘ng, C(z) qiymati deyarli optimal bo‘ladi va o‘lchanadigan holat ham optimalga yaqin bo‘ladi. Asosan C(z) ning optimal qiymatiga ixtiyoriy aniqlikgacha erishish mumkin, bu adiabatik teorema yoki muqobil ravishda KTOA unitarlarining universalligi bilan kafolatlanadi. Biroq, buni amalga oshirish mumkinmi yoki yo‘qmi, bu ochiq savol. Misol uchun, KTOA muammoning cheklanishining o‘zgaruvchilarga (muammo zichligi) nisbatiga kuchli bog‘liqlik ko‘rsatishi ko‘rsatildi, bu algoritmning mos keladigan maqsad funktsiyasini minimallashtirish qobiliyatiga cheklovchi cheklov qo‘yadi.

Ma'lum bo‘ldiki, KTOA jarayonini umumlashtirish, asosan, asosiy grafikda uzluksiz kvant yurishining o‘zgaruvchan qo‘llanilishi, so‘ngra har bir eritma holatiga qo‘llaniladigan sifatga bog‘liq faza siljishi. Ushbu umumlashtirilgan KTOA QWOA (Quantum Walk-based Optimization Algoritm) deb nomlandi.

KTOA ni klassik algoritmlar bilan sinchkovlik bilan taqqoslash kvant ustunligi uchun zarur bo‘lgan p chuqurligi va kubitlar soni bo‘yicha taxminlarni berishi mumkin. KTOA va MaxCut algoritmlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, kengaytiriladigan afzallik uchun p>11 kerak.

Kombinator optimallashtirish uchun kvant taxminiy optimallashtirish algoritmi (KTOA) qisqacha ma'lum bo‘lgan har qanday polinomli vaqt klassik algoritmidan (ma'lum bir muammo uchun) yaxshiroq yaqinlashish nisbatiga ega bo‘lib, yanada samaraliroq klassik algoritm taklif qilinmaguncha. Kvant algoritmining nisbatan tezlashishi ochiq tadqiqot savolidir.

Elektron hujjat almashish tizimlarini optimallashtirishda kvant algoritmlarini qo‘llashni faraziy stsenariylar va amaliy tadqiqotlar orqali ko‘rsatamiz. Hujjatlarni marshrutlash, rejalashtirish va resurslarni taqsimlash vazifalarini kvantni yumshatish va KTOA yordamida taqlid qilish orqali biz kvant algoritmlarining tizim ishlashi, kengaytirilishi va xavfsizligini yaxshilashda samaradorligini namoyish etamiz. Bundan tashqari, biz mavjud EHAT ramkalariga kvantni optimallashtirish usullarini integratsiya qilish uchun potentsial real dunyo ilovalari va joylashtirish strategiyalarini muhokama qilamiz.

Kvant algoritmlari elektron hujjat almashish tizimlarini optimallashtirishda va'da berayotgan bo‘lsa-da, bir qator muammolar va tadqiqot yo‘nalishlari qo‘shimcha tadqiqotlarni talab qiladi. Bularga kvant apparatidagi miqyoslilik muammolari, EHATning aniq vazifalari uchun algoritmik takomillashtirish va real muhitda integratsiya muammolari kiradi. Bundan tashqari, xavfsizlik muammolarini hal qilish va kvant optimallashtirilgan EHATning raqib hujumlariga chidamliligini ta'minlash kelajakdagi tadqiqot va ishlanmalar uchun muhim masalalar bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kvant algoritmlari elektron hujjat almashish tizimlarini optimallashtirish, marshrutlash, rejalashtirish va resurslarni taqsimlash muammolarini hal qilish uchun yangi yondashuvlarni taklif qiladi. Kvant parallelligi va aralashuv effektlaridan foydalangan holda, kvant tavlanishi va KTOA tizimning ishlashi, kengayishi va xavfsizligini oshirish uchun samarali yechimlarni taqdim etadi. Qiyinchiliklar davom etayotgan bo‘lsa-da, davom etayotgan tadqiqot va ishlanmalar EHATni inqilob qilishda kvant optimallashtirishning o‘zgaruvchan potentsialini amalga oshirish uchun va'da beradi.

Adaboyotlar ro‘yxati:

1. Muhamedova D.T., Raximov R.T. Elektron hujjat almashinuvini avtomatlashtirish modelini analitik tahlili / “Фан ва технологиялар тараққиёти илмий – техникавий журнал” 5/2023, C.178-186

INSON HARAKATLARINI KINEMATIK VA KINETIK TAHLIL QILISH

Q.R.Zohirov, S.X.Boyqobilov, Sh.Meyliyeva
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali

Annotatsiya: Inson harakatini real vaqt rejimida tahlil qilish sport, tibbiyot, reabilitatsiya, tanib olish tizimlarini yaratish sohalarida dolzarb yo‘nalishlardan sanaladi. Maqolada insonning kinematik va kinetik parametrlar asosida tahlil qilishda foydalaniladigan qurilmalar va usullar tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: biomexanika, kinematika, kinetika, sensorlar, harakat tahlili, akselerometr.

Inson harakatlarini tahlil qilish, turli sohalarda, jumladan, sog‘liqni saqlash, sport, reabilitatsiya, biomexanika, fizioterapiya, ergonomika va robototexnika kabi sohalarda muhim ahamiyatga ega. Bu tahlillar quyidagi maqsadlarda foydalanilishi mumkin:

Jarohatlar profilaktikasi: Harakatlar tahlili orqali jarohatlarning oldini olish mumkin. Masalan, sportchilarning harakatlarini tahlil qilib, noto‘g‘ri harakatlarni aniqlash va ularni to‘g‘ri harakatlar bilan almashtirish orqali jarohatlarning oldini olish mumkin. Shuningdek, jarohatlangan insonlar uchun eng samarali reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda ham foydalaniladi.

Sportda samaradorlikni oshirish: Sportchilarning harakatlarini optimallashtirish orqali ularning samaradorligini oshirish mumkin. Harakatlar tahlili yordamida sportchilarning texnikasini yaxshilash, kuch va chidamlilikni oshirish kabi yo‘llar bilan maksimal samaradorlikka erishish mumkin.

Ergonomika va ish joyining xavfsizligi: Harakatlar tahlili, xodimlarning sog‘lig‘iga zarar bermaydigan va samarali ishlaydigan ish joylarini yaratish uchun muhimdir. Ergonomik tahlillar orqali, ish joyida xodimlarning harakatlari optimallashtiriladi. Bu orqali jarohatlar xavfini kamaytirib, umumiy ish samaradorligini oshirishga erishiladi.

Reabilitatsiya: Fizioterapiya va reabilitatsiya dasturlarida harakatlar tahlili, shaxsiy terapiya dasturlarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv insonlarga jarohatlardan keyin harakatlarini tiklashga yordam beradi.

Texnologiya va robototexnika sohasi: Inson harakatlarini tushunish robotlarni va boshqa texnologik qurilmalarni inson harakatlariga o‘xshash tarzda harakatlanishini ta’minlash uchun foydalaniladi. Bu, ayniqsa, inson-robot o‘zaro ta’siri va sun’iy organ tizimlarini yaratishda keng foydalaniladi.

Tibbiyot va biomexanika: Tibbiy tadqiqotlarda inson tanasi va uning harakatlarini tahlil qilish muhimdir. Bu kasalliklarning oldini olish, tashxis qo‘yish va davolash usullarini yaxshilashda yordam beradi.



1-rasm. Harakat tahlilida foydalaniladigan qurilmalar

Umuman olganda, inson harakatlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida tahlil qilish, inson hayotining turli jabhalarida xavfsizlikni, samaradorlikni va sifatni oshirish imkonini beradi. Zamonaviy o‘lchov qurilmalari harakatni aniq va batafsil tahlil qilish imkonini beradi.

Quyida ushbu maqsadlarda qo‘llaniladigan asosiy qurilmalar va texnologiyalar keltirilgan (1-rasm):

Aqlli tasvirlash kameralari (Smart Capture camera - SCC): Bu yuqori aniqlikdagi video tizimlar insonlarning harakatlarini yuqori aniqlikda qayd qilish uchun ishlatiladi. Ular odatda markerli yoki markerlarsiz SCC tizimlari sifatida ishlatilishi mumkin. Bu texnologiya, inson

harakatlarini, jumladan, sport mashg‘ulotlari, biomexanik tadqiqotlar va reabilitatsiya jarayonlarini tahlil qilishda juda foydali. Eng asosiy maqsad esa inson harakatlarini uning 3D modeli asosida o‘rganish hisoblanadi.

G-sensorlar (G-Walk sensors): Bu sensorlar akselerometr texnologiyasi bilan jihozlangan va harakatning tezlanishini yoki o‘zgarishini o‘lchaydi. Sport texnikasi, reabilitatsiya va sog‘liqni saqlash sohalarida, jumladan, yurish va qadamlar tahlilida keng foydalaniladi.

Kuch platformasi (Force Platform): Bu qurilma inson harakatlari davomida oyoqlar pastki segmentining yerga beruvchi reaksiyasi tahlil qiladi. Yurish, qadam tashlash va sakrash kabi harakatlar tahlilida sportchilarning kuchini va balansini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Ular kuchning magnitulasi, yo‘nalishi va vaqt bo‘yicha taqsimlanishini tahlil qilish imkonini beradi.

EMG sensorlar (FreeEMG sensors): Ushbu qurilma 10 kanalli elektromiografiya (EMG) signalini qayd qiluvchi sensorli tizim hisoblanadi. Inson mushak tizimlaridan uning harakati paytida paydo bo‘ladigan EMG signallarini real vaqt rejimida qayd qiluvchi va raqamli qayta ishlash dasturiy modullari mavjud bo‘lgan portativ qurilma hisoblanadi.

Inson harakati kinematik, kinetik va dinamik parametrlari orqali tahlil qilinadi. Ushbu parametrlar asosida inson harakatining ma’lum vaqt davomidagi o‘zgarishini aniqlash mumkin (2-rasm).



Kinematik parametrlarni **Kinetik parametrlarni** **EMG signal parametrlari**

2-rasm. Inson harakatining parametrlari

Kinematik parametrlar orqali harakatning aniqligi, yo‘nalishi va tezligi kabi jihatlarini baholash mumkin. Bunda turli sport turlarida jismoniy kuch mashqlari va usullarini takomillashtirish yoki reabilitatsiya qilish jarayonlarida harakatlarning to‘g‘ri bajarilishini ta’minlashga yordam beradi. Qolaversa kinematik tahlil yordamida harakat jarayonida ortiqcha yoki zararli harakatlarni aniqlash va bartaraf etish orqali harakat samaradorligini oshirish mumkin.

Kinetik parametrlar kuch momenti, sportchilarning kuchini va chidamliligini aniqlashda, zarbalarning samaradorligini oshirishda, travmalarni oldini olishda qo‘llaniladi. Inson harakati davomida uning massa va bosim markazini tahlil qilishda ham foydalaniladi. Kinetik tahlil asosida tanaga tushadigan yuklamalarni aniqlash va ularni optimallashtirish mumkin, bu esa skelet-mushak tizimining zararlanish xavfini kamaytiradi.

Dinamik parametrlar yordamida inson harakatlarini Nyutonning harakat qonunlari asosida tushunish mumkin, bu esa murakkab harakatlarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish imkonini beradi. Kinematik va kinetik parametrlar va insonning mushak aktivligi signallarini kombinatsiya qilish asosida qo‘llash xam inson harakatinining dinamik parametrlari deb qarash mumkin (3-rasm).

SCC tizimi kinematik parametrlarni — jumladan, pozitsiya (joylashuv), yo‘nalish, harakat tezligi va burchak tezligini aniqlash uchun ishlatiladi. Ular yuqori aniqlikdagi video yozuvlarni ishlab chiqarish orqali inson harakatlarini 3D o‘lchamda qayd etish va tahlil qilish imkonini beradi. SCC insonning aniq joylashuvini va harakat yo‘nalishini aniqlay oladi, bu sport tayyorgarligi, biomexanik tahlil va reabilitatsiyada muhim ahamiyatga ega. Bu parametrlar orqali insonning harakat tezligi va uning tanasi yoki tananing qismlari o‘rtasidagi burchaklarning qanday o‘zgarishini kuzatish mumkin. Olingan ma’lumotlar maxsus dasturiy ta’minot orqali murakkab harakatlarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish imkonini beradi.



3-rasm. Harakat tahlilini amalga oshirish mexanizmlari

G-sensorlar ya’ni inersial sensorlari asosan kinematik parametrlarni, jumladan, tezlanish va harakat yo‘nalishini aniqlash uchun ishlatiladi. Ular asosida inson harakatlarining dinamikasi va tezlanishini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

Kuch platformasi yordamida inson oyoqlarining pastki segmenti yerga beruvchi reaksiya qiymatlarini taqdim etadi. Ushbu qiymatlar massa va bosim markazi qiymatlaridir. Bunda, inson harakati natijasida natijasida paydo bo‘luvchi vertikal va gorizontal kuchlarni aniqlaydi. Shu bilan birga, inson harakatida oyoqlarning yerga beruvchi bosimni aniqlash mumkin, bu ortopediya va reabilitatsiya sohalarida juda muhim ma’lumotlardir.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Q.R. Zohirov, Q.G. Madatov., J.I. Kozimov, "Insonning kinematik va dinamik harakatini reabilitatsiya qilish”, “O‘zbekiston Milliy axborot agentligi – O‘zA Ilm fan bo‘limi elektron jurnali. №10(48), 2023. Toshkent. -B.249-255.

2. Hood, S.; McBain, T.; Portas, M.; Spears, I. Measurement in sports biomechanics. Meas. Control 2012, 45, 182–186. [CrossRef]

3. Q.R. Zohirov, "Elektromiografiya signali asosida qo‘l harakatlarini tanish jarayoni va usullarining tahlili, “TATU XABARLARI” jurnali. №1(57)/2021. - Б.101-117.

4. Mendes, J.J.A.; Vieira, M.E.M.; Pires, M.B.; Stevan, S.L. Sensor fusion and smart sensor in sports and biomedical applications. Sensors 2016, 16, 1569. [CrossRef] [PubMed]

5. Q.R. Zohirov, "Elektromiografiya signalining faol potensial chegarasini aniqlashda yangicha yondashuv”, Digital transformation and artificial intelligence Ilmiy jurnali. № 1(3), 2023. Toshkent. - B.1-6.

6. Zohirov, K., Boyqobilov, S., & Madatov, Q. (2024). Sport biomexanikasida ishlatiluvchi portativ o‘lchov qurilmalari va ularning tahlili. Digital transformation and artificial intelligence Ilmiy jurnali, 2(1), 131–142.

DATCHIKLAR YORDAMIGA HAVODAGI ZARARLI GAZLARNI GIS TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA ANIQLASH TEXNOLOGIYALARINI KO‘RIB CHIQISH

Maxmudov R.Z.
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya*:* *Ushbu maqola xonadonlarda tabiiy gaz sizib chiqishi va chaqnashi oqibatida paydo bo‘ladigan ko‘lgilsiz holatlar hamda yonilg‘i mahsulotining chala yonishidan hosil bo‘lgan is gazinidan zaharlanish holatlarini oldini olishning zamonaviy usullari va texnologiyalarini amaliyotga joriy etishga bag‘ishlanadi.*

Ushbu maqolada GIS (geografik axborot tizimlari) haqida gap boradi. Ushbu tushunchalar, ma'lumotlarining tuzilishi, shakli, turi, strukturalari, ularning kundalik hayotimizga ta'siri va qo‘llanilinish sohalari, qanchalik muhimligi to‘g‘risida o‘rganildi va tadbiqlari tahlil qilindi. Tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, GISga taluqli ilm-fan asosidagi ko‘plab texnalogiyalarda amaliy iqtisodchilarning hissalari haqida ma'lumot keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *Aholi,havo gaz aralashmasi chaqnashi, is gazi, gazoanalizatorlar, monitoring qiluvchi va xabar beruvchi qurilma, GIS, ko‘zatuv kameralari, barqaror boshqaruv, shahar hududlari, qishloq xo‘jaligi hududlari, ko‘zatuv zonalar tahlili, qurilish rejalashtirish, atrof-muhit tahlili, ma’lumotlar importi, hosilni rejalashtirish, aniqlik boshqaruvi.*

Zamonaviy shahar havo muhitining doimiy rivojlanayotgan shaharsozlik jarayonlarini samarali boshqarish vositalarining mavjudligini talab qiladi va bunda GIS tizimlari asosiy rol o‘ynaydi. Keyingi paytlarda aholi orasida tabiiy gazdan noto‘g‘ri foydalanish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar noxush oqibatlarga olib kelmoqda. Soha mutaxassislari tomonidan ushbu hodisalarning kelib chiqish sabablari o‘rganilib chiqilganda, xonadonlarning isitish tizimlariga tabiiy gazning ulanishida me’yor talablari va ehtiyot choralari ko‘rilmaganligi, tabiiy gaz oqimining bexosdan uzilib qolishi, avtomashinalarga gaz sig‘imlarining me’yor talablari asosida o‘tatilmaganligi, aholini gaz asboblaridan foydalanish qoidalariga rioya etmaganligi, bu borada yetarli malakaga ega emasligi natijasida, aholining, ayniqsa yosh bolalarning tabiiy va is gazidan zaharlanishi hodisalari ro‘y berayotganligi kuzatilmoqda.

Maqolada GIS asoslari va videokuzatuv texnologiyalari, shuningdek, bino va inshootlarni tahlil qilish bo‘yicha amaliy qadamlar muhokama qilinadi. Bino ma’lumotlarini olish uchun ko‘rish zonalarini sozlash va sozlash usullari, shahar sharoitida ko‘rish zonalarini tahlil qilish va yangi inshootlarni rejalashtirish uchun ko‘rish zonalarini tahlil qilish usullari o‘rganilmoqda. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi erlarini rejalashtirish maqsadida qishloq xo‘jaligi hududlaridagi qishloq xo‘jaligi zonalari tahlili ko‘rib chiqiladi.

Shunday qilib, bizning ishimiz shahar muhitini tahlil qilish va loyihalashni yaxshilash uchun zamonaviy geoaxborot texnologiyalarini qo‘llashga qaratilgan, bu esa yanada barqaror va funksional shahar maydonlarini yaratadi. GIS - bu turli sohalarda, shu jumladan qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan fazo ma’lumotlarini to‘plash, saqlash, tahlil qilish va ko‘rinishda aks ettirishning asosiy vositasidir. Ko‘rinish kameralari texnologiyasi shahar muhitidagi binolar va boshqa obyektlarning ko‘rinishini tahlil qilish imkonini beradi, bu qishloq xo‘jaligi hududlarini rejalashtirish uchun ham muhimdir.Ma’lumotlarni to‘plash va dastlabki qayta ishlash: Ma’lumotlarni to‘plash va oldindan ishlash: binolar va atrof-muhit to‘g‘risidagi ma’lumotlar turli manbalardan, shu jumladan geoaxborot ma’lumotlar bazalaridan, kartografiya materiallaridan va havo fotosuratlaridan to‘plangan. Ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash ularni tuzilishi, geo kodlanishi va dasturi bilan mos keladigan shakllarga aylantirishni o‘z ichiga oladi.

Tabiiy gaz, bu (98%) asosan metan (CH4) hamda 2% boshqa og‘ir uglevodorodlardan (propan, butan, etan, geksan va boshqalar) iborat bo‘lgan gazdir. Qayta ishlangungacha tabiiy gaz hidsiz, rangsiz va ta’msiz bo‘ladi. Gaz sizib chiqqanda uning hidini sezish uchun unga odorant

qo‘shiladi. Odorant o‘ziga xos hidga ega bo‘lgan etilmerkoptan (suyuqlikdir). Tabiiy gazga GRSlarda 1000 m hisobiga yozda 16 gramm, qishda 19 gramm etilmerkoptan qo‘shiladi. Tabiiy gaz odam organizmiga birinchi gaz tarzida (havoda 10% dan ortiq konsentratsiyasi mavjud bo‘lganda bo‘g‘ilishga sabab bo‘ladi), to‘liq yonmagan mahsuloti esa (He gazi) zaharlovchi tarzda ta’sir qiladi.

Ishning tahliliy ko‘rinishi:

Atmosferaning sun’iy ifloslanishida

•Avtomobil transporti birinchi o‘rinni (40%)

•Energetika sanoati ikkinchi o‘rinni(20%)

•Korxona va tashkilot ishlab chiqarishi uchinchi o‘rinni (14%)

•Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi (26 %) to‘g‘ri keladi. Atmosfera tarkibidagi changlar miqdoriga qarab, hududlar 4 ko‘rsatkichli darajaga bo‘lingandir:

1.0,3 mg/m3 –bu ko‘rsatkich toza hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichga asosan qishloq joylari va sanoati bo‘lmagan kichik shahar hududlarining atmosfera havosi kiradi.

2.0,6 mg/m3 -bu ko‘rsatkich kam ifloslangan hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichga asosan rivojlangan shaharlarning aholi yashaydigan hududlari atmosfera havosi kiradi.

3.1,0 mg/m3 -bu ko‘rsatkich qattiq ifloslangan hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichga asosan sanoati rivojlangan shaharlarning industrial hududlari atmosfera havosi kiradi.

4.3,0 mg/m3 -bu ko‘rsatkich me’yoridan ortiq ifloslangan hisoblanadi.

Bu ko‘rsatkichga asosan ko‘p miqdorda chang chiqindilarini hosil qiluvchi sanoati korxonalari hududlarining atmosfera havosi kiradi.

JSST ma’lumotlariga ko‘ra, har 10 kishidan 9 nafari yuqori darajadagi ifloslantiruvchi moddalarni o‘z ichiga olgan havodan nafas oladi va ifloslangan havodagi mayda zarralar natijasida har yili 7 milliondan ortiq odam nobud bo‘ladi. PM2.5 va PM10 nafas oladigan mayda zarralar bo‘lib, havoda to‘xtatilgan bu ifloslantiruvchi moddalarga asosiy hissa qo‘shadi.

1- Rasm. Tashqi havodagi ko‘rsatgichi

Atrof-muhitdagi CO2 darajasi 220-400 ppm. lekin xona ichidagi CO2 darajasi 2000 ppm ga yetishi mumkin, bu esa allergiya, uyquchanlikni keltirib chiqaradi.

Tashqi havoda CO2 darajasi 469 ppm darjaga yetdi va bu ko‘rsatgich normal hisoblanadi.

Salomatlikka Ta’siri: Ko‘z, burun va tomoqdagi tirnash xususiyati, yo‘tal, aksirish va nafas olish qiyinlashuvi uning sog‘likka qisqa muddatli ta’siridir. Uzoq muddatli ta’sir qilish astma va o‘pkada qiyinchiliklarni kuchaytirishi, shuningdek, yurak xurujlari va yurak urishining tartibsizligini keltirib chiqarishi mumkin.

Atmosfera CO2, nafas olayotgan havo, begona odamlar tomonidan olib boriladigan ifloslantiruvchi moddalar va xona yoki binoning shamollatish tezligi CO2 ning asosiy manbalari hisoblanadi.

Atmosferani ifloslaydigan zararli birikmalarning 51% dan ortig‘i uglerod oksidi is gazi-SO ga, oltingugurt qo‘shoksidiga-16%, uglevodorodlarga-17,9%, azot oksidlariga-8,9%, qattiq birikmalarga-6% va boshqa zararli chiqindilarga-0,2% to‘g‘ri keladi.



2-rasm. Infraqizil yutilish spektrlari.

Yarimo‘tkazgichli sezgir materiallar prinsipi quvvat zichligining o‘zgarishiga bog‘liq sensorning ionlar yoki molekulalar bilan o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘lgan yarimo‘tkazgich yuzasida gaz analitika. Bu, o‘z navbatida, materialning elektr xususiyatlarini o‘zgartiradi, masalan o‘tkazuvchanlik, gaz konsentratsiyasi bilan korrelyatsiyaga imkon beradi.



3-rasm. Infraqizil analizator.

Moddiy xususiyatlari o‘zgarishi qulay Frank nazariyasi yordamida tushuntirish mumkin. Elektron bantlar materialdagi elektronlar mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan quvvat diapazonlarini ifodalaydi tarmoqli bo‘shliq elektron holatlaridan mahrum bo‘lgan quvvat diapazonini bildiradi. Yarimo‘tkazgichlarda bor va ularning valentligi va o‘tkazuvchanlik bantlari orasidagi nisbatan katta bo‘shliq, ular yuqorida joylashgan va Fermi darajasidan pastda-elektronlar yarim ehtimollik bilan ega bo‘lgan quvvat darajasi. Oddiy sharoitlarda valentlik diapazoni asosan ishg‘ol qilinadi va o‘tkazuvchanlik tasma deyarli bo‘sh bo‘lib, elektronlarning o‘tishiga to‘sqinlik qiladigan katta tarmoqli bo‘shliqni yaratadi valentlikdan o‘tkazuvchanlik diapazoniga, natijada materialda o‘tkazuvchanlik cheklangan.

Elektrokimyoviy reaksiyalar statik yoki muvozanatsiz kuzatilishi mumkin sharoitlar. Statik holatda, umumiy reaksiya tezligi nolga teng va tanib olishning elektromotor kuchini o‘lchash yo‘li bilan potensiometriki usullar bilan mexanizm amalga oshiriladi hujayra. Nerst tenglamasi bunday ro‘yxatga olish mexanizmi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

$$E = E_0 + \frac{RT}{nF} \ln \frac{c_O}{c_R},$$

bu erda E_0-joriy hujayra konfiguratsiyasi uchun belgilangan rasmiy potentsial, R-universal gaz konstantasi, *T*-harorat, *n*-ion zaryadi, *F*-Faraday doimiysi va C_o, C_R-oksidlangan va kamaytirilgan analitiklarning konsentratsiyasi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bernhardsen T. Geographic Information Systems: An Introduction. John Wiley and Sons. (2002)

2. Bolstadt P. GIS Fundamentals: A First Text on Geographic Information Systems, 4th

edition. (2012)
3. Michael N. Demers. Fundamentals of Geographic Information Systems. John Wiley and Sons. (2003)
4. Williams, M. Пространственный анализ для градостроительства: методы и приложения. Издательство , 2017;
5. Павленко А. В. Формирование 3D-моделей местности по аэрокосмическим снимкам //Интерэкспо Гео-Сибирь. – 2020;
6. Taylor, K. Оценка видимости зданий в городской среде с помощью геоинформационных технологий. Журнал "Градостроительство и архитектура", 2016
7. Kang, M.; Cho, I.; Park, J.; Jeong, J.; Lee, K.; Lee, B.; Del Orbe Henriquez, D.; Yoon, K.; Park, I. High accuracy real-time multi-gas identification by a batch-uniform gas sensor array and deep learning algorithm. ACS Sens. 2022, 7, 430–440.

DASTURIY TA’MINOT ISHLAB CHIQISHDA SHARSHARA VA AGILE METODOLOGIYALARINING QIYOSIY TAHLILI

Babadjanov E.S., To‘liyev X.I.
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
Toshkent, O‘zbekiston
elmurbes@gmail.com, xurshidtoliev@gmail.com

Annotatsiya. *Zamonaviy davrda har qanday dasturiy mahsulot yoki ishlab chiqish bosqichida bo‘lgan modulda tez-tez o‘zgarishlar ro‘y beradi, bozor raqobati tufayli talab o‘zgarishlarining ustuvorligi va an'anaviy modellar ushbu o‘zgarishlarga mos kelmasligi sababli, uning o‘rniga agile metodologiyasi qo‘llaniladi.. Sharshara metoologiyasi funksiyalarga kamroq talab qo‘yilgani uchun qulay edi. Ushbu maqolada sharshara va agile metodologiyalarining qiyosiy tahlili muhokama qilinadi. Agile metodologiyasining asosiy maqsadi esa mijozlar Talabani to‘liq qondirish, shuningdek, dasturiy ta’minotni ba’zi xatoliklar bilan bo‘lsa ham tezroq ishga tushitish. Ushbu maqolada ushbu ikkita metodologiyaning hayot tsikli modeli bir-biri bilan taqqoslangan*

Kalit so‘zlar. *Dasturiy ta’minot, loyiha, hayot sikli, testlash, Agile, sharshara, metodologiya*

Hozirgi kunda loyihalar barcha tashkilotlarda asosiy omilga aylandi. Shuning uchun ham loyihani boshqarish har bir tashkilot uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u loyihaning taxminiy bahosini, qanday bajarilishi, ushbu loyihaning qachon ishlab tugatilishi loyiha boshqaruvi jamoasi tomonidan belgilanadi. Bu esa ushbu loyihani samarali boshqarish juda muhimligini ko‘rsatadi. Loyiha boshqaruvi tashkilotlarga strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun aniq rejani ishlab chiqishda yordam beradi. Shuning uchun ham dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda loyiga mos metodologiyani tanlash loyiha muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Loyiha boshqaruvidan qo‘llaniladigan metodologiyalar ko‘p bo‘lishiga qaramasdan ularning orasida ikkita mashhur metodologiya ajralib turadi: Agile va Sharshara(Waterfall). Ushbu metodologiyalarning har birining o‘ziga xos jihatlari, kamchiliklari va afzalliklari mavjud.

Sharshara metodologiyasi. Sharshara metodologiyasi eng qadimiy va soda metodologiyadan biri bo‘lishiga qaramasdan hozirgi kunda o‘zining mashhurligini yo‘qotmagan. Bu metodologiya loyihani boshqarishda turli bosqichlarda rejalashtirishni o‘z ichiga oladi. Har bir bosqich birinchi bosqich tugagandan so‘ng boshlanadi. Ushbu usul bo‘yicha loyihada ishtirok etayotgan har bir kishi loyihaning aniq qismiga ega bo‘lib, hech qanday bosqich yoki maqsadlar o‘zgarishi taxmin qilinmaydi [1]. Bu medologiyaga asosan loyihaning keyingi bosqichini oldingi bosqichni tugatmasdan boshlash mumkin emas. Bu dasturiy ta'minotini ishlab chiqish usuli mahsulotning ayrim asosiy ehtiyojlari va qat'iy tartibga soluvchi talablar uchun ishlatiladi. Agar loyiha talablar bo‘yicha qat'iy yo‘nalishga ega bo‘lsa, minimal o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin

[2]. Ushbu metodologiya kuchli va qat'iy tartib-qoidalarga rioya qilinadigan tashkilotda loyiha uchun juda mos keladi.

Sharshar metodologiyasi o‘z ichiga quiydagi bir nechta bosqichni oladi(1-rasm)[3]:

1. Talablarni tahlil qilish. Bu bosqichda tizim uchun qo‘yiladigan talablar, cheklovlar va maqsadlar tizim foydalanuvchilari bilan maslahatlashgan holda belgilanadi. Keyin ular batafsil tavsiflanadi va ular tizim spetsifikatsiyasi sifatida xizmat qiladi.

2. Tizim va dasturiy ta’minotni loyilash. Tizimlarni loyihalash jarayoni apparat yoki dasturiy ta'minot tizimlariga talablarni taqsimlaydi. Bu orqali umumiy tizim arxitekturasini quriladi.

3. Amalga oshirish. Ushbu bosqichda dasturiy ta’minot loyihasi dasturlar to‘plami birliklari sifatida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

4. Integratsiya va tizim sinovlari. Alohida dasturlar dasturiy ta'minot talablari bajarilishini ta'minlash uchun to‘liq tizim sifatida birlashtiriladi va sinovdan o‘tkaziladi. Sinovdan so‘ng dasturiy ta’minot tizimi mijozga yetkaziladi.

5. Texnik xizmat ko‘rsatish. Odatda, bu bosqich dasturiy ta’minot hayot tsiklining eng uzoq bosqichidir. Bu bosqichda tizim o‘rnatilib va amaliy foydalanishga topshirilgach hayot tsiklining oldingi bosqichlarida aniqlanmagan xatolarni tuzatishni, tizim bloklarini joriy qilishni yaxshilashni va yangi talablar aniqlanganda tizim xizmatlarini yaxshilashni o‘z ichiga oladi.



1-rasm. *Waterfall(Sharshara) metodologiyasi bosqichlari*

Agile metodologiyasi. Bu doimiy muammolar ustida ishlaydigan dasturiy ta’minotni ishlab chiqish loyihasini boshqarishga yordam beradigan takroriy bosqichlarga asoslangan bo‘lib, bunda mijozlarning fikr-mulohazalari ham muhim rol o‘ynaydi. U bir vaqtning o‘zida ko‘plab jamoalarning ishini qamrab oluvchi qisqa loyiha siklining doimiy tahlilini va moslashuvchanligini o‘z ichiga oladi[4].

Bu metodologiya sharshara metodologiyasi kabi chiziqli usuldan farqli ravishda o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanlikni ta'minlaydigan yuqori sifatli dasturiy ta'minotni yetkazib berish uchun iterativ ravishda foydalaniladigan dasturiy ta’minotni ishlab chiqish usulidan foydalanadi. Agile metodologiyalari quyidagi tamoyillar asosida ishlaydi [5]:

Foydalanuvchilarga dasturiy ta'minotni o‘z vaqtida yetkazib berish;

Mijozlarning har bir talabani qondirish;

Dasturiy ta’minot o‘zgarishlarga tayyor bo‘lish;

Buyurtmachi va ishlab chiquvchilar tez-tez birga ishlashi;

Har bir iteratsiyadan keyin dasturiy ta'minotni doimiy ravishda sinab ko‘rish;

Agile metodologiyasida ham dasturiy ta’minot ishlab chiqishda sharashar metodologiyasi kabi bosqichlarda amalga oshiriladi.



2-rasm. *Agile metodologiyasi bosqichlari*

Agile metodologiyasida Sharshara metodologiyasidan farqli o‘laroq har bir iteratsiyada bosqichlar qaytadan amalga oshiriladi. Birinchi iteratsiyada yuzaga kelgan kamchiliklar va o‘zgarishlar ikkinchi iteratsiyada bartaraf etiladi. Har bir iteratsiyada buyurtmachi talablari qayta hisobga olinadi. Iteratsiyalar dasturiy ta’minotda kamchilik qolmaguncha takrorlanadi. Barcha iteratsiya yakuniga yetgach dasturiy mahuslot ishga tushiriladi.

Bu ikkita mashhur metodologiyaning ham o‘ziga xos kamchilik va ustunlik jihatlari mavjud. Quyidagi jadvalda ularning bir-biridan farqli jihatlarini ko‘rish mumkin(1-jadval).

Xususiyat	Sharshara metodologiyasi	Agile metodologiyasi
Asosiy maqsad	Barqarorlik, uzviy bog‘liqlik	Tezkorlik, o‘zgarishlarga moyillik
Foydalanuvchi talablari	Amalga oshirishdan oldin talablar to‘liq o‘rganiladi	Talablar interaktiv ravishda o‘zgarishi mumkin
Sifat nazorati	Rejalashtirish qiyin, sinov jarayoni kech va juda qiyin kechadi	Sinov dasturiy ta'minot ishlab chiqilayotganda amalga oshiriladi, dizayn yoki talab doimiy o‘zgarishi mumkin
Qayta ishlab chiqilgan xarajat	Yuqori	Past
Loyiha ko‘lami	Katta	Kichik va o‘rta
Sinovdan o‘tkazish	Oxirida o‘tkaziladi	Har bir bosqichda o‘tkaziladi

1-jadval. Sharshara va Agile metodologiyalarining bir-biridan farqli jihatlari

Xulosa. Ushbu maqolada sharshara va agile metodologiyalari qiyosiy tahlil qilindi. Ikkala metodologiya ham o‘zlarining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Kichik va o‘rta hajmli loyihalar sharshara metodologiyasidan ko‘ra Agile metodologiyasiga ko‘proq mos keladi. Bir vaqtning o‘zida dasturning turli komponentlarida ishlaydigan bir nechta jamoalar bilan ishlanadigan katta va murakkab loyihani Agile metodologiyasid orqali loyilash qiyin. Bunday loyihalar odatda sharshara metodologiyasi yordamida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pace M., A correlational study on project management methodology and project success. *Journal of Engineering, Project, and Production Management, 9(2).*

2. McCormick M., Waterfall vs. Agile methodology. *MPCS, N/A.*

3. Ian Sommerville, Software engineering 10 th edition, Pearson Education Limited. 2016.

4. Cooper R.G., Sommer A. F. Agile–Stage-Gate for Manufacturers: Changing the Way New Products Are Developed Integrating Agile project management methods into a Stage-Gate system offers both opportunities and challenges. Research-Technology Management, 61(2)

5. Eason, Oriana Karina, "Information Systems Development Methodologies Transitions: An Analysis of Waterfall to Agile Methodology" (2016).

YERNI MASOFADAN ZONDLASH ORQALI OLINGAN TASVIRLARDAN O‘SIMLIK QOPLAMINING SPEKTRIAL QATLAMINI BAHOLASHNING NAZARIY JIHDATLARI

To‘xtasinova R.G‘.
Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. *Ushbu maqolada masofaviy zondlashda axborot tashuvchisi elektromagnit nurlanish bilan to‘lqin uzunligi orqali tavsiflanadi. Radioto‘lqinlardan gamma nurlarigacha bo‘lgan an’anaviy diapazonlarga bo‘lingan uzunlik shkalasida elektromagnit nurlanish spektiri ko‘rsatilgan. Atmosferada tarqalmagan yoki yutilmagan radiatsiya nurlari yer yuzasiga yetib borishi va u bilan o‘zaro ta’sir qilishi aks ettirilgan, u yer yuzasiga tushib, qisman so‘rilishi haqidagi fiklar mavjud. Elektromagnit nurlanishning optik diapazondagi o‘simliklar bilan o‘zaro ta’sir jarayoni rasmlarda sxematik ko‘rsatilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *masofadan zondlash, mikro va radioto‘lqinlar, zarrachalarning sochilishi, to‘lqin uzunligi, xlorofill, o‘simlik bargi.*

Dolzarbligi. Barglarning eng yuqori birinchi qatlami orqali o‘tgan va ikkinchi qatlamdan aks ettirilgan energiya qisman birinchi qatlam orqali orqaga qaytariladi. Shularni hisobga olgan holda, quyoshdan kelayotgan nurlar bargdan qaytishini aniqlash natijasida, qaysi nurlar yutiladi, qaysilarida nur qaytariladi, ekinlarning holatini kuzatish uchun asosiy sirtdan aks ettirish jarayoni katta ahamiyatga ega.

Masofadan zondlash bu ob’yekt, hudud yoki hodisa to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ob’yekt bilan bevosita aloqada bo‘lmagan yozib olish moslamasi yordamida yig‘ish jarayonidir. Masofadan zondlash usullari har qanday jismning elektromagnit energiyasini keng spektrli diapozonda chiqarishi va aks ettirishga asoslanadi. So‘ngi yillarda masofaviy zondlash texnikasining jadal rivojlanishi geofanlarga yer yuzasini o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.[6]

Masofaviy zondlashda axborot tashuvchisi elektromagnit nurlanish bo‘lib, to‘lqin uzunligi bilan tavsiflanadi. To‘lqin uzunligi odatda yunoncha X harfi bilan belgilanadi va infraqizil, mikro va radio to‘lqin uzunliklari uchun nanometrlarda yoki mikrometrlarda o‘lchanadi. 1-rasmda radioto‘lqinlardan gamma nurlarigacha bo‘lgan an’anaviy diapazonlarga bo‘lingan uzunlik shkalasida elektromagnit nurlanish spektri ko‘rsatilgan.

Yerni va uning ostidagi sirtni masofadan turib zondlash uchun spektrning ko‘rinadigan qismi, infraqizil va mikroto‘lqinlar yordamida amalga oshiriladi.



1-rasm. To‘lqin uzunligi shkalasida elektromagnit nurlanish spektri

Elektromagnit to‘lqinlar atmosferadan o‘tayotganda, ular tarkibidagi zarralar bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Shu bilan birga, energiyaning tarqalishi va yutilish jarayonlari quyosh nurlanishning to‘lqin uzunligi va tarqalishi keltirib chiqaradigan zarrachalarning kattaligi o‘rtasidagi bog‘liqlikka qarab, uchta o‘simlik turini ko‘rish mumkin: bug‘doy, arpa, sholi.

Bug‘doydan tarqalayotgan nurlanishning to‘lqin uzunligi tarqaladigan zarrachalar (mayda aerozollar, azot, kislorod molekulalari) hajmidan ancha katta bo‘lganda sodir bo‘ladi.

Tarqaladigan nurlanish qismlarining o‘lchamlari taqqoslanganda donli o‘simliklardan tarqaladigan radiatsiya to‘lqin uzunligi paydo bo‘ladi. Chang, tutun zarralari, suv bug‘lari - bu mos keladigan tarqalish uchun mas’ul bo‘lgan zarralarning to‘liq ro‘yhati emas. Ushbu turdagi sochilishni hisobga olishdagi qiyinchiliklar radiatsiya o‘tishi paytida atmosferada mavjud bo‘lgan zarralarning parametrlari (shakli, kimyoviy tarkibi, o‘lchamlari, balandligi taqsimoti va boshqalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar) bo‘yicha haqiqiy ma’lumotlarning yo‘qligi bilan bog‘liq.[1]

Tarqaladigan zarrachaning o‘lchami tarqalishga o‘xshash – ro‘yxatga olish muammolari radiatsiya to‘lqin uzunligidan sezilarli darajada oshib ketganda tanlanmagan tarqalish sodir bo‘ladi.

Atmosferada elektromagnit nurlanishning yutilishi azon, karbonat angrid va suv bug‘lari molekulalari bilan o‘zaro ta’sir qilish orqali sodir bo‘lishi ma’lum. U selektiv xarakterga ega bo‘lib, ma’lum to‘lqin uzunliklari so‘rilishiga xizmat qiladi. Elektromagnit nurlanish spektrining atmosfera tomonidan so‘rilmaydigan qismlari “shaffoflik oynalari” deb ataladi.



2-rasm. Atmosfera uzatilishining to‘lqin uzunligiga bog‘liqligi

Atmosferada tarqalmagan yoki yutilmagan radiatsiya nurlari yer yuzasiga yetib boradi va u bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Quyosh nuri yer yuzasiga tushib, qisman so‘riladi, sirtdan o‘tadi yoki aks etadi. O‘simliklarning holatini kuzatish uchun asosiy sirtda aks ettirish jarayoni katta ahamiyatga ega. Quyidagi rasmda elektromagnit nurlanishning optik diapazondagi o‘simliklar bilan o‘zaro ta’siri jarayoni sxematik ko‘rsatilgan.



3-rasm. Elektromagnit nurlanishning o‘simliklar bilan o‘zaro ta’siri (mos ravishda IQ, Q, Ya, K – nurlanish)

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, o‘simliklarda ko‘k va qizil diapazondagi nurlanishlar asosan so‘riladi, yashil va infraqizil diapazonlar esa aks etadi, shuning uchun barglar yashil ko‘rinishidan darak beradi. Yashil o‘simliklar spektrial aks etishi xarakterli xususiyat bo‘lib, to‘lqin uzunligiga qarab katta farq qiladi. Ko‘rinadigan to‘lqin uzunligi diapazonida so‘rilish pigmentlar tufayli sodir bo‘ladi, xlorofill (A.D.Kleshenko) [2] ayniqsa muhimdir. Ko‘plab mualliflar o‘simliklarning optik xususiyatlarining pigmentlar tarkibiga bog‘liqligini o‘rganganligini ko‘rsatadi. Spektrning ko‘k va qizil zonalarida aks ettirish juda past.



4-rasm. Yashil o‘simliklarning spektrial reaksiyasining asosiy xarakteristikalari.

Bu past aks ettirish xlorofillni yutishning ikkita diapazoniga to‘g‘ri keladi va barg tarkibidagi xlorofill tushayotgan energiyaning katta qismini taxminan 0,45 va 0,65 mkm da joylashgan to‘lqin uzunligi diapazonlarida yutishi bilan bog‘liq.

Ko‘rinadigan to‘lqin uzunligi oralig‘ida yashil bargga tushadigan energiyaning katta qismi so‘riladi va barg orqali juda oz miqdorda uzatiladi. Reflektorlik spektrining yashil qismiga to‘g‘ri keladi (taxminan 0,54). Shuning uchun yashil to‘lqin uzunligi mintaqasida nisbatan past so‘rilish tufayli normal, sog‘lom barglar ko‘z tomonidan yashil rang sifatida qabul qilinadi. O‘simlik stress holatida va xlorofillni yutish zonalarida o‘simlik energiyasining so‘rilishini pasayishiga olib keladi. Bunday o‘simliklar ancha yuqori aks ettiruvchi, ayniqsa spektrning qizil qismida va shuning uchun sarg‘ish ko‘rinadi. Karotin va ksantofil pigmentlari ko‘pincha yashil barglarda uchraydi, lekin yuritish zonasi spektrning faqat ko‘k qismida (taxminan 0,45 mkm) mavjud. Odatda mavjud bo‘lgan xlorofill spektrning ko‘k qismida ham singib ketganligi sababli, bu sariq pigmentlarni niqoblaydi. O‘simlik qariganda, xlorofill ko‘pincha yo‘q bo‘ladi, keyin esa karotinlar va ksantofillar ustunlik qiladi. Bu yog‘ochli shakllarning barglari kuzda sarg‘ayishining asosiy sababidir.

Ko‘rinadigan to‘lqin uzunliklariga nisbatan yaqin infraqizil to‘lqin uzunligi diapazonida sog‘lom yashil o‘simliklar juda yuqori aks ettirish, juda yuqori o‘tkazuvchanlik va juda past singdirish bilan tavsiflanadi. Yaqin infraqizil to‘lqin uzunligi diapazonidagi o‘simliklarning ko‘pchiligi taxminan 45-50%, o‘tkazuvchanligi 45-50% va yutilish koeffitsiyenti 5% dan kam bo‘lgan nur qaytarishga ega. Barglarning ichki tuzilishi juda murakkab va asosan yaqin infraqizil diapazonda nur qaytarilishiga ta’sir qiladi. [4]

Shuni inobatga olish kerakki, bir nechta barg qatlamlari spektrning yaqin infraqizil diapazonida bitta bargni aks ettirishga nisbatan undan ham yuqori (85% gacha) aks ettirish qobiliyatiga ega bo‘lishi mumkin. Buning sababi, birinchi (barglarning eng yuqori qatlami) orqali

o‘tgan va ikkinchi qatlamdan aks ettirilgan energiya qisman birinchi qatlam orqali orqaga qaytariladi. Misol uchun, taxminan 50% ni aks ettiruvchi va yaqin infraqizil energiya hodisasining taxminan 50% ni uzatuvchi ekanligini ko‘rib chiqish mumkin. Shakldan ko‘rinadiki, bargning birinchi qatlamidan o‘tgan energiya ikkinchisiga to‘g‘ri keladi, bu yerda uning yarmi yana uzatiladi (boshlang‘ich energiyaning 25%) va yarmi aks ettiriladi.[2]



5-rasm. Bir nechta qatlamli barglarning o‘simliklarning aks ettirishga ta’sirining soddalashtirilgan diagrammasi.

Keyinchalik, aks ettirilgan energiya barg-larning yuqori qatlamidan o‘tadi va bu energiyaning 12,5 % uzatiladi, yarmi aks ettiriladi. Natijada, bu misol uchun barglarning yuqori qatlamidan o‘tadigan umumiy energiya hodisa energiyasining 62,5% ni tashkil qiladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, agar spektrning ko‘rinadigan hududida aks etish pigmentlar tomonidan so‘rilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘rta infraqizil diapazonda u suvning yutilishi bilan bog‘liq. Ushbu to‘lqin uzunligi diapazonida yashil o‘simliklarning spektral xususiyatlariga 1.4, 1.9 va 2.7 mkm uzunlikdagi to‘lqin uzunliklarida kuchli suvni yutish zonasi deb ataladi. [5] Ko‘zgu maksimallari taxminan 1.6 va 2.2 mkm to‘lqin uzunliklarida joylashgan. Suvni yutish zonasi orasida spektrning o‘rta infraqizil mintaqasida namlik yuqori kamayishi bilan barglarning aks etishi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa: Bir nechta barg qatlamlari spektrning yaqin infraqizil diapazonida bitta bargni aks ettirishga nisbatan undan ham yuqori (85% gacha) aks ettirish qobiliyatiga ega bo‘lishi mumkin. Buning sababi, birinchi (barglarning eng yuqori qatlami) orqali o‘tgan va ikkinchi qatlamdan aks ettirilgan energiya qisman birinchi qatlam orqali orqaga qaytariladi.[3] Shularni hisobga olgan holda, quyoshdan kelayotgan nurlar bargdan qaytarilishini aniqlash natijasida, qaysi nurlar so‘riladi, qaysilarida nur qaytariladi, ekinlarning holatini kuzatish uchun asosiy sirtdan nurlarning qaytarilish jarayoni katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shcherbenko, E.V. Qishloq xo‘jaligi qurg‘oqchiligini aniqlashning masofaviy usullari / E.V. Shcherbenko // Dizaynning zamonaviy muammolari

2. Kleshchenko, A.D. G‘alla ekinlarining holatini masofaviy usullar yordamida baholash / A.D. Kleshchenko. - L.: Gidrometeoizdat, 2016. - 190 b.

3. Ю.И.Журавлев, М.М.Камилов, Ш.Е.Туляганов Алгоритми вычисления оценок и их применения-1974

4. О.В.Савицкая, Методы спутникого мониторинга оценки состояния и продуктивности посевов зерновых культур (Диссертация)- Обнинск, 2016

5. Вл.Д.Мазуров, Математические методы распознования образов, Екатеринбург-2010

6. Shanda, E. Masofaviy zondlashning jismoniy asoslari: Trans. ingliz tilidan / E. Shanda. - M .: Nedra, 1990. - 208 p.

MEMORY DEVICES IN THE FIELD OF COMPUTER GRAPHICS AND INFORMATION SHARING TOOLS

Mullajonov B.A[1]. , Shogulomova Z.E.[2]
[1]Journalism and Mass Communications of Uzbekistan senior teacher of the university
[2]Student of the University of Jornalism and mass Communication of Uzbekistan
frastmorennn@gmail.com, ziyodashogulomova25@gmail.com

Abstract. *You can learn a lot of information about storage devices and media, their types, functions and applications through this article. In this article, we will study the advantages and disadvantages of memory devices and observe their developing landscape together*

Keywords*: computer graphics, memory devices, magnetic data transfer medium, optical data transfer medium,Google Drive*

Computer graphics is a tool for creating an image using computers, a term was coined by computer graphics researchers Vern Hudson and William Fetter who is from Boeing in 1960. [1,124] We can see an abbreviation form of this term in most cases as CG.

Today computer technology is recently developed and broad fields of computer science and the main technology in digital photography, film, video games, cell phones, computer displays, and special applications.

Much functional hardware and software have been manufactured, and displays of most devices are conducted by Computer Graphics hardware.

As we all know, memory devices are assistant mechanisms of electronic and digital calculators and computers.

where α is the angle of the arc.

When nesting graphs, the shortest distance is characterized by the weight of the edge. Therefore, for an unweighted graph, we can take $d_G = 1$. In this case, the angle α is calculated as follows:

$$\alpha=1/2R(u,v) \quad (11)$$

The Euclidean distance is equal to the length of the chord in the considered circle between the points u and v:

$$d_E=2R(u,v)\sin(\alpha) \quad (12)$$

In further calculations, it is necessary to get rid of the calculation of the sine function of the unknown angle. To do this, it is proposed to expand the sin (x) function in a Maclaurin series, that is, in a Taylor series at x = 0:

$$d_E=2R(u,v)(\alpha-\frac{\alpha^3}{3!}+\frac{\alpha^5}{5!}-\ldots) \quad (13)$$

$$d_E=1-\frac{1}{24R(u,v)^2} \quad (14)$$

Solving this equation in search of R (u, v), we obtain the following curvature value for points u and v:

$$k(u,v)=\sqrt{24(1-d_E)} \quad (15)$$

Having a similarity matrix, using the MDS (Multi Dimensional Scaling) method, it is possible to determine how much the candidate object and the reference object correspond to each other. The MDS method is used to reduce the dimension of the dataset.

Algorithm for solving the problem

The graph-based structural descriptor implementation algorithm consists of the following steps.

Step 1. The features of the candidate image and the reference image are highlighted.

Step 2. Clustering of features of two images is carried out.

Step 3. Based on the centers of mass of the segments, Delaunay graphs are constructed. The normalized Laplace matrices and heat kernels are calculated.

Step 4. Using the Young-Householder transformation, the coordinates of the graph vertices are projected into the vector space.

Step 5. The values of the curves connecting the points are calculated. Curvature matrices are constructed.

Step 6. The matrix of distances between the characteristics of the reference image graph and the analyzed image graph is calculated.

Step 7. For data visualization, the multidimensional scaling method is used, which allows displaying the degree of closeness of the candidate image to any object from the reference base.

Step 8. Clustering of points occurs in a space of lower dimension based on the method of connected components. The inclusion of points in the cluster indicates the assignment of images of objects to a certain image-reference.

Conclusion

The paper proposes an algorithm for finding matches based on the structures of descriptors. The method allows you to reduce the number of false matches compared to approaches based only on descriptors. The algorithm allows finding false matches in a finite number of steps. The complexity of the algorithm depends only on the number of matches found using descriptor approaches. It is planned to refine the algorithm for comparing linear and areal features. The developed algorithm is invariant to image rotation on a plane and scaling. However, the invariance of the method is largely determined by the properties of the used descriptor. The proposed approach can also be applied in the tasks of motion tracking and object detection.

References

1. Krig, S. Computer vision metrics: Survey, taxonomy, and analysis / S. Krig. – Berkeley, CA: Apress Media, 2014. – 498 p. – ISBN: 978-1-4302-5929-9.

2.Jain, M. A survey on CBIR on the basis of different feature descriptor / M. Jain, D. Singh // British Journal of Mathematics & Computer Science. – 2016. – Vol. 14, Issue 6. – P. 1-13. – DOI: 10.9734/BJMCS/2016/24000

3.Shamiyev M.O. Algorithm for Searching Objects in Images Using a Descriptor// International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology.-2020.-Vol 7(10) / ISSN: 2350-0328

4.Shamiyev M.O. Approaches to the development of a recognition system for solving the problem of determining the content of digital images//International journal of Psychosocial Rehabilitation.-2020.-Vol 24(9).-ISSN:14757192

СОЗДАНИЕ НЕЧЕТКОЙ МОДЕЛИ МАМДАНИ ДЛЯ КЛАССИФИКАЦИИ DIGITS

Мухамедиева Д.Т.[1], Ниёзматова Н.А. [1], Нажмиддинов А.С.[1]

[1]Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» Ташкент, Узбекистан

dilnoz134@rambler.ru

Аннотация. *В данной работе исследуется применение нечеткой логики для классификации изображений цифр из набора данных digits. Нечеткая логика, основанная на работе Лотфи Заде в области нечеткой теории множеств, предлагает эффективный способ моделирования неопределенности и нечеткости в данных. Нечеткие системы, такие как нечеткие классификаторы, могут быть эффективными в задачах классификации, особенно при работе с данными, содержащими шум или неопределенность. Для решения задачи классификации цифровых изображений была разработана нечеткая модель на основе принципов Мамдани. Эта модель использует нечеткую логику для принятия решений и классификации входных данных. Модель обучается на обучающем наборе данных, вычисляя уровень принадлежности для каждого входного образца и определяя правила классификации. Затем она используется для предсказания меток классов для тестового набора данных. Эксперименты проводились на наборе данных digits, содержащем рукописные изображения цифр от 0 до 9. Результаты показывают, что предложенная нечеткая модель достигает высокой точности классификации на тестовом наборе данных, демонстрируя потенциал нечеткой логики для задач распознавания образов. Этот исследовательский подход к применению нечеткой логики в задачах классификации представляет интерес для развития методов машинного обучения, особенно в контексте работы с данными, где присутствует неопределенность или размытость, такими как изображения или текстовые данные.*

Ключевые слова: *Модель Мамдани, нечеткое множество, классификация, изображение, F1-мера, точность.*

1.Введение.

В данной работе мы исследуем применение нечеткой логики для классификации изображений цифр из набора данных digits. Этот набор данных содержит рукописные изображения цифр от 0 до 9 и является одним из самых широко используемых наборов данных для демонстрации методов машинного обучения и классификации. Наша цель - разработать и оценить нечеткую модель на основе принципов Мамдани для точной классификации изображений цифр. В этом контексте в работе будут представлены следующие ключевые аспекты [1,2]:

Разработка нечеткой модели Мамдани для классификации изображений цифр.

Обучение и тестирование модели на наборе данных digits.

Оценка производительности модели и сравнение ее результатов с другими методами классификации.

Обсуждение результатов и выводы о применимости нечеткой логики в задачах классификации изображений.

2.Материалы и методы. Для проведения экспериментов мы использовали набор данных digits из библиотеки scikit-learn. Этот набор данных содержит 1797 рукописных изображений цифр от 0 до 9, каждое изображение представлено в виде матрицы 8x8 пикселей.



Разработана нечеткая модель классификации на основе принципов нечеткой логики и методов Мамдани. Данная модель использует нечеткие правила и механизм нечеткой логики для классификации изображений цифр. Обучение модели происходило на обучающем наборе данных digits, включая 80% случайно выбранных изображений. Тестирование проводилось на оставшихся 20% изображений. Проведен несколько экспериментов, включая обучение модели с разными значениями параметра нечеткости (l) и оценку ее производительности на тестовом наборе данных. Также мы сравнили результаты классификации, полученные с помощью нечеткой модели, с результатами, полученными с использованием других методов классификации, таких как метод опорных векторов или случайный лес. Материалы и методы данного исследования были разработаны с целью создания и оценки эффективной модели классификации на основе нечеткой логики для распознавания рукописных цифр из набора данных digits. Полученные результаты позволят оценить применимость и производительность нечетких моделей в задачах классификации изображений.

3.Результаты.

Результаты данного исследования подтверждают применимость нечеткой модели Мамдани для задач классификации и распознавания образов, а также позволяют идентифицировать области для дальнейшего совершенствования и развития этой модели.

Результаты классификации:

Точность (Accuracy): 96.11%

Отчет о классификации:

Результаты классификации:

Точность (Accuracy): 96.11%

Отчет о классификации:

Класс	Точность	Полнота	F1-мера	Поддержка
0	0.94	1.00	0.97	17
1	1.00	0.91	0.95	11
2	0.94	1.00	0.97	17
3	0.89	1.00	0.94	17
4	1.00	1.00	1.00	25
5	0.96	1.00	0.98	22
6	1.00	0.95	0.97	19
7	1.00	0.95	0.97	19
8	0.80	1.00	0.89	8
9	1.00	0.84	0.91	25

Это таблица, представляющая метрики точности (precision), полноты (recall) и F1-меры для каждого класса, а также количество экземпляров каждого класса (поддержка) в наборе данных.

Эти метрики предоставляют дополнительную информацию о производительности модели, учитывая не только средние значения, но и вес каждого класса. Например, взвешенная точность учитывает баланс классов в данных, что особенно полезно в случае несбалансированных наборов данных.



Это матрица путаницы, которая отображает количество объектов каждого класса, которые были корректно или некорректно классифицированы моделью. Здесь строки представляют фактические классы, а столбцы - предсказанные классы. Эта матрица позволяет оценить, насколько успешно модель классифицирует каждый класс и выявить типы ошибок, которые она делает.

4.Заключение. Проведена классификация набора данных "Digits" с использованием нечеткой модели Мамдани. Модель продемонстрировала высокую точность классификации на тестовой выборке, составив 96.11%. Анализ результатов показал, что модель успешно справилась с классификацией большинства классов, достигнув высоких значений точности, полноты и F1-меры. Однако некоторые классы, такие как класс 8, показали более низкую производительность, что может потребовать дополнительного исследования и улучшения модели. Матрица путаницы позволила подробно проанализировать ошибки классификации и выявить слабые стороны модели. Большинство

объектов были корректно классифицированы, однако некоторые объекты были ошибочно отнесены к неправильным классам. В целом, нечеткая модель Мамдани успешно справилась с задачей классификации набора данных "Digits", демонстрируя высокую производительность и точность. Дальнейшее исследование может быть направлено на оптимизацию параметров модели для улучшения ее производительности на конкретных классах.

Список литературы

1.Пегат, А. Нечеткое моделирование и управление / А.Пегат; под редакцией Ю.В. Тюменцева; перевод с английского А.Г. Подвесовского, Ю.В. Тюменцева. – 3-е изд. – М.: Лаборатория знаний, 2015. – 801 с.

2. Рутковская Д., Пилиньский М., Рутковский Л. Нейронные сети, генетические алгоритмы и нечеткие системы: Пер. с польск. И.Д. Рудинского. – М.: Горячая линия - Телеком, 2004. – 452 с. 4.Ярушкина Н.Г. Основы теории нечетких и гибридных систем: Учеб.пособие. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 320с.

TURLI TIPLI BELGILAR BILAN TAVSIFLANGAN TIMSOLLAR SINFLAR XATOLI AJRALGANDA TIMSOLLARNI BELGILANGAN XATOLIK VA ISHONCHLILIK BILAN TANIB OLISH ALGORITMI

Bekmuratov D.Q.[1], Xayrullayev X.M.[2]

[1] "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti, Toshkent, O'zbekiston

[2] "Toshkent axborot texniologiyalar universiteti Samarqand filiali", Samarqand, O'zbekiston

bekmurodov_d@mail.ru, xayrullayevxisrav@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada yuqori chekli o'lchamli belgilar fazosida o'quv tanlanma sinflari bir-biridan xatoli ajralganda timsollarni belgilangan xatolik va ishonchlilik bilan tanib olish masalasini yechish qaralgan. O'quv tanlanma har bir sinfini boshqa sinflardan xatoli ajratishda xatolik chastotasi, timsollarni tanib olishdagi xatolik ehtimoli va uning ishonchlilik qiymatlari hamda o'quv tanlanmadagi timsollar, belgilar va sinflar soni kabi parametrlarni inobatga olib, sinfga xos belgilar fazosining yuqori chekli o'lchamini topish uslubiyoti keltirilgan. Yuqori chekli o'lchamli belgilar fazosini sinfga xos alohida belgilardan shakllantirish uchun har bir tanlab olinadigan alohida belgilarning minimal va haqiqiy ajratish kuchlari aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, timsollarni tanuvchi tizim, timsollarni tanib olish, o'quv tanlanma, nazorat tanlanma, sinf, timsol, belgi, sinfga xos alohida belgi, alohida belgilar fazosi, bo'saga, hal qiluvchi qoida, ajtaish kuchi, minimal ajratish kuchi, haqiqiy ajratish kuchi, xatolik chastotasi, xatolik ehtimoli, ishonchlilik.*

Hozirgi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalariga asoslangan tizimlarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu inson faoliyatining turli sohalarida uning yuqori amaliy ahamiyati bilan bog'liq. SI sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri - bu timsollarni tanib olish yo'nalishi bo'lib, bunda timsollarni samarali va tezkor tanib olish algoritmlariga asoslangan intellektual tizimlarini yaratishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda timsollarni tanib olish (TTO) usullari va algoritmlari tabiat va jamiyatda uchraydigan murakkab va qiyin formallashtiriladigan masalalarni yyechishda qo'llanilmoqda. Timsollarni tanuvchi tizim(TTO)larni yaratishda ularning yangi timsol(obyekt, signal, hodisa, jarayon)larni tanib olishda yuqori sifat va ishonchlilik ko'rsatgichga erishishi muhim faktorlardan biri hisoblanadi. Yaratilayotgan TTOning sifati va ishonchliligi oldindan berilgan o'quv tanlanma(O'T)dagi timsollar va belgilar soniga bevosita bog'liq. Shuning uchun O'Tdagi timsollar va belgilar sonini inobatga olib, TTOda turli usullar va algoritmlardan foydalaniladi. [1-4].

Masalaning qo'yilishi. O'Tdagi sinflarni bir-biridan ajratuvchi belgilarni tanlash natijasida hosil qilinadigan HQQlar asosida TTOda hatolik ehtimoli va uning ishonchlilik ko'rsatkichlarini

ifodalovchi ayrim natijalar [2, 4] ishlarda keltirilgan. Ushbu natijalardan foydalanib, [2-6] ishlarda O‘T timsollari binar belgilar bilan tavsivlanganda va OT sinflari bir-biridan xatosiz ajratishda BFning chekli o‘lchamli fazosini aniqlash va ushbu fazoga mos uchta tipli alohida belgilarni tanlash va ularning har bir tipi bo‘yicha HQQlarni hosil qilish masalalari qaralgan va echilgan. Biroq ko‘p hollarda BFning chekli o‘lchamli fazosida O‘T sinflarini bir-biridan xatosiz ajratishga erishib bo‘lmaydi. Bunday holda O‘T sinflarini bir-biridan xatoli ajratish masalasi qaraladi. Bunday masalani yechishda O‘Tning aniq bir sinfi timsollarini boshqa sinflar timsollaridan HQQ yordamida ajratishda yo‘l qo‘yiladigan xatolik chastotasi inobatga olinadi va HQQni yangi TTOdagi xatolik ehtimoli va uning ishonchliligi baholanadi. Buning uchun [2, 16] ishlarda olingan natijadan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lib, unda agar m ta timsollardan iborat bo‘lgan O‘T aniq bir sinfi timsollarini boshqa sinflardagi timsollardan ajratishda HQQ ν chastota xatolikka yo‘l qo‘ysa, u holda $(1-\eta)$ ishonchlilik bilan ta’kidlash mumkinki, ushbu HQQ yordamida yangi TTOdagi xatolik ehtimoli $(\nu+\varepsilon)$ dan oshmaydi deb e’tirof etilgan, bu yerda

$$\varepsilon=\sqrt{\frac{\ln N-\ln\eta}{2m}}\,. \tag{1}$$

Bunda N - HQQlar to‘plami, η- ishonchlilik, m - O‘Tdagi timsollar soni.

T_{nml} (n - belgilar soni, m - timsollar soni, l - sinflar soni) O‘T va $T^{*}_{nm^{*}}$ (m^{*} - timsollar soni) nazorat tanlanma (NT) mos ravishda (2) va (3) ko‘rinishlarda berilgan bo‘lsin [1, 6, 7]:

$$T_{nml}=\bigcup_{j=1}^{l}K_j:\begin{cases}X_1=(x_{11},\,x_{12},\,\ldots,x_{1n})\\ X_2=(x_{21},\,x_{22},\,\ldots,x_{2n})\\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\\ X_{m_j}=(x_{m_j1},\,x_{m_j2},\,\ldots,x_{m_jn})\end{cases}, \tag{2}$$

$$T^{*}_{nm^{*}}:\begin{cases}X^{*}_1=(x_{11},\,x_{12},\,\ldots,x_{1n})\\ X^{*}_2=(x_{21},\,x_{22},\,\ldots,x_{2n})\\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\\ X^{*}_{m^{*}}=(x_{m^{*}1},\,x_{m^{*}2},\,\ldots,x_{m^{*}n})\end{cases}. \tag{3}$$

Bu yerda: $K_1, K_2, \ldots, K_l$ - O‘T sinflari; $X_1,\ X_2,\ldots,\ X_{m_j}$ - K_j sinf timsollari; $X^{*}_1,\ X^{*}_2,\ldots,X^{*}_{m^{*}}$ - NT timsollari; $(x_{u1}, x_{u2},\ldots,\ x_{un})$ - X_u va X^{*}_u $(u=\overline{1,m})$ timsollar belgilari bo‘lib, ularning qiymatlari turli shkalada, ya’ni mantiqli, determinalli, ehtimolli, strukturali, nominalli va tartibli bo‘lishi mumkin.

Xususiy holda T_{nml} O‘Tdan K_q sinf sifatida $K_q=\forall K_j$ va $K_p\,(q\neq p)$ sinf sifatida $K_p=T_{nml}\setminus K_q$ belgilanadi, bunda $K_q\cup K_p=T_{nml}$ $(q\neq p)$.

Talab qilinadi: O‘T timsollarining belgilar qiymatlarini normallashtirish, har bir sinf uchun belgilarning bo‘sag‘a qiymatlarini aniqlash va ular asosida turli shkalada tavsiflangan belgilarni binarlashtirish;

- O‘T sinflarini xatoli ajratishda (1) formuladan foydalanib BF o‘lchamining n_0 chekli qiymatini $n_0=f(\nu,\,\varepsilon,\,\eta,\,n,\,m,l)$ bog‘liqlik asosida aniqlash;

- (2) ko‘rinishda berilgan O‘Tdagi timsollarning binarlashtirilgan belgilaridan sinfga xos alohida belgi(AB)larni tanlash va ulardan n_0 o‘lchamli BFni shakllantirish;

- shakllantirilgan n_0 o‘lchamli BFga mos HQQlarni hosil qilish;

- K_q sinf K_p sinfdan ν xatolik bilan ajralganda HQQlar asosida (3) ko‘rinishdagi NT

timsollarini belgilangan $(\nu+\varepsilon)$ va uning $(1-\eta)$ ishonchliligini ta'minlagan holda tanib olish.

(1)formula va masalaning qo'yilishini inobatga olib, quyidagi hulosaga kelish mumkin, ya'ni TTOda belgilangan xatolik va ishonchlilikka erishish uchun o'lchami yuqori chekli n_0 qiymatga ega bo'lgan BFni aniqlash va $R(X)$ HQQlar to'plamini qisqartirish zarur. Bu esa n_0 o'lchamli BFni to'ldirish uchun O'Tdagi timsollar belgilarini ketma-ket tekshirish jarayonida ulardan aniq mezon asosida har bir sinfga xos bo'lgan ABlarni tanlash imkonini beradi. Bu jarayon n_0 o'lchamli BF to'ldirilguncha davom ettiriladi va timsollarni barcha belgilarini tekshirishni talab qilmaydi. Bu esa algoritmlarni ishlash tezligini oshiradi va kam vaqt sarflab masalani yechimini topish imkonini beradi.

Masalani yechish uslubi. Belgilar qiymatini normallashtirish. Aytaylik, T_{nml} O'T (2) ko'rinishda va uning $X_u(u=\overline{1,m})$ timsollarining $x_{ui}(u=\overline{1,m})$ belgilari qiymatlari turli shalalarda berilgan bo'lsin. U holda belgilarning qiymatlarini bir xil shkalaga keltirish uchun, ular (4) formula asosida normallashtiriladi [1-3, 5]:

$$x_{ui}^{*}=\frac{x_{ui}}{\hat{x}_i},\ (i=\overline{1,n};\ u=\overline{1,m}), \tag{4}$$

bu yerda $\hat{x}_i = \max_{u}(x_{ui}),\ i=\overline{1,n},\ u=\overline{1,m}$.

Bo'sag'a qiymatini aniqlash. TTO masalasini yechishda eng muhim parametrlaridan biri – bu δ_i bo'sag'a qimatini aniqlash hisoblanadi. Bu qiymatlar guruhi umumiy holda timsollarni mos belgilarining yaqin yoki yaqin emasligini aniqlash uchun o'rnatilgan chegaraviy qiymatlarni ifodalaydi. Agar berilgan timsolni tavsiflovchi belgilar soni n ta bo'lsa, u holda har bir $x_i\ (i=\overline{1.n})$ uchun alohida bo'sag'a qiymati beriladi va ular $\delta_i\ (i=\overline{1.n})$ ko'rinishda belgilanadi.

Agar $x_i\ (i=\overline{1.n})$ belgilarning qiymatlari turli shkalalardagi qiymatlardan iborat bo'lsa va $\delta_i\ (i=\overline{1.n})$ bo'sag'alar soha mutaxassisi (ekspert) tomonidan berilmasa, u holda (4) formula yordamida qiymatlari normallashtirigan belgilarni binarlashtirishda har bir sinf uchun $\delta_i\ (i=\overline{1.n})$ bo'sag'alarning qiymatlari O'Tni o'qitish orqali quyidagicha aniqlanadi.

Har bir $K_q \in T_{nml}$ sinf sinf timsollarining i-belgisi bo'yicha minimum va maksimum oraliqlari aniqlab olinadi va ularning o'rtacha qiymatidan foydalaniladi. Bu holda K_q sinf uchun har bir belgining minimum va maksimum qiymatlari quyidagicha aniqlanadi [1, 4]:

$$\breve{\delta}_i^q = \min_{i}(x_{ji}^q),\ q=\overline{1,l},\ i=\overline{1,n},\ j=\overline{1,m_q}, \tag{5}$$

$$\hat{\delta}_i^q = \max_{i}(x_{ji}^q),\ q=\overline{1,l},\ i=\overline{1,n},\ j=\overline{1,m_q}, \tag{6}$$

Aniqlangan $\breve{\delta}_i^q$ va $\hat{\delta}_i^q$ qiymatlarning o'rtachasi olinadi:

$$\delta_i^q = \frac{1}{2}(\hat{\delta}_i^q - \breve{\delta}_i^q),\ q=\overline{1,l},\ i=\overline{1,n}., \tag{7}$$

bu yerda δ_i^q - bo'sag'a qiymat bo'lib, u i-belgining K_q sinf bo'yicha $\hat{\delta}_i^q$ maksimal va $\breve{\delta}_i^q$ minimal qiymatlarining o'rtacha qiymatidan hosil qilingan.

Ko'p hollarada O'Tdagi har bir K_q sinf uchun bo'sag'alar qiymatlari sifatida K_q sinfdagi normallashtirilgan $\tilde{x}_i$ belgining o'rtacha qiymati olinadi [1, 4, 6]:

$$\delta_i^q = \frac{1}{\mathrm{m_q}}\sum_{j=1}^{m_q}\tilde{x}_{ji},\ q=\overline{1,l},\ i=\overline{1,n}.. \tag{8}$$

Belgilarni binarlashtirish. Agar normallashtirilgan $\tilde{x}_i\ (i=\overline{1,n})$ belgilar uchun bo'sag'a

qiymatlar har bir $K_q(q=\overline{1,l})$ sinf uchun (5)-(8) formulalar asosida aniqlansa, u holda har bir $\tilde{x}_i$ $(i=\overline{1,n})$ belgi quyidagi qoidalardan biri yordamida binarlashtirilishi mumkin [1, 3]:

$$x_{ji}=\begin{cases}1,\ agar\ X_j\ timsol\ uchun\ x_{ji}\le\delta_i^q\ bo'lsa,\\ 0,\ boshqa\ \ hollarda.\end{cases}\quad (q=\overline{1,l};\ i=\overline{1,n};\ j=\overline{1,m}) \tag{9}$$

$$x_{ji}=\begin{cases}1,\ agar\ X_j\ timsol\ uchun\ \ \breve{\delta}_i^q\le\tilde{x}_{ji}\le\hat{\delta}_i^q\ bo'lsa,\\ 0,\ boshqa\ \ hollarda.\end{cases}\quad (q=\overline{1,l};\ i=\overline{1,n};\ j=\overline{1,m}). \tag{10}$$

Ta'kidlash mumkinki, barcha keyingi hisoblashlarda normallashtirilgan belgilarning (9) yoki (10) qoida asosida binarlashtirilgan qiymatlaridan foydalaniladi.

Sinfga xos 3 ta tipdagi ABlarni aniqlash. Faraz qilaylik, T_{nml} O'Tdagi $K_j(j=\overline{1,l})$ sinflar ikkita K_q va $K_P(q\ne p)$ sinflarga ajratilgan bo'lib, ularga mos to'plamlar uchun $V_q\cup V_p=V$ va $V_q\cap V_p\ne\phi$ shart o'rinli bo'lsin. Bu erda V - T_{nml} O'Tdagi timsollar to'plami (TT), V_q - K_q sinfdagi TT, V_P - K_P sinfdagi TT.

[1, 2] ishda T_{nml} O'T sinflarini bir-biridan xatosiz hamda xatoli ajratishda bo'sag'a qiymatlari T_{nml} O'T uchun aniqlanganda va ularni inobatga olib, binarlashtirilgan $x_i(i=\overline{1,n})$ belgilardan aniq K_q sinfga xos 3 ta tipli ABlar quyidagi qoidalar asosida aniqlangan:

$$(\forall X_u\in V_q: x_{ui}=1)\wedge(\forall X_u\in V_p: x_{ui}=0)=1, \tag{11}$$

$$[(\forall X_u\in V_q: x_{ui}=1)\wedge(\exists X_u\in V_p: x_{ui}=1)\wedge(\exists X_u\in V_p: x_{ui}=0)]=1, \tag{12}$$

$$[(\exists X_u\in V_q: x_{ui}=1)\wedge(\exists X_u\in V_q: x_{ui}=0)\wedge(\forall X_u\in V_p: x_{ui}=0)]=1. \tag{13}$$

Shuningdek, binarlashtirilgan $x_i(i=\overline{1,n})$ belgilardan (10) qoida asosida K_q sinfga xos 1-tipli $x_{qi}^{(1)}$, (12) qoida asosida 2-tipli $x_{qi}^{(2)}$ va (13) qoida asosida 3-tipli $x_{qi}^{(3)}$ ABlar tanlab olingan va ulardan mos ravishda 1-tipli $V_q^{(1)}=x_{q1}^{(1)},x_{q2}^{(1)},...,x_{qn_1}^{(1)}$, 2-tipli $V_q^{(2)}=x_{q1}^{(2)},x_{q2}^{(2)},...,x_{qn_2}^{(2)}$ va 3-tipli $V_q^{(3)}=x_{q1}^{(3)},x_{q2}^{(3)},...,x_{qn_3}^{(3)}$ AB fazosi (ABF) hosil qilingan. Hosil qilingan 3 ta tipli ABFning har biridan n_0 o'lchamli 1-tipdagi $V_q^{(1)}=x_{q1}^{(1)},x_{q2}^{(1)},...,x_{qn_0}^{(1)}$, 2-tipdagi $V_q^{(2)}=x_{q1}^{(2)},x_{q2}^{(2)},...,x_{qn_0}^{(2)}$ va 3-tipli $V_q^{(3)}=x_{q1}^{(3)},x_{q2}^{(3)},...,x_{qn_0}^{(3)}$ ABFlarini shakllantirish masalasi qaralgan [3-4].

Masalani yechish algoritmi. Yuqorida keltirilgan matematik protseduralar asosida sinflarni xatoli ajratishga mo'ljallangan algoritm ishlab chiqildi. Bu algoritm l ta T_{nml}^q O'Tning har birida K_q sinfni K_P sinfdan belgilangan ν xatolik bilan ajratishda $n_0=f(\nu,\varepsilon,\eta,n,m,l)$ funksional bog'liqlikni inobatga olib, BF o'lchami yuqori chekli n_0 qiymatini aniqlash, ushbu BFga mos keluvchi K_q sinfga xos binarlashtirilgan $k\,(k=\overline{2,3})$-tipli $x_{qi}^{(k)}(i=\overline{1,n_0})$ ABFni dastlabki $x_i(i=\overline{1,n})$ belgilardan tanlab olish va ular asosida yangi TTOda belgilangan $(\nu+\varepsilon^2)$ va η qiymatlarni qanoatlantiruvchi HQQlarni hosil qilishga mo'ljallangan.

Algoritm quyidagi qadamlardan iborat:

1-qadam. Kompyuter xotirasiga T_{nml} va $T_{nm^*}^*$ tanlovlarning boshlang'ich l,m,n va m^* o'lchovlari va ν,ε,η parametrlarning qiymatlari kiritiladi. Berilgan o'lchovlar asosida $K_j\in T_{nml}(j=\overline{1,l})$ sinflar, $X_u\in K_j(u=\overline{1,m_j})$ va $X_u^*\in T_{nm^*}^*(u=\overline{1,m^*})$ timsollarning nomlari hamda ushbu timsollarning $x_1,x_2,...,x_n$ belgilarining qiymatlari kiritiladi.

2-qadam. n_0 ning qiymati hisoblanadi.

3-qadam. T_{nml} va $T_{nm^*}^*$ tanlovlar (4) formula asosida normallashtiriladi.

4-qadam. $q = 1$ ta'minlanadi.

5-qadam. K_q sinf sifatida $K_q = \forall K_j$ va K_p sinf sifatida $K_p = T_{nml} \setminus K_p (q \neq p)$ tayinlanadi, bunda $K_q \cup K_p = T_{nml}$.

6-qadam. $i = 1$ ta'minlanadi.

7-qadam. Operativ xotiradan x_i belgi tanlanadi.

8-qadam. K_q sinf timsollarining x_i belgisi mantiqiy bo'lmasa, uning uchun bo'sag'a qiymati (5)-(8) ko'rinishlarda aniqlanadi va (9) yoki (10) qoidalar yordamida binarlashtiriladi.

9-qadam. Binarlashtirilgan x_i belgi uchun (12) munosabat tekshiriladi. Agar x_i belgi uchun (12) munosabat bajarilsa, u holda x_i belgi K_q sinfga xos 2-tipli $x_{qi}^{(2)}$ belgi sifatida $V_q^{(2)}$ belgilar fazosiga kiritiladi va algoritm 11-qadamga, aks holda 10-qadamga o'tadi.

10-qadam. x_i belgi uchun (13) munosabat tekshiriladi. Agar x_i belgi uchun (13) munosabat bajarilsa, u holda x_i belgi K_q sinfga xos 2-tipli $x_{qi}^{(3)}$ belgi sifatida $V_q^{(3)}$ belgilar fazosiga kiritiladi va algoritm 11-qadamga, aks holda x_i belgi inobatga olinmaydi, $V_q^{(3)}$ belgilar fazosiga kiritilmaydi va 11-qadamga o'tadi.

11-qadam. $i = i + 1$ ta'minlanadi. Agar $i \leq n$ bo'lsa, u holda algoritm 7-qadamga, aks holda 12-qadamga o'tadi.

12-qadam. Natijada $V_q^{(2)} = x_{q1}^{(2)}, x_{q2}^{(2)}, \ldots, x_{qn_2}^{(2)}$ va $V_q^{(3)} = x_{q1}^{(3)}, x_{q2}^{(3)}, \ldots, x_{qn_3}^{(3)}$ tipli ABFlari shakllantiriladi.

13-qadam. $k = 2$ ta'minlanadi.

14-qadam. $V_q^{(k)} = x_{q1}^{(k)}, x_{q2}^{(k)}, \ldots, x_{qn_k}^{(k)}$ ABF tanlanadi.

15-qadam. $i = 1$ ta'minlanadi.

16-qadam. n_0 o'lchovli $V_q^{(2)}$ va $V_q^{(3)}$ ABFlarga mos to'plamostilari uchun ishlarda keltirilgan munosabatlar tekshiriladi. Agar ushbu munosabatlar yoki ularning birortasi bajarilsa, u holda K_q sinf K_p sinfdan ν xatolik bilan ajratiladi va algoritm 17-qadamga o'tadi.

17-qadam. n_0 o'lchovli $V_q^{(2)}$ va $V_q^{(3)}$ ABFga mos $R_q^{(2)}(X_u)$ va $R_q^{(3)}(X_u)$ HQQlar [1-2] ishlardagi kabi hosil qilinadi.

18-qadam. $\psi = (\nu + \varepsilon^2)$ hisoblanadi.

19-qadam. $u = 1$ ta'minlanadi.

20-qadam. $\theta_{qu} = 0$ ta'minlanadi.

21-qadam. Yangi X_u^* timsol uchun [1] ishlarda keltirilgan HQQlardagi $C_q^{(2)}(X_u^*)$ va $C_q^{(3)}(X_u^*)$ uchun (13) qoidada $C_q^{(2)}(X_u^*) \vee C_q^{(3)}(X_u^*) = 0$ bo'lsa, u holda algoritm 18-qadamga, aks holda 19-qadamga o'tadi.

22-qadam. $\theta_{qu} = \theta_{qu} + 1. P_q = \theta_{qu}$ ta'minlanadi.

23-qadam. $u = u + 1$ ta'minlanadi. Agar $u \leq m^*$ bo'lsa, u holda algoritm 20-qadamga, aks holda 21-qadamga o'tadi.

24-qadam. $X_u^* \in T_{nm^*}^* (u = \overline{1, m^*})$ timsollarning K_q sinfga tegishlilgini aniqlashda yo'l qo'yilgan ξ_q xatolik qiymat quyidagi ko'rinishda hisoblanadi.

25-qadam. Agar $\xi_q \leq \psi$ shart bajarilsa, u holda n_0 o'lchovli ABFda K_q sinfga xos aniqlangan k $(k = \overline{2,3})$ -tipli $V_q^{(k)}$ ABFga mos [1, 2] ishlarda keltirilgan HQQlar NTdagi yangi

TTOda ψ xatolik qiymatni qanoatlantirgan bo‘ladi va algoritm 20-qadamga, aks holda ψ xatolik qiymatni qanoatlantirmagan bo‘ladi va (21) qadamga o‘tadi.

26-qadam. $q = q + 1$ ta’minlanadi. Agar $q \le l$ bo‘lsa, u holda algoritm 5-qadamga, aks holda 22-qadamga o‘tadi.

27-qadam. Tamom.

Yuqorida keltirilgan matematik proseduralarda (12) va (13) munosabatlarni qanoatlantiruvchi har bir $x_i \in T_{nml}^b$ binarlashtirilgan belgilardan K_q sinfga xos $k\,(k = \overline{2,3})$-tipli $x_{qi}^{(k)}$ ABNi ajratishni va bunday belgilardan shakllantirilgan $k\,(k = \overline{2,3})$-tipli $x_{qi}^{(k)} \in V_q^{(k)} (i = \overline{1,n_k})$ ABFdan har bir $x_{qi}^{(k)} \in V_q^{(k)}$ ABNi algoritmni tanlab olinishi natijasida shakllantirilgan n_0 o‘lchamli $k\,(k = \overline{2,3})$-tipdagi $V_q^{(k)} = x_{q1}^{(k)}, x_{q2}^{(k)}, \ldots, x_{qn_0}^{(k)}$ $(n_0 \le n_k)$ ABFga mos hosil qilingan HQQlar yordamida yangi TTOda taqqoslanadigan belgilar sonini keskin qisqarishiga olib keladi.

Ushbu qisqartirishlar ikki jihatdan samaralidir. Birinchidan kompyuterda hisoblashlar hajmi kamayadi, ikkinchidan ortiqcha (muhim bo‘lmagan) belgilarni chiqarilishi yangi TTOda ishonchlilikni oshiradi. Shu bilan birga, belgilar sonini qisqarishi HQQlar sonini ham qisqarishiga olib keladi. Bu esa ko‘p hollarda yangi TTOda ishonchlilikni kamayishiga olib keladi. Shuning uchun ushbu maqolada taklif etilgan matematik proseduralar va algoritmda O‘Tdagi timsollarni o‘rganishdan oldin belgilangan ν, ε, η hamda berilgan n, m va l qiymatlar orasidagi funksional bog‘liqlik hisobga olinib, BF o‘lchami yuqori chekli n_0 qiymati (20) formula ko‘rinishda hisoblangan, ushbu fazoga mos keluvchi sinfga xos belgilar tanlab olingan va ulardan HQQlar hosil qilingan.

Yuqorida keltirilgan algoritm asosida Embarcadero RAD Studio XE3 dasturlash muhiti, C++ dasturlash tilida dasturiy ta’minot (DT) yaratilgan bo‘lib, u Windows operasion tizimlarda ishlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Бекмуратов Д.К. “Белги ва обэектларнинг муносабатини баҳолашга асосланган тимсолларни таниб олиш алгоритмлари”. Monografiya. -Т.: “FAN ZIYOSI” нашриёти, 2023, 146 бет. КВК: 22.2. (Ўзб). UO‘S: 153.142.18. Б -13.
2. Вапник В.Н., Червоненкис А.Я. Теория распознавания образов. - М.: Наука, 1974. - 416 с.
3. Васильев В.И. Проблема обучения распознаванию образов. Принципы, алгоритмы, реализация. - Киев: Выща школа, 1989. - 64 с.
4. Васильев В.И. Распознающие системы: Справочник. -Киев:Наукова думка, 1983.- 420 с.
5. Горелик А.Л., Скрипкин В.А. Методы распознавания. - М.:Высшая школа, 2004. - 262 с.
6. Журавлев Ю.И., Камилов М.М., Туляганов Ш.Е. Алгоритмы вычисления оценок и применение. - Ташкент: ФАН, 1974. - 119 с.
7. Журавлев Ю.И., Рязанов В.В., Сенько О.В. Распознавание. Математические методы. Программная система. Практические применения. - М.: Фазис, 2006. - 159 с.
8. Bekmuratov D.K. Selecting classifiers to ensure the quality and reliability of pattern recognition at class intersection // Journal of Physics: IOP Publishing. –2021. – Vol. 2032, №1. – pp. 1-5. – DOI:10.1088/1742-596/2032/1/012034.
9. Bekmuratov Q.A., Bekmuratov D. Q., Abduraxmonova M.N. Sinflarni xatosiz ajtatishda alohida belgilar fazosini shakllantirish. Международный журнал теоретических и прикладных вопросов цифровых технологий. Vol. 2 No. 2 (2022). Стр. 16-31.ISSN 2181-3086. eISSN 2181–3094. http://ijdt.uz/index.php/ijdt/issue/view/3.
10. Vasil'ev, V.I., Bekmuratov K.A. Synthesis of properties by the learning sampling in the problems of pattern recognition learning. Journal Avtomatika Issue 1, January 1992, Pages 76-83.

SHAXSNI TANIB OLISHDA IKKI OQIMLI SIAM TARMOQLARI ASOSIDA AFFIN TRANSFORMATSIYALARINI MODELLASHTIRISH

Axatov A.R[1]., Ximmatov I.Q[2].
[1,2]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston
akmalar@mail.ru, ximmatov010889@gamil.com

Annotatsiya. *Shaxsni tanib olishda Siam tarmo‘g‘idan foydalangan holda CNN algoritmlarini takomillashtirish imkoni mavjuda va u uchtalik va to‘rttalik tarmoqni tashkil qilish imkonini beradi. Shundan so‘ng esa Affin transformatsiyalarini modelini ishlab chiqish imkonini yaratadi. Maqolada yo‘qotilgan ortiqchaliklar asosida Siam tarmoqlarini takomillashtirish uchun Affin transformatsiyalarini modellashtirish ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Siam tarmoqlari, Affin transformatsiyasi, shaxsni tanib olish, STN, ortiqchalikni yo‘qotish, CNN.*

So‘nggi yillarda intellektual tanib olish tizimlarini takomillastirish zamon talabi bo‘lib bormoqda. Mavjud tanib olish tizimlarini takomillashtirish uchun ikkita oqim va ko‘p oqimli tarmoqlarga asoslangan juftlik, chuqur o‘xshashlik o‘rganish arxitekturasidan foydalangan holda vizual kuzatish yondashuvlari ko‘plab mashinali ko‘rish sohalarida tezkorlik bilan rivojlanmoqda. Xususan, Siam tarmog‘i - ikki oqimli tarmoq arxitekturasi - hozirgi vaqtda ko‘pgina SOT muammolarini hal qilish uchun eng mashhur vizual kuzatish usuli hisoblanadi.

Siam tarmog‘ining umumlashtirilgan arxitekturasi umumiy parametrlarga ega ikkita bir xil CNN oqimdan iborat bo‘lib, unda yaratilayotgan tarmoq ikkita tarmoq bo‘lib, u bir-biriga o‘xshash ya’ni, bir xil sinf ob’yektlari va o‘xshash bo‘lmagan turli sinflarga tegishli ob’yektlar bir juft tasvirni kiritish orqali o‘qitiladi. Ikkala oqim tomonidan olingan xususiyatlar taqqoslanadigan yo‘qotish mexanizmi yordamida taqqoslanadi va birlashtiriladi, uning maqsadi har qanday juft tasvir berilgan ob’yekt o‘xshashligini to‘g‘ri bashorat qilish uchun o‘xshashlik funksiyasini o‘rgangan holda tonib olishdir. Kuzatuv vaqtida oqimlardan biri ishga tushirilganda maqsad funksiyasima’lumoti bilan to‘ldiriladi ya’ni, ob’yektni o‘z ichiga olgan tasvir bo‘lagi ajratib olinadi, boshqa oqimda esa butun fonni yoki uning bir qismini qamrab olgan qidiruv maydoni kiritiladi. Bunda asosan, nomzod ob’yektlarini qidirish, namunaviy yamoqni butun qidiruv maydoni bo‘ylab siljitish va har bir joy uchun o‘xshashlikni hisoblashdan iborat bo‘ladi.

Radius Sampling usulini qo‘llagan an’anaviy ikki oqimli Siam tizimiga asoslangan SINT (Siam Instance Search Tracker) usuli ham majud bo‘lib, unda Siam boshlang‘ich parametrlari tepasida maxsus o‘zaro bog‘liqlik qatlamini ishlatadigan SiamFC qatlami taqdim etiladi. Bunday holda, kuzatuv paytida ob’yekt ma’lumotlarini qidirish maqsadli yamoq va qidiruv bo‘lagi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisoblash uchun qisqartiriladi. CFNet tarmog‘i ob’yektdagi o‘xshashlikni baholash uchun o‘zaro bog‘liqlik qatlamidan foydalanadi. Ammo SiamFC dan farqli o‘laroq, CFNet turli xil ko‘rinish belgilarini o‘rganishga yordam berish uchun Siam ramkasining shablon tasviri bo‘limida farqlanadigan CNN moduli sifatida qo‘shimcha ravishda korrelyatsiya filtri blokidan foydalanadi.

Uzoq muddatli kuzatishda ko‘rinmaydigan va to‘liq okklyuziv muammolarni hal qilish uchun ular yo‘qolgan ob’yekt qayta paydo bo‘lgandan keyin ya’ni qayta aniqlash orqali uni qayta tiklash uchun global ko‘rinishni ta’minlash uchun qidiruv maydonini bosqichma-bosqich kengaytirish strategiyasi ishlab chiqiladi.

Ba’zi Siamga asoslangan yondashuvlar turli xil abstraktsiya darajalarining xususiyatlarini bir nechta CNN qatlamlaridan birlashtirish yaxshi natijalarga olib keladi, ya’ni natijalarni xulosa qilish uchun birlashtirishdan oldin alohida Siam tarmoqlarida past va yuqori darajali xususiyatlarni o‘rganishni va takomillashtirish imkonini beradi. Tarmoq sayozroq qatlamlardan invariant vizual xususiyatlarni chiqaradigan tashqi ko‘rinish tarmog‘idan va yuqori darajadagi semantik tasvirni kodlash uchun chuqurroq xususiyatlardan foydalanadigan semantik tarmoqdan iborat bo‘ladi. Bunda ikki oqim uchun o‘xshashlik ballari kuzatuv davomida yakuniy o‘xshashlik natijasini olish uchun birlashtirilishidan oldin o‘quv bosqichida alohida hisoblanadi.



1-rasm. Siam arxitektura tarmog‘ining umumiy tuzilishi.

Siam tarmog‘ininig takomillashuvi tubdan o‘zgartirishlari shunisi e’tiborga loyiqki, bir qator yangi siam tarmog‘i arxitekturasini, jumladan, psevdo-siam tarmog‘i deb ataladigan narsalarni o‘rganib chiqilgan. Siam arxitekturalari umumiy og‘irliklarga ega ikkita bir xil CNN oqimlarini ishlatish orqali taklif qilingan Pseudo-Siamse arxitekturasi taqsimlanmagan og‘irliklarga ega ikkita oqim tarmog‘idan foydalanadi. Bunda texnika mashg‘ulot vaqtida ko‘proq parametrlarni osongina sozlash imkonini beradi. Ushbu konseptsiyani 2-kanal deb ataladigan tarmoqni joriy qilish bilan yanada kengaytiriladi, u butunlay bir-biriga bog‘lanmagan ikki oqimli tarmoqlar asosida ishlaydi. Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib ushbu turli modellarning ishlashi aniq dastur senariysiga bog‘liqligini oshirish, va ortiqchaliklarni yo‘qotish maqsadida yangi yangi uchtalik va to‘rttalik tarmoqlarini ishlab chiqishni talab etadi (2-rasm).



2-rasm. Uchtalik va to‘rttalik tarmoqlarning tegishli yo‘qotishlari sxemasi.

Yo‘qotilgan ortiqchaliklar asosida Siam tarmoqlarini takomillashtirish uchun Affin transformatsiyalarini modellashtirish ehtiyoji paydo bo‘ladi.

Affin transformatsiyalarini modellashtirish bugungi kunda tanib olishda eng samarali algoritmlarni ishlab chiqishga intellektual tanib olish sohasi keng rivojlanishiga olib kelmoqda. Ko‘pgina fazoviy transformatsiyalarni modellashtirish yondashuvlari ayniqsa, afin o‘zgarishlarga qaratilgan. Maqsadli ob’yektning affin o‘zgarishlar parametrlarini o‘rganish uchun fazoviy transformator deb ataladigan differentsial modelni o‘z ichiga olgan taklif qilingan fazoviy transformator tarmog‘i. o‘rganilgan transformatsiya parametrlari kiritilgan ma’lumotlardan xususiyatlarni ajratib olish uchun qo‘llaniladigan yangi namuna olish yadrolarini yaratishda ishlatiladi. Fazoviy transformatorlar, shuningdek, qarama-qarshi mashg‘ulotlar uchun turli xil pozalarda ijobiy namunalarni yaratishga yordam berish uchun ishlatiladi. Harakatlanayotgan shaxslarni qayta identifikatsiya qilish tizimida yashirin kompozitsion qismlar uchun lokalizatsiya ma’lumotlarini o‘rganish uchun STN(Spatial Transformer Network)dan foydalaniladi. 3-rasmda ko‘rsatilganidek, mustahkam shaxsni qayta identifikatsiya qilish uchun o‘xshashlikni o‘rganish tizimida STN va qayta identifikatsiya modullarini birlashtirish eng maqbul yo‘l hisoblanadi.



9-rasm. STN asosidagi shaxsni qayta identifikatsiya qilish tizimi.

STN affin transformatsiya parametrlarini o‘rganadi va buzilgan va kesilgan tasvirlardagi maqsadli shaxslarga mos keladigan eng o‘xshash yaxlit tasvir yamoqlarini aniq tanlay oladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki. Siam arxitekturasini takomillashtirgan holda affin transformatsiyasi modelini shakllantirish samarali natijalarga olib keladi. Bunda mumkin bo‘lgan deformatsiyalarni kodlash uchun qayta identifikatsiyalash (ReID) birlashmasi uchun uchta turli yadro o‘lchamlari ishlatiladi. Bundan tashqari, ko‘p vazifani yo‘qotish bir vaqtning o‘zida aniqlashning mustahkamligi va aniqligini optimallashtiradi va STN asosidagi shaxsni qayta identifikatsiya qilish tizimi STNReID yondashuv takomillashgan holda ishlaydi va siam tarmog‘i konfiguratsiyasida kesilgan va jiddiy buzilgan tasvirlardagi shaxslarni qayta identifikatsiya qilish uchun STN dan foydalanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akhatov, A., Nazarov, F., & Rashidov, A. (2021). Increasing data reliability by using bigdata parallelization mechanisms. Proceedings of the International Conference on Information Science and Communications Technologies, (pp. 1-4). Tashkent. doi:10.1109/ICISCT52966.2021.9670387

2. Newell, A., Yang, K., & Deng, J. (2016). Stacked Hourglass Networks for Human Pose Estimation. Proceedings of the Computer Vision–ECCV 2016: 14th European Conference. VIII (14), pp. 483-499.Amsterdam, Netherlands: Springer International Publ. doi:10.48550/arXiv.1603.06937

3. Ximmatov, I.. Advantages of biometrik gait recognition. Important factors in evaluation of gait analysis systems. Scientific journal of SamSU, 3(121), (2020) 104-107.

4. Ximmatov, I.. Important factors in evaluation of gait analysis systems and ad-vantages of biometric gait recognition. Proceedings of the Conference of the Prospects for the use of innovative and modern information technologies in the fields of education, science and management, (2020) (pp. 262-267). Samarkand, Uzbekistan

5. Axatov, A.,Ximmatov, I. Foydalanuvchilarning biometrik autentifikatsiya turlari asosida haqiqiyligini tasdiqlash usullarining samaradorligi [Effectiveness of user authentication methods based on biometric authentication types]. Proceedings of the Conference Innovative approaches as a key to scientific progress: solutions and perspectives, (2020) (pp. 20-26). Jizzakh, Uzbekistan.

TASVIRDA DASTLABKI QAYTA ISHLOVNI AMALGA OSHIRISH VA YUZ TASVIRINI TAHLIL QILISH

Muhamadiyev Abduvali Shukurovich, Rustamov Bektosh Xudoyberdi o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, Samarqand, O‘zbekiston
abduvalim@tuit.uz , rustamov.bx@gmail.com

Annotatsiya: *Tasvirdagi ob’ektni aniqlashda dastlabki qayta ishlovni amalga oshirish va ularni aniqlash jarayonlarida qo‘llaniladigan usullar tahlili keltirilgan. Tasvirlarni qayta ishlash jarayonida turli usullar qo‘llaniladi, masalan, binar tasvirlarga o‘tkazish, ob’ekt chegaralarini aniqlash, sohalarni bo‘laklash (segmentatsiya), tasvir sifatini yaxshilash va boshqalar. Ba’zi holatlarda rangli tasvirlarni kulrang tasvirlarga o‘tkazish tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *piksel, rang qiymati, algoritm, tasvir, bo‘sag‘a, mediana usuli, binar tasvir.*

Tasvir xususiyatlarini aniqlashda uning belgilarini aniqlash zarur bo‘ladi va bu jarayon tasvirlarga sonli ishlov berish algoritmlari orqali amalga oshiriladi. Tasvirlarni qayta ishlashda avvalo tasvirning rang xususiyatlari va unda ishlash usullarini o‘rganib chiqish talab etiladi.

Hozirgi zamonaviy kompyuterlarda grafik rejim ranglidir. Ya’ni bitta pikselda uchta rang (R-qizil, G-yashil, B-ko‘k) aralashmasidagi rang qiymati bo‘ladi. Unda mumkin bo‘lgan ranglar soni 256^3=16777216 taga etadi. Bu rejim jonli tabiatdagi kuzatilgan ranglardan qolishmaydigan tasvirni saqlash, ishlov berish va uzatish imkonini beradi. Har qanday rangni quyidagi uchta asosiy bo‘lgan - qizil, yashil va ko‘k ranglarning aralashmasi yordamida tasvirlash mumkin. Agar biz 3 bayt yordamida nuqtaning rangini kodlashtirmoqchi bo‘lsak, unda 1-bayt qizil, 2-bayt yashil, 3-bayt esa ko‘k rangni ifodalaydi. Rangli to‘plamning bayt qiymati qanchalik katta bo‘lsa, mazkur rang shunchalik aniq va ravshan bo‘ladi.

Agar nuqta oq rangdan iborat bo‘lsa, demak unda ranglar mavjud bo‘lib, u to‘liq va ravshan bo‘ladi. Shuning uchun ham oq rang uchta to‘liq bayt 255,255,255 bilan kodlanadi. Qora rangda hamma mavjud ranglar (R-qizil, G-yashil, B-ko‘k) bo‘lmaydi, ya'ni jami ranglar to‘plami nolga teng bo‘ladi. Qora rang 0,0,0 bilan kodlanadi. Kulrangda jami ranglarni tashkil etuvchi to‘plam mavjud bo‘lib, ular bir xil va bir-birini neytrallashtiradi. Masalan, kul rangni 80,80,80 yoki 120,120,120 bilan kodlashtirish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, ikkinchi holatdagi kodlashtirishda aniqlik va ravshanlik yuqori, ya’ni 80,80,80 bilan kodlashtirishga qaraganda 120,120,120 bilan kodlashtirish deyarli yorug‘roqdir. Qizil rangda esa qizil rangdan tashqari boshqa jami ranglarni tashkil etuvchilari nolga teng bo‘ladi. Masalan, to‘q qizil rang 125,0,0 yoki ochiq qizil rang 255,0,0 ko‘rinishda kodlanadi.

Dasturiy tizimda tasvirlarni piksellar bo‘yicha aniqlanadi va qayta ishlanadi. Unda asosan BMP (Bitmap) kengaytmali grafik tasvirlar qayta ishlanadi. Tasvirdagi har bir piksel o‘n oltili yoki o‘nli sanoq sistemasidagi sonlarni qabul qiladi. Nuqtadagi rang qiymatini qabul qilish uchun $000000_{(16)}$ dan $FFFFFF_{(16)}$ gacha oraliqda bo‘lgan o‘n oltili sonlar uchun oltita yacheyka (joy) ajratilgan. Bunda birinchi ikkita yacheyka ko‘k rang uchun, keyingi ikkita yacheyka yashil rang uchun va nihoyat oxirgi ikkita yacheyka qizil rang qiymatlari uchun ajratilgan. Masalan, tasvirdagi ixtiyoriy (x,y) nuqtadagi rang qiymati $6BC8AD_{16}$ (7063725_{10}) ga teng bo‘lsin. Bunda ko‘k rang qiymati $6B_{16}$ (107_{10}) ga, yashil rang qiymati $C8_{16}$ (200_{10}) ga va qizil rang qiymati AD_{16} (173_{10}) ga teng. Shu tariqa biz yuqoridagi ma'lumotlar asosida grafik tasvirlarga ishlov bera olamiz.

Tasvirlarni qayta ishlash jarayonida turli usullar qo‘llaniladi. Masalan, binar tasvirga o‘tkazish, ob’ekt chegaralarini aniqlash, sohalarni bo‘laklash (segmentasiya), ingichkalashtirish, tasvir sifatini yaxshilash va boshqalar.

Rangli tasvirni kulrang tasvirga o‘tkazish. Ba’zi bir masalalarda rangli tasvirni kulrang tasvirga o‘tkazish talab etiladi. Kulrang tasvirlarda nuqtadagi rang qiymati 0 va 255 oralig‘ida bo‘lganligi sababli undagi bajariladigan amallar soddalashadi. Rangli tasvirni kulrang tasvirga o‘tkazish ko‘pincha quyidagicha amalga oshiriladi.

$$Gray_{ij} = 0{,}3 \cdot R_{ij} + 0{,}59 \cdot G_{ij} + 0{,}11 \cdot B_{ij} \qquad (1)$$

yoki

$$Gray_{ij} = \frac{R_{ij} + G_{ij} + B_{ij}}{3} \qquad (2)$$

bu erda $Gray_{ij}$ – berilgan rangli tasvirning i, j koordinatasidagi pikselning kulrang yorug‘lik qiymati, R_{ij}, G_{ij}, B_{ij} – qizil, yashil va ko‘k ranglarning yorug‘lik qiymati.

Bunday almashtirish rangli tasvirdagi R,G,B rang qiymatlari turlicha bo‘lganda yaxshi natija beradi. Rangli tasvirni kulrang tasvirga o‘tkazilgan namunalari 1-rasmda ko‘rsatilgan.

1-rasm. a) berilgan rangli tasvir; b) (1) formula bo‘yicha olingan natija; d) (2) formula bo‘yicha olingan natija.

Tasvirni binar(oq-qora) tasvirga o‘tkazish. Binar tasvirda faqat ikkita rang qatnashadi. Bular oq va qora ranglardir. Ko‘pincha oq rangdagi sohalar- fon, qora rangdagi sohalar esa ob'ekt sifatida qaraladi. Ba'zi bir masalalarni echishda tasvirni binar ko‘rinishga o‘tkazish talab etiladi. Rangli yoki kulrang tasvirni binar tasvirga o‘tkazishda asosiy muammo bo‘sag‘a (porog)ni avtomatik tanlash hisoblanadi. Bo‘sag‘a tanlash uchun asosan tasvir gistogrammalari tahlilidan foydalaniladi.

2-rasmda tasvir gistogrammasi va undagi bo‘sag‘a (Threshold) qiymati joylashuvi aks etgan.



2-rasm. Bo‘sag‘a tanlash uchun qurilgan tasvir gistogrammasi.

Quyida bo‘sag‘a tanlashning gistogramma tahliliga asoslagan k-o‘rtacha algoritmini ko‘ramiz. Algoritm quyidagi qadamlardan iborat bo‘ladi:

1-qadam. Yorug‘liklar diapazonida T o‘rta qiymat aniqlanadi;

2-qadam. Gistogrammaning har ikki tomonida og‘irlik markazlari m_1, m_2 hisoblanadi;

3-qadam. Bo‘sag‘a qaytadan hisoblanadi, $T = (m_1 + m_2)/2$

4-qadam. Agar yangi hisoblangan bo‘sag‘a eskisidan farq qilsa 2 va 3-qadamdagi ishlar yana takrorlanadi. Bu jarayon toki eski va yangi bo‘sag‘a orasidagi farq nol bo‘lgunga qadar davom etadi.

Berilgan kulrang tasvirning turli bo‘sag‘a qiymatlarida binar tasvirga o‘tkazilgan namunalari 3-rasmda ko‘rsatilgan.



3-rasm. Tasvirni binar tasvirga o‘tkazilgan namunalari:
a) berilgan kulrang tasvir; b) T=60 bo‘lgandagi natija; c) bo‘sag‘a T=120 bo‘lgandagi natija; d) T avtomatik tanlangandagi natija.

Shuningdek, soddalashgan holda bo‘sag‘a tanlash usullari mavjud. Qaralayotgan sohada bo‘sag‘ani tanlashda shu sohadagi rang qiymatlarining o‘rtachasini olish mumkin ya'ni,

$$T = \frac{1}{M \cdot N} \sum_{i=1}^{M} \sum_{j=1}^{N} G(i, j) \qquad (3)$$

bu erda $G(i, j)$ – berilgan tasvirning i, j koordinatasidagi pikselning yorug‘lik qiymati.

Mediana usulida esa, qaralayotgan soha qiymatlari bo‘yicha qurilgan to‘plam tartiblanib, ularning markazida joylashgan qiymat olinadi. Masalan, $G = \{G_1, G_2, ..., G_k\}$ to‘plam berilgan bo‘lsin. Uning tartiblangan ko‘rinishini $G^{(N)} = \{G_1, G_{p-1}, G_p, G_{p+1}, ..., G_n\}$ deb olsak, u holda mediana usulida bo‘saga qiymati quyidagiga teng bo‘ladi:

$$T = G_p \qquad (4)$$

Va nihoyat soddalashgan holda bo‘sag‘a tanlashning uchinchi ko‘rinishi quyidagicha.

$$T = (G_{\min} + G_{\max}) / 2 \qquad (5)$$

Tasvir kattaroq xajmda bo‘lsa, bu usul bo‘yicha tanlab olingan bo‘sag‘a tasvirning barcha sohasi uchun ham yaxshi natija bermasligi mumkin. Shuning uchun tasvirni binar tasvirga o‘tkazish jarayonlarini kichik sohalarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, 10x10, 16x16 yoki 32x32 kabi kichik sohalarda tasvir binar tasvirga o‘tkazilganda undagi sezilarsiz farqlar ham aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тропченко А.А., Тропченко А.Ю. Методы вторичной обработки и распознавания изображений. Учебное пособие. – СПб: Университет ИТМО, 2015. – 215 с.

2. Абламейко С.В., Лагуновский Д.М. Обработка изображений: технология, методы, применение. -Минск: Ин-т техн. кибернетики НАН Беларуси, 1999. -300с.

3. Быстрые алгоритмы в цифровой обработке изображений/ Под ред. Т.С.Хуанга -М.: РиС, 1984. -224 с.

4. Борн М., Вольф Э. Основы оптики. - М.: Наука, 1970. -856 с.

5. Быков В. Цифровое преобразование изображений. Учеб. пособие для ВУЗов. –М.: Горячая линия-Телеком, 2003. -228 с.

TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARAI FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

Xabibulloyev Doniyor Sa’dulloyevich, G‘ulomov Ilhom Musurmonovich
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, Samarqand, O‘zbekiston
doniyor211@mail.ru, i.g‘ulomov@gmail.com

Annotatsiya ushbu maqolada hayotimizning hamma jabhalarini raqamlashtirish, shunindek, bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarning o‘rni, zamonaviy ta’limning muammolari ko‘rilgan.

Kalit so‘zlar ta’lim, kadrlar, axborot kommunikatsion texnologiyalar, raqamli texnologiya, kognitiv faoliyat.

“Sun’iy intellekt” atamasi muallifi Jon Makkarti, Lisp tilining ixtirochisi, funktsional dasturlash asoschisi va sun’iy intellektni tadqiq qilish sohasiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Tyuring mukofoti sovrindori.

homogeneous criterion with a positive degree. In IOP Conference Series: Materials Science and Engineering (Vol. 919, No. 4, p. 042011). IOP Publishing.

3. Mamatov, N., Samijonov, A., Niyozmatova, N., Samijonov, B., Erejepov, K., & Jamalov, O. (2023, August). Algorithm for Selecting Optimal Features in Face Recognition Systems. In 2023 19th International Asian School-Seminar on Optimization Problems of Complex Systems (OPCS) (pp. 59-64). IEEE.

4. Shavkat, F., Narzillo, M., & Abdurashid, S. (2019). Selection of significant features of objects in the classification data processing. International Journal of Recent Technology and Engineering, 8(2 Special Issue 11), 3790-3794.

5. Narzillo, M., Bakhtiyor, A., Shukrullo, K., Bakhodirjon, O., & Gulbahor, A. (2021, November). Peculiarities of face detection and recognition. In 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE.

INSTRUMENTAL DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA NEYRON TARMOG ʻINI QURISH

Axrorov M.SH.[1]
[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Samarqand, Oʻzbekiston
axrorov0204@gmail.com

Annotatsiya. *Hozirgi kunda texnologik va ilmiy taraqqiyot yangi sohalarni qamrab olgan va tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ulardan biri sun'iy neyron tarmoq (SNT) texnologiyalari boʻlib, ulardan koʻp komponentli masalalar, masalan, inson miyasi qobilyatlarining ishlashini modellashtirishda samarali foydalanadi.*

Kalit soʻzlar: *Neyron, neyronli tarmoqlar, miya qobiliyati, kodlashtirish, adaptivli summator, shoxlash nuqtasi, birjinslimas summator, birjinsli summator, qatlamli tarmoq.*

Sun'iy neyron tarmoq (SNT)larni oʻrganish bugungi kunda turli mamlakatlardagi ilmiy jamoalarda faol olib borilmoqda. Ular SNTlarning xatti-harakatlari va holatini oʻrganish sohasida olib borilgan tadqiqotlarni juda istiqbolli deb hisoblashadi Jumladan, SNTlar diskriminantli tahlil, timsollarni tanish, tasniflash va klasterlash usullarining maxsus holati sifatida taqdim etiladi. SNTlar timsollarni tanish, tasniflash, klasterlash, basorat qilish, approksimatsiya masalalarini echish, ma'lumotlarni siqishning ba'zi jihatlari, ma'lumotlarni tahlil qilish va turli xil xavfsizlik tizimlarida qoʻllashni oʻz ichiga oladi.

Neyron - elektr faolliklikka ega boʻlgan va organizmni operativ boshqaradigan tirik organizmlar nerv hujayralarining alohida turi hisoblanadi. Neyron tarkibi: *soma (tan), dendritlar* - kirish axborotlarni va *akson* - chiqish axborotlarni uzatadigan oʻsimtalardan iborat boʻladi. Har bir neyron faqat bir akson va bir necha dendritlardan iborat. Neyronning chiqish signali (qoʻzgʻalishi, impulsi) boshqa neyronga nerv birikish (*sinaps*)lar orqali keladi. Bu holatda qoʻzgʻalish signallari kuchaytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

Matlab dasturi orqali sodda neyron tarmogʻini quramiz.

Dastlab **x=iris_dataset;** kommandasi orqali iris gulining qiymatlarini matlab oynasiga chaqirtirib olamiz va uning oʻlchamini **size(x)** orqali koʻrishimiz mumkin. Bir biriga bogʻliqligi yoki uzoqligini bilish uchun esa neyron tarmoqdan foydalanamiz va uning strukturasi quyidagi oynada koʻrsatilgan



1-rasm. Matlab dasturining ishchi oynasi.

Biz ushbu maqolamizda iris gulininig qiymatlarini klasterlar usulida ko‘ramiz. Buning uchun biz faqat kirishdagi qiymatlarni berib olsak bo‘ldi. Iris gulining qiymatlarini Matlab oynasiga chaqirib olamiz, uni keyin **x** ga tenglab olamiz. Bu amalni bajarish uchun biz **x=iris_dataset;** burug‘ini kiritamiz va uning o‘lchamini **size** funksiyasi orqali ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm. Kirish qiymati oynasi.

Kirishdagi qiymatlardan foydalanib 6 burchakli chizmalar orqali neyron tarmoqlarini hosil qilamiz. Buning uchun biz avvalo quyidagi buyruqlar orqali kirishdagi ma’lumotlar bilan chiqishdagi ma’lumotar o‘lchamlarini kiritib olamiz. **net=selforgmap([10 10]);** va **view(net) buyruqlarini kiritamiz.** Rasmda ko‘rib turibmizki, chiquvchi ma’lumotlar qiymati 100 ga teng.



3-rasm. Chiquvchi ma’lumotlar qiymati oynasi.

Ma’lumotlarni kiritishga berishimiz uchun quyidagi komandani beramiz **[net,tr] = train(net,x).** Kirishdagi qiymatlarni oldi endi bunda 6 burchakdan iborat bo‘lgan neyron tarmoq hosil qilishda chizmani hosil qilib beradi.



4-rasm. 6 burchakdan iborat bo‘lgan neyron tarmoq.

Quyidagi oynalarning **Hits** oynasida neyronlar sonining bir-biriga qanday bog‘langanligi aks etgan.



5-rasm. Neyronlar sonining bir-biriga qanday bog‘langanligi.

Bu oynada esa **SOM Weight Positions** oynasida esa neyronlarning og`irliklarining joylashish qanday bog‘langanligini ko‘rishimiz mumkin.



6-rasm. Neyronlarning og‘irliklarining joylashishi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bekmuratov Q.A. Sun’iy intellekt va neyron tarmoqlari. O‘quv qo‘llanma. -Samarqand.: “SamDU” tahririy-nashiryot bo‘limida chop etildi, 2021.-352 b. UDK: 004.8. ISBN 978-9943-7276-0-1.

2. Bekmuratov Q.A. Sun’iy intellekt. O‘quv qo‘llanma. –T.: ”Aloqachi, 2019.-312 b. UO‘K:004.8. KBK:32.973.2. ISBN 978-9943-5804-8-0.

3. Bekmurodov Q.A., Mamaraufov O.A., Bekmurodov D.Q. Timsollarni anglovchi tizimlar. Oliy ta’lim muassasalari uchun uslubiy qo‘llanma. Tashkent. “Navro‘z” nashriyoti DUK. 2015. 385 bet. (UDK 004.8. ISBN:978-9943-381-17-9).

4. K.A.Bekmuratov, D.K.Bekmuratov, Axrorov M Sh. O‘quv tanlanma sinflarini xatosiz ajratuvchi klassifikatorlar asosida timsollarni tanib olish. Jurnal: Science and innovation, 2023.

TIMSOLLARNI SINFLARGA AJRATUVCHI KLASSIFIKATORLAR YORDAMIDA BELGI VA OBYEKTLAR MUNOSABATINI BAHOLASH

Bekmuratov D.Q.[1], Xasanov O.R.[2]

[1] “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

[2] “Toshkent axborot texniologiyalar universiteti Samarqand filiali”, Samarqand, O‘zbekiston

bekmurodov_d@mail.ru, otabektatusf@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada etalon tanlovda berilgan sinflar boshlang‘ich xossalar fazosida kesishganda aniq bir sinfdan tayinlangan tayanch obyektlar asosida hosil qilinadigan ikki tipdagi klassifikatorlarni aniqlash va ular asosida obyektlarni tanib olish masalasi qo‘yilgan va yechilgan. Buning uchu etalon tanlovdagi obyektlar va ularda berilgan xossalar sonini, aniq bir sinfdagi obyektlarni boshqa sinflardagi obyektlardan ajratishda va yangi obyektlarni tanib olishda oldindan berilgan xatolik qiymatlarni hisobga olgan holda tanlab olinadigan klassifikatorlarning tarkibiga kiruvchi xossalar sonining yuqori chekli qiymati aniqlanadi. Ushbu qiymat asosida har bir klassifikator tarkibiga kiruvchi xossalar soni belgilanadi va ulardan klassifikatorlar hosil qilinadi. Ushbu klassifikatorlar yangi obyektlarni tanib olishda qo‘llaniladi. Shuningdek, klassifikatorlarning tarkibiga kiruvchi xossalar sonining yuqori chekli qiymatini aniqlashda belgi va obyektlarning munosabati baholanadi.*

Kalit so‘zlar. *Etalon tanlov, sinf, belgi, obyekt, klassifikator, belgilar nabori, hal qiluvchi qoida, boshlang‘ich xossa, informativ belgi.*

Timsollarni tanib olish usullari va algoritmlari hozirgi vaqtda tabiat va jamiyatda uchraydigan murakkab va qiyin formallashtiriladigan masalalarni yyechishda qo‘llanilmoqda. Timsollarni tanib olishni o‘rgatuvchi tizimlarni yaratishda ularning yangi obyektlarni tanib olishda yuqori sifat va ishonchlilik ko‘rsatgichga erishishi muhim faktorlardan biri hisoblanadi. Yaratilayotgan tanib oluvchi tizimning sifati va ishonchliligini belgilovchi asosiy faktorlardan biri - bu oldindan berilgan etalon tanlov(ET)ning hajmi hisoblanadi. ETning hajmi deganda obyektlar va ularda berilgan belgilar soni tushuniladi. Shuning uchun ETning hajmiga qarab obyektlarni aniqlashda turli usullar va algoritmlardan foydalaniladi [2-5].

Masalaning qo‘yilishi. Tanib oluvchi tizimlarni yaratishning muhim xususiyatlaridan biri- bu ularning yangi X_i^* obyektlarni tanib olishda eng kichik xatolik ehtimoli ε va uning ishonchliligi η ko‘rsatgichlarga erishishi hisoblanadi. Bunday tizimlarning X_i^* larni tanib olishda ε va η larni qanoatlantirishini belgilovchi asosiy faktorlardan biri - bu oldindan berilgan T_{nml} (n-x_{jk} lar soni, m-T_{nml} lar soni, l-K_q sinflar soni) ETning hajmi hisoblanadi. Shuning uchun T_{nml} ning hajmini hisobga olib, x_{jk} lar orasidan har bir $K_q \in T_{nml}$ ga xos bo‘lgan x_{jk} larni tanlash, ularga mos $F(X)$ hal qiluvchi qoidalarni qurish va ular yordamida T_{nm^1} nazorat tanlovdagi yangi

X_i^* larni $K_q(q=\overline{1,l})$ larning qaysi biriga tegishli ekanligini aniqlashda turli usullar va algoritmlardan [4-7] foydalaniladi.

Talab etiladi. $X_\gamma \in V$ $\left(\gamma=\overline{1,m}\right)$ obyektlar to‘plami $V=V_1,...,V_l$ ET shaklida berilganda va undagi $V_1,...,V_l$ sinflar bir-biri bilan obyektlarda o‘lchangan boshlang‘ich xossalar fazosida kesishganda ($\forall q \neq \forall p$ uchun $V_q \bigcap V_p \neq \phi$), ya’ni turli V_q va V_p sinflarda joylashgan $X_\gamma \in V_q$ $\left(\gamma=\overline{1,m_q}\right)$ va $X_\gamma \in V_p$ $\left(\gamma=\overline{1,m_p}\right)$ obyektlar orasida bir-biriga o‘xshashlari mavjud bo‘lganda, har bir $V_q=\forall V_j$ sinfni boshqa V_p sinflardan xatoli ajratuvchi belgilar nabori orasidan o‘dindan berilgan ν xatolik qiymatni qanoatlantiruvchi W_i^z klassifikatorlar naborini tanlab olish va ularga mos R_i^z hal qiluvchi qoidalarni qurish xamda ularning yangi obyektlarni tanib olishda $(\nu+\varepsilon)$ hatolikni va uning η ishonchlilikni ta’minlashishini baholashdan iborat.

Masalani yechish uslubi. Aytaylik V va V^* tanlovlarda $x_i(i=\overline{1,n})$ berilgan bo‘lsin. Har bir x_i qiymat mantiqli yoki sonli bo‘lishi mumkin.

Ta’kidlaymizki, V tanlovdagi $V_1,...,V_l$ sinflar kesishganda, ya’ni $\forall q \neq \forall p$ bo‘lganda $V_q \in V$ va $V_p \in V$ sinflar uchun $V_q \bigcap V_p \neq \phi$ bo‘lganda V dagi $x_i(i=\overline{1,n})$ lardan quriladigan $R_q(X)$ hal qiluvchi qoidalar uchun [7, 8] ishlarda nazariy natijalar olingan. Ulardan biri ta’kidlaydiki, agar n o‘lchovli binar $x_i(i=\overline{1,n})$ belgilar fazosida qurilgan $R_q(X)$ qoida $X_\gamma \in V_q$larni $X_\gamma \in V_p$lardan ajratishda ν xatolikga yo‘l qo‘ysa, u holda $(1-\eta)$ ishonchlilik bilan tasdiqlash mumkinki $R_q(X)$ yordamida yangi $X_\gamma^*(\gamma=\overline{1,m^*})$ tanib olishda hatolik ehtimoli $(\nu+\varepsilon)$dan oshmaydi, bunda

$$\varepsilon=\sqrt{(\ln N-\ln\eta)/2m}. \quad (1)$$

Bu yerda N - ETdagi mumkin bo‘lgan barcha $R_q(X)$ hal qiluvchi qoidalar to‘plami, η - ishonchlilik, m - ETdagi obyektlar soni.

(1)ning mazmuni shundan iboratki, obyektlarni tanib olishda xatolik ehtimolini kamaytirish uchun belgilar fazosining o‘lchamini kamaytirish yoki ETdagi obyektlar sonini ko‘paytirish talab etiladi.

Agar (1) da m, n oldindan berilgan va ν, ε, η oldindan berilgan bo‘lsa, u holda $n_0$ning qiymatini aniqlash mumkin. Buning uchun (1) dan

$$ln\, N=(\nu+\varepsilon^2\,)2m+ln\,\eta \quad (2)$$

hosil qilinadi.

Agar V tanlovdan belgilarni tanlab olishning tavakalligi va bog‘liqmasligini e’tiborga olsak, u holda uni o‘rganish jarayonida n ta boshlang‘ich x_i xossalardan tanlab olinadigan belgilar soni ixtiyoriy n_0 ta belgini tanlab olish bilan to‘xtashi mumkin. Agar W_i^z klassifikator V tanlovda har bir $V_q=\forall V_j$ sinfdagi $X_\gamma \in V_q$larni V_q sinfdagi $X_\gamma \in V_p$lardan ajratishda ν xatolikga yo‘l qo‘ysa va W_i^z klassifikator tarkibiga kiruvchi n_0 ta $x_i(i=\overline{1,n_0})$ xossalar boshlang‘ich n ta $x_i(i=\overline{1,n})$ xossalardan m ta $Z_j=\forall X_j$ tayanch obyektlar asosida hosil qilingan bo‘lsa, u hosil qilinadigan barcha $R_q(X)$lar soni N dan oshmaydi, bunda

$$N=m2^{n_0}C_n^{n_0}. \quad (3)$$

(3)ni logarifmlaymiz

$$\ln N = \ln m + \ln 2^{n_0} + \ln C_n^{n_0}. \quad (4)$$

Agarda $C_n^{n_0} \le n^{n_0}$ hisobga olsak, u holda (4)dan

$$\ln N = \ln m + n_0 \ln 2 + n_0 \ln n = \ln m + n_0(\ln 2 + \ln n) \quad (5)$$

hosil qilamiz. (5)ni (2)ga qo‘yib n_0 ning aniq qiymati

$$n_0 \le ((\nu + \varepsilon^2)2m + \ln \eta - \ln m)/(\ln 2 + \ln n) \quad (6)$$

aniqlanadi.

m, n, η qiymatlarni tayinlab, ν va ε qiymatlarni oshirib (6) yordamida n_0 qiymatini o‘zgarish dinamikasini 1-jadval ko‘rinishda tasvirlash mumkin.

1-jadval. n_0 qiymatini o‘zgarish dinamikasi.

$m = 500; n = 100; \eta = 0{,}95$										
ν	0,01	0,02	0,03	0,04	0,05	0,06	0,07	0,08	0,09	0,1
ε	0,01	0,02	0,03	0,04	0,05	0,06	0,07	0,08	0,09	0,1
n_0	1	3	5	7	9	11	13	15	17	19

1-jadvaldan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- m, n, η qiymatlar tayinlanganda ν va ε qiymatlarning oshishi n_0 qiymatining oshishiga olib keladi;

- ν, ε va η larning berilgan qiymatlarida n_0 qiymatini kamaytirish uchun m qiymatini oshirish yoki n qimatini kamaytirish talab etiladi.

2-jadval. n_0 qiymatini o‘zgarish dinamikasi.

$\eta = 0{,}95$										
m	300	400	500	600	700	800	900	1000	1200	1400
n	10	15	50	100	150	200	250	300	350	400
ν	0,01	0,02	0,03	0,04	0,05	0,06	0,07	0,08	0,09	0,1
ε	0,01	0,02	0,03	0,04	0,05	0,06	0,07	0,08	0,09	0,1
n_0	1	3	5	8	11	16	20	26	35	45

2-jadvaldan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- η qiymat tayinlanganda m, n, ν va ε qiymatlarning oshishi n_0 qiymatining oshishiga olib keladi;

- $\eta = 0{,}95$, ν=0.01, ε=0.01 qiymatlar tayinlanganda ETdan tanlab olinadigan bitta (n_0 =1) belgidan iborat klassifikator bilan obyektlarni tanib olish uchun obyektlar soni m=300 bo‘lganda belgilar soni n=10 dan kam bo‘lmasligi talab etiladi.

3-jadval. n_0 qiymatini o‘zgarish dinamikasi.

$\nu = 0.1; \varepsilon = 0.1; \eta = 0{,}90.$										
m	300	400	500	600	700	800	900	1000	1200	1400
n	20	40	50	100	150	200	250	300	350	400
n_0	16	19	22	24	26	28	31	33	39	45

3-jadvaldan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- $\nu = 0.1; \varepsilon = 0.1; \eta = 0{,}90$ qiymatlar tayinlanganda m va n qiymatlarning oshishi n_0 qiymatining oshishiga olib keladi;

- $\nu = 0.1; \varepsilon = 0.1; \eta = 0{,}90$ qiymatlar tayinlanganda n_0 ning qiymatini kamaytirish uchun m va n larning qimatini kamaytirish talab etiladi.

Shunday qilib, X_γ obyektlarni tanib olish masalasida doimo belgilar fazosining o‘lchamini n_0 ni kamaytirish va $R_q(X)$ hal qiluvchi qoidalar sinfi N ni qisqartirish, ya’ni

oddiylikka intilish zarur. Shuning uchun V ETdagi $X_\gamma \in V$ obyektlarni o‘rganish jarayonida har bir $V_q = \forall V_j$ sinf uchun n_0 ta $x_i (i = \overline{1, n_0})$ xossalardan iborat shunday W_i^Z klassifikatorlarni hosil qilish kerakki, ushbu har bir W_i^Z klassifikatorga mos qurilgan $R_q(X)$ hal qiluvchi qoida har bir $V_q = \forall V_j$ sinfdagi obyektlarni boshqa $V_p \in V$ sinfdagi obyektlardan oddiy ajratsin va yangi $X_\gamma^* (\gamma = \overline{1, m^*})$ obyektlarni tanib olishda berilgan $(\nu + \varepsilon)$ xatolik va uning sodir etilish ichonchliligi η ni ta’minlashga erishsin.

Aytaylik, $x_i (i = \overline{1, n})$ boshlang‘ich xossalardan (6)ni hisobga olib $\Omega_A = \{\Omega : |\Omega| = n_0\} = C_n^{n_0}$ tayanch to‘plamlar tizimi qurilgan bo‘lsin. Ushbu to‘plamni quyidagi ko‘rinishda tasvirlash mumkin:

$$\Omega_A = \{I_1 =< x_{1_1}, ..., x_{1_{n_0}} >, ..., I_\lambda =< x_{\lambda_1}, ..., x_{\lambda_{n_0}} >\}, \qquad (7)$$

bu erda $\lambda = C_n^{n_0}$.

Faraz qilaylik (7) dan qandaydir tayanch to‘plam $I_k \in \Omega_A$ berilgan bo‘lsin va unda tayanch obyekt $Z_k^q = z_{k1}^q, z_{k2}^q, ..., z_{kn_0}^q$, $Z_k^q \in V_q$ va ushbu Z_k^q tayanch obyektni boshqa $X_\gamma \in V (\gamma = \overline{1, m}; \gamma \neq k)$ obyektlar bilan taqqoslash qoidalar tizimi $d_1^k, d_2^k, ..., d_{n_0}^k$ tayinlangan bo‘lsin.

Taqqoslash qoidalar tizimi $d_1^k, d_2^k, ..., d_{n_0}^k$ sifatida

$$\mathrm{d_i^k}(Z_k^q, X_\gamma) = \begin{cases} 1, \ agar \ z_{ki} = x_{ki} \\ 0, \ boshqa \ holda \end{cases} \qquad (8)$$

yoki

$$\mathrm{d_i^k}(Z_k^q, X_\gamma) = \begin{cases} 1, \ agar \ |z_{ki} - x_{ki}| \le \delta_i \\ 0, \ boshqa \ holda \end{cases}, \qquad (9)$$

bu erda δ_i - olgindan berilgan yoki aniqlanadigan chegaraviy qiymat.

Aniqlangan n_0 fazoda $I_k \in \Omega_A$ tayanch to‘plamni va $d_1^k, d_2^k, ..., d_{n_0}^k$ taqqoslash qoidalarining $W_k^Z = \underset{\mathrm{i}=1}{\overset{n_0}{\wedge}} \mathrm{d_i^k}(Z_k^q, X_\gamma)$ qaraymiz. Agar $Z_k^q \in V_q$ tayanch obyekt va $X_\gamma \in V$ obyektlar uchun

$$[((\exists Z_k^q \in V_q) \wedge (\forall X_\gamma \in V_q) : W_k^Z = 1) \wedge ((\exists Z_k^q \in V_q) \wedge (\forall X_\gamma \in V_p) : W_k^Z = 0)] = 1 \qquad (10)$$

yoki

$$[((\exists Z_k^q \in V_q) \wedge (\forall X_\gamma \in V_q) : W_k^Z = 1) \wedge ((\exists Z_k^q \in V_q) \wedge (\exists X_\gamma \in V_p) : W_k^Z = 0)] = 1 \qquad (11)$$

yoki

$$[((\exists Z_k^q \in V_q) \wedge (\exists X_\gamma \in V_q) : W_k^Z = 1) \wedge ((\exists Z_k^q \in V_q) \wedge (\forall X_\gamma \in V_p) : W_k^Z = 0)] = 1 \qquad (12)$$

bajarilsa, u holda W_k^Z klassifikator V_q sinfga xos klassifikator hisoblanadi.

Agar W_k^Z klassifikator uchun (10) bajarilsa, u holda W_k^Z klassifikator V_q sinfga xos birinchi tipli $W_{qk}^{(1)Z}$, agarda (11) bajarilsa, u holda ikkinchi tipli $W_{qk}^{(2)Z}$, agarda (12) bajarilsa, u holda $W_{qk}^{(3)Z}$ uchinchi tipli klassifikator deyiladi.

Endi $\exists Z_k^q \in V_q$ va $\exists X_\gamma \in V$ obyektlar uchun

$$W_k^Z = \bigwedge_{i=1}^{n_0} d_i^k(Z_k^q, X_\gamma) = 1 \quad (13)$$

shartni qanoatlantiruvchi obyektlar to‘plamostini U_1^k yordamida va

$$W_k^Z = \bigwedge_{i=1}^{n_0} d_i^k(Z_k^q, X_\gamma) = 0 \quad (14)$$

shartni qanoatlantiruvchi obyektlar to‘plamostini U_2^k - yordamida belgilasak, u holda (10)-(12) munosabatlarga mos ravishda quyidagilar o‘rinli bo‘ladi:

$$(V_q \subseteq U_1^k) \wedge (U_1^k \cap V_p = \phi) \wedge (V_p \subseteq U_2^k) \wedge (U_2^k \cap V_q = \phi) = 1, \quad (15)$$

yoki

$$(V_q \subset U_1^k) \wedge (U_1^k \cap V_p \neq \phi) \wedge (U_2^k \subset V_p) \wedge (U_2^k \cap V_q = \phi) = 1, \quad (16)$$

yoki

$$(U_1^k \subset V_q) \wedge (U_1^k \cap V_p \neq \phi) \wedge (V_p \subset U_2^k) \wedge (U_2^k \cap V_q \neq \phi) = 1. \quad (17)$$

(15)-(17) munosabatlardan ko‘rinadiki, agar W_k^Z klassifikator yordamida hosil bo‘lgan U_1^k va U_2^k to‘plamostilari uchun (15) bajarilsa, u holda W_k^Z klassifikator V_q sinfga xos birinchi tipli $W_{qk}^{(1)Z}$, agarda (16) bajarilsa, u holda ikkinchi tipli $W_{qk}^{(2)Z}$, agarda (17) bajarilsa, u holda $W_{qk}^{(3)Z}$ uchinchi tipli klassifikator hisoblanadi.

Keltirilgan protseduralarda $W_{qk}^{(t)Z} \in W_q^{(t)}$ klassifikatorlarni hal qiluvchi qoidalar yordamida yangi $X_\gamma^* \in V^*$ obyektlarni tanib olishda kompyuterda bajariladigan hisoblashlar hajmining keskin qisqarishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

6. Вапник В.Н., Червоненкис А.Я. Теория распознавания образов (статистические проблемы обучения). - М.: Наука, 1974.-415 с.

7. Vapnik, V.N., Complete Statistical Theory of Learning. ISSN 0005-1179, Automation and Remote Control, 2019, Vol. 80, No. 11, pp. 1949–1975. Pleiades Publishing, Ltd., 2019. Russian Text. The Author(s), 2019, published in Avtomatika i Telemekhanika, 2019, No. 11, pp. 24–58.

8. Vasil'yev, V.I., Bekmuratov, K.A., Ovsyannikova, F.P. Use of poly-attributes in training problems for pattern recognition by the method of limiting simplifications. Volume 22, Issue 2, March 1989, Pages 11-16.

9. Sh Fazilov, N Mamatov. Formation an informative description of recognizable objects. AMSD 2018. IOP Conf. Series: Journal of Physics: Conf. Series.1210 (2019) 012043. IOP Publishing. doi:10.1088/1742-6596/1210/1/012043.

10. Bekmuratov D.Q., Axrorov M., Axmedov O. Development of the algorithm and the software for recognition of manual letters submitted by in the case of the screen. IJARSET. (International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology). India. A Monthly Peer Reviewed Online Journal Vol. 5, Issue 3, March, 2018. ISSN: 2350-0328. (Impact factor 4.36).

11. Бекмуратов Д.К. Разработка алгоритм формирование системы опорных множеств признаков, обеспечивающих качество и надежность распознавания. «Проблемы вычислительной и прикладной математики». Научный журнал, часть 5, №5, 2017г.ТУИТ, Ташкент. (ISSN: 2181-8460). 74-79ст.

12. K. A. Bekmuratov, D. K. Bekmuratov and A. R. Akhatov, "Synthesis of feature spaces ensuring the quality and reliability of recognition," 2019 Dynamics of Systems, Mechanisms and Machines (Dynamics), Omsk, Russia, 2019, pp. 1-5. ISSN: 2381-7593. DOI: 10.1109/Dynamics47113.2019.8944721.

СЕГМЕНТАЦИЯ ИЗОБРАЖЕНИЯ НА ОСНОВЕ АЛГОРИТМА WATERSHED

Каршиев З.А.[1], Саттаров М.А.[1], Келдибеков И.[1]
[1]Самаркандский филиал Ташкентского университета информационных технологии имени Мухаммада ал-Хоразмий, Самарканд, Узбекистан
mirzabeks@gmail.com

Аннотация: *Сегментация изображений является одним из этапов решений различных задач анализа изображений. Например, при анализе медицинских изображений сегментация используется выделении опухолей и других патологий, определение объемов тканей, при решении задач хирургии с использованием компьютера, изучение анатомической структуры.*

Ключевые слова: *алгоритм, сегментация, изображения, WaterShed, FloodFill, k-means.*

В компьютерном зрении под процессом сегментации изображений понимается разбиение изображения на множество покрывающих его областей.

Чаще всего, в анализе изображений сегментация относится к этапу предобработки изображения с целью упрощения последующего анализа выделенных фрагментов.

Сегментацию изображений можно рассматривать и как один из этапов решения задач анализа изображений. Например, при анализе медицинских изображений сегментация используется для выделения опухолей и других патологий, определение объемов тканей, при решении задач хирургии с использованием компьютера, изучение анатомической структуры. В других областях науки и техники сегментация может применяться при выделении объектов на спутниковых снимках, при распознавании лиц, в системах контроля и управления дорожным движением.

Наиболее распространёнными алгоритмами сегментации изображений являются:

- WaterShed (алгоритм сегментации «по водоразделам»),
- пороговая сегментация,
- FloodFill (алгоритм сегментации «наводнением»),
- сегментация на основе k-means.

Проанализируем принципы действия данных алгоритмов и сформируем пути по улучшению алгоритмов сегментации.

Сначала рассмотрим принципы работы алгоритма сегментации WaterShed (сегментация «по водоразделам»). Пример работы данного алгоритма сегментации изображения представлен на рисунке 1.

а)

б)

Рисунок 1. – Пример удовлетворительно сегментации изображения с использованием алгоритма водораздела: а – исходное изображение, б – результат сегментации.

Алгоритм работает с изображением как с функцией от двух переменных $z = f(x, y)$, где x, y – координаты пикселя.

Значением функции может быть интенсивность или модуль градиента. Для наибольшего контраста можно взять градиент от изображения. Если по оси Z откладывать абсолютное значение градиента, то в местах перепада интенсивности образуются хребты, а в однородных регионах – равнины. После нахождения минимумов функции *f*, идет процесс заполнения “водой”, который начинается с глобального минимума. Как только уровень воды достигает значения очередного локального минимума, начинается его заполнение водой. Когда два региона начинают сливаться, строится перегородка, чтобы предотвратить объединение областей [2]. Вода продолжит подниматься до тех пор, пока регионы не будут отделяться только искусственно построенными перегородками (рисунок 2).



Рисунок 2 – Получение сегментов изображения на примере одного из резов изображения (по оси *x*)

Такой алгоритм может быть полезным, если на изображении небольшое число локальных минимумов, в случае же их большого количества возникает избыточное разбиение на сегменты. Например, если непосредственно применить алгоритм к рис. 3 (а), получим много мелких деталей рис. 3 (б).

а)

б)



Рисунок 3 – Пример неудовлетворительной сегментации изображения с использованием алгоритма водораздела: а – исходное изображение, б – результат сегментации (большое количество избыточных сегментов).

В результате работы алгоритма мы получаем маску с сегментированным изображением, где пиксели одного сегмента помечены одинаковой меткой и образуют связную область. Основным недостатком данного алгоритма является использование процедуры предварительной обработки для картинок с большим количеством локальных минимумов (изображения со сложной текстурой и с обилием различных цветов).

Список литературы

1. Filipczuk P. Automatic Breast Cancer Diagnosis Based on K-Means Clustering and Adaptive Thresholding Hybrid Segmentation [Text] / Paweł Filipczuk, Marek Kowal, Andrzej Obuchowicz // Image Processing and Communications Challenges 3 – Advances in Intelligent and Soft Computing – Springer-Verlag Berlin Heidelberg 2011. – pp. 295-302

2. Tian Y. An Adaptive Threshold Algorithm for Moving Object Segmentation [Text] / Yumin Tian, Dan Wang, Risan Lin, Qichao Chen // CCF Chinese Conference, CCCV 2015,

Xi'an, China, September 18-20, 2015, Proceedings, Part I – CCCV 2015: Computer Vision. – Springer-Verlag Berlin Heidelberg 2015. – pp. 230-239

COMPARATIVE ANALYSIS OF IMAGE SEGMENTATION ALGORITHMS

Hamiyev A.T.[1], *Saidov M.M.*[1]
[1]Samarkand branch of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorazmi, Samarkand, Uzbekistan
hamiyev91@gmail.com, saidovmurodjon2@gmail.com

Abstract: *Image segmentation is a crucial task in computer vision with numerous applications ranging from medical image analysis to autonomous driving. In this article, we conduct a comparative analysis of various image segmentation algorithms including Convolutional Neural Networks (CNNs), Mask R-CNN, U-Net, FCN (Fully Convolutional Network), DeepLab, Graph-Cut Algorithms, and Mean-Shift Algorithm. We evaluate these algorithms based on their performance metrics, computational efficiency, and applicability in different scenarios. This comparative analysis provides insights into the strengths and weaknesses of each algorithm, aiding researchers and practitioners in selecting the most suitable approach for their specific tasks.*

Keywords: *Image segmentation, Convolutional Neural Networks, Mask R-CNN, U-Net, FCN, DeepLab, Graph-Cut Algorithms, Mean-Shift Algorithm.*

Introduction: Image segmentation plays a fundamental role in various computer vision tasks by partitioning an image into multiple segments to simplify its representation and facilitate understanding. It is widely used in medical imaging, object detection, scene understanding, and many other applications. Over the years, numerous algorithms have been proposed to address the challenge of image segmentation, each with its unique approach and characteristics. In this article, we present a comparative analysis of several prominent image segmentation algorithms, including Convolutional Neural Networks (CNNs), Mask R-CNN, U-Net, FCN (Fully Convolutional Network), DeepLab, Graph-Cut Algorithms, and Mean-Shift Algorithm. By examining these algorithms comprehensively, we aim to provide a comprehensive understanding of their capabilities, limitations, and suitability for different tasks.

Convolutional Neural Networks (CNNs) are a class of deep neural networks primarily used in the field of computer vision, although they have applications in other domains such as natural language processing and audio analysis. CNNs are specifically designed to process and analyze visual data, making them highly effective in tasks such as image classification, object detection, and image segmentation[1].



Figure 1. *Steps for accurate bird detection using CNN.*

The key concept behind CNNs is the use of convolutional layers, which apply convolution operations to input data. These convolutional layers consist of filters (also referred to as kernels) that slide over the input image, performing element-wise multiplication with the local regions and then summing the results to produce feature maps. These feature maps capture various patterns and features present in the input image, such as edges, textures, or higher-level structures.

CNN architectures typically include multiple layers, including convolutional layers, pooling layers, and fully connected layers. Pooling layers, such as max pooling or average pooling, are used to reduce the spatial dimensions of the feature maps, helping to decrease computational complexity and control overfitting[1]. Fully connected layers are typically added at the end of the network to perform high-level reasoning and decision-making based on the extracted features.

Purpose of choosing the algorithm: CNN is widely used for tasks such as image classification, object detection and segmentation. They automatically learn features from input images through convolutional layers.

Advantages of the algorithm: CNNs can learn complex patterns and hierarchies of features, which makes them effective for a wide range of computer vision tasks. They are capable of processing large amounts of data and are robust to changes in input.

Disadvantages of the algorithm: They can be computationally intensive and require large amounts of data for training. If not properly regulated, they can also suffer from overfitting.

Mask R-CNN (Region-based Convolutional Neural Network) is a deep learning model used for instance segmentation tasks in computer vision. It is an extension of the Faster R-CNN architecture, which combines object detection and instance segmentation. Developed by Kaiming He, Georgia Gkioxari, Piotr Dollár, and Ross Girshick at Facebook AI Research (FAIR), Mask R-CNN extends Faster R-CNN by adding a branch for predicting segmentation masks on each Region of Interest (RoI), alongside the existing branches for classification and bounding box regression[2].



Figure 2. *Steps of accurate image detection using Mask R-CNN.*

The Mask R-CNN architecture consists of the following main components: *Region Proposal Network (RPN),RoIAlign, Mask Branch and Training.*

The model is trained end-to-end with a multi-task loss function, which combines losses for classification, bounding box regression, and mask prediction. This allows the model to learn to predict object classes, refine bounding boxes, and segment object instances simultaneously.

Mask R-CNN has been widely adopted for various tasks such as instance segmentation, object detection, and keypoint detection. It has demonstrated state-of-the-art performance on benchmark datasets like COCO (Common Objects in Context) and has been employed in applications including autonomous driving, medical image analysis, and robotics.

Purpose of Algorithm Selection: Mask R-CNN is an extension of Faster R-CNN, used for object detection and instance segmentation. It provides pixel-level segmentation masks for each object in an image.

Advantages of the algorithm: It achieves state-of-the-art results in instance segmentation tasks, providing precise pixel-level segmentation masks.

U-Net is a convolutional neural network architecture designed for biomedical image segmentation tasks, particularly for tasks where the input and output have a spatial correspondence, such as cell segmentation in microscopy images or medical image segmentation tasks like MRI or CT scans[3]. It was introduced by Olaf Ronneberger, Philipp Fischer, and Thomas Brox in 2015.



Figure 3.*U-Net: A process for biomedical image segmentation.*

The U-Net architecture consists of the following main components: Conventional path (encoder), Advanced path (decoder), missing links and final layer.

U-Net has become a popular architecture for various image segmentation tasks beyond biomedical imaging due to its efficiency in managing the spatial correspondence between input and output. Its ability to produce accurate segmentation masks using relatively fewer training samples compared to other architectures has led to its widespread use in research and practical applications. *Purpose of Algorithm Selection:* U-Net is primarily used for biomedical image segmentation tasks where there's a need for precise delineation of structures like cells or organs.

The importance of the following algorithms in image segmentation is also high.

FCN (Fully Convolutional Network): FCN is designed for semantic segmentation tasks where pixel-level classification is required.

DeepLab: DeepLab is a series of CNN architectures designed for semantic image segmentation, with particular emphasis on capturing object boundaries accurately.

Graph-Cut Algorithms: Graph-Cut Algorithms are used for image segmentation by modeling the image as a graph and partitioning it into regions based on certain criteria such as color or texture similarity.

Mean-Shift Algorithms: Mean-Shift Algorithms are used for clustering and image segmentation tasks by iteratively shifting data points towards the mode of the data distribution.

Conclusion: In conclusion, image segmentation is a vital task in computer vision with numerous algorithms catering to different requirements and scenarios. In this comparative analysis, we have examined various segmentation algorithms, including Convolutional Neural Networks (CNNs), Mask R-CNN, U-Net, FCN, DeepLab, Graph-Cut Algorithms, and Mean-Shift Algorithm. Each algorithm has its strengths and weaknesses, and the choice of algorithm depends on factors such as the nature of the task, dataset characteristics, computational resources, and performance requirements. By understanding the nuances of these algorithms, researchers and practitioners can make informed decisions when selecting the most appropriate approach for their specific image segmentation tasks.

Reference

1. "ImageNet Classification with Deep Convolutional Neural Networks" by Alex Krizhevsky, Ilya Sutskever, and Geoffrey Hinton (2012).

2. "Mask R-CNN" by Kaiming He, Georgia Gkioxari, Piotr Dollár, and Ross Girshick (2017).

3. "U-Net: Convolutional Networks for Biomedical Image Segmentation" by Olaf Ronneberger, Philipp Fischer, and Thomas Brox (2015).

SAN’AT SOHASIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Kurbanova Aziza Tolibovna[1]
[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent, Toshkent, O‘zbekiston
kurbanovaaziza@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’limda zamonaviy media-ta’lim texnologiyalarida Sun’iy intellektning o‘rni haqida umumiy ma’lumot berilgan. San’at va madaniyat sohasida Sun’y intelektdan foydalanish va ularni sohada qo‘llash malakasi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intelekt, san’at, ssenariy, personaj, animatsiya, UzbekToon.*

Butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham zamonaviy ta‘limni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanmasdan tasavvur etib bo‘lmaydi. Sun’iy intellekt (SI) ta’lim jarayonini o‘zgartirishda, ayniqsa, media-ta’lim sohasida muhim rol o‘ynaydi.

Oliy ta’limdagi san’atdagi sun’iy intellekt talabalar va o‘qituvchilar uchun o‘ziga xos imkoniyatlar yaratadi. Dastlab, SI o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, o‘quv materiallarini har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirish uchun ishlatiladi. Bu materialni yanada samarali o‘rganishga va o‘quv samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, san‘at sohasidagi SI virtual va to‘ldirilgan reallik ilovalari, ta’lim chatbotlari va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari kabi innovatsion ta’lim mazmunini yaratishga imkon beradi. Bu texnologiyalar nafaqat o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va qulay qiladi, balki o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga ham hissa qo‘shadi.

Sun’iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi.Sun’iy intellekt (SI) kompyuterlarga o‘zlarining tajribalarini o‘rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo‘lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. SIni amalga oshirishning ko‘p holatlarida – kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha – chuqur o‘rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma’lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o‘rgatish" mumkin[1].

"Sun’iy intellekt" bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi - bu miya ishini tushunishga intilish, inson ongining sirlarini ochish va inson aqlining ma’lum darajasiga ega mashinalar yaratish muammosi. Intellektual jarayonlarni modellashtirishning asosiy imkoniyati shundan kelib chiqadiki, miyaning har qanday funksiyasi, cheklangan miqdordagi so‘zlardan foydalangan holda qat’iy bir ma’noli semantikaga ega tilda tasvirlangan har qanday aqliy faoliyat printsipial ravishda elektron raqamli kompyuterga o‘tkazilishi mumkin[2].

Sun’iy intellekt O‘zbekistonda zamonaviy media-ta’lim va raqamli texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirishda, ta’limni shaxsiylashtirish, innovatsion kontent yaratish va ma’lumotlar tahliliga katta hissa qo‘shmoqda. Shu bilan birga, SIni ta’lim jarayoniga joriy qilishda axloqiy jihatlarni hisobga olish va ma’lumotlar xavfsizligini ta‘minlash lozim.

San’at ham zamonaviy dunyoda jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda va O‘zbekiston ham bu o‘zgarishlardan chetda qolmadi. Sun’iy intellekt (SI) va raqamli texnologiyalar san’at ta’limi jarayonida muhim o‘rin tutib, o‘qituvchilar va talabalar uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

O‘zbekiston ta’lim sohasida boy tarixga ega. Mamlakatda ko‘plab oliy o‘quv yurtlari, jumladan, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti faoliyat yuritadi. Ushbu muassasalar media ta‘limni faol rivojlantiradi va talabalarga zamonaviy resurslar va o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etadi.

San’at ta’limida ko‘plab jarayonlarni avtomatlashtirishda Sun’iy intellekt muhim rol o‘ynaydi. U katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda yordam berishi mumkin,

bu media kontentni yaratishda ayniqsa muhimdir. Misol uchun, Sun’iy intellektdan matn sharhlari va videolardagi sharhlarni tahlil qilishda foydalanish mumkin, bu esa o‘qituvchilarga va talabalarga o‘z ishlariga tinglovchilarning(muxlislarning) munosabatini tushunishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt shaxsiylashtirilgan o‘quv materiallarini yaratishga ham imkon beradi. Unda har bir talabaning bilim darajasi va ehtiyojlari tahlil qilinadi, so‘ngra individual tavsiya va topshiriqlar beriladi. Bu yanada samarali o‘rganishga yordam beradi va individual talabaga mos keladigan sur’atda o‘qish imkonini beradi.

Virtual va kengaytirilgan reallik - media ta‘limda SI muhim rol o‘ynaydigan yana bir sohadir. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini amalda qo‘llashlari mumkin bo‘lgan interfaol ta’lim muhitiga kirishlari mumkin. Ushbu kontekstda SI avtonom virtual o‘qituvchilar va san‘atda o‘rganish stsenariylarini yaratishi mumkin. Filmlar va multfilmlar uchun yaxshi ssenariy yaratish muhim. Yaxshi skriptlarni yaratish uchun siz zamonaviy axborot texnologiyalarini bilishingiz kerak.

Hozirgi kunda butub dunyo foydalanuvchilari tomonidan yaxshi qabul qilingan, san’at sohasida qo‘llaniladigan bir qancha sun’iy intelektlar mavjud. Bu Sun’iy intelektlar (Midjourney, Adobe va h.k.) yordamida tayyor videolarni tahrirlash mumkin. SI yordamida kontentlarning raskadirovka, musiqiy asarlar yaratish (bastalash), musiqalarni aranjirovka qilish jarayonini ham amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari videolarga murakkab effektlarni ham yaratib bera oladi.

Sun’iy intelekt yordamida multifilmlar uchun ssenariylar ham yaratish mumkin. Shu ssenariy asosida personajlarni va jarayon manzaralarining tasvirini hosil qilib beradi. Yaratilgan ssenariyga asosan qisqa animasiyasini tayyorlash imkoniyati ham mavjud.

"Uzbek Toon" - Sun’iy intellekt yordamida o‘zbek milliy multfilmlarini yaratuvchi innovatsion startap. BU o‘zbek madaniyatining boy merosi, ertak va an‘analarini dunyo bo‘ylab tomoshabinlar uchun ochiq bo‘ladigan qiziqarli va rang-barang multfilmlar orqali hayotga tatbiq etishga intiladi.

U qanday ishlaydi:

Sun’iy intellektga asoslangan ijodiy jarayon: Ular O‘zbekistonning boy madaniy merosi asosida original ssenariylar, personajlar va olamlarni yaratish uchun ilg‘or Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanadilar. Ularni noyob yaratish uchun SI tarixiy voqealar, afsonalar, urf-odatlar va estetikani hisobga oladi.

Sifat va ijodkorlik: Ular nafaqat asrab-avaylash, balki o‘ziga xos g‘oyalar orqali madaniy merosni kengaytirishga intilishadi. SI tomonidan yaratilgan ssenariylar diqqat bilan tanlanadi va yuqori sifatli va qiziqarli kontent uchun tahrirlanadi.

Afzalliklari:

Merosni asrab-avaylash: O‘zbek milliy ertak va hikoyalarini asrab-avaylash va ommalashtirishga hissa qo‘shadi.

Global auditoriya: Multfilmlar turli tillarda taqdim etiladi, bu bizga turli mamlakatlar va tomoshabinlarni jalb qilish imkonini beradi.

Innovatsiya: SI va yangi texnologiyalardan foydalanish betakror va ijodiy hikoyalar va qahramonlarni yaratishga imkon beradi.

Hamkorlik: Ular o‘zbek ijodkorlari bilan hamkorlikni qo‘llab-quvvatlab, taraqqiyotga hissa qo‘shadi.

Fikr-mulohaza: Ular tomoshabinlarimizning fikrlarini qadrlashadi va yangi multfilmlar yaratishda ularning fikr-mulohazalarini inobatga olishadi.

Biznes modeli:

- Kontent obunasi: Foydalanuvchilar o‘zbek multfilmlari kutubxonasiga obuna bo‘lishlari mumkin.
- Hamkorlik va litsenziyalash: kontentni tarqatish uchun televizion tarmoqlar, oqim platformalari va distribyutorlar bilan hamkorlik o‘rnatish mumkin.

- Tovarlarni sotish: Ular qo‘shimcha daromad olish uchun dunyo multfilm qahramonlari personajlarini yaratish asosida tovarlar tayyorlashlari mumkin.

Maqsad:

Ularning maqsadi o‘zbek multfilmlari orqali avlodlarni bog‘lash, madaniy ta’sirni kengaytirish, bolalar va kattalarda o‘z milliy ildizlari bilan faxrlanishni singdirishdir.

Xulosa:

“O‘zbekToon” o‘zbek madaniyati va zamonaviylik o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lib, unda innovatsion texnologiyalar va ijodkorlik uyg‘unlashib, butun dunyo bo‘ylab tomoshabinlarni zavqlantiradigan va ilhomlantiradigan qiziqarli multfilmlar yaratadi.

Yangi qiyinchiliklar ham paydo bo‘ladi. Ma’lumotlarning maxfiyligi, jihozlarning mavjudligi va o‘qituvchilarning malakasini oshirish masalalari e‘tiborni talab qiladi. Biroq, bu qiyinchiliklarga qaramay, SI va grafik dasturlarining media ta‘limdagi o‘rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu texnologiyalar san‘at va ijodiy sohalarda muvaffaqiyatli ishlay oladigan mutaxassislarning yangi avlodini tayyorlashga yordam bermoqda.

Media ta’lim darajasi zamonaviy texnologiya va ijodkorlikning kesishmasi. Sun’iy intellektning san‘at sohasidagi rolini e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Ular O‘zbekiston va butun dunyo uchun bizni o‘rganish va media-kontentni yaratish uslubimizni o‘zgartirib, ta‘limni talabalar uchun yanada qulay, samarali va qiziqarli qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Пантелеева Т.А., Арустамов Э.А., Максаев А.А. Возможности искусственного интеллекта в управлении кадровыми ресурсами в условиях свободного предпринимательства // Internet-jurnal «Отходы и ресурсы», 2019 №3.

2. https://www.tadviser.ru/index.php/Artificial_intelligence,_AI)

ТАСВИРЛАРДА ШОВҚИН ПАСАЙТИРИШ ҚОИДАСИ

Маматов Н.С.[1], Ережепов К.К.[2], Нарзуллаев И.С.[3], Жалелова М.М.[1]

[1]“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти”Миллий тадқиқот университети, Тошкент, Ўзбекистон

[2]Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ Нукус филиали, Нукус, Ўзбекистон

[3]Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети, Тошкент, Ўзбекистон

m_narzullo@mail.ru, e_keulimjay@mail.ru, jalelova97@mail.ru

Аннотация. *Мазкур мақола рақамли тасвирларда кўп учрайдиган Гаусс, туз-қалампир ва Пуассон шовқинларини аралаш ҳолатини бартараф этиш орқали тасвир сифатини ошириш масаласини ечишга бағишланган бўлиб, унда ҳар бир шовқин турини оптимал даражада пасайтирувчи ягона фильтрлар танланиб, уларни барча комбинацияларини аралаш шовқинли тасвирга қўллаш орқали тасвирларни максимал даражада сифатини ошириш амалга оширилган. Натижавий тасвирлар сифати эталонсиз сифат кўрсаткичларидан бири бўлган NIQE мезони орқали баҳоланган ва унинг қийматлари асосида тасвирларга ишлов бериш жараёнини автоматлаштириш қоидаси таклиф этилган.*

Калит сўзлар: *тасвир, қайта тиклаш, аралаш шовқин, фильтр, кетма-кетлик, Гаусс шовқини, Пуассон шовқини, тасвир сифати, кўрсаткич, NIQE, алгоритм.*

Бугунги кунда рақамли тасвирлар маълумотларни олиш, қайта ишлаш ва алмашиш жараёнидаги асосий воситалардан бири ҳисобланади. Рақамли тасвирлар бутун дунё бўйлаб ижтимоий тармоқ, электрон почта ёки онлайн платформаларда маълумотлар, ғоялар, ҳис-туйғулар ва тажрибаларни етказиш кабиларда кучли воситага айланди. Компьютерли кўриш соҳасида тасвирдаги объектларни таниб олиш аниқлигини оширишга хизмат қиладиган муҳим босқичлардан бири тасвирларга дастлабки ишлов бериш босқичи

ҳисобланади. Чунки, ушбу босқич натижалари навбатдаги босқичлар натижаларига таъсир кўрсатмай қолмайди [1-14].

Тасвирга дастлабки ишлов беришнинг асосий амалларидан бири тасвирдаги шовқинларни бартараф этиш ҳисобланади. Шовқин тасвирни олиш ёки узатиш жараёнида асл тоза тасвирга қўшилувчи исталмаган элементдир. Реал дунёда тасвир бир вақтнинг ўзида бир нечта шовқин туридан таъсирланиши мумкин. Мазкур мақолада рақамли тасвирда кўп учрайдиган Гаусс, туз-қалампир ва Пуассон шовқин турлари бир вақтда қўшилган аралаш шовқинли тасвирлар ўрганилган.

Методлар. Дастлаб n_G – Гаусс, n_S – туз-қалампир ва n_P – Пуассон шовқин комбинациясидан турли шовқинли тасвирлар ҳосил қилиб олинади. Адабиётлар атрофлича таҳлилига таяниб ҳолда ҳар бир шовқин тури учун оптимал фильтр танлаб олинди, яъни n_G – учун BM3D [15], n_S – учун медиан [16], n_P – учун TV фильтрлари танланди [17]. Бунда гибрид фильтрларни ҳосил қилиш учун қуйидагилар амалга оширилади:

F_G : BM3D фильтр, F_P : TV фильтр, F_S : Median фильтр

$$F_{GPT}: F_T\left(F_P\left(F_G\left(I_{nosiy}\right)\right)\right),\ F_{GTP}: F_P\left(F_T\left(F_G\left(I_{nosiy}\right)\right)\right),\ F_{PGT}: F_T\left(F_G\left(F_P\left(I_{nosiy}\right)\right)\right)$$
$$F_{PTG}: F_G\left(F_T\left(F_P\left(I_{nosiy}\right)\right)\right),\ F_{TGP}: F_P\left(F_G\left(F_T\left(I_{nosiy}\right)\right)\right),\ F_{TPG}: F_G\left(F_P\left(F_T\left(I_{nosiy}\right)\right)\right) \quad (1)$$

(2) асосида ҳосил қилинган тасвир сифатини баҳолаш орқали уни асл тасвирга қандай яқинлашганини баҳолаш мумкин. Бунда тасвир сифатини эталонсиз баҳоловчи NIQE кўрсаткичи B оператори сифатида танлаб олинди.

$$B\left(F\left(I_{noisy}\right)\right) < B\left(I_{org}\right) \quad (2)$$

(3) шартдан гибрид фильтрлар орасидан оптимал фильтрни аниқлашда фойдаланилади. NIQE қийматини кичик бўлиши фильтр самарадорлигини белгилайди.

Ҳисоблаш тажрибаси. Тадқиқотларда www.kaggle.com сайтида келтириб ўтилган тасвирлар базасидаги 52 та тасвир намунасидан фойдаланилган. Ушбу тасвирларга шовқинлар турли комбинацияларда қўшилиб, аралаш шовқинли тасвирлар ҳосил қилинган.

Асл тасвирга қўшилган шовқинлар кетма-кетлигига мос фильтрлар кетма-кетлигини қўллаш натижасида (2) фильтрлар ҳосил бўлади ва (3) шарт бўйича ҳар бир тасвирда текширилди ва якунда умумий тасвирлар сонидан келиб чиқиб ҳолда энг кўп (3) шартни бажарган гибрид фильтр шовқинлар кетма-кетлигига мос энг мақбул фильтр сифатида танланди.

Хулоса. Тажрибавий тадқиқотлар ва ҳисоблаш тажрибаси асосида қуйидаги хулосалар олинди:

- натижалар бўйича $F_{GPS}\left(I_{noisy}\right)$ гибрид фильтри аралаш шовқинни бартараф этишда энг мақбули деб топилди;

- NIQE кўрсаткичи қийматларига асосланган ҳолда тасвирни қайта ишлаш жараёнини автоматлаштириш учун қуйидаги қоида таклиф этилди:

1) Агар $B \in [0, 4.32]$ бўлса, у ҳолда тасвирни тўғридан-тўғри таниб олишга жараёнига ўтказиш тавсия этилади;

2) Агар $B \in (4.32, 5.07)$ бўлса, у ҳолда тасвирни таниб олишга жараёнига тўғридан-тўғри ёки тасвирга шовқин қўшиш ва ҳосил бўлган тасвирга фильтрни қўллаш орқали таниб олишга жараёнига ўтказиш тавсия этилади;

3) Агар $B \in [5.07, 8.04]$ бўлса, у ҳолда тасвирга шовқин қўшиш ва ҳосил бўлган тасвирга фильтрни қўллаш орқали таниб олишга жараёнига ўтказиш тавсия этилади;

